

Нилуфар РАСУЛОВА

ОНА ТИЛИ ВА
АДАБИЁТ ФАНИДАН
ТЕСТЛАР



UDK: 811.512.133
BBK: 81.2 O'zb – 93
R – 25

Rasulova N. «Ona tili va adabiyot fanidan testlar». / 5-9-sinflar uchun. –T.: «Yangi asr avlodи», 2011. – 156 bet.


ISBN 978-9943-08-699-9

Taqribzilar:
Tuyg'unoy NIYOZMETOVA,
filologiya fanlari nomzodi.

Hoshimjon AHMEDOV,
filologiya fanlari nomzodi.

Dono USMONOVA,
oliy toifali o'qituvchi

BBK: 81.2 O'zb – 93+74.268.3–93
UDK: 811.512.133



ISBN 978-9943-08-699-9

**© Nilufar Rasulova, «Ona tili va
adabiyoti fanidan testlar». «Yangi asr
avlodи», 2011.**

SO'ZBOSHI

Ma'lumki, O'zbekiston bir necha yillardan buyon oliy o'quv yurtlariga qabul test sinovi shaklida uyuşdırılmış. Bu tizimning afzalliklari ma'lum, abituriyentlar ichidan bilimdonlarini tanlab olishga imkon beradi. Respublikamizda test tuzish bo'yicha yetarli tajriba to'plangan.

Mazkur to'plamning boshqa test kitoblaridan farqi shundaki, undagi qamrab olingen mavzular amaldagi darsliklar mavzulari ketma-ketligiga mos. Bu esa o'quvchilar bilimini nazorat qilishga va undagi bo'shliqlarni to'ldirishga imkon yaratadi.

To'plamni tayyorlashda muallif o'quvchilarning saviyasini hisobga olgan holda mazmunan sodda, aniq va tushunarli testlar tuzgan va DTM tomonidan tayyorlangan test savollaridan foydalangan.

Umumta'lim maktablarida ona tili va adabiyot o'quvchilari "MSNI (Majburiy standart nazorat ishlari)ni o'tkazish bo'yicha tavsiyalari" (Toshkent 2006. M. Abduraimova)ga tayanadilar.

Ushbu to'plam esa o'quvchilarga tanlash imkoniyatini oshiradi va o'quvchilarning chuqur bilim olishi uchun individual yondashishga qulaylik yaratadi. Ayniqsa, o'qituvchilarga qulay va amaliy ko'mak bo'ladi degan umiddamiz.

5- SINF. ONA TILI

1-VARIANT

1. Til nima uchun ijtimoiy hodisa deyliladi?

1. Til jamiyatga xizmat qiladi.
 2. Til odamlarning o'zaro munosabatga kirishuviga, aloqa qilishiga xizmat qiladi.
 3. Til odamlarning ko'payishiga xizmat qiladi.
- A. 2 va 3. B. 2.
C. 1 va 3. D. 1 va 2.

2. Sintaksis nimani o'rgatadi?

1. So'zlarning bir-biriga bog'lanishini.
 2. Gap va uning turlarini.
 3. Nutq tovushlarini.
- A. 1. B. 3. C. 1 va 2. D. 2

3. Tinish belgilari va ularni yozma nutqda to'g'ri qo'llash yo'l-yo'riqlarini o'rgatuvchi tilshunoslik bo'limi qanday nomlanadi?

- A. Sintaksis. B. Punktuatsiya.
C. Fonetika. D. Grafika.

4. Ohang va fikr tugalligiga ega boilib, kesimlik shakllari orqali ifodalanuvchi so'z va so'zlar qo'shilmasi...

- A. Gap. B. So'z.
C. So'z birikmasi. D. Nutq.

5. So'zlarning bog'lanishi necha xil bo'ladi?

- A. 5 B. 4 C. 3
D. 2.

6. Teng bog'lanishli birikma qaysi qatorda berilgan?

A. Kitob bilan daftar.

B. Kitobni o'qimoq.

C. Suvni ichmoq.

D. Shirin xotira.

7. Chiroyli bino. Ushbu so'z birikmasidagi hokim so'z qaysi qatorda berilgan?

- A. Chiroqli. B. Bino.
C. Chiroyli bino.
D. To'g'ri javob yo'q.

8. Undalma ishtirok etgan quyidagi gaplarning qaysi birida tinish belgilari to'g'ri qo'yilgan?

- A. Xush kelibsizlar, qo'noqlar, poyqadammingizga hasonot.
B. Xush kelibsizlar qo'noqlar, poyqadammingizga hasonot.
C. Xush kelibsizlar, qo'noqlar poyqadammingizga hasonot.
D. Xush kelibsizlar qo'noqlar poyqadammingizga. hasonot.

9. Qaysi gapda egadan keyin tire qo'yilmagan?

- A. Duo olgan omondir.
B. Qarg'ish olgan yomondir.
C. Ota-onha ulug'dir.
D. Aqli qariya oqib turgan daryo.

10. Qaysi qatordagi so'roq yuklamasi kesimga qo'shib yoziladi?

- A. -chi. B. -a. C. -ya. D. -mi.

11. So'zlovchining fikri qaratilgan shaxs yoki narsalarni bildiruvchi so'z yoki so'zlar qanday nomlanadi?

- A. Qo'shma gap. B. Kirish so'z.
C. Undalma. D. Uyushiq bo'lak.

- 12.** Qaysi javobda istak gap mavjud?
- A. Do'sting quvonsa, quvon, qayg'ursa, qayg'ur.
 - B. Kerak bo'lsa, do'stingni himoya qil.
 - C. Do'sting gapirganda diqqat bilan quloq tut.
 - D. Onajonim doimo sog' bo'lsalar.
- 13.** Istak gapning oxiriga qanday belgi qo'yiladi?
- A. Nuqta (.)
 - B. Vergul (,)
 - C. Undov (!)
 - D. So'roq (?)
- 14.** Gaplar so'zlovchining his-hayajoni qo'shilishi yoki qo'shilmasligiga ko'ra nechta turga bo'linadi?
- A. 4.
 - B. 3.
 - C. 2.
 - D. To'g'ri javob yo'q.
- 15.** Gap tarkibida ma'lum so'roqqa javob bo'luvchi mustaqil so'z yoki so'zlar birikmasi...
- A. Gap.
 - B. Gap bo'laklari.
 - C. Nutq.
 - D. Matn.
- 16.** Boshqa bo'laklarsiz gap bo'la oladigan bo'lak
- A. Kesim.
 - B. To'ldiruvchi.
 - C. Aniqlovchi.
 - D. Ega.
- 17.** Qaysi javobda ot-kesimli gap mavjud?
- A. Ko'z – qo'rkoq, qo'l – botir.
 - B. Do'st achitib gapiradi.
 - C. Elidan ayrilan o'lguncha yig'lar.
 - D. Qushlar sayraydi.
- 18.** Qaysi qatorda holning so'roqlari mavjud?
- A. Kim? Nima?
- 19.** Qaysi qatorda sodda yig'iq gap berilgan?
- A. Men onamga yordamchi.
 - B. O'lkamiz tarixini bilasizmi?
 - C. Dada, albatta, o'qiymen!
 - D. Mening oyim – shifokor.
- 20.** Qaysi qatorda to'ldiruvchining so'roqlari berilgan?
- A. Kimning, nimaning, qanday.
 - B. Kimga, nimaga, kimda, nimada.
 - C. Qayerga, qayerda, qachon.
 - D. Kim, nima, qayer.
- 21.** **Saqlay desang o'zingni, yomon-dan yum ko'zingni.** Gapdagi to'ldiruvchilarni aniqlang.
- A. O'zingni, ko'zingni.
 - B. Saqlay desang.
 - C. Yomondan yum.
 - D. Yomondan, o'zingni, ko'zingni.
- 22.** Yuqoridagi ko'rinishga mos gapni belgilang.
- A. Bahor juda go'zal fasl!
 - B. Komil parkka ukasini olib bordi.
 - C. Men nechun sevaman O'zbekistonni.
 - D. Alisher she'rini bizga o'qib berdi.
- 23.** Qaysi javobda sisatlovchi aniqlovchilar berilgan?
- O'lkamizning beg'ubor havosi, mu-safo suvlari bulg'andi.**
- A. O'lkamizning, beg'ubor.
 - B. Beg'ubor, musaffo.

- C. Havosi, suvlari.
D. Musaffo suvlari.

24. Qaysi qatordagi gapda sifatlovchi aniqlovchi berilgan?

- A. Dangasaning vaji ko'p.
B. Oq oltin hosili mo'l bo'ldi.
C. Anvarjon xorijga o'qishga ketdi.
D. Iste'dodli o'quvchilar taqdirlandi.

25. Mahmud Koshg'ariy : «Botir jangda, dono majlisda sinaladi », — deb aytgandi. Ushbu gap qaysi belgilarga mos tushadi.

- A. «K. — m. — k ». B. M: «K ».
C. M: «K », — m. D. «K », — m.

26. Qaysi qatorda ko'chirma gap berilgan?

- A. Men «Gulxan» jurnalini o'qidim.
B. «Qo'rroqqa qo'sh ko'rinar », — deydi xalqimiz.
C. Rustam, devorga nima chizayotganligini aytdi.
D. To'g'ri javob yo'q.

27. Undalmalar gapning qaysi o'mnida kelishi mumkin?

- A. Boshida. B. O'rtasida.
C. Turli joylarida. D. Oxirida.

28. Bog'lovchilar berilgan qatorni belgilang.

- A. Hatto, saqatgina.
B. Aloqa, tarmoq, ulamoq.
C. Uchun, bilan, sayin.
D. Hamda, chunki, biroq.

29. Qaysi qatorda uyushiq bo'lakli gap berilgan?

- A. Baxting kaliti o'z qo'lingda.

- B. Keng, shinam xonalarda o'qiyimiz.
C. Maktabimiz binosi yangi qurilgan.
D. Saxiy quyosh yerga beminnat o'z nurini to'kmoqda.

30. Bir xil so'roqqa javob bo'lib, bir xil vazifada keladigan so'zlar...

- A. Qo'shma gap B. Kirish so'z
C. Undalma D. Uyushiq bo'lak.

31. Kutubxonamizda A.Oripov, E.Vohidov, U.Azim barcha taniqli shoirlarning asarlari bor. Bu gapdag'i umumlashtiruvchi so'zni aniqlang va qanday tinish belgisi tushirilganligini aniqlang.

- A. : B. « » C.. D. -

32. So'zlovchining fikriga ishonch, guman, taxmin singari ma'nolarni qo'shadigan so'zlar qanday nomlanadi?

- A. Qo'shma gap. B. Kirish so'z.
C. Undalma. D. Uyushiq bo'lak.

33. Bu ariqning suvlari allaqachon, aniqrog'i, bundan to'rt yillarcha oldin qurib qolgandi. Gapdag'i kirish so'zni aniqlang.

- A. Allaqachon. B. Oldin.
C. Suvlari. D. Aniqrog'i.

34. Ikki yoki undan ortiq sodda gaplarning birikuvidan hosil bo'lgan gap...

- A. Qo'shma gap. B. Kirish so'z.
C. Undalma. D. Uyushiq bo'lak.

35. Tinish belgilari to'g'ri qo'yilgan gapni aniqlang.

- A. Dunyoda mamlakat ko'p, lekin ona yurt yagona.

- B. Dunyoda mamlakat ko'p lekin, ona yurt yagona.
C. Dunyoda mamlakat ko'p, lekin, ona yurt yagona.
D. Dunyoda mamlakat ko'p lekin ona yurt yagona.

- 36. Ko'echatlarga kim suv quydi?**
So'roq gap qaysi so'z yordamida ifodalangan?
A. So'roq olmoshi yordamida ifodalangan.
B. So'roq yuklamasi yordamida ifodalangan.
C. Sifat so'z turkumi yordamida ifodalangan.
D. Son so'z turkumi yordamida ifodalangan.

2-VARIANT

1. Biror so'roqqa javob bo'lib, ko'pincha atash ma'nosini bildiruvchi, gapda ma'lum bir gap bo'lagi yoki undalma vazifasida keladigan so'zlar...

- A. Mustaqil so'zlar.
B. Yordamchi so'zlar.
C. Undalma.
D. Uyushiq bo'lak.

2. So'roqqa javob bo'lmaydigan, atash ma'nosini bildirmaydigan so'zlar...

- A. Mustaqil so'zlar.
B. Yordamchi so'zlar.
C. Undalma.
D. Uyushiq bo'lak.

3. Ko'plik sondagi otni toping.

- A. Boshlarim. B. Yuraklarim.
C. Oyimlar. D. Bolalar.

4. Bir turdag'i narsa – buyumning nomini bildirgan so'zlar turkumi qanday nomlanadi?

- A. Atoqli ot. B. Turdosh ot.
C. Tub ot. D. Yasama ot.

5. Qanday qo'shimchalar otlarga qo'shilib, ularni o'zidan keyin kelgan boshqa so'zlarga tobelashtirib bog'lab keladi?

- A. Egalik qo'shimchalari.
B. Kelishik qo'shimchalari.
C. Shaxs-son qo'shimchalari.
D. So'z yasovchi qo'shimchalar.

6. Qanday qo'shimchalar otlarning uch shaxsdan biriga qarashli ekanligini bildiradi?

- A. Egalik qo'shimchalari.
B. Kelishik qo'shimchalari.
C. Shaxs-son qo'shimchalari.
D. So'z yasovchi qo'shimchalar.

7. Ot, sifat, son o'rnda qo'llanib, ularga ishora qiluvchi so'zlar qanday nomlanadi?

- A. Olmosh. B. Fe'l.
C. Ravish. D. To'g'ri javob yo'q.

8. O'tgan zamonda fe'llarini hosil qiluvchi qo'shimchalar qatorini aniqlang.

- A. – gan ekan, – gan edi, – ibdi.
B. – yapti, – yotir, – moqda.
C. – adi, – ur, – ajak, – moqchi.
D. – di, – ajak, – yapti.

9. Harakat – holatni bildiruvchi so'z turkumini aniqlang.

- A. Olmosh. B. Fe'l.
C. Ravish. D. To'g'ri javob yo'q.

- 10.** Fe'lidan anglashilgan ish-harakat va holatning so'zlovchi, tinglovchi, yoki o'zgaga tegishli ekanligini bildiruvchi qo'shimchalar qaysi qatorda berilgan?
- Egalik qo'shimchalari.
 - Kelishik qo'shimchalari.
 - Shaxs-son qo'shimchalari.
 - So'z yasovchi qo'shimchalari.
- 11.** Qaysi qatorda egalik qo'shimchalari mavjud?
- ning, - ni, - ga;
 - im, - ing, - i;
 - imiz, - ingiz, - i;
- 3.
 - 1.
 - 2.
 - 2 va 3.
- 12.** Qaysi qatordagи so'zda imlo xato mavjud?
- Huquqi.
 - Idroki.
 - Tuproqi.
 - Axloqi.
- 13.** Sifat gapda qaysi gap bo'lagi vazifasida keladi?
- Hol.
 - Kesim.
 - Aniqlovchi.
- 1.
 - 2.
 - 3.
 - 2 va 3.
- 14.** Go'zal xulqli qiz oila uchun ulug' boylik va saodatdir. Gapdagи sifatni aniqlang.
- Go'zal.
 - Ulug'.
 - Boylit.
- 3.
 - 1.
 - 2.
 - 1 va 2.
- 15.** Qaysi qatorda tartib son mavjud?
- Ikkita.
 - Ikkovi.
 - Ikki.
 - Ikkinchи.
- 16.** To'g'ri yozilgan birikmani aniqlang.
- 7 – "B" sinf.
 - 7 – "b" sinf.
 - 7 "B" – sinf.
 - 7 b – sinf.
- 17.** Harakatning holati, daraja-miqdorini bildirgan so'z turkumini aniqlang.
- Olmosh.
 - Fe'l.
 - Ravish.
 - To'g'ri javob yo'q.
- 18.** Shaxs-son qo'shimchalari berilgan qatorni belgilang?
- gach, - kach, - qach.
 - yotir, - yapti, - moqda.
 - di, - gan, - gan edi.
 - Shaxs-son qo'shimchalari berilmagan.
- 19.** Ravish, asosan, qaysi so'z turkumiga bog'lanadi va gapda ko'proq qaysi gap bo'lagi vazifasida keladi?
- Fe'lga bog'lanadi, hol vazifasida keladi.
 - Otga bog'lanadi, aniqlovchi vazifasida keladi.
 - Sifatga bog'lanadi, to'ldiruvchi vazifasida keladi.
 - Olmoshga bog'lanadi, ega vazifasida keladi.
- 20.** Biror so'roqqa javob bo'lmay, gap yoki gap bo'laklarini bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiladigan so'zlar qanday nomlanadi?
- Mustaqil so'zlar.
 - Yordamchi so'zlar.
 - Undalma.
 - Uyushiq bo'lak.
- 21.** Uyushiq bo'laklarni va qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiladigan yordamchilar qanday nomlanadi?
- Bog'lovchi.
 - Ko'makchi.
 - Yuklama.
 - Undov va taqlid so'zlar.

- 22.** Qaysi qatorda bog'lovchi berilgan?
 A. Hatto, hattoki.
 B. Bilan, uchun, sayin.
 C. Yilt-yilt, taq-taq.
 D. Ammo, lekin, biroq.
- 23.** Otlarning boshqa so'zlarga tobe bog'lanishi uchun xizmat qiladigan yordamchilar qanday so'z turkumi hisoblanadi?
 A. Bog'lovchi. B. Ko'makchi.
 C. Yuklama. D. Undov va taqlid so'zlar.
- 24.** Ayrim gap bo'lagi yoki butun gapning mazmuniga qo'shimcha ma''no yuklash uchun xizmat qiluvchi yordamchilar qanday nomланади?
 A. Bog'lovchi. B. Ko'makchi.
 C. Yuklama. D. Undov va taqlid so'zlar.
- 25.** Qaysi qatorda just so'z berilgan?
 A. Qo'ziqorin. B. Ota-oni.
 C. Yugur-yugur. D. Gultojixo'roz.
- 26.** Ma'nosi bir-biriga yaqin yoki qarama-qarshi ma'noli ikki o'zakning qo'shiluvidan tashkil topgan so'zlar...
 A. Qo'shma so'zlar.
 B. Just so'zlar.
 C. Takroriy so'zlar.
 D. Sodda so'zlar.
- 27.** Qaysi qatorda kecha-kunduz so'zinig tuzilishiga ko'ra turi to'g'ri ko'rsatilgan?
 A. Qo'shma so'z. B. Takroriy so'z.
 C. Just so'z. D. Sodda so'z.
- 28.** Bir o'zakning ikki marta takrorlanishidan hosil bo'lgan so'zlar...
 A. Qo'shma so'zlar. B. Just so'zlar.
 C. Takroriy so'zlar. D. Sodda so'zlar.
- 29.** So'zlarga qo'shib yoziladigan yuklamani aniqlang.
 A. -chi. B. -a. C. -ya. D. -mi.
- 30.** So'zlovchining his-hayajoni, shuningdek, hayvon – parrandalarni biror harakatga undashni ifodalovchi so'zlar turkumi qanday nomланади?
 A. Bog'lovchi. B. Ko'makchi.
 C. Yuklama. D. Undov va taqlid so'zlar.
- 31.** Qaysi qatorda holatga taqlidni bildirgan so'z berilgan?
 A. Oh. B. Yalt-yult.
 C. Taq-tuq. D. Eh.
- 32.** So'zlar tuzlishiga ko'ra necha turli bo'ladi?
 A. 7. B. 6. C. 5. D. 4.
- 33.** Ikki yoki undan ortiq o'zaklardan tashkil topib, bitta so'roqqa javob bo'lgan so'zlar...
 A. Qo'shma so'zlar.
 B. Just so'zlar.
 C. Takroriy so'zlar.
 D. Sodda so'zlar.
- 34.** Qo'shma fe'l va qoshma sonlar qanday yoziladi?
 A. Qo'shib yoziladi.
 B. Ajratib yoziladi.
 C. Chiziqcha bilan.
 D. To'g'ri javob yo'q.

- 35. Qaysi qatordagi so'z imlo qoidalariiga mos yozilgan?**
- A. Oshu-non.
 B. Pastu-baland.
 C. Kecha-yu kunduz.
 D. Bordiyu- keldi.
- 36. Qaysi qatorda ravish mavjud?**
- A. Avval.
 B. Sariq.
 C. To'xta.
 D. Mashina.
- 3-VARIANT**
- 1. Og'zaki nutqning tovush tuzilishini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi...**
- A. Fonetika.
 B. Grafika.
 C. Morfologiya.
 D. Leksikologiya.
- 2. Yozma nutqning harflar tizimini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi qanday nomlanadi?**
- A. Orfoepiya. B. Grafika.
 C. Sintaksis. D. Punktuatsiya.
- 3. So'z turkumlarini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi qanday nomlanadi?**
- A. Sintaksis. B. Grafika.
 C. Morfologiya. D. Orfoepiya.
- 4. So'zlash va yozish orqali ma'lum fikr bayon qilishimiz...**
- A. Gap. B. Nutq tovushi.
 C. Nutq. D. Harf.
- 5. Tovushlar zanjiri asosida bayon qilingan nutq qanday nutq hisoblanadi?**
- A. Og'zaki nutq. B. Yozma nutq.
 C. Harf. D. Tovush.
- 6. Harflar ketma-ketligi asosida bayon qilingan nutq...**
- A. Og'zaki nutq. B. Yozma nutq.
 C. Harf. D. Tovush.
- 7. Og'zaki nutqning eng kichik, boshqa mayda bo'lakka bo'linmaydigan qismi...**
- A. Nutq tovushi. B. Harf.
 C. Unli tovush. D. Undosh tovush.
- 8. Qaysi qatorda lab- tish tovushlari mavjud?**
- A. B. m. B. M. p. C. V. f. D. V. m.
- 9. Burun tovushlarini aniqlang.**
- A. Z, d, t. B. Sh, l, r.
 C. M, n, ng. D. X, h, l.
- 10. Tovushning yozuvdag'i ifodasi...**
- A. Nutq tovushi. B. Harf.
 C. Unli tovush. D. Undosh tovush.
- 11. Nutq tovushlari hosil qilishda ishtirok etadigan inson a'zolari...**
- A. Til. B. Lab.
 C. Nutq a'zolari. D. Tish.
- 12. Qaysi qatorda lab tovushlari berilgan?**
- A. B. m, v, t, d. B. B. p, m, v.f.
 C. M, v, t, z, h. D. D, t, ng.
- 13. Qaysi qatorda til oldi tovushlari mavjud?**
- A. Q, g', x. B. G, k, ng.
 C. Y. D. T, l, s, z.

- 14.** Til o'rta tovushini aniqlang.
 A. Q. b. m. B. G. v. f.
 C. Y. D. T. sh. ch.
- 15.** Qaysi qatorda til orqa tovushlari berilgan ?
 A. J. ch. h. B. G. k. ng.
 C. Y. D. G'. l. t.
- 16.** Qaysi javobda chuqur til orqa tovushlari berilgan ?
 A. Q. g'. x. B. B. n. g.
 C. P. t. k. D. F. s. h.
- 17.** Qaysi javobda bo'g'iz tovushi mavjud?
 A. x. B. h. C. d. D. t.
- 18.** Harflarning ma'lum tartibda joylashuvi qanday nomlanadi?
 A. Nutq tovushi deyiladi.
 B. Harf deb ataladi.
 C. Alisbo hisoblanadi.
 D. Bo'g'in deyiladi.
- 19.** Qaysi javobdagи so'zda imlo xato mavjud?
 A. Kiprik. B. Rivoj.
 C. Klogramm D. Kishan.
- 20.** Qaysi qatordagi so'zda imlo xato mavjud?
 A. Mualif. B. Muattar.
 C. Soat. D. Maosh.
- 21.** Og'zaki nutqda bir necha xil talaffuz qilinuvchi tovush, qo'shimcha va so'zlardan adabiy tilga qabul qilingan bittasi...
 A. Imlo me'yori sanaladi.
 B. To'g'ri talaffuz me'yorlari sanaladi.
- C.** Punktuatsiya deyiladi.
D. Orfografiya deyiladi.
- 22.** Yozma nutqda bir necha xil yoziluvchi tovush, qo'shimcha va so'zlardan adabiy tilga qabul qilingan bittasi...
 A. Imlo me'yori.
 B. To'g'ri talaffuz me'yorlari.
 C. Orfoepiya.
 D. Sintaksis.
- 23.** To'g'ri talaffuz me'yorlarini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi...
 A. Punktuatsiya. B. Morfologiya.
 C. Orfoepiya. D. Leksikologiya.
- 24.** To'g'ri yozish me'yorlarini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi...
 A. Punktuatsiya deyiladi.
 B. To'g'ri talaffuz me'yorlari sanaladi.
 C. Orfoepiya deyiladi.
 D. Orfografiya deyiladi.
- 25.** Jarangli undoshlarni belgilang.
 A. M. n. ng, r. y. B. P. f. s.
 C. K. t. ch. D. Q. sh, h. x.
- 26.** Nutq a'zolari berilgan qatorni aniqlang.
 A. Burun, o'pka, ko'z.
 B. Til, quloq, tish.
 C. Un psychalari, o'pka, bo'g'iz.
 D. Yurak, lab, til.
- 27.** Qaysi qatordagi so'zda imlo xato mavjud?
 A. Qishloqqa. B. Toqqa.
 C. Qaymoqqa. D. Toshloqqa.

- 28.** Qaysi qatordagi so'zda imlo xato mavjud?
 A. Yo'llanma. B. O'n bir.
 C. Sumbula. D. Qo'llanma.
- 29.** Qaysi qatordagi so'zda imlo xato mavjud?
 A. Gram. B. Million.
 C. Artilleriya. D. Metall.
- 30.** Qator kelgan undosh harfli so'zni toping.
 A. Paxta. B. O'simlik.
 C. Nimcha. D. Taxt.
- 31.** Bir havo zarbi bilan aytildigani tovushlar birikmasi...
 A. Harf. B. Bo'g'in.
 C. Tovush. D. So'z.
- 32.** Urg'u yordamida ma'nosи farqlanadigan so'zlar qatorini aniqlang.
 A. Sizlar, birlar. B. Tog'lar, uylar.
 C. Qo'llar, bog'lar. D. Bolalar, do'stlar.
- 33.** Qo'sh undoshli so'zni belgilang.
 A. Chaqqon. B. Metr.
 C. Sabr. D. Ilm.
- 34.** Qaysi qatorda burun undoshlari mavjud?
 A. B, p, m. B. M, n, ng.
 C. V, f, k. D. Q, g', x.
- 35.** Qaysi qatordagi so'zlarda nuqta-
 lar o'rniga a harfi qo'yilishi lozim?
 A. Z...mon, h...mon.
 B. H...li, h...zir.
 C. K...mil, K...mol.
 D. Q...drdon, z...lim.
- 36.** Til undoshlari ishtirok etgan qatorni toping.
 A. Sado, dala. B. Gilam, choynak.
 C. Sharq, g'arb. D. Eshik, qaymoq.

4-VARIANT

- 1.** Aniq bir ma'noni ifodalash uchun qo'llanadigan so'zlar...
 A. Bir ma'noli so'zlar.
 B. Ko'p ma'noli so'zlar.
 C. Ko'chma ma'noli so'zlar.
 D. O'z ma'nosidagi so'zlar.
- 2.** Nutqiy jarayonda ikki va undan ortiq ma'noda qo'llanuvchi so'zlar...
 A. Bir ma'noli so'zlar.
 B. Ko'p ma'noli so'zlar.
 C. Shakldosh so'zlar.
 D. Ma'nodosh so'zlar.
- 3.** So'zlarning nutq jarayoniga bog'liq bo'limgagan atash ma'nosи...
 A. Bir ma'noli so'zlar.
 B. Qarama-qarshi ma'noli so'zlar.
 C. Uyadosh so'zlar.
 D. So'zlarning o'z ma'nosи hisoblanadi.
- 4.** So'zning nutqda boshqa so'zlarga bog'lanib hosil qiladigan yondosh ma'nosи...
 A. Bir ma'noli so'zlar.
 B. Ko'p ma'noli so'zlar.
 C. Ko'chma ma'noli so'zlar.
 D. O'z ma'nosidagi so'zlar.
- 5.** O'z va ko'chma ma'no birikib qanday ma'noli so'z hosil qiladi?
 A. Bir ma'noli so'zlar.
 B. Ko'p ma'noli so'zlar.
 C. Paronimlar.
 D. Uyadosh so'zlar.

- 6. Qaysi qatorda ko'p ma'noli so'z berilgan?**
- A. Daraxt.
 - B. Qo'l.
 - C. Non.
 - D. Kitob.
- 7. Ko'chma ma'nodagi so'zni belgilang.**
- A. Kumush qoshiq.
 - B. Buloqning ko'zi.
 - C. Qattiq yer.
 - D. Ozoda xona.
- 8. Bir umumiy ma'noni ifodalovchi ikki va undan ortiq so'zlar...**
- A. Bir ma'noli so'zlar.
 - B. Ko'p ma'noli so'zlar.
 - C. Paronimlar.
 - D. Ma'nodoshlar.
- 9. Fikrning to'g'rilingini bildiruvchi kirish so'zni belgilang.**
- A. Shubhasiz.
 - B. Ehtimol.
 - C. Xullas.
 - D. Birinchidan
- 10. Qaysi qatorda ibora mavjud?**
- A. Sher — o'rmon podshohi.
 - B. Tilimning uchida turibdi.
 - C. Do'ppi tikdim ipakdan.
 - D. Amir Temur — ulug' sarkarda.
- 11. Aytlishi va yozilishi bir xil turli atash ma'nolarini bildiradigan so'zlar...**
- A. Shakldosh so'zlar.
 - B. Uyadosh so'zlar.
 - C. Paronimlar.
 - D. Ma'nodoshlar.
- 12. Qaysi qatorda shakldosh so'z berilgan?**
- A. Tuz, oq, yot.
- 13. Bir mazmuniy uyaga mansub bo'lgan so'zlar...**
- A. Shakldosh so'zlar.
 - B. Uyadosh so'zlar.
 - C. Paronimlar.
 - D. Ma'nodoshlar.
- 14. Faqat bir tovush bilan farqlanuvchi, lekin bir xil talaffuz qilinadigan so'zlar...**
- A. Ko'p ma'noli so'zlar.
 - B. Uyadosh so'zlar.
 - C. Paronimlar.
 - D. Ma'nodoshlar.
- 15. Ma'nodosh so'zlarni toping.**
- A. Shivirladi, gapirdi, baqirdi.
 - B. Uzoq – yaqin.
 - C. Fol – pol.
 - D. G'o'za, chigit.
- 16. Qarama-qarshi ma'noli so'zlar...**
- A. Uyadoshlar.
 - B. Paronimlar.
 - C. Shakldosh so'zlar.
 - D. Zid ma'noli so'zlar.
- 17. Qaysi qatorda arxaik so'z berilgan?**
- A. Amin, mirshab.
 - B. Qozi, mingboshi.
 - C. Xon, noib.
 - D. Oblast, rayon.
- 18. Hozirgi kunda yangilik belgisini saqlab turgan so'zlar...**
- A. Yangi so'zlar.

- B. Iboralar.
C. Eskirgan so'zlar. D. Tasviriy ifodalar.
- 19.** Qaysi qatordagi atama quyida gicha ta'riflanadi? So'z eskiradi, tushuncha saqlanadi va u boshqa so'z bilan nomlanadi.
- A. Arxaik so'zlar. B. Tarixiy so'zlar.
C. Paronimlar. D. Uyadoshlar.
- 20.** Gumanoni anglatuvchi kirish so'zni belgilang.
- A. Darhaqiqat. B. Balki.
C. Xullas. D. Birinchidan.
- 21.** Tilimizning ma'lum davrida qo'llanilib, hozirgi kunda foydalaniłmaydigan so'zlar...
- A. Yangi so'zlar.
B. Iboralar.
C. Eskirgan so'zlar.
D. Tasviriy ifodalar.
- 22.** So'z o'zi ifodalagan tushuncha bilan birgalikda eskiradi. Bu qanday so'zlar?
- A. Arxaik so'zlar.
B. Tarixiy so'zlar.
C. Yangi so'zlar.
D. Olinma so'zlar.
- 23.** Ma'nosи bir so'zga teng keladigan so'zlar birikmasi yoki gaplar...
- A. Paronimlar.
B. Iboralar.
C. Uyadosh so'zlar.
D. Tasviriy ifodalar.
- 24.** Xursand bo'lmoq so'z birikmasiga teng keladigan iborani toping.
- A. Belni bog'lamoq.
B. Do'ppisini osmonga otmoq.
C. Yetti o'lchab bir kesmoq.
D. Tishini kovagida saqlamoq.
- 25.** Biror narsa va hodisani boshqa bir narsa va hodisaga o'xshatish orqali tasvirlab ifodalash.
- A. Yangi so'zlar.
B. Iboralar.
C. Eskirgan so'zlar.
D. Tasviriy ifodalar.
- 26.** Qaysi qatorda Alisher Navoiyga nisbatan tasviriy ifoda qo'llangan?
- A. Mo'yqalam sohibi.
B. Salomatlik posboni.
C. G'azal mulkining sultoni.
D. Hayotimiz qomusi.
- 27.** Qaysi qatorda sherga nisbatan tasviriy ifoda qo'llangan?
- A. O'rmon podshohi.
B. Samo lochini.
C. Kumush choyshab.
D. Po'lat ot.
- 28.** Ma'lum bir fan doirasida qo'llaniladigan atamalar...
- A. Olinma so'zlar
B. Shevaga xos so'zlar.
C. Kasbiy atamalar.
D. Ilmiy atamalar.
- 29.** Ma'lum kasb-hunar doirasida aniq bir ma'noni ifodalash uchun qo'llaniladigan so'zlar...
- A. Olinma so'zlar.
B. Shevaga xos so'zlar.
C. Kasbiy atamalar.
D. Ilmiy atamalar.

- 30.** Kasbiy atamani aniqlang.
 A. Ot. B. Ildiz.
 C. Hol. D. Andaza
- 31.** Bir tilning faqat ma'lum hududiga xos bo'lib, boshqa joylarda o'zgacha nom bilan yuritiladigan so'zlar qanday so'zlar hisoblanadi?
 A. Olinma so'zlar.
 B. Shevaga xos so'zlar.
 C. Kasbiy atamalar.
 D. Ilmiy atamalar.
- 32.** Boshqa tillardan o'zbek tiliga kirib o'zlashib qolgan so'zlar...
 A. Olinma so'zlar.
 B. Paronimlar.
 C. Uyadosh so'zlar.
 D. Ilmiy atamalar.
- 33.** Eskirgan so'zlar qatorini belgilang.
 A. Ko'hna, eski, oldingi.
 B. Rayon, paranji, qozi.
 C. Viloyat, respublika, jamoa.
 D. Tushuncha, omad, hozirlik.
- 34.** Uyadosh so'zlar qatorini toping.
 A. Olma, nok, behi, oy.
 B. Kitob, daftар, yulduz, ruchka.
 C. Oila, aka, uka, buzoq.
 D. Quyosh, oy, yulduz, osmon.
- 35.** Bir tildagi so'zning ikkinchi tilda qanday so'zga teng kelishini ko'rsatuvchi lug'at...
 A. Morsem lug'at.
 B. Tarjima lug'at.
 C. Terminologik lug'at.
 D. Chastotali lug'ati.
- 36.** Lug'atlarda so'zlar qanday tartibda joylashtiriladi?
 A. O'zakka qarab.
 B. Faollik darajasiga ko'ra.
 C. Qo'shimchalarga qarab.
 D. Alifbo tartibida.

6- SINF. ONA TILI

1-VARIANT

- 1.** So'zlar qanday tarkib topadi?
 A. Asosdan.
 B. Qo'shimchaldan.
 C. Asos va qo'shimchaldan.
 D. To'g'ri javob yo'q.
- 2.** Mustaqil qo'llana olmaydigan, asosga qo'shib, unga yangi yoki qo'shimcha ma'no yuklaydigan, shuningdek, so'zlarni bog'lashga xizmat qiladigan qism...
 A. Asos. B. Urg'u.
 C. Bo'g'in. D. Qo'shimcha.
- 3.** So'zning asosiy ma'nosini ifodalab, mustaqil qo'llana oladigan qismi...
 A. Bo'g'in. B. Qo'shimcha.
 C. Asos. D. Urg'u.
- 4.** Qo'shimchalar vazifasiga ko'ra necha turli bo'ladi?
 A. 2 turli. B. 3 turli.
 C. 4 turli. D. 5 turli.
- 5.** Qaysi qo'shimchalar asosga qo'shib yangi ma'no hosil qiladi?
 A. Shakl yasovchi qo'shimchalar.
 B. So'z yasovchi qo'shimchalar.
 C. Sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar.
 D. Lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar.

- 6. Qaysi qatorda lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar berilgan?**
- chi, -dosh, -kor.
 - li, -lik, -chilik.
 - cha, -xon, -roq.
 - ning, -ingiz, -dan.
- 7. Qaysi qatorda so'z yasovchi qo'shimchalar mavjud?**
- paz, -bon, -shunos.
 - ni, -da, -ning.
 - ingiz, -i, im.
 - gach, -gani, -guncha.
- 8. Sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalarni belgilang.**
- lar, -cha, -xon.
 - ga, -da, -dan.
 - gi, be-, -siz.
 - chi, -lik, -kor.
- 9. So'zlarning so'rog'i va qanday umumlashgan ma'no ifodalashiga ko'ra guruhiarga bo'linishi...**
- Gap bo'laklari deyiladi.
 - So'z turkumlari hisoblanadi.
 - Sintaksis deb nomlanadi.
 - Puntuatsiya deb ataladi.
- 10. Qaysi qatorda tub so'z berilgan?**
- Toshloq.
 - Guldon.
 - Suhbatlashdi.
 - Quyosh.
- 11. Qaysi qatorda yasama so'zlar berilgan?**
- Sezgir, dorishunos.
 - Giyohlarni, ajratildi.
 - Birinchi, kuzda.
 - Ikkita, mehnatdan.
- 12. Qaysi qatorda tub so'z berilgan?**
- Muomalalarimizni.
 - Bog'bon.
 - Bug'doyzor.
 - Beg'ubor.
- 13. Egalik qo'shimchasi qo'shilganda tovush o'zgarishiga uchragan so'zni aniqlang.**
- Ishtiroki.
 - Idroki.
 - Yuragi.
 - Huquqi.
- 14. Egalik qo'shimchalari vazifasiga ko'ra qanday qo'shimcha hisoblanadi?**
- So'z yasovchi qo'shimcha.
 - Lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha.
 - Sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha.
 - Ko'plik qo'shimchasi.
- 15. Bozorchilarga so'zida qanday qo'shimchalar mavjud?**
- So'z yasovchi qo'shimcha.
 - Lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha.
 - Sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha.
 - 2, 3.
 - 1, 2, 3.
 - 1, 3.
 - 1, 2.
- 16. Ma'lum bir so'roqqa javob bo'lib, biror gap bo'lagi vazifasida keladigan so'zlar turkumi qanday nomlanadi?**
- Undov so'zlar.
 - Modal so'zlar.
 - Mustaqil so'zlar.
 - Yordamchi so'zlar.

- 17.** Qaysi so'z turkumi nima qilmoq, nima bo'lmoq so'roqlariga javob bo'lib, shaxs yoki narsalarining harakat, holatini atab keladi?
- A. Ot. B.Sifat.
C. Son. D.Fe'l
- 18.** Qaysi qatorda holat fe'li berilgan?
- A. Kuylamoq. B. So'zlamoq.
C. Jilmaymoq. D. Yiqilmoq.
- 19.** Qaysi javobda o'timli fe'llar mavjud?
- A. Almashmoq, kiymoq.
B. Jiringlamoq, o'xshamoq.
C. Jilmaymoq, yuzlanmoq.
D. Quvonmoq, joylashmoq.
- 20.** Insonning ichki kechinmalarini ifodalovchi fe'llar nimani atab kelishiga ko'ra qanday nomlanadi?
- A. O'timli fe'llar.
B. O'timsiz fe'llar.
C. Harakat fe'llari.
D. Holat fe'llari.
- 21.** Bajaruvchining harakat va holat jarayonida qay darajada ishtirok etishini bildiruvchi fe'l shakllari...
- A. O'timli fe'llar.
B. O'timsiz fe'llar.
C. Fe'l nisbatlari.
D. Fe'l mayllari.
- 22.** Yuvintirishdi so'zi fe'lning qaysi nisbatida?
- A. Birgalik nisbat.
B. O'zlik nisbat.
C. Orttirma nisbat.
D. Majhul nisbat.
- 23.** Qaynatildi so'zida qaysi nisbatlarni hosil qiluvchi qo'shimchalar mavjud?
- A. Majhul nisbat.
B. Orttirma nisbat.
C. Orttirma va o'zlik nisbat.
D. Orttirma va majhul nisbat.
- 24.** Bajaruvchisi noma'lum bo'lgan harakat yoki holatni ifodalovchi fe'l shakli...
- A. Aniq nisbat.
B. O'zlik nisbat.
C. Majhul nisbat.
D. Orttirma nisbat.
- 25.** -i, -dir, -gi-, -ar qo'shimchalari qaysi nisbat shakli hisoblanadi?
- A. O'zlik nisbat.
B. Majhul nisbat.
C. Orttirma nisbat.
D. Birgalik nisbat.
- 26.** Tarandi, kiyindi so'zlarini fe'lning qaysi nisbatli shakli?
- A. O'zlik nisbat.
B. Majhul nisbat.
C. Orttirma nisbat.
D. Birgalik nisbat.
- 27.** Qaysi nisbatni hosil qiluvchi qo'shimchalar bir fe'lga bir necha marta qo'shilishi mumkin?
- A. O'zlik nisbatga.
B. Majhul nisbatga.
C. Birgalik nisbatga.
D. Orttirma nisbatga.
- 28.** Quyidagi fe'llarning qaysi biridan o'zlik nisbat yasalmaydi?
- A. Qiynamoq.

- B. Kavshamoq.
- C. Yayramoq.
- D. So'kmoq.

29. Fe'l nisbatlarini hosil qiluvchi qo'shimchalar vazifasiga ko'ra qaysi turga mansub bo'ladi?

- A. So'z yasovchi qo'shimchalar.
- B. Lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar.
- C. Sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar.
- D. Murakkab qo'shimchalar.

30. Qaysi javobda harakat nomiga to'g'ri ta'rif berilgan?

- A. Fe'lning otga xoslangan shakli.
- B. Fe'lning sifatga xoslangan shakli.
- C. Fe'lning ravishga xoslangan shakli.
- D. Sof fe'l shakli.

31. Qaysi xususiyat harakat nomiga xos?

- A. Harakat nomlari fe'llar kabi tuslanadi.
- B. Harakat nomlari otlar kabi turlanadi.
- C. Harakat nomlari zamonni ko'rsatadi.
- D. Harakat nomlari shaxs-sonni ko'rsatadi.

32. O'qigan maqsadiga yetadi. Ushbu gapdagi sifatdosh gapning qaysi bo'lagi vazifasida kelgan.

- A. Ega.
- B. Aniqlovchi.
- C. Hol.
- D. Kesim.

33. Qaysi qo'shimchalar bilan yasalgan harakat nomlari -ma qo'shimchasini qabul qilmaydi?

- A. -moq.
- B. -(u)v.
- C. -(i)sh.
- D. Harakat nomining uchchala shakli ham -ma qo'shimchasini olmaydi?

34. Harakat nomlari gapda qanday gap bo'lagi vazifasida keladi?

- A. Faqat ega vazifasida.
- B. Faqat kesim vazifasida.
- C. Bosh va ikkinchi darajali bo'laklar vazifasida.
- D. Faqat ikkinchi darajali bo'laklar vazifasida.

35. Qaysi qatorda harakat nomi berilgan?

- A. Yaylov.
- B. Boshqaruv.
- C. O'tov.
- D. Qizg'ish.

36. Qaysi so'z turkumiga oid qo'shma so'zlar doimo ajratib yoziladi?

- A. Qo'shma otlar.
- B. Qoshma sifatlar.
- C. Qoshma fe'llar.
- D. Qo'shma ravishlar.

2-VARIANT

1. -gan, -ydigan, -yotgan qo'shimchalari fe'lning qaysi vazifa shakliga kiradi?

- | | |
|------------------|---------------|
| A. Harakat nomi. | B. Sifatdosh. |
| C. Ravishdosh. | D. Sof fe'l. |

2. Fe'l shakllaridan qaysi biri zamon va shaxs sonni ko'rsatmaydi?

- A. Ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi.
 B. Harakat nomi.
 C. Sifatdosh.
 D. Ravishdosh.
3. Ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasida tuslovchi qo'shimchalar qaysi so'z tarkibida joylashgan?
 A. Ko'makchi fe'l tarkibida.
 B. Yetakchi fe'l tarkibida.
 C. Yetakchi va ko'makchi fe'l tarkibida.
 D. Tuslovchi qo'shimchalar ham yetakchi, ham ko'makchi fe'llarga birdan qo'shiladi?
4. Ko'makchi fe'lllar yetakchi fe'lga asosan qanday shakl yordamida birikadi?
 A. Tuslovchi qo'shimchalar yordamida.
 B. Ohang yordamida.
 C. Ravishdosh qo'shimchasi yordamida.
 D. Sifatdosh qo'shimchasi yordamida.
5. Ko'makchi fe'lllar mustaqil fe'l dan tashqari yana qanday so'zlarga bog'lanishi mumkin?
 A. Otga.
 B. Sifatga.
 C. Ravishga.
 D. Hech qaysi so'z turkumiga bog'lanmaydi?
6. O'zbek tilida qaysi so'z turkumidagi so'zlardan qo'shimcha qo'shish bilan fe'l yasab bo'lmaydi?
 A. Otlardan.
 B. Sifatlardan.
 C. Fe'llardan.
 D. Taqlid so'zlardan.
7. Qaysi qatorda fe'l yasovchi qo'shimchalar berilgan?
 A. -chi, -dosh, -kor.
 B. -li, siz, dor.
 C. -la, -sira, -illa.
 D. -xon, -paz, -bon.
8. Qaysi qatorda otdan yasalgan fe'l berilgan?
 A. Yozay. B. Borish.
 C. Oqar. D. Kuchay.
9. -man, -miz, -san kabi qo'shimchalar fe'lning qanday qanday shakllarini hosil qiladi?
 A. Fe'lning nisbat shakllari.
 B. Fe'lning vazifa shakllari.
 C. Fe'lning zamon shakllari.
 D. Fe'lning shaxs-son shakllari.
10. Qaysi javobda sodda yasama fe'l mavjud?
 A. Turdi. B. Yurdi.
 C. Ketdi. D. Gapirdi.
11. Qo'shma fe'l shakllari qanday yoziladi?
 A. Qo'shib yoziladi.
 B. Ajratib yoziladi.
 C. Chiziqcha bilan yoziladi.
 D. Barcha javob to'g'ri.
12. Qaysi qatorda qo'shma fe'l mavjud?
 A. Borib keldi. B. Bordi-keldi.
 C. Achchiqlandi. D. Shodlandi.
13. Fe'lning ma'noviy guruhlari necha turli bo'ladi?
 A. 2. B. 3. C. 4. D. 5.

- 14.** Fahmladi so'zi fe'lning qaysi ma'no guruhiga kiradi?
- Nutqiy faoliyat fe'li.
 - Aqliy faoliyat fe'li.
 - Jismoniy faoliyat fe'li.
 - Holat fe'li.
- 15.** Qaysi qatorda holat fe'li berilgan?
- Ovgatlandi.
 - Chug'urladi.
 - Fikrladi.
 - Xo'rsindi.
- 16.** Fe'l asosida ifodalangan harakat-holatning uch zamondan birida sodir bo'lishini bildiruvchi shakllar...
- Fe'llarning nisbat shakli hisoblanadi.
 - Fe'llarning vazifa shakli deyiladi.
 - Fe'l zamonlari shakli deb nomlanadi.
 - Fe'l mayllari shakli deb ataladi.
- 17.** -yap, -moqda, -(a)yotir, -(a)yotib qo'shimchalari qaysi zamon shakllari hisoblanadi?
- O'tgan zamon fe'li qo'shimchalari.
 - Hozirgi zamon fe'li qo'shimchalari.
 - Kelasi zamon fe'li qo'shimchalari.
 - To'g'ri javob yo'q.
- 18.** Qaysi qatorda o'tgan zamon shakllari berilgan?
- yotir, -yotib.
 - r, -ar, -y, -a.
 - di, -b, -gan.
 - moqda, -yap.
- 19.** Fe'l asosida ifodalangan harakat-holat haqidagi xabar, buyruq-istak, shart ma'nolarini ifodalovchi fe'l shakllari...
- Zamon shakllari.
 - Nisbat shakllari.
 - Mayl shakllari.
 - Fe'lning vazifa shakllari.
- 20.** Buyruq-istak maylidagi fe'lni toping.
- Yashnamoqda.
 - Kelinglar.
 - Aysam.
 - Gullagan.
- 21.** -lar shakli fe'llarga qo'shilsa qanday qo'shimcha hisoblanadi?
- Ko'plik qo'shimchasi.
 - Turlovchi qo'shimcha.
 - Tuslovchi qo'shimcha.
 - Lug'aviy shakli yasovchi qo'shimcha.
- 22.** Tuslanish qaysi so'z turkumiga xos?
- Ot.
 - Sifat.
 - Son.
 - Fe'l.
- 23.** Qaysi qo'shimchalar tuslovchi qo'shimchalar hisoblanadi?
- Egalik qo'shimchalar.
 - Kelishik qo'shimchalar.
 - Shaxs-son qo'shimchalar.
 - Sifatdosh hosil qiluvchi qo'shimchalar.
- 24.** Fe'lning shaxs va sonda tuslanganini bildiruvchi qo'shimchalar ularning vazifasiga ko'ra qaysi turiga kiradi?
- So'z yasovchi.
 - Negiz hosil qiluvchi.

- C. Lug'aviy shakl yasovchi.
D. Sintaktik shakl yasovchi.

25. Harakatning so'zlowchi tomonidan bajarilishini bildiradigan fe'l shakllari qaysi qatorda berilgan?

- A. Keldi, o'qidi.
B. Bording, olding.
C. Kutdim, aytdik.
D. Ishladingiz, kuyladingiz.

26. O'yin, qiyin so'zlariga -a fe'l yasovchi qo'shimchasi qo'shilganda qanday tovush o'zgarishi yuz beradi?

- A. Tovush tushishi.
B. Tovush almashishi.
C. Tovush orttirilishi.
D. Hech qanday tovush o'zgarishi yuz bermaydi.

27. Son, ot so'zlariga -a fe'l yasovchi qo'shimchasi qo'shilganda qanday tovush o'zgarishlari yuz beradi?

- A. Tovush almashadi.
B. Tovush tushadi.
C. Tovush orttiriladi.
D. Hech qanday tovush o'zgarishi yuz bermaydi.

28. Tuslovchilar qo'llangan qatorni aniqlang.

- A. Uylar, ko'chalar.
B. Daftaram, asaring.
C. Gulni, mактабга.
D. Kezdik, sevinding.

29. Qaysi qatordagi so'zlarda tuslovchi qo'shimchalar mavjud emas?

- A. Qaynashim, qaynashing, qaynashi.
B. Qaynadim, qaynading, qaynadi.

- C. Bordim, bording, bordi.
D. Bordik, bordingiz, bordilar.

30. So'z yasovchi qo'shimcha qo'shish orqali ko'proq qaysi so'z turkumlaridan fe'l yasaladi?

- A. Otardan.
B. Sifatlardan.
C. Sonlardan.
D. Taqlid so'zlardan.

31. Qaysi qatordagi so'zda imlo xato mavjud?

- A. Yaltilladi.
B. Shovilladi.
C. Inqilladi.
D. Chirsilladi.

32. Qaysi javobda sodda yasama fe'l berilgan?

- A. Yurmoq.
B. Qurmoq.
C. Ketmoq.
D. Nafratlanmoq.

33. Qaysi qatorda tub fe'l berilgan?

- A. Kechikmoq.
B. Boyimoq.
C. Qichqirmoq.
D. Shildiramoq.

34. Qaysi qatorda qo'shma fe'l berilgan?

- A. Olib chiqdi. B. Yiqitib yubordi.
C. Uxlab yotibdi. D. O'tirib tur.

35. Qaysi qatorda taqlid so'zlardan yasalgan fe'llar berilgan?

- A. Shitirla, chiqilla.
B. G'ijirla, taqirla.
C. Chug'urla, tiqirla.

D. Barcha javoblarda taqlid so'zlaridan yasalgan fe'llar berilgan?

36. Qaysi qatorda sisatdan yasalgan fe'llar tovush o'zgarishiga uchragan?

- A. O'yna, angla.
- B. Sana, ata.
- C. Qiyna, pasay.
- D. Yashnat, qiziqtir.

3-VARIANT

1. Shaxs, narsa ma'nolarini, shuningdek, joy nomlarini bildirib, kim, nima, qayer so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlar...

- A. Fe'l – so'z turkumi.
- B. Ot – so'z turkumi.
- C. Sifat – so'z turkumi.
- D. Son – so'z turkumi.

2. Ko'ksulton so'zi qaysi so'z turkumiga kiradi?

- A. Fe'l – so'z turkumi.
- B. Ot – so'z turkumi.
- C. Sifat – so'z turkumi.
- D. Son – so'z turkumi.

3. Boychechak so'zi tuzilishiga ko'ra qanday ot?

- A. Juft ot.
- B. Sodda ot.
- C. Qo'shma ot.
- D. Takroriy ot.

4. Qaysi qatorda juft ot mavjud?

- A. Kungaboqar.
- B. Gultojixo'roz.
- C. Savdo-sotiq.
- D. Bug'doy-mug'doy.

5. Qaysi qatorda atoqli o'rin-joy oti berilgan?

- A. Samarqand.
- B. Usmon Nosir.
- C. Bo'ribosar.
- D. Olapar.

6. Qaysi qatordagi so'zda imlo xato mavjud?

- A. Buloq boshi.
- B. Markaziy Osiyo
- C. O'zbekiston Respublikasi.
- D. Jiydakapa.

7. Qaysi qatordagi atoqli otlarda imlo xato mavjud?

- A. Sog'lijni Saqlash Vazirligi.
- B. Birlashgan Millatlar Tashkiloti.
- C. O'zbekiston Oliy Majlisi.
- D. O'zbekiston Milliy universiteti.

8. Qanday otlar bir turdag'i shaxs, narsa, o'rin-joy, faoliyat-jarayon nomlarini bildiradi?

- A. Atoqli otlar.
- B. Turdosh otlar.
- C. Tub otlar.
- D. Yasama otlar.

9. Paxtazor so'zi turdosh otning qaysi turiga kiradi?

- A. Shaxs otlariga.
- B. Narsa otlariga.
- C. O'rin-joy otlariga.
- D. Faoliyat-jarayon otlariga.

10. -chi, -dosh, -kor, xon kabi qo'shimchalar turdosh otning qaysi turini hosil qiladi?

- A. Shaxs otini hosil qiladi.
- B. Narsa oti yasaydi.

C. O'rın-joy oti hosil qiladi.
D. Faoliyat-jarayon oti yasaydi.

11. Qaysi qatorda o'rın-joy oti hosil qiluvchi qo'shimchalar mavjud?
A. -zor, -iston, -loq.
B. -lik, -chilik, -garchilik.
C. -gich, -don, -oq.
D. -soz, -boz, -vchi.

12. Qaysi javobda faoliyat – jarayon nomini bildiruvchi ot berilgan?
A. Paxtakop.
B. G'allachllik.
C. Mahalla.
D. Quruvchi.

13. Sezgi a'zolarimiz orqali bilishimiz mumkin bo'lgan otlar qanday otlar hisoblanadi?
A. Atoqli otlar.
B. Turdosh otlar.
C. Aniq otlar.
D. Mavhum otlar.

14. Qaysi qatorda aniq ot mavjud?
A. Xayol. B. Aql.
C. Qalam. D. Do'stlik.

15. -lik, -ch, -inch kabi qo'shimchalar turdosh otning qaysi turini hosil qiladi?
A. Shaxs oti yasovchi qo'shimcha.
B. Narsa oti yasovchi qo'shimcha.
C. O'rın-joy oti yasovchi qo'shimcha.
D. Mavhum ot yasovchi qo'shimcha.

16. Qaysi javobdag'i ot ko'plik ma'nosida qo'llangan?
A. Baliqlar. B. Dadamlar.
C. Ko'zlarim. D. Oyimlar.

17. -cha, -choq, -chak kabi qo'shimchalar otlarning qanday shaklini hosil qiladi?

A. Shaxs otlarini.
B. Narsa otlarini.
C. Kichraytirish ma'nosini bildiruvchi otlarni.
D. Erkalash ma'nosini bildiruvchi otlarni.

18. -gina, -xon, -jon, -oy qo'shimchalari otning qanday shakli hisoblanadi?

A. Shaxs oti yasovchi qo'shimchalar.
B. Sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar.
C. Kichraytirish ma'nosini bildiruvchi qo'shimchalar.
D. Erkalash ma'nosini bildiruvchi qo'shimchalar.

19. Qaysi qatorda narsa otlarini hosil qiluvchi qo'shimchalar berilgan?
A. -gich, -gi, -don.
B. -lik, -chilik.
C. -soz, -dosh, -boz.
D. -zor, -iston, -loq.

20. Qaysi qatordagi so'z ot turkumiga mansub?

A. Boychechak.
B. Boyvachcha.
C. Badavlat.
D. Saxiy.

21. Ot turkumiga oid so'zlar nutqda har doim qanday shaklda bo'ladi?

A. Birlik yoki ko'plik shaklida.
B. Egalik shaklini olgan holda.
C. Kelishik shaklida.
D. Birlik yoki ko'plik va kelishik shaklida.

- 22.** -lar qo'shimchasi yordamida otlarda hosil qilinuvchi hurmat ma'nosini ifodalash uchun har doim qaysi qo'shimchaning bo'lishi shart?
- Kelishik qo'shimchalaridan biri.
 - Egalik qo'shimchalaridan biri.
 - Kelishik va egalik qo'shimchalaridan biri.
 - niki qo'shimchasi.
- 23.** Turlanish hodisasi qaysi so'z turkumiga xos?
- Sifat.
 - Son.
 - Ot.
 - Ravish.
- 24.** Ot bilan ot, odatda, qaysi kelishik qo'shimchasi bilan birikadi?
- Tushum kelishigi.
 - Jo'nalish kelishigi.
 - Qaratqich kelishigi.
 - Chiqish kelishigi.
- 25.** Ot so'z turkumiga kiruvchi so'zlar turlanganda qanday tovush o'zgarishiga uchrashi mumkin?
- 1) tovush tushishi; 2) tovush almashishi; 3) tovush orttirilishi.
- 1.
 - 2 va 3.
 - 1 va 3.
 - 1, 2, 3.
- 26.** Qaysi turkumdagi so'zlar otga bog'lanib, uning belgisini bildiradi?
- Fe'l – so'z turkumi.
 - Ot – so'z turkumi.
 - Sifat – so'z turkumi.
 - Son – so'z turkumi.
- 27.** Tarkibiy qismlarga bo'linmaydigan sifatlar qanday sifatlar hisoblanadi?
- Tub sifatlar.
 - Yasama sifatlar.
- 28.** Qaysi qatorda sifat yasovchi qo'shimchalar berilgan?
- zor, -iston, -loq.
 - li, -ser, -dor, -siz.
 - gich, -don, -oq.
 - soz, -boz, -vchi.
- 29.** -chan, -iy(viy), -ma, -no kabi qo'shimchalar qaysi so'z turkumini hosil qiladi?
- Fe'l – so'z turkumini.
 - Ot – so'z turkumini.
 - Sifat – so'z turkumini.
 - Son – so'z turkumini.
- 30.** Qaysi qatorda so'z sifat turkumiga mansub?
- Mevali.
 - Olmazor.
 - Gullar.
 - Terim.
- 31.** Qaysi qatorda qo'shma sifat berilgan?
- Qizil.
 - Och qizil.
 - Qip-qizil.
 - Katta-kichik.
- 32.** O'zarlo yaqin yoki zid ma'noli ikki asosning just kelishidan hosil bo'lgan sifatlar qanday sifatlar hisoblanadi?
- Sodda sifatlar.
 - Qo'shma sifatlar.
 - Just sifatlar.
 - Takroriy sifatlar.

- 33.** Belgini to'g'ridan-to'g'ri emas, balki boshqa bir tushunchaga nisbatan holda ifodalaydigan va daraja ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'limgan sifatlar qanday nomlanadi?
- Asliy sifatlar.
 - Nisbiy sifatlar.
 - Just sifatlar.
 - Takroriy sifatlar.
- 34.** Qaysi qatorda nisbiy sifat berilgan?
- Devoriy.
 - Jingalak.
 - Cho'zinchoq.
 - Shiddatl.
- 35.** Belgingin ortiq yoki kamlik jihatidan farqlanishi qanday ataladi?
- Asliy sifatlar.
 - Nisbiy sifatlar.
 - Just sifatlar.
 - Sifat darajalari.
- 36.** Qaysi qatordagi sifat darajasi -roq qo'shimchasi yordamida yasaladi?
- Oddiy daraja.
 - Qiyosiy daraja.
 - Orttirma daraja.
 - Ozaytirma daraja.

4-VARIANT

- 1.** Qaysi qatorda ozaytirma darajadagi sifat berilgan?
- Qoramtil.
 - Qora.
 - Qop-qora.
 - Tim qora.
- 2.** Sifatlarning ma'no guruhlari necha turli bo'ladi?
- 4.
 - 5.
 - 6.
 - 7.
- 3.** Qaysi qatordagi sifat xususiyat holatni ifodalaydi?

- A. Kamtar.** **B. Qizil.**
C. Achchiq. **D. Muattar.**
- 4.** Qaysi qatordagi sifat hajm-o'lchovni bildiradi?
- Katta.
 - Odobli.
 - Tonggi.
 - Xushbo'y.
- 5.** Qaysi qatordagi so'z makon-zamon sifatiga mansub?
- Uzun.
 - Keng.
 - Qadimgi.
 - Quvnoq.
- 6.** Qaysi javobda otlashgan sifat berilgan?
- Keksalar.
 - Yoshroq.
 - A'luchi.
 - Ilg'or.
- 7.** Quyidagi so'zlardan qaysi biri sifat turkumiga mansub?
- Chiroqli.
 - Ishchi.
 - Ko'ksulton.
 - Gultojixoroz.
- 8.** Sifat turkumidagi so'zlar qanday so'roqlarga javob bo'ladi?
- Kim, nima, qayer.
 - Qanday, qaysi, qanaqa.
 - Qachon, qayerda, qay tarzda.
 - Nechta, nechanchi, qanchadan.
- 9.** Belgingin odatdagи me'yorda ekanligini bildiruvchi va boshqa darajalar uchun xizmat qilishga asos bo'lgan sifat shakli qanday daraja hisoblanadi?
- Oddiy daraja.
 - Qiyosiy daraja.
 - Orttirma daraja.
 - Ozaytirma daraja.

- 10.** Qaysi qatorda sifat turkumiga oid so'z berilgan?
 A. Yong'in. B. Uchqun.
 C. To'lqin. D. Yorqin.
- 11.** Otlashgan sifat qaysi gapda berilgan?
 A. Yaxshi otga bir qamchi, yomon otga ming qamchi.
 B. Yaxshi bilan yursang, yetarsan murodga, yomon bilan yursang, qolarsan uyatga.
 C. Yaxshi so'z jon ozig'i.
 D. Yaxshi odamning yaxshiligi har yerda tegar.
- 12.** -in qo'shimchasi bilan yasalgan sifat qaysi qatorda berilgan?
 A. Yog'in. B. Qo'shin.
 C. Yig'in. D. Erkin.
- 13.** Qaysi qatorda nisbiy sifat berilgan?
 A. Chiroqli. B. Aqlli.
 C. Oilaviy. D. Chaqqon.
- 14.** -lar qo'shimchasi sonlarga qo'shilganda sonlarning qaysi turi hosil bo'ladi?
 A. Kasr son. B. Chama son.
 C. Tartib son. D. Dona son.
- 15.** Narsalar, belgi-xususiyatlar, harakat-holatlarning miqdori yoki tartibini bildiruvchi so'zlar qanday so'z turkumi hisoblanadi?
 A. Fe'l – so'z turkumi.
 B. Ot – so'z turkumi.
 C. Sifat – so'z turkumi.
 D. Son – so'z turkumi.
- 16.** Qaysi qatorda tartib son berilgan?
 A. Oltinchi. B. Oltita.
 C. Oltovlon. D. Oltitadan.
- 17.** -tacha, -lab, -larcha kabi qo'shimchalar sonning qaysi turini hosil qiladi?
 A. Dona son. B. Chama son.
 C. Jamlovchi son. D. Taqsim son.
- 18.** Butun miqdorning qismini ifodalovchi sonlar qanday son deyiladi?
 A. Dona son. B. Chama son.
 C. Jamlovchi son. D. Kasr son.
- 19.** Qaysi qatordagi birikma to'g'ri yozilgan?
 A. 6 – «б» sinf. B. 6 «Б» – sinf.
 C. 6 – «Б» sinf. D. 6 – «Б» sinf.
- 20.** -ov, -ala, -ovlon kabi qo'shimchalar sonning qaysi turini hosil qiladi?
 A. Sanoq son. B. Chama son.
 C. Taqsim son. D. Jamlovchi son.
- 21.** Sonning qaysi turi -tadan qo'shimchasi yordamida yasaladi?
 A. Tartib son. B. Dona son.
 C. Taqsim son. D. Chama son.
- 22.** Qaysi qatordagi birikma noto'g'ri yozilgan?
 A. VI asr. B. IV asr.
 C. 6 - sinf. D. Birinchı o'qituvchi.
- 23.** Yetmishta, qirqta so'zlar sonning qaysi turiga kiradi?
 A. Tartib son. B. Dona son.
 C. Taqsim son. D. Chama son.

- 24.** Gap tarkibida qo'llangan just sonlar asosan sonning ma'no jihatdan qaysi turiga mansub bo'ladi?
- Tartib sonlarga.
 - Jamlovchi sonlarga.
 - Chama sonlarga.
 - Qo'shma sonlarga.
- 25.** Nutqimizda saol ishlataladigan nechta tub son bor?
- 25 ta.
 - 23 ta.
 - 26 ta.
 - 24 ta.
- 26.** Qanday sonlar juftlashib kela olmaydi?
- Miqdor sonlar.
 - Chama sonlar.
 - Jamlovchi sonlar.
 - Tartib sonlar.
- 27.** Cho'ponlar har kuni tunda bittadan qo'y g'oyib bo'layotganini sezib qolishdi.
Ushbu gapdag'i sonning vazifasini aniqlang.
- Ega.
 - Kesim.
 - To'ldiruvchi.
 - Aniqlovchi.
- 28.** Harakat-holatning bajarilish tarzi, payti, o'rni, daraja-miqdori kabi belgilarni bildiruvchi so'zlar qaysi turkumga mansub?
- Fe'l - so'z turkumi.
 - Ot - so'z turkumi.
 - Sifat - so'z turkumi.
 - Ravish - so'z turkumi.
- 29.** Qaysi qatorda tub ravish berilgan?
- Ertalab.
 - Astoydil.
 - Taxminan.
 - Qahramonona.
- 30.** Just ravish berilgan qatorni belgilang.
- Oldin-ketin.
 - Sekin-sekin.
 - Oz-oz.
 - Ota-ona.
- 31.** Qaysi qatorda ravish yasovchi qo'shimchalar mavjud?
- cha, -lab, larcha, -ona.
 - li, -ser, -dor, -siz.
 - gich, -don, -oq.
 - soz, -boz, -vchi.
- 32.** Quyidagi so'zlardan qaysi biri holat ravishiga mansub?
- Yakkama-yakka.
 - Doimo.
 - Tashqari.
 - Ancha.
- 33.** Qaysi qatorda miqdor-daraja ravishi berilgan?
- Kam.
 - Ichkari.
 - Dastlab.
 - Qatorasiga.
- 34.** Qaysi qatordagi so'z payt ravishiga mansub?
- Tasodifan.
 - Erta-indin.
 - Olg'a.
 - Oz.
- 35.** Ko'p yaxshi o'yabsiz, ammo zaif sultanatingiz uzoqqa bormasa kerak.
Bu gapda qanday so'z turkumlari bor?
- Ot, ravish, fe'l, bog'lovchi.
 - Ot, ravish, fe'l, bog'lovchi, sifat.
 - Olmosh, ravish, fe'l, bog'lovchi.
 - Sifat, ravish, fe'l, bog'lovchi.
- 36.** Qaysi qatorda ravish turkumiga mansub so'z berilgan?
- Do'stona.
 - Go'zal.
 - Tong.
 - Saltanat.

7- SINF. ONA TILI

1-VARIANT

1. Boshqa so'zlar, shuningdek, so'z birikmasi va gap o'rniда almashinib qo'llanuvchi, ularga ishora qiluvchi yoki so'roq bildiruvchi so'zlar qaysi turkumga mansub?

- A. Ot. B. Olmosh.
C. Sifat. D. Son.

2. Qaysi qatorda belgilash olmoshi berilgan?

- A. Hech kim, hech narsa.
B. Kimdir, nimadir.
C. Barcha, bari, har bir.
D. Qancha, necha?

3. Qaysi qatorda kishilik olmoshlariiga to'g'ri ta'rif berilgan?

- A. Oldingi gap, gapdag'i biron-bir so'z, so'z birikmasi o'rniда qollanilib, unga ishora qiluvchi yoki biror so'zni aniqlab keluvchi olmoshlar.
B. Üch shaxsdan biriga ishora qiluvchi olmoshlar.
C. Kishilik olmoshi o'rniда qo'llanilib, ko'pincha shaxsni, ba'zan predmetni ko'rsatuvchi o'z so'zi.
D. Shaxs, narsa-hodisa, belgi-xususiyat, miqdor, sabab, maqsad, o'rin, payt haqidagi so'roqni bildiruvchi olmoshlar.

4. -Alla yoki -dir kabi qo'shimchalarni qo'shish yo'li bilan qaysi olmoshlar hosil bo'ladi?

- A. Belgilash olmoshlari.
B. Guman olmoshlari.
C. Bo'lishsizlik olmoshlari.
D. Kishilik olmoshlari.

5. Bo'lishsizlik olmoshlari yozuvda qanday yoziladi?

- A. Qo'shib yozildi.
B. Chiziqcha bilan yozildi.
C. Ajratib yozildi.
D. Vergul bilan yozildi.

6. Kamina so'zi qaysi so'z turkumi o'rniда ishlataladi?

- A. Ot. B. Sifat.
C. Son. D. Olmosh.

7. Faqat bir asosdan iborat bo'lgan olmoshlar?

- A. Juft olmoshlar.
B. Takroriy olmoshlar.
C. Sodda olmoshlar.
D. Qo'shma olmoshlar.

8. Belgini aniqlash uchun ishlataligan olmoshlar qaysi qatorda berilgan?

- A. Hech qanday, hech qaysi.
B. Har qaysi, har bir.
C. Allanima, allanarsa.
D. Qanday, qanaqa?

9. Tarkibida hech, bir qismlari mavjud bo'lgan olmoshlar?

- A. Juft olmoshlar.
B. Takroriy olmoshlar.
C. Sodda olmoshlar.
D. Qo'shma olmoshlar.

10. Bir-biriga mazmunan yaqin bo'lgan olmoshlarning birikuvidan hosil bo'lgan olmoshlar?

- A. Juft olmoshlar.
B. Takroriy olmoshlar.
C. Sodda olmoshlar.
D. Qo'shma olmoshlar.

- 11. Yo qudratingdan, bu qanday odam? Ushbu gapda olmoshning qaysi turi qo'llanilgan?**
- A. Kishilik olmoshi, so'roq olmoshi.
B. Ko'rsatish olmoshi, so'roq olmoshi.
C. Belgilash olmoshi, ko'rsatish olmoshi.
D. Gumon olmoshi, belgilash olmoshi.
- 12. Bir olmoshning aynan yoki ayrim tovush o'zgarishi bilan takrorlanishidan hosil bo'lgan olmoshlar.**
- A. Just olmoshlar.
B. Takroriy olmoshlar.
C. Sodda olmoshlar.
D. Qo'shma olmoshlar.
- 13. Bu, shu, o'sha so'zlari olmoshning qaysi turiga kiradi?**
- A. Kishilik olmoshi.
B. Ko'rsatish olmoshi.
C. Belgilash olmoshi.
D. Gumon olmoshi.
- 14. O'zingni er bilsang, o'zgani sher bil. Ushbu gapda olmoshning qaysi turi qo'llanilgan?**
- A. So'roq olmoshi.
B. O'zlik olmoshi.
C. Belgilash olmoshi.
D. Bo'lishsizlik olmoshi.
- 15. Majlisda bu masala haqida hech kim churq etmadidi. Bu gapdag'i olmoshlar qanday vazifada kelgan?**
- A. Ega, aniqlovchi.
B. Kesim, aniqlovchi.
C. To'ldiruvchi, aniqlovchi.
D. Aniqlovchi, hol.
- 16. Qaysi qatorda tub olmoshlar berilgan?**
- A. Kim, nima, allaqanday?
B. Hamma, barcha.
C. Allakim, hech bir.
D. Qaysidir, kimdir.
- 17. Qaysi so'z turkumi ba'zi so'z turkumlaridan qo'shimchalar qo'shish yoki sintaktik yo'l bilan yasalmaydi?**
- A. Ol. B. Sifat.
C. Olmosh. D. Fe'l.
- 18. Bu ko'ylik dugonamga yarashmadi. Ushbu misoldagi olmosh gapning qaysi bo'lagi bo'lib kelgan?**
- A. Ega. B. Kesim.
C. To'ldiruvchi. D. Aniqlovchi.
- 19. Qaysi qatorda egalik qo'shimchasini olib, uchchala shaxs kishilik olmoshini ko'rsata oladigan so'z berilgan?**
- A. O'z. B. Hamma.
C. O'sha. D. Hech kim.
- 20. Olmoshlar gapda qaysi gap bo'lagi vazifasida kelishi mumkin?**
- 1) ega; 2) kesim; 3) to'ldiruvchi;
4) aniqlovchi; 5) hol.
A. 1, 3, 4, 5. B. 1, 2, 4, 5.
C. 1, 2, 3, 4, 5. D. 1, 3.
- 21. Qaysi olmoshlar just holda ham ishlatalishi mumkin?**
- A. So'roq, belgilash olmoshlari.
B. Bo'lishsizlik, gumon olmoshlari.
C. Kishilik va ko'rsatish olmoshlari.
D. Olmoshlarning barcha turlari.

- 22.** *U. bu, shu olmoshlari qaysi kelishiklar bilan turlanganda kelishik qo'shimchasi oldidan bir -n tovushi orttiriladi?*
- Jo'nalish, o'rinn-payt, tushum kelishigi.
 - Jo'nalish, o'rinn-payt, chiqish kelishigi.
 - Qaratqich, jo'nalish, chiqish kelishigi.
 - Barcha kelishiklar bilan turlanganda.
- 23.** *Olmoshlar qaysi so'z turkumi o'rniда kelganida turlanadi?*
- Ot.
 - Sifat.
 - Son.
 - Fe'l.
- 24.** *Qaysi qatorda jamlash, umumlashtirish ma'nosini ifodalovchi olmoshlar berilgan?*
- Hech kim, hech qaysi.
 - Har bir, har qaysi.
 - Barcha, hamma, bari.
 - Allakim, allanima.
- 25.** *Turlanish qaysi so'z turkumlariga xos?*
- Ravish, olmosh.
 - Ot, olmosh.
 - Son, sifat.
 - Barcha so'z turkumlari.
- 26.** *Men, sen olmoshlari qaratqich kelishigi bilan turlanganda qanday tovush o'zgarishi ro'y beradi?*
- Tovush almashishi.
 - Tovush tushishi.
 - Tovush orturilishi.
 - Tovush o'zgarishi ro'y bermaydi.
- 27.** *Ko'plikdagи kishilik olmoshlarining qaysi biri uslubiy talab bilan birlikni ko'rsatuvchi olmosh o'rniда kelishi mumkin?*
- Ular.
 - Biz va siz.
 - Biz, siz, ular.
 - Siz.
- 28.** *Quyidagi olmoshlardan qaysi biri egalik qo'shimchasi bilan qo'llanmaydi?*
- Nima?
 - Kim?
 - Biz.
 - O'z.
- 29.** *Kishilik olmoshlari quyidagi qo'shimchalardan qaysi birini, odatda, olmaydi?*
- So'z yasovchi qo'shimchalarini.
 - Kelishik qo'shimchalarini.
 - Egalik qo'shimchalarini.
 - Ko'plik qo'shimchasini.
- 30.** *Qaysi qatorda olmoshdan yasalgan so'zlar berilgan?*
- Ularga, menimcha, unday.
 - Shunda, shu yerda, shuni.
 - Bugun, butun, birov.
 - Sensira, manmanlik, sizla.
- 31.** *Olmoshlarning qaysi turi sodda, qo'shma, just, takroriy shakllarga ega?*
- O'zlik olmoshi.
 - Belgilash olmoshi.
 - Ko'rsatish olmoshi.
 - Bo'lishsizlik olmoshi.
- 32.** *Qaysi so'z turkumlari yasalmaydi, yasalish uchun asos bo'ladi?*
- ot;
 - sifat;
 - son;
 - olmosh;
 - ravish;
 - fe'l;
- I, 2.
 - 3, 4.
 - 5, 6.
 - 2, 5.

- 33. -day. -dek qo'shimchalari qaysi so'z turkumlariga qo'shilganda bitta -n ortadi?**
- A. Otga.
 - B. Sifatga.
 - C. Songa.
 - D. Olmoshga.
- 34. Olmoshlarning qaysi turi egalik qo'shimchalari bilan kelib, shaxsning tanholigini ta'kidlaydi?**
- A. O'zlik olmoshi.
 - B. Ko'rsatish olmoshi.
 - C. Belgilash olmoshi.
 - D. Kishilik olmoshi.
- 35. Olmoshning qaysi turida kelishik qo'shimchasidan oldin egalik qo'shimchasing bo'lishi shart?**
- A. Kishilik olmoshi.
 - B. O'zlik olmoshi.
 - C. Ko'rsatish olmoshi.
 - D. So'roq olmoshi.
- 36. Meni, seni olmoshlariga qanday qo'shimcha qo'shilgan?**
- A. Egalik qo'shimchasi.
 - B. Kelishik qo'shimchasi.
 - C. Shaxs-son qo'shimchasi.
 - D. Lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha.
- 2-VARIANT**
- 1. Ismlarning ko'plik, kichraytirish-erkalash, qiyoslash ma'nolarini bildiruvchi qo'shimchalarga ega bo'lgan shakli qanday shakl hisoblanadi?**
 - 2. Mening onam – shifokor. Gapda qanday munosabat shakli qo'llangan?**
- A. Lug'aviy shakl.
 - B. Egalik shakli.
 - C. Kelishik shakli.
 - D. Bog'lamalar.
- B. Egalik shakli.**
- C. Kelishik shakli.**
- D. Kelishik va egalik shakli.**
- 3. Viloyat, shahar, tuman, korxona, muassasa nomlарida qo'llanilgan III shaxs egalik qo'shimchasi qanday ma'noni ifodalaydi?**
- A. Shaxsga qarashlilik ma'nosini.
 - B. Guman ma'nosini.
 - C. Xoslik ma'nosini.
 - D. So'roq ma'nosini.
- 4. Qaysi qatorda egalik qo'shimchalari berilgan?**
- A. -ning, -ni, -da.
 - B. -m, -im, -i.
 - C. -man, -san, -dir.
 - D. -gan, -kan, -qan.
- 5. Qorin so'ziga egalik qo'shimchasi qo'shilganda qanday tovush o'zgarishi hodisasi yuz beradi?**
- A. Tovush almashishi.
 - B. Tovush orttirilishi.
 - C. Tovush tushishi.
 - D. Hech qanday tovush o'zgarishi hodisasi yuz bermaydi.
- 6. Qaysi qatordagi qo'shimchalar ismlarning boshqa so'zlarga tobelantirib bog'lash uchun xizmat qiladi?**
- A. Egalik qo'shimchalari.
 - B. Kelishik qo'shimchalari.
 - C. Bog'lamalar.
 - D. So'z yasovchi qo'shimchalar.
- 7. Ozbek tilida nechta kelishik bor?**
- A. 4 ta.
 - B. 5 ta.
 - C. 6 ta.
 - D. 7 ta.

- 8. Qaysi kelishik kim, nima, qayer so'roqlariga javob bo'ladi?**
- Bosh kelishik.
 - Qaratqich kelishigi.
 - Tushum kelishigi.
 - O'rIN-payt kelishigi.
- 9. Quyidagi qo'shimchalardan qaysi biri otlarning munosabat shakllari hisoblanadi?**
- 1) kelishik qo'shimchalari; 2) egalik qo'shimchalari; 3) ko'plik qo'shimchasi; 4) otlarni kesimga xoslovchi shakllar; 5) so'z yasovchi qo'shimchalar.
- 1, 3, 5.
 - 2, 3, 4.
 - 1, 2, 4.
 - 2, 4, 5.
- 10. Uning hovlisini ko'rib, Saidaning og'zi ochilib qoldi. Ushbu gapdag'i qaralmish qaysi javobda berilgan?**
- Uning, Saidaning.
 - hovlisini, og'zi.
 - ko'rib, ochilib.
 - ko'rib, qoldi.
- 11. Tushum kelishigi shaklini olgan so'z doimo qaysi fe'lga bog'lanadi?**
- O'timli fe'lga.
 - O'timsiz fe'lga.
 - Bo'lishli fe'lga.
 - Bo'lishsiz fe'lga.
- 12. U o'qish niyatida shabarga yo'l oldi. Jo'naliш kelishigi shaklidagi so'z gapda qanday vazifada kelgan?**
- Ega.
 - Kesim.
 - To'ldiruvchi.
 - Hol.
- 13. Qaysi qatordagi so'z birikmasida imlo xato mavjud?**
- Qishloqqa bormoq.
 - Toqqa chiqmoq.
 - So'roqqa bormoq.
 - Bog'ga chiqmoq.
- 14. Qaysi javobdag'i kelishik qo'shimchalari qismni ifodalaydi?**
- Tushum kelishigi.
 - Jo'naliш kelishigi.
 - O'rIN-payt kelishigi.
 - Chiqish kelishigi.
- 15. -man, -san, -dir kabi qo'shimchalar qanday shakllarni hosil qiladi?**
- Egalik qo'shimchalarini.
 - Kelishik qo'shimchalarini.
 - Ismlarni kesimga xoslovchi shakllarni.
 - So'z yasovchi qo'shimchalarini.
- 16. Kitobni o'qidim. Ushbu gapda qaysi kelishik qo'shimchasi qo'llangan?**
- Bosh kelishik.
 - Qaratqich kelishigi.
 - Tushum kelishigi.
 - O'rIN-payt kelishigi.
- 17. Quyidagi qo'shimchalardan qaysi biri fe'llardagi sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha hisoblanadi?**
- 1) nisbat qo'shimchalari; 2) bo'lishsizlik qo'shimchasi; 3) vazifa shakllari qo'shimchalari; 4) zamon qo'shimchalari; 5) ko'makchi fe'llar; 6) mayl qo'shimchalari; 7) harakatning kuchsizlik darajasi, davomiyligini ko'rsatuvchi qo'shimchalar; 8) shaxs-son qo'shimchalari; 9) to'liqsiz fe'l.
- 2,4,6,8,9.
 - 1,3,5,7,9.
 - 1,4,5,6,7.
 - 2,3,5,8,9.

- 18. Ismlarning munosabat shakllari qo'shimchalarning qaysi turiga kiradi?**
- Sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar.
 - Lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar.
 - So'z yasovchi qo'shimchalar.
 - Munosabat shakllari qo'shimchalarning hcch qaysi turiga kirmaydi.
- 19. Qaysi qatordagi qo'shimchalar yangi so'z hosil qilmaydi?**
- ga, -da, -dan.
 - chi, -dosh, -kor.
 - la, -illa, -a.
 - zor, -iston, -loq.
- 20. Grammatik ma'no qaysi so'z turkumlari uchun xos?**
- Mustaqil so'z turkumlariga.
 - Yordamchi so'z turkumlariga.
 - Undov, taqlid, modal so'zlarga.
 - Barcha so'z turkumlariga.
- 21. Qaysi qatorda so'z yasovchi qo'shimchalarsiz yasalgan yasama so'z berilgan?**
- Ko'ksulton.
 - Gazetxon.
 - So'zlovchi.
 - Qahramonlarcha.
- 22. So'zning ma'noli qismlari deganda nima nazarda tutiladi?**
- So'zning asosi va so'z yasovchi qo'shimchalar.
 - So'zning asosi.
 - Asos va qo'shimchalar so'zning ma'noli qismlari hisoblanadi.
 - So'zning asosi va lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar.
- 23. Qanday sodda so'zlar tub so'zlar hisoblanadi?**
- Tarkibida so'z yasovchi qo'shimchalari bo'limgan so'zlar.
 - Tarkibida lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalari bo'limgan so'zlar.
 - Tarkibida sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalari bo'limgan so'zlar.
 - Sodda so'zlarning barchasi tub so'z hisoblanadi.
- 24. Kelishik qo'shimchalari qanday vazifani bajaradi?**
- So'z birikmasi va gaplarda so'zlarni bir-biriga bog'laydi.
 - Yangi so'z hosil qiladi.
 - Yangi so'z shakli hosil qiladi.
 - Juft so'zlarni hosil qiladi?
- 25. Qaysi qatorda sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha qo'shilgan so'z berilgan?**
- Ko'zim.
 - Qo'nim.
 - Bosim.
 - Olim.
- 26. Qaysi turkumdagи so'zlarda *–ning* shakli doimo qo'llanadi?**
- atoqli otlarda;
 - olmoshlarda;
 - sifatdoshlarda;
 - turdosh otlarda.
- 1, 2, 3.
 - 2, 3, 4.
 - 1, 3, 4.
 - 1, 3.
- 27. Qaysi kelishik qo'shimchasi butundan qism ma'nosini anglatadi?**
- Qaratqich kelishigi.
 - Tushum kelishigi.
 - O'rin-payt kelishigi.
 - Chiqish kelishigi.

- 28. Qo'shimchalarning vazifasiga ko'ra qaysi turi so'zga qo'shilib, uning turkumini o'zgartira oladi?**
- Lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar.
 - So'z yasovchi qo'shimchalar.
 - Sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar.
 - Munosabat shakllari.
- 29. O'rincay kelishigi qo'shimchalarini olgan otlar gapda qanday vazifani bajaradi?**
- o'rincay holi;
 - payt holi;
 - to'ldiruvchi;
 - kesim.
- | | |
|-------------|----------------|
| A. 1, 3, 4. | B. 1, 2, 3. |
| C. 2, 3, 4. | D. 1, 2, 3, 4. |
- 30. Mening, unga so'zlarida kelishik qo'shimchalar qo'shilgandan so'ng qanday tovush o'zgarishi kuza-tilyapti?**
- Tovush tushishi, tovush orttirilishi.
 - Tovush almashishi.
 - Tovush almashishi, tovush orttirilishi.
 - Tovush o'zgarishi yuz bermayapti.
- 31. Quyidagi qo'shimchalardan qaysi biri bog'lamlar hisoblanadi?**
- im, -ing, -i;
 - si, -miz, -lari;
 - ning, -ni, -ga;
 - man, -san, -dir;
 - bo'lmoq, hisoblanmoq, sanalmoq.
- | | | | |
|----------|----------|----------|----------|
| A. 2, 4. | B. 1, 2. | C. 3, 4. | D. 4, 5. |
|----------|----------|----------|----------|
- 32. Egalik qo'shimchasini olgan so'z o'zi bog'langan so'zda qaysi kelishik qo'shimchasingin bo'lishini talab iladi?**
- Qaratqich kelishigi.
 - Tushum kelishigi.
- 33. Kechasi ishlaydi, kunduzi uxlaysidi. Belgilangan so'zlarda qanday qo'shimchalar mavjud?**
- Egalik qo'shimchalari.
 - Shaxs-son qo'shimchalari.
 - Kechasi so'zidagi -si, kunduzi so'zidagi -i qo'shimchasi vazifasini yo'qtgan.
 - Lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar.
- 34. Qaysi qatorda berilgan so'zdagi egalik qo'shimchasi III shaxsga qarashlilikni bildirmaydi?**
- Maktab bog'i.
 - Toshkent shahri.
 - Daftar varag'i.
 - Ilon zahri.
- 35. Qaysi qatordagagi birikmalarda -i egalik qo'shimchasi qarashlilik ma'nosini bildiryapti?**
- Parg'ona viloyati.
 - O'zbekiston Respublikasi.
 - Mustaqillik maydoni.
 - O'tkir Hoshimov asarlari.
- 36. Chiqish kelishigini olgan otlar gapda qanday vazifada keladi?**
- o'rincay holi;
 - payt holi;
 - to'ldiruvchi;
 - sabab holi.
- | | |
|-------------|----------------|
| A. 1, 3, 4. | B. 1, 2, 3. |
| C. 2, 3, 4. | D. 1, 2, 3, 4. |

3-VARIANT

1. Atash ma'noli so'zlar yoki ular o'rnida qollanilib, ma'lum so'roq-larga javob bo'luvchi va gapda ma'lum gap bo'lagi vazifasida keluv-chi so'zlar...
- A. Mustaqil so'zlar.
B. Yordamchi so'zlar.
C. Alovida so'zlar.
D. Undalmalar.
2. Mustaqil so'z yoki gaplarni bir-biriga bog'lash, ularning ma'nolariga qo'shimcha ma'no yuklash vazifasini bajaruvchi so'zlar...
- A. Tasdiq so'zlar.
B. Inkor so'zlar.
C. Undov so'zlar.
D. Yordamchi so'zlar.
3. Ot, olmosh, harakat nomi va sifatdoshlardan keyin kelib, ularni hokim so'zga bog'lash uchun xizmat qiluvchi bilan, uchun, kabi, singari, orqali, sayin kabi so'zlar qanday so'zlar hisoblanadi?
- A. Ko'makchilar. B. Bog'lovchilar.
C. Yuklamalar. D. Undov so'zlar.
4. Qaysi qatorda sof ko'makchilar mavjud?
- A. Avval, keyin, so'ng.
B. Ost, ust, yon.
C. Bilan, uchun, sayin.
D. Bo'ylab, qarab, ko'ra.
5. Hovlidan oy yanglig' go'zal qiz chiqib keldi. Gapdag'i ko'makching ma'nosini aniqlang.
- A. Chegara ma'nosini ifodalamoqda.
B. Maqsad ma'nosini ifodalamoqda.
- C. O'xshatish ma'nosini ifodalamoqda.
D. Yo'nalish ma'nosini ifodalamoqda.
6. Gapning uyushiq bo'laklarini va qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni o'zaro bog'lash uchun xizmat qiluvchi yordamchi so'zlar...
- A. Ko'makchilar. B. Bog'lovchilar.
C. Yuklamalar. D. Undov so'zlar.
7. Qaysi qatorda zidlov bog'lovchilari berilgan?
- A. Va, hamda, bilan.
B. Ammo, lekin, biroq.
C. Yo ... yo, goh ... goh.
D. Na ... na.
8. O'zaro tobe munosabatda bo'lgan gap bo'lagi va gaplarni bog'lash uchun ishlataladigan bog'lovchilar qanday bog'lovchilar hisoblanadi?
- A. Teng bog'lovchilar.
B. Ergashtiruvchi bog'lovchilar.
C. Yakka bog'lovchilar.
D. Takror bog'lovchilar.
9. Qaysi qatorda sof bog'lovchi berilgan?
- A. Lekin, ammo. B. Bilan, ham.
C. -u (yu). D. -da, na ... na.
10. O'zaro bog'lanayotgan bo'lak yoki gaplardan birini boshqasidan ayirib ko'rsatuvchi bog'lovchilar...
- A. Biriktiruv bog'lovchi.
B. Zidlov bog'lovchi.
C. Ayiruv bog'lovchi.
D. Ergashtiruvchi bog'lovchi.

- 11. Ko'ngil, sen munchalar nega
Kishanlar birla do'stlashding?
Na faryoding, na doding bor,
Nechun sen muncha sustlashding?
She'rdagi boglovchining turini
aniqlang.
A. Biriktiruv bog'lovchi.
B. Zidlov bog'lovchi.
C. Ayiruv bog'lovchi.
D. Inkor bog'lovchi.**

- 12. Agar, basharti, garchi so'zlar
bog'lovchining qaysi turiga kiradi?
A. Teng bog'lovchi.
B. Aniqlov bog'lovchisi.
C. Sabab bog'lovchisi.
D. Shart bog'lovchisi.**

- 13. Chiroylidir go'yo yosh kelin,
Ikki daryo yuvar kokilin,
Qorli tog'lar turar boshida,
Gul vodiylar yashnar qoshida.
She'rdagi yuklamaning turi qaysi
javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
A. Guman yuklamasi.
B. Inkor yuklamasi.
C. Ayiruv-chegaralov yuklamalari.
D. O'xshatish-qiyoslash yuklamalari**

- 14. Bu qizcha shu topda undan jon
so'rasha, balki ayamasdi. Gapdag'i
bog'lovchining turini aniqlang.
A. Biriktiruv bog'lovchi.
B. Zidlov bog'lovchi.
C. Ayiruv bog'lovchi.
D. Ergashtiruvchi bog'lovchi.**

- 15. Ko'ksimdag'i sevinch shuncha zo'r,
Dumalayman maysada tanho.
Goh tentirab, ketaman uzoq,
Yerni quchib, o'paman goho.**

- She'rdagi bog'lovchining turini
aniqlang.
A. Biriktiruv bog'lovchi.
B. Zidlov bog'lovchi.
C. Ayiruv bog'lovchi.
D. Ergashtiruvchi bog'lovchi.**

- 16. So'z yoki gaplarga so'roq, ta'kid,
ayirish-chegaralash, guman, o'xshatish,
inkor kabi ma'nolarni yuklovchi
so'z va qo'shimchalar...
A. Ko'makchilar. B. Bog'lovchilar.
C. Yuklamalar. D. Undov so'zlar.**

- 17. -mi, -chi, -a (-ya) qo'shimchalar
yuklamaning qaysi turiga kiradi?
A. So'roq-taajjub yuklamalari.
B. Kuchaytiruv-ta'kid yuklamalari.
C. Ayiruv-chegaralov yuklamalari.
D. O'xshatish-qiyoslash yuklamalari.**

- 18. Qaysi qatorda so'zga qo'shib
yoziladigan yuklamalar berilgan?
A. -ku, -u, (-yu), -da.
B. -oq, -yoq, -mi.
C. na ... na.
D. -chi, -a (-ya).**

- 19. Qaysi holatlarda -u, -yu
yuklamasi so'zga qo'shib yozildi?
A. -u, -yu yuklamasi barcha hollarda
chiziqcha bilan yozildi.
B. -u, -yu yuklamasi barcha hollarda
so'zga qo'shib yozildi.
C. -u, -yu yuklamasi just so'zlar
orasida bog'lovchi vazifasini bajarsa
qo'shib yozildi.
D. -u, -yu yuklamalari ikki sodda
gapdan qo'shma gap hosil qilishda
qo'shib yozildi.**

- 20.** Bog'lovchilarning qaysi turi gaplarni ham, uyushiq bo'laklarni ham bog'lab kelishi mumkin.
- Tcng bog'lovchilar.
 - Ergashtiruvchi bog'lovchilar.
 - Teng va ergashtiruvchi bog'lov-chilar.
 - Barcha bog'lovchilar bog'lashi mumkin.
- 21.** Ko'makchiga xos xususiyat qaysi qatorda berilgan?
- Ko'makchilar lug'aviy ma'nno anglatadi.
 - Ko'makchilar ma'lum so'roqqa javob bo'ladi.
 - Ko'makchilar grammatik ma'noga ega.
 - Ko'makchilar yakka o'zi gap bo'lagi vazifasida kela oladi.
- 22.** Ko'makchilar qaysi kelishikdagi so'zlardan keyin qo'llanadi?
- bosh kelishik;
 - qaratqich kelishigi;
 - tushum kelishigi;
 - jo'nalish kelishigi;
 - chiqish kelishigi;
 - o'rinn-payt kelishigi.
- | | |
|----------------|----------------|
| A. 1, 3, 4, 6. | B. 1, 3, 4, 5. |
| C. 1, 2, 5, 6. | D. 1, 2, 4, 5. |
- 23.** Qaysi qatorda sof ko'makchilar berilgan?
- Qarshi, chog'li, doir.
 - Uzra, qadar, yanglig'.
 - Muvosiq, o'zga, boshqa.
 - Osha, bo'ylab, yarasha.
- 24.** Vazifadosh ko'makchilar berilgan qatorini aniqlang.
- Bo'yi, chamasi, holda.
- 25.** Garchi, mabodo, basharti bog'lovchilari mazmuniy munosabatlarni qay tarzda ifodalashiga ko'ra bog'lovchilarning qaysi turiga kiradi?
- Aniqlov bog'lovchilari.
 - Sabab bog'lovchilari.
 - Shart bog'lovchilari.
 - Teng bog'lovchilar.
- 26.** Qaysi yuklamalar o'zidan oldingi so'zga qo'shib yoziladi?
- mi; 2) -chi; 3) -oq; 4) -yoq; -5) a;
 - ya; 7) -gina; 8) -dir; 9) -u; 10) -yu;
 - 11) -da; 12) -ku.
- | | |
|---------------------|-------------------|
| A. 1, 3, 4, 11, 12. | B. 1, 2, 5, 6, 7. |
| C. 1, 3, 4, 7, 8. | D. 8, 9, 10, 11. |
- 27. 32.** Ayiruv chegaralov yuklamasi qaysi qatorda berilgan?
- gina.
 - da.
 - a.
 - dir.
- 28.** Bosh kelishikdagи so'zlar bilan qo'llanadigan ko'makchilar qatorini aniqlang.
- Old, o'rta, yon.
 - Bilan, uchun, kabi.
 - Tomon, qadar, ko'ra.
 - So'ng, avval, keyin.
- 29.** Qaysi qatorda sof ko'makchi qatnashgan gap berilgan?
- O'n chog'li odam to'plandi.
 - Asrlar osha yetib keldi.
 - Ariq bo'ylab yurishdi.
 - Sof ko'makchi qatnashgan gap berilmagan.

- 30.** Qaysi qatorda jo'nalish kelishigidiagi so'zlar bilan qo'llanadigan ko'makchilar berilgan?
- Bo'yicha, ichra, degan.
 - Nari, boshlab, tortib.
 - Asosan, binoan, muvosiq.
 - Tepa, ost, tag.
- 31. 28.** Ba'zan u keladi, ba'zan biz boramiz. Ushbu gapda bog'lovching qaysi turi qo'llangan?
- Zidlov bog'lovchi.
 - Ayiruv bog'lovchi.
 - Ergashtiruvchi bog'lovchi.
 - Bog'lovchi qo'llanmagan.
- 32.** Ham, hamda, bilan bog'lovchilar teng bog'lovchilarning qaysi turiga kiradi?
- Biriktiruv bog'lovchilari.
 - Zidlov bog'lovchilari.
 - Ayiruv bog'lovchilari.
 - Inkor bog'lovchilari.
- 33.** Qaysi qatorda bog'lovchi berilgan?
- Albatta.
 - Agar.
 - Hatto.
 - Axir.
- 34.** Qaysi qatordagi gaplarni yoki so'zлarni sof bog'lovchi bog'lagan?
- Akam bilan ukam kelishdi.
 - O'qishga qabul qilishdi ham stipendiya tayinlashdi.
 - Bundan keyin uning g'ayrati susaymadi, balki yana oshdi.
 - Agar ishimiz o'ngidan kelsa, bugun qaytiб ketamiz.
- 35.** Qaysi qatordagi gaplarni aniqlov bog'lovchisi bog'lagan?
- Ish o'z vaqtida bajarildi, chunki bunga puxta tayyorgarlik ko'rilgan edi.
 - U ko'rdiki, kamchiliklar ko'p.
 - Ular yetib kelsin uchun, Salimjon kutib turdi.
 - Agar hasharchilar kelishmasa, ishlarmiz chappasiga aylanadi.
- 36. Sof bog'lovchilar qaysi qatorda berilgan?**
- Agar, garchi.
 - Bilan, ham.
 - na, balki.
 - u, -yu, -da.

4-VARIANT

- His-hajon.** buyruq-xitobni ifodalovchi so'zlar qanday nomlanadi?

 - Undov so'zlar.
 - Taqlid so'zlar.
 - Modal so'zlar.
 - Tasdiq so'zlar.

- Yozuvda undov so'zlardan keyin qanday tinish belgisi qo'yiladi?**

 - Tire.
 - Vergul.
 - Ikki nuqta.
 - Qo'shtirnoq.

- O, o'g'lingga sen shafqatal tilarding-ku, onajon,**
Bundan ko'ra bag'rim o'ysang, bo'lardi-ku, onajon.
She'rdagi undovning turi qaysi javobda ko'rsatilgan?

 - His-hajon undovi.
 - Buyruq – xitob undovi.
 - Quvonch undovi.
 - Ishonch undovi.

- Narsalarning tovushiga va holatiga taqlidni bildirgan so'zlar qanda so'zlar hisoblanadi?**

- A. Undov so'zlar. B. Taqlid so'zlar.
 C. Modal so'zlar. D. Tasdiq so'zlar.
- 5. Namoz g'azabi oshib, dag'-dag' qaltiray boshladi.** Gapdag'i taqlid so'zning turi qaysi qatorda berilgan?
- A. Tovushga taqlid so'z.
 B. Holatga taqlid so'z.
 C. Tasdiq so'z.
 D. Inkor so'z.
- 6. Ifodalananayotgan fikrga so'zlovchining munosabatini (ishonch, gumon, achinish kabi) bildirgan so'zlar qanday so'zlar hisoblanadi?**
- A. Undov so'zlar. B. Taqlid so'zlar.
 C. Modal so'zlar. D. Tasdiq so'zlar.
- 7. Xayriyat, odamlarimizga insof va diyonat qaytib kelmoqda.** Gapdag'i modal so'zning ma'nosini qaysi qatorda berilgan?
- A. Gumon. B. Tasdiq.
 C. Achinish. D. Quvonch.
- 8. Qaysi qatorda tasdiq ma'nosini bildiruvchi modal so'z berilgan?**
- A. Albatta. B. Darhaqiqat.
 C. Masalan. D. Jumladan.
- 9. Qaysi qatorda tovushga taqlidni bildiruvchi so'zlar berilmagan?**
- A. Dik-dik, duv-duv, pildir-pildir.
 B. Dup-dup, duk-duk, qult-qult.
 C. Pix-pix, parr, viz-viz.
 D. Gumbur-gumbur, qag'-qag', uv.
- 10. Qaysi javobda sof modal so'z berilgan?**
- A. Albatta. B. Chamasi.
 C. Balki. D. Astidan.
- 11. Qaysi qatordagi gapda inkor so'z qatnashgan?**
- A. - Siz shu maktabda o'qiyisizmi?
 - Ha.
 B. - Sakkizinch sinfdami?
 - Yo'q, yettinchi sinfda.
 C. - Muzqaymoq yemaymizmi?
 - Mayli.
 D. - Yuring, salqinga o'tamiz.
 - Xo'p.
- 12. - G'ozlar, bir so'z deysizmi?**
- G'a - g'a -g'a!
 - Totli suli yeysizmi?
 - Ha - ha -ha! Gapda qanday so'z qo'llangan.
- A. Undov so'z. B. Inkor so'z.
 C. Modal so'z. D. Taqlid so'z.
- 13. Javoblarning qaysi birida undov so'z mavjud?**
- A. Hatto. B. Dag'-dag'.
 C. Iye. D. Beh-beh.
- 14. Qaysi qatordagi modal so'zlar xulosa ma'nosini bildiradi?**
- A. Demak, umuman.
 B. So'zsiz, shaksiz.
 C. Masalan, jumladan.
 D. Avvalo, qolaversa.
- 15. Qaysi qatorda vazifadosh modal so'z berilgan?**
- A. Balki, ehtimol, shubhasiz.
 B. Afsuski, attang, taxminan.
 C. Xullas, masalan, umuman.
 D. Shekilli, avvalo, darhaqiqat.
- 16. Modal so'zlar gapda ko'pincha qaysi vazifada keladi?**
- A. Ega. B. To'ldiruvchi.

- | | | |
|---|------------------------|---|
| <p>C. Hol.</p> | <p>D. Kirish so'z.</p> | <p>C. Mag'rurlanishni.
D. Hayratni.</p> |
| <p>17. Qaysi qatordagi gapda undov so'z kirish so'z vazifasida kelgan?</p> <p>A. Iye, men kimni ko'ryapman?
B. Dod! – ichkaridan dodlagan ovoz eshitildi.
C. Eh! Havo naqadar sof va yoqimli.
D. Shubhasiz, siz g'olibsiz.</p> | | |
| <p>18. Chuh deb otini haydadi. Gapdag'i undov so'z qaysi vazifani bajaryapti?</p> <p>A. Ega.
B. Aniqlovchi.
C. Hol.
D. Undov so'zlar gap bo'lagi vazifasida kelmaydi.</p> | | |
| <p>19. Qaysi qatorda tasdiq so'z berilmagan?</p> <p>A. Xo'p. B. Mayli.
C. Bo'pti. D. Aslo.</p> | | |
| <p>20. Shamol g'ir-g'ir esmoqda. Gapdag'i taqlid so'z qanday vazifani bajarmoqda?</p> <p>A. Ega. B. Kesim.
C. To'ldiruvchi. D. Hol.</p> | | |
| <p>21. Qaysi qatorda buyruq-xitob undovlari berilmagan?</p> <p>A. Hey, tss, chu, hoy.
B. Chu-chu, xo'sh, labbay.
C. Oh, voh, uh.
D. Kisht, ish-ish, xormang.</p> | | |
| <p>22. –O'h-ho'-o', – dedi Badia. Gapdag'i undov so'z qanday ma'noni ifodalayapti?</p> <p>A. Mammuniyatni.
B. Faxrlanishni.</p> | | |
| <p>23. Oh, falak yiqil boshimga. Ushbu gapdag'i undov so'z qanday ma'noni ifodalayapti?</p> <p>A. Rohatlanish. B. Zorlanish.
C. Norozilik. D. Achinish.</p> | | |
| <p>24. Darhaqiqat, pulsiz hech ish qilib bo'lmaydi. Gapdag'i modal so'z qanday ma'noni ifodalayapti?</p> <p>A. Ishonch munosabati.
B. Tasdiq munosabati.
C. Fikrning tartibi.
D. Fikrning dalili.</p> | | |
| <p>25. Shunday bo'lsa ham vujudini tutgan qalt-qalt titroqni bosib, hazilomuz qichqirdi. Gapdag'i <i>qalt-qalt</i> taqlid so'zi qanday vazifani bajaryapti?</p> <p>A. Ega. B. Aniqlovchi.
C. To'ldiruvchi. D. Hol.</p> | | |
| <p>26. Qaysi qatorda sof modal so'zlar berilgan?</p> <p>A. Avvalo, shubhasiz, xullas.
B. Haqiqatan, afsuski, attang.
C. Avvalambor, darhaqiqat, jumladan.
D. Masalan, astidan, chamasি.</p> | | |
| <p>27. So'zlovchining bayon etilayotgan fikriga taxmin yoki gumonni ifodalab keladigan so'zlar qanday nomlanadi?</p> <p>A. Modal so'zlar.
B. Taqlid so'zlar.
C. Yuklamalar.
D. Gumon olmoshlari.</p> | | |

- 28.** Modal so'z mavjud gapni toping.
A. Obbo, yana ish pachava deng.
B. Ofarin, azamatlar, ishni do'ndi-
ribsiz.
C. Ehtimol, avtobus bu yerda to'xta-
mas.
D. Bu yil hamma fanlarni a'llo bilan
yakunlashim shubhasiz.
- 29.** Modal so'zning sintaktik belgisi
qaysi qatorda berilgan?
A. Undalma vazifasida kelishi.
B. Kirish so'z vazifasida kelishi.
C. Ikkinchи darajali bo'lak vazifasida
kelishi.
D. Morfologik jihatdan o'zgarmaslik.
- 30.** Otlashgan taqlid so'z qaysi gap
tarkibida qo'llangan?
A. Yomon ishning oxiri voy.
B. Suvning shildir-shildiri kuchaydi.
C. Hovlida yugur-yugur boshlangan.
D. Tashqaridan shivir-shivir ovozlar
eshitilar edi.
- 31.** Fe'l so'z turkumi so'z yasovchi
qo'shimchalar orqali asosan qaysi so'z
turkumidan yasaladi?
A. Ot so'z turkumidan.
B. Sifat so'z turkumidan.
C. Undov so'z so'z turkumidan.
D. Taqlid so'z so'z turkumidan.
- 32.** Holatga taqlid so'zlar qatorini
toping.
A. Lik-lik, qult, pix-pix.
B. Yilt-yilt, jiq, dik.
C. Gurs-gurs, taq-tuq, lip.
D. Chip, yalt, tap-tap.
- 33.** Voy undovi qanday ma'no
nozikliklarini bildiradi?
A. Havas, zavq.
B. Qo'rquv, alam.
C. Qayg'u, tashvish.
D. Yuqoridagi larning barchasi.
- 34.** «O'h-ho', buncha katta ketdin-
giz!» Ushbu gapdagи undov so'z qaysi
ma'noni anglatyapti?
A. Mag'rurlanish.
B. Mensimaslik.
C. E'tiroz.
D. Qoyil qolish.
- 35.** Voyey, bolam boyaqish-ey. Ushbu
gapdagи undov so'z qanday ma'noni
anglatyapti?
A. Norozilik. B. Achinish.
C. Zorlanish. D. Xursandchilik.
- 36.** Vuy, juda qo'rqaqman. Ushbu
gapdagи vuy so'zi qanday so'z
hisoblanadi?
A. Kirish so'z. B. Undov so'z.
C. Taqlid so'z. D. Modal so'z.

8-SINF. ONA TILI

I-VARIANT

- 1. Otli birikmalar berilgan qatorni aniqlang.**
- Katta uy, zavodda ishlamoq, vazifani bajarish.
 - Asalday shirin, hammadan tez, katta bo'limoq.
 - Hammaga ayon, kitoblarga to'la.
 - Mashinada terish, radiodan eshitmoq, futbol o'yinab.
- 2. So'z birikmasi qaysi qatorda berilgan?**
- O'rta Osiyo.
 - Oq ko'ngil.
 - Ko'zi tushdi.
 - Va'dasiga vafodor.
- 3. Otli so'z birikmasini toping.**
- Og'zi qulog'ida.
 - Havo rang.
 - Vazifasini bajargan.
 - O'qishda birinchi.
- 4. Bosh so'z ravishdosh bilan ifodalangan se'lli birikmani toping.**
- Gulni sevmoq.
 - Senda ko'p.
 - Hurmat bilan yondashgan.
 - Do'stlikni qadrlab.
- 5. Bosh so'z fe'lning sifatdosh shakli bilan ifodalangan so'z birikmasini toping.**
- O'qigan bola.
 - Oldinga yurib.
 - Guldan nozik.
 - Qiyinchilik ko'rgan.
- 6. Teng bog'lanishli so'z qo'shilma qaysi qatorda berilgan?**
- Chiroli manzara.
 - Shoirlar bilan uchrashmoq.
 - Ishchilar va hasharchilar.
 - Vahimadan qutulish.
- 7. So'z qo'shilmasidagi so'zlarni tobe bog'lanishini toping.**
- Yoritadi, ammo isitmaydi.
 - Dam qizarib, dam oqardi.
 - Taklif, mulohazalar.
 - To'lqinlanib gapirmoq.
- 8. Ergash so'zlar ko'chma ma'no qo'llangan qatorni aniqlang.**
- Keng ko'cha, chiroli uy, achet sovuq.
 - Kumush qoshiq, temir intizom, ti soat.
 - Zumrad bahor, sovuq xabar, iss yuz.
 - Tikansiz gul, qo'li gul, g o'tqazdim.
- 9. Qaysi qatorda so'z birikma qo'llangan?**
- O'zbekiston Oliy Kengashi.
 - Va'da bo'yicha.
 - U keldi.
 - Shahar bog'i.
- 10. So'z qo'shilmasidagi so'zlarni bir-biri bilan bog'lanishi qay qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?**
- Boshqaruvi, moslashuv, bitishuv.
 - Otli birikma va se'lli birikma.
 - Bosh so'z va ergash so'z.
 - Teng bog'lanish va tol bog'lanish.

- 11.** Bosh so'z sisatdosh bilan ifodalangan so'z birikmasini aniqlang.
A. Vazifani bajarib.
B. Kelajakka umid.
C. Mehnatda sinalgan.
D. Muzeyga bormoq.
- 12.** Qaysi qatorda bosh so'z sisat bilan ifodalangan?
A. Shunday o'lka.
B. Halol ishlamoq.
C. Kuzgi bug'doy.
D. Qo'shiqqa ishqiboz.
- 13.** Tobe bog'lanishli so'z qo'shilmasini toping.
A. Markaziy Osiyo.
B. Va'dasiga vafo'dor.
C. Shaftoli va o'riklar.
D. O'qidi, lekin yozmadi.
- 14.** Qaysi javobda tobe so'z hokim so'zga ko'makchi yordamida birikkan?
A. Kutubxonaga bormoq.
B. Havoning sofligi.
C. Do'sti bilan suhbatlashmoq.
D. Qulog'iga shivirlamoq.
- 15.** So'z birikmasi berilgan qatorni toping.
A. Kumush qish.
B. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi.
C. U o'qidi.
D. Olma, o'rik va shaftoli.
- 16.** Qaysi qatorda so'z birikmasi mavjud?
A. Gapirib bermoq.
B. Holdan toymoq.
- C.** Tashrif buyurmoq.
D. So'z birikmasi berilmagan.
- 17.** So'zlar o'zaro teng bog'langanda, qanday vositalar orqali bog'lanishi mumkin?
A. Ohang va teng bog'lovchilar, teng bog'lovchilar vazifasidagi yordamchi so'zlar bilan.
B. Barcha bog'lovchilar bilan.
C. Faqat teng bog'lovchilar bilan.
D. Teng bog'lovchilar va teng bog'lovchi vazifasidagi ko'makchi va yuklamalar bilan.
- 18.** Qaysi javobda otli birikma berilgan?
A. Chirolyi yozmoq.
B. Yaxshi kaysiyat.
C. Kitobni o'qib.
D. Hikoyani bayon qilmoq.
- 19.** Ergash so'z bilan bosh so'zning birikish usullari ko'rsatilgan qatorni aniqlang.
A. Tobe bog'lanish va ergash bog'lanish.
B. Moslashuv, boshqaruv, bitishuv.
C. Ergash so'z va bosh so'z.
D. Bosh so'z bilan ergash so'zning mosligi.
- 20.** So'z birikmalari berilgan javobni toping.
A. Temir yo'l, Yaqin Sharq, ish boshi, Uchqo'rg'on.
B. Menga muntazir, noma'lum bir qo'shiq, yangi-yangi kitoblar.
C. Qirga ko'tarilmoq, po'stiga somon tiqmoq, Rustam – student, boshini olib chiqib ketmoq.

- D. Daryo boshlandi. Alisher o'qidi.
Men keldim.
- 21.** Keltirilgan misollarning qaysi biri teng bog'lanishi birikma hisoblanadi?
- Oppoq paxtazor.
 - Talabalar o'qimoqdalar.
 - Tog'lар va adirlar.
 - Karimning kitobi.
- 22.** So'z birikmasi berilgan qatorni toping.
- Tashrif buyurmoq.
 - Ko'ngli keng.
 - Gullar ochildi, qalam bilan.
 - So'z birikmasi berilmagan.
- 23.** Javoblarning qaysi birida so'z birikmasi berilgan?
- Qalam bilan.
 - Dala tomon.
 - Vatan uchun.
 - Bepoyon osmon.
- 24.** Quyidagi atamalarning qaysi biri sintaksisiga tegishli?
- Orttirma nisbat.
 - Modal so'z.
 - Taqlid so'z.
 - Tobe so'z.
- 25.** Qaysi qatorda so'z birikmasi mavjud?
- Keng paxtazor.
 - Savlat to'kib.
 - Qo'l urmoq.
 - O'qimoq va ishlamoq.
- 26.** Qaysi javobda otli birikma mavjud emas?
- Mayda qirqilmoq.
 - Anorning ikkitasi.
 - Mevalarning hammasi.
 - Shifoli suv.
- 27.** So'z qo'shilmasidagi so'zlarning teng bog'lanishi qaysi qatorda berilgan?
- Nafis tuyg'u, xalq tabobati.
 - Adolat va insof, suv va havo.
 - Xom meva, yaxshi o'smoq.
 - Teng bog'lanish berilmagan.
- 28.** Qaysi qatorda otli birikma mavjud?
- Barkamollikka erishgan, qonib ichdi.
 - Kitob haqida suhbatlashib, oynadek yarqirab.
 - O'quvchilarning beshtasi, hashar-chilarning barchasi.
 - Otli birikma berilmagan.
- 29.** Qaysi javobda so'z birikmasi berilgan?
- Dalalar ko'm-ko'k.
 - Yerimiz unumli.
 - Yorug' xona.
 - Murod indamadi.
- 30.** So'zlarning o'zaro teng bog'lanishi qaysi qatorda berilgan?
- Muhtasham shaharcha.
 - Kitobdan foydalinish.
 - Go'zallik va poklik.
 - Xushqomat yigitlar.
- 31.** Qaysi qatordagi so'z birikmada bosh (hokim) so'z se'lning ravishdosh shakli bilan ifodalangan?
- To'rtinchi fasl.
 - Mening o'yalarim.
 - O'ziga ishonish.
 - Kelajakni o'ylab.

2-VARIANT

32. Bosh (hokim) so'z fe'lning sifatdosh shakli bilan ifodalangan so'z birikmasini toping.

- A. Yerni zirillatib.
- B. Olomonning ovozasi.
- C. Mehnatda sinalgan.
- D. Yaxshi bilmoq.

33. Otli birikma qo'llanmagan qatorni aniqlang.

- A. Havo bulut.
- B. Shaxsiy ibrat.
- C. Novdalarning har biri.
- D. Stulning to'rttasi.

34. Gap qaysi qatorda berilgan?

- A. Qop-qora ko'zlar.
- B. Bog'lar go'zal.
- C. Katta umid.
- D. Achchiq piyozi.

35. Quyidagi so'zlardan qaysilari bir-biriga tobe bog'lanishi mumkin?

- 1) tol, terak; 2) hikoya, o'qimoq;
- 3) telefon, gapirmoq; 4) katta, oshqovoq;
- 5) uy, eshik; 6) o'rik, g'alla.
- A. 1.2.3.4.5.6. B. 2.3.4.5.6.
- C. 3.4.5.6. D. 2.3.4.5.

36. So'zning gapda gap bo'lagi vazifasida kelishi so'z turkumlarining qanday belgisi hisoblanadi?

- A. Morfologik belgisi.
- B. Sintaktik belgisi.
- C. leksik belgisi.
- D. Uslubiy belgisi.

1. Boshqaruv yo'li bilan bog'langan so'z birikmalari qatorini aniqlang.

- A. Ilmda o'tkir, derazani ochmoq, sahroga hujum.
- B. Ko'chaning chetida, chelakka solish, Sharifani ko'rish.
- C. Bog' tomonga yurish, kitob o'qish, keng uy.
- D. Paxta uchun kurash, daraxt bargi, onam uchun olmoq.

2. Qaysi qatorda ergash so'z bilan bosh so'zning moslashuvli birikishi berilgan?

- A. Do'stga sadoqat.
- B. Chiroli yozmoq.
- C. Maktab hovlisi.
- D. Suv bilan to'ldirmoq.

3. Birga o'qimoq, zavq bilan kuylamoq kabi birikmalardagi so'zlar o'zaro qanday yo'l bilan bog'langan?

- A. Moslashuv usuli bilan.
- B. Ko'makchili boshqaruv usuli bilan.
- C. Bitishuv usuli bilan.
- D. Kelishikli boshqaruv usuli bilan.

4. Boshqaruv yo'li bilan birikkan so'z birikmalari qatorini aniqlang

- A. Kichik korxona, yakuniy baho.
- B. San'at bayrami, dugonamning singlisi.
- C. Olma terish, sayr haqida suhbatlashish.
- D. Valining uyi, paxtakorlar yutug'i.

5. So'z birikmalarida bosh so'z boshqa so'zlar bilan qanday yo'l orqali bog'lanadi?

- A. Faqat teng bog'lanishi mumkin.
B. Teng va tobe bog'lanishi mumkin.
C. Faqat tobe bog'lanishi mumkin.
D. Kelishiklar va ko'makchilar orqali bog'lanishi mumkin.
6. Qaysi qatorda ergash so'z bilan bosh so'zning faqat moslashuvli birikishi berilgan?
A. Buloq suvi, oq paxta, ilonning yog'i.
B. Maktab kutubxonasi, bog' eshigi, bahor havosi.
C. Tonggi konsert, baxmal ko'rpa, toza ko'yak.
D. Yer yong'oq, bizning uy, kitob muqovasi.
7. Qaysi qatordagi ergash so'z bilan bosh so'zning tartibi o'zgartirilsa, gap hosil bo'ladi?
A. Maqola o'qimoq.
B. Toza havo.
C. Yura-yura charchamoq.
D. Suvga to'ldirmoq.
8. Boshqaruvli bog'lanishda kelishik qo'shimchalari va ko'makchilar odatda qaysi so'zlar tarkibida bo'ladi?
A. Bosh so'z tarkibida.
B. Ergash so'z tarkibida.
C. Bosh so'z yoki ergash so'z tarkibida.
D. Birikma oxiridagi so'z tarkibida.
9. Bitishuv munosabatidagi birikmlar berilgan qatorni aniqlang.
A. Yolg'ondan gapirmoq, tezda qaytmoq.
B. Ko'klam quyoshi, bahor tongi.
C. O'l kamiz chiroyli, maqtab bordi, ko'l suvi.
D. Xat yozdi, meva terdi, so'z sehri.
10. Quyidagilarning qaysi biri qaratqichli birikma hisoblanadi?
A. Oltin soat. B. Qiz ko'rg'i.
C. Peshinchog'i. D. Yog'och ko'priq.
11. Moslashuv yo'li bilan bog'langan birikmalarda ergash so'z bosh so'zga qanday vositalar yordamida bog'lanadi?
A. Ko'makchilar yordamida.
B. So'z tarkibi va tobe ohang yordamida.
C. Turli kelishik qo'shimchalari yordamida.
D. Qaratqich kelishigi va egalik qo'shimchalari yordamida.
12. Yomondan qoch, yaxshiga quchiq och. Ushbu maqolda so'zlarning o'zaro aloqasi qanday yo'l bilan amalga oshgan?
A. Gapda so'zlar teng va tobe bog'langan.
B. Boshqaruv va moslashuv yo'li bilan.
C. Faqat boshqaruv yo'li bilan.
D. Bitishuv va boshqaruv yo'li bilan.
13. 1. Ko'cha katta. 2. Taklif qilmoq.
3. Sotib olmoq. 4. Kulib gapirmoq.
5. Bir tup o'rik. 6. Maktab tomon. Yuqorida qaysi so'zlar birikuvidan so'z birikmasi hosil bo'lgan?
A. 1, 2, 4, 5. B. 3, 4, 6.
C. 3, 4, 5, 6. D. 4, 5.
14. Ergash so'z bilan bosh so'zning ko'makchi yordamida birikishi qaysi qatorda berilgan?
A. Fabrikada ishlamoq.
B. Ukasi uchun olmoq.

- C. O'qish orzusi.
D. Havodagi qushlar.
- 15. So'z birikmasidagi moslashuv qaysi qatorda berilgan?**
- A. Derazani ochmoq.
B. Moviy osmon.
C. Ilmda o'tkir.
D. O'rik danak.
- 16. Bitishuv yo'li bilan hosil bo'lgan so'z birikmasini aniqlang.**
- A. Bolalar haqida g'amxo'rlik.
B. Maktab hovlisi.
C. Zilol suv.
D. Gapirishga oson.
- 17. Ritorik so'roq gapni toping.**
- A. Farmonbibining uylari shumi?
B. Siz qayerdan, mehmon?
C. Tokaygacha ezilamiz, ota?
D. Sen mening gapimga qulog solgin...
- 18. Onajonim sog' bo'lsalar.** Ushbu gap ifoda maqsadiga ko'ra qanday gap hisoblanadi?
- A. Darak gap. B. So'roq gap.
C. Buyruq gap. D. Istak gap.
- 19. Bitishuv yo'li bilan bog'langan so'z birikmasi qatnashgan gapni aniqlang.**
- A. Zahar solmoq emish kasbi ilonning.
B. Men uyda qoladigan bo'ldim.
C. Gulni sevgan tikanni ham sevadi.
D. Iste'dodli o'quvchilar taqdirlandilar.
- 20. Egalik qo'shimchalari vositasida qanday birikma hosil bo'ladi?**
- A. Moslashuvli birikma.
B. Teng bog'lanishli birikma.
C. Boshqaruqli birikma.
D. Bitishuvli birikma.
- 21. Moslashuvli birikma qaratqich kelishigi qo'shimchasisiz hosil bo'lgan qatorni belgilang.**
- A. Hosil uchun kurash boshlandi.
B. Maktab kutubxonasiga badiiy kitoblar keltirildi.
C. Baland binolar qad ko'tarib turardi.
D. Keng dalada ish qizib ketgan edi.
- 22. Qanday so'z birikmalarida ergash so'z bosh so'zga grammatic vositalarsiz bog'lanadi?**
- A. Boshqaruvdva.
B. Moslashuvdva.
C. Bitishuvdva.
D. Boshqaruva va bitishuvdva.
- 23. So'zlarning boshqaruvi yo'li bilan bog'lanishi qaysi qatorda berilgan?**
- A. Hayotbaxsh modda.
B. Ukasi uchun olmoq.
C. Bog'ning eshibi.
D. Vasvasaga tushdi.
- 24. Faqat so'roq ohangi yordami bilan hosil bo'lgan so'roq gapni belgilang.**
- A. O'tkir Hoshimov asarlarini o'qiganmisiz?
B. Siz-chi?
C. Yaxshi qo'shiqni kim yoqtirmaydi?
D. -Bugun tunda yo'iga chiqamiz.
-Tunda?

- 25.** Misollarning qaysi biri ritorik so'roq gap?
- Shunday go'zal yurt dunyoning qayerida bor?
 - Xo'sh, o'zingizning ahvolingiz qanday, do'stim?
 - Soatim to'xtab qolibdi?
 - Buzilibdimi?
 - Nimadan xafasiz? Kim xafa qildi?
- 26.** Qaysi gapni so'roq olmoshi yordamida ritorik so'roq gapga almashtirish mumkin?
- Tog' orqasida shamol ko'tarildi.
 - Osmonda yulduzlar chamani porlaydi.
 - Tinch uuda janjal bo'lishini istaydi.
 - Siz odamlarni yaxshi bilasiz.
- 27.** Faqat so'roq ohangining o'zi bilan tuzilgan so'roq gapni aniqlang.
- Soat to'rt bo'libdi?
 - Bugun uni ko'rasiz-a?
 - Sizni qaysi mamlakatlar qiziqtiradi?
 - Yaxshini kim sevmaydi?
- 28.** Kimga qanday kitoblar zarur? So'roq gap qaysi vosita yordamida tuzilgan?
- Faqat qanday so'roq so'zi yordamida.
 - Faqat kim so'roq olmoshi ishtirotkida.
 - So'roq yuklamasi vositasida.
 - So'roq olmoshlari ishtirotkida.
- 29.** Ritorik so'roq gap berilgan qatorni aniqlang.
- Men u odamlarga nima yomonlik qilibman?
 - O'qish qachon boshlanadi?
 - Dadang qayerga borib kelganini aytaymi?
 - Xo'sh, qanday yangiliklar bor? – dedi O'ktam.
- 30.** Tashviq mazmunini ifodalovchi buyruq gap berilgan qatorni aniqlang.
- Ayajon, menga rahmat aytинг.
 - Bu vazifalarning hammasini hozirdanoq bajarishimiz kerak.
 - Salim ketgan joyga uni ham jo'natish kerak.
 - Ashuladan yana bo'lsin.
- 31.** Mammunlik mazmunini ifodalovchi his-hayajon gap berilgan qatorni aniqlang.
- Barakalla, barakalla, o'g'lim!
 - Muncha yaxshi yigit ekansiz!
 - E voh, esiz umr, esiz qizim!
 - Yana sizni ko'rib turganim qanday baxt-a.
- 32.** So'roq yuklamali so'roq gapni aniqlang.
- Shaharda qayoqdan ish topasan?
 - Umrindga birovga yaxshilik qilganmisan?
 - Senga ne bo'lidi?
 - Kim kimning onasi bo'ladi?
- 33.** Buyurish mazmuniga ega bo'lgan so'roq gapni toping.
- Shunaqa so'zlarni har kimga aytaverasizmi?
 - Olimjonni siz qachondan beri bilasiz? –Olimjonni?
 - Maktab qursa yomonmi?
 - Shomurod akamnikiga ketyapsizmi?

- 34.** So'roq Əlmoshi yordami bilan hosil bo'lgan so'roq gapni belgilang.
 A. Bizning to'g'rimizda yozyapti, fahmladingmi?
 B. Sobirjon, bugun qayerga bording?
 C. Og'ayni, biror kurortga bormadik, a?
 D. Qorqdingizmi?
- 35.** Faqat so'roq ohangi yordami bilan tuzilgan so'roq gapni aniqlang.
 A. Havo bosimi odamga ta'sir qilmaydimi?
 B. Demak, qiz yigit to'g'risida hech narsa bilmaydi?
 C. Sizning qanday arzingiz bor?
 D. To'g'ri javob yo'q.
- 36.** Tilakni bildirgan buyruq gapni ko'rsating.
 A. Yangi uya ko'chish kerak ekan, oyi.
 B. Uni, albatta, o'zingiz bilan olib keting, oyi.
 C. Oy borib, omon qayt, o'g'lim.
 D. U kelishi bilan daftarni, albatta, ko'rsating.
- 3-VARIANT**
- 1.** 1. Quyidagi gapda ega qaysi so'z turkumi bilan ifodalangan? **Yurgan – daryo, o'tirgan – bo'yra.**
 A. Ot bilan.
 B. Fe'l bilan.
 C. Otlashgan sifat bilan.
 D. Otlashgan sifatdosh bilan.
- 2.** **Tirishgan tog'dan osbar.** Ega qaysi so'z turkumi bilan ifodalangan?
 A. Ot bilan.
 B. Otlashgan sifatdosh bilan.
- C. Sifat bilan.
 D. Sifatdosh bilan.
- 3. Dilshodning tepe sochi tikka bo'ldi.** Ushbu gapda kesim qanday ifodalangan?
 A. Ot bilan.
 B. Sifat bilan.
 C. So'z birikmasi bilan.
 D. Ibora bilan.
- 4.** Gapdag'i kesimni aniqlang. **Somon birovnikи bo'lsa ham, somonxonа o'zingniki bo'lsin.**
 A. Bo'lsa ham.
 B. Bo'lsa ham, bo'lsin.
 C. O'zingniki bo'lsin.
 D. Birovnikи bo'lsa ham, o'zingniki bo'lsin.
- 5.** Ega qatnashgan gapni aniqlang.
 A. Jon qizim, o'zingni ehtiyoq qil.
 B. El og'ziga elak tutib bo'lmaydi.
 C. Aqlni beaqldan o'rgan.
 D. Ilm ahllari voqeadan xabardor bo'ldilar.
- 6.** Qaysi gap bo'lagi kimning, nimaning so'roqlariga javob bo'ladi?
 A. Ega. B. To'ldiruvchi.
 C. Aniqlovchi. D. Hol.
- 7.** Qaysi qatorda belgisiz qaratqich aniqlovchi qatnashgan?
 A. El og'ziga elak tutib bo'lmaydi.
 B. Musiqa eng qiyin, tushkunlikka tushgan paytlarda kishini ruhiy tetiklikka chorlaydi.
 C. Mard maydonda bilinadi.
 D. Birovning aybiga ko'z-qulog bo'lma.

- 8. Bog‘laringni sayr etganimda**
Sen bor eding qalbda, vatanim.
Yuqoridagi misralardagi egani aniq-
lang.
- A. Sen. B. Vatanim.
 C. Sayr. D. Qalbda.
- 9. Qaysi gapda ega bilan kesim**
orasida tire ishlatlilishi kerak?
- A. Har bir bolaning eng muqaddas
 burchi o‘qishdir.
 B. Kulish umrni uzaytirish vositasi.
 C. Bu qiz Mahbubanining dugonasi
 Ozoda edi.
 D. Hayot go‘zal.
- 10. Otlashgan so‘z bilan ifodalangan**
to‘ldiruvchini toping.
- A. Sen o‘zingni maqtama, seni birov
 maqtasin.
 B. Qo‘rqqanga qo‘sh ko‘rinar.
 C. Kulgi yuzni go‘zal qiladi.
 D. Dardsiz odamdan ijodkor chiq-
 maydi.
- 11. Ko‘pdan quyon qochib qutulmas.**
Ushbu maqolda to‘ldiruvchi vazifa-
sida qo‘llangan so‘z qaysi so‘z turku-
miga mansub?
- A. Son. B. Sifat.
 C. Ravish. D. Ot.
- 12. Vositasiz to‘ldiruvchi ishtirok**
etgan gapni toping.
- A.Qaychi olib kelma, pichoq olib kel..
 B. Inson go‘zallikka intiladi.
 C. Yomon bilan yo‘ldosh bo‘lma.
 D. Bu roman Pirimqul Qodirov
 tomonidan yozilgan.
- 13. Vositali to‘ldiruvchining so‘roq-**
lari qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?
- A. Kimga, Nimaga, Kimda, Nimada,
 Kimni.
 B. Qayerni, Qayerga, Qayerda,
 Qayerdan.
 C. Kim bilan. Nima bilan. Kimning.
 Nimaning.
 D. Kimga, Nimaga, Kimda, Nimada,
 Kimdan, Nimadan, Kim bilan, Nima
 bilan, Kim haqida. Nima haqida,
 Kim tomonidan.
- 14. Ko‘p o‘yla, oz so‘zla. Ushbu gapda**
holning qaysi turi qo‘llangan?
- A. Miqdor holi.
 B. Vaziyat (ravish) holi.
 C. Maqsad holi.
 D. Sabab holi.
- 15. Maqsad holi ishtirok etgan gapni**
aniqlang.
- A. Biz bahorda tog‘ga lola sayliga bordik.
 B. U uyalganidan qizarib ketdi.
 C. Bizning mardlar ko‘kka parvoz
 qilmoqda.
 D. Inson amaliy tafakkurni o‘rganish-
 ga hamisha ehtiyoj sezadi.
- 16. Gap bo‘laklarining odatdagি**
tartibi qaysi qatorda qo‘llangan?
- A. Gulga to‘lsin bu yorug‘ dunyo.
 B. Muhabbat husndir har bir insonga.
 C. Dugonam osongina qutulgani
 uchun behad quvondi.
 D. Siz yoqqansiz menga hamisha.
- 17. Gap bo‘laklarining o‘zgargan**
tartibi qaysi qatorda qo‘llangan?
- A. O‘z kasbini sevmagan baxtiyor
 bo‘lmaydi.

- B. Mehnat sharaflı yakun bilan fazilatlidir.
- C. Nega lablarimda kezar tabassum?
- D. Temirchi qo'shnimizning bu jasorati meni hayratga soldi.
18. Ko'p bilgan oz so'zlar. Ushbu gapdagi holning ifodalanishi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?
- A. Son bilan. B. Sifat bilan.
- C. Olmosh bilan. D. Ravish bilan.
19. Vositasiz to'ldiruvchiga qaysi qatorda to'g'ri ta'rif berilgan?
- A. Tushum va qaratqich kelishigidan boshqa kelishikdagisi so'zlar bilan ifodalangan to'ldiruvchilar.
- B. Ayrim ko'makchilar bilan kelgan so'zlar orqali ifodalangan to'ldiruvchilar.
- C. Tushum kelishigidagi so'zlar orqali belgili yoki belgisiz ifodalangan to'ldiruvchilar.
- D. Narsa-buyum, shaxsning belgisini bildirgan so'zlar.
20. **Orqada qolganlarning holiga voy!..** Ushbu gapda kesim qaysi so'z turkumi bilan ifodalangan?
- A. Undov so'z bilan.
- B. Qo'shma fe'l bilan.
- C. Fe'l bilan.
- D. So'z birikmasi bilan.
21. Ot kesimli gapni aniqlang.
- A. O'sha kuni sovuq qattiq edi.
- B. Pastak eshik g'irchillab ochildi.
- C. Shoikrom qizining gapini eshitmadidi.
- D. Xadichanining uzunchoq sarg'ish yuzi qizardi.
22. Sifatlovchi o'z sifatlanmishiga qanday yo'l bilan birikadi?
- A. Moslashuv yo'li bilan.
- B. Bitishuv yo'li bilan.
- C. Boshqaruv yo'li bilan.
- D. Moslashuv yoki bitishuv yo'li bilan.
23. Nega shuncha go'zal ko'rinar olam? Ushbu gapda kesimdan oldin kelgan gap bo'lagi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?
- A. Vositali to'ldiruvchi.
- B. Vositasiz to'ldiruvchi.
- C. Maqsad holi.
- D. Ravish holi.
24. Gapda tufayli ko'makchisi bilan kelgan so'zlar odatda holning qaysi turiga mansub bo'ladi?
- A. Ravish holiga.
- B. O'rinni holiga.
- C. Sabab holiga.
- D. Payt holiga.
25. **Yaxshi qiz – yoqadagi qunduz.** Ushbu gap qanday gap bo'laklaridan tashkil topgan?
- A. Aniqlovchi, ega, to'ldiruvchi, kesim.
- B. Ega, hol, kesim.
- C. Ega, kesim.
- D. Ega, kesim, to'ldiruvchi.
26. Qaysi qatorda ega bilan kesim orasida tire noto'g'ri qo'yilgan?
- A. Butun umidimiz – sendan.
- B. Bilim olish – yuksalish.
- C. Besh karra besh – yigirma besh.
- D. Hunarlining qo'li – gul.

- 27.** Qaysi gapda izohlovchi qo'llangan?
- A. Kayfiyatsiz kishining ishi qachon o'ngidan kelgan?
 - B. Xursandchilik kishining hayotga muhabbatini oshiradi.
 - C. Qish faslining manzaralari zavqli bo'ladi.
 - D. Vatan – Ona so'zi naqadar laziz!
- 28.** Ot bilan ifodalangan sifatlovchi aniqlovchi qaysi gapda qo'llangan?
- A. Bir azobning bir rohati bor.
 - B. Oltin kuz mevalarni g'arq pishirdi.
 - C. Supada qator o'tiribmiz.
 - D. Shu paytda uy eshigi ochildi.
- 29.** Payt holi qo'llangan qatorni aniqlang.
- A. Borida g'arra-g'arra, yo'g'ida bandayi bechora.
 - B. Soy tubida toshlar jimirlab ko'r-nadi.
 - C. Oqayotgan tiniq suv quyosh nurida go'yo oynadek yarqiramoqda.
 - D. Tog'ning ro'parasida ko'z ilg'ammas tekisliklar yastanib yotadi.
- 30.** O'rIN holi ishtirok etgan gapni toping.
- A. Obodonchilik ishlari hali oldinda.
 - B. Qor yog'ar – osmondan oq ukpar tushar.
 - C. Biz avtobusda keldik.
 - D. Daraxtlarning shoxi qushlardan egildi.
- 31.** Otlashgan sifatdosh ega vazifa-sida qo'llangan misolni aniqlang.
- A. Yurgan – daryo, o'tirgan – bo'yra.
 - B. Tezyurar poyezdda ketdi.
- 32.** Chiqish kelishigi shaklidagi so'zning to'ldiruvehi vazifasida kelishi qaysi qatorda berilgan?
- A. Anvar bolalikdan otlarni sevgan.
 - B. G'ulomjon uyidan erta chiqib ket-gan ekan.
 - C. Sultanovning gapini chin yurakdan qarshiladi.
 - D. Uyimiz pishiq g'ishtdan qurilgan edi.
- 33.** Hol qaysi gapda qo'llangan?
- A. Insonning ulug'ligi, go'zalligi mehnat tufayli.
 - B. Qiz yigitning so'zlarini diqqat bilan tingladi.
 - C. Hamma uning nimalardir gapiri-shini kutar edi.
 - D. O'qituvchilar butun insoniyatning kelajagini tarbiyalaydilar.
- 34.** Vositasiz to'ldiruvchi qaysi gap tarkibida qo'llangan?
- A. Keldi ochilur chog'ing, o'zliging namoyon qil.
 - B. Odam mehnatda bilinadi.
 - C. Inson hamisha go'zallikka intiladi.
 - D. Yigitga mardlik yarashadi.
- 35.** Ibora bilan ifodalangan to'ldi-ruvchi qaysi qatorda berilgan?
- A. Adashganni yo'iga sol.
 - B. Erini aldagani och qolar.
 - C. Og'zi bo'shga ishonib bo'lmaydi.
 - D. Qo'rkoqqa hurmat yo'q.

36. Aniqlovchi qo'llangan gapni toping.

- A. Mehmon izzati bilan ulug'.
- B. Qo'shiqni zavq bilan tingladik.
- C. Birdan duv-duv gap bo'lib qoldi.
- D. Mehnat insonni ulug'laydi.

4-VARIANT

1. Qaysi qatorda ega ham qatnashgan undalmali gap mavjud?

- A. Asabga zo'r bermang, odamlar...
- B. Salom senga, bahor ko'rki - majnuntol.
- C. Umidaxon, bu kishiga kabinetlarini ko'rsating.
- D. Ko'ngil, sen munchedalar nega kishanlar birla do'stlashding?

2. Qaysi javobda yoyiq undalmali gap berilgan?

- A. Behudaga, o'g'lim, egma bosh.
- B. Otello, Otello, sening ishqiningdan, Hayratga tushishning o'zi bir sevgi.
- C. Ulug' Mirzom, qo'rwmang, hali susayganim yo'q.
- D. Amudaryo, seni qalbdan kuylayman.

3. Qaysi qatorda uyushiq undalmali gap berilgan?

- A. Baxtiyor yosliar, to'g'ri yo'lidan adashmang, yoslikni behuda o'tkazmang.
- B. Buvijon, bobojon, meni tabriklang!
- C. Nazm tuz, Erkin, axir, erkin zanondir bu zamon.
- D. - Menda ixtiyor yo'q, oyijon! - dedi Kumush.

4. Gumanoni bildiradigan kirish so'z qaysi qatorda berilgan?

A. Zokir ota, shubhasiz, juda tajribali paxtakor.

B. Menimcha, u bugun-erta o'yini o'ylab olgani ma'qul.

C. Chamamda, hali-beri yetib bormaymiz.

D. Xullas, qo'shiq yana avjga mindi.

5. Qaysi qatorda kirish gap qo'llangan?

- A. Yolg'iz borishga, to'g'risini ayt-sam, qo'rqaman.
- B. Kecha, desangiz, yomg'ir yog'ib qoldi.
- C. To'g'ri, o'zbek adabiyotining tarixi ming yillar bilan belgilanadi.
- D. Sharqning kattakon adabiyotini bilish uchun, afsuski, bizning yoshlariimizda intilish yo'q.

6. – Sen daftar oldingmi?

– Oldim.

Ushbu to'liqsiz gapda qaysi gap bo'laklari ifodalanmagan?

- A. Ega va to'ldiruvchi.
- B. Aniqlovchi va kesim.
- C. Ega va kesim.
- D. Ega.

7. Qaysi qatorda kirish so'z qatnashgan?

- A. Mingboshi o'sha kunni zo'rg'a o'tkazdi.
- B. Ko'chalar, odatdagicha, gavjum.
- C. Men yer haydashni, ketmon chopishni yaxshi ko'raman.
- D. Yer kuch bilan, ter bilan unum beradi.

8. Qaysi javobdagi gapda undalma ishtirot etgan?

- A. O'quvchilar gazeta va jurnallarga obuna bo'lmoqda.
- B. Bolalar nafasini ichiga tortib o'tirishdi.
- C. Xayribibining tarvuzi qo'llitig'idan tushdi.
- D. So'zla. ko'zgujon. haqiqatni et bayon.
- 9. Uyushiq bo'lakli sodda gap berilgan qatorni aniqlang.**
- A. Soy guvillab oqar va uning muzdek shamoli qirg'oqda tartibsiz o'sgan o'tlarni silkitar edi.
- B. O'qishlik kitob yozish. uning har sahifasini kitobxonga manzur qilish. kitobxонни quvontirish. uning ko'nglini topish oson ish emas (S.Ahmad.).
- C. Bahor keldi. gul ochildi. chaman bo'ldi yurtimiz.
- D. Ilmlı ming yashar. ilmsiz bir yashar.
- 10. Sodda va qo'shma gaplar. asosan. qaysi xususiyatga ko'ra farqlanadi?**
- A. Sodda va qo'shma gaplar tarkibidagi bo'laklarning ko'p yoki ozligiga ko'ra.
- B. Grammatik asoslar miqdoriga ko'ra.
- C. Qo'shma gapda ikki va undan ortiq alohida sodda gaplar ishtirok etishiga ko'ra.
- D. A va C.
- 11. Qaysi javobda undalmaga xos xususiyat berilgan?**
- A. Undalmalar gap bo'laklari bilan ma'no jihatdan bog'lanmaydi.
- B. Undalmalar gap bo'laklari bilan grammatik jihatdan bog'lanmaydi.
- C. Gapda undalma va kesim qatnashsa. sodda yoyiq gap hisoblanadi.
- D. So'zlovchining fikriga guman. ishonch. taxmin singari ma'nolarni qo'shadigan so'zlar undalma deyiladi.
- 12. Undalmalar odatda qaysi shaxsga qaratilgan bo'ladi?**
- A. I shaxsga. B. II shaxsga.
- C. III shaxsga. D. II yoki III shaxsga.
- 13. Bir bosh bo'lakli gap qaysi qatorda berilgan?**
- A. Halol mehnat kishini ulug'laydi.
- B. Yaxshilar ko'paysin. yomon qolmasin.
- C. Yomon bilan yurdim – qoldim uyatga. yaxshi bilan yurdim – yetdim murodga.
- D. Aytilgan so'z – otilgan o'q.
- 14. Qaysi qatordagi gapda yoyiq undalma qatnashgan?**
- A. Asabga zo'r bermang. odamlar.
- B. She'r aytgim kelyapti. aziz do'stlarim... (G'. G'ulom.)
- C. Oyi. oyi. menga - chi. tutib bersin bir chumchuq.
- D. Archa. archa. archacha. yaproqlaring ninacha.
- 15. Qaysi qatorda bir bosh bo'lakli gap mavjud?**
- A. Odamga nisbatan ko'ngilchan. rahmdil bo'lish kerak.
- B. Nahotki. bugun yomg'ir yog'sa?
- C. Hayotning go'zalligi ham xalqlarning rang - barangligida emasmi?
- D. Saida bu suhbatni diqqat bilan kuzatdi.

- 16. Grammatik asosiga ko'ra gaplar qanday turlarga bo'linadi?**
- Sodda gap va qo'shma gap.
 - Yig'iq gap va yoyiq gap.
 - To'liq gap va to'liqsiz gap.
 - Bir bosh bo'lakli va ikki bosh bo'lakli gaplar.
- 17. – Imtihonlarga puxta tayyorgarlik ko'rdingmi?**
- **Ha, tayyorgarlik ko'rdim.** Ushbu gapdagi ha so'zini qanday izohlaysiz?
- Gap.
 - So'z gap.
 - Kirish so'z.
 - Atov gap.
- 18. Ikki bosh bo'lakli sodda gapni aniqlang.**
- Tuyani cho'mich bilan sug'orib bo'lmaydi.
 - Hazillashganda ham aqlni ishlatib hazillashing.
 - Insonni bilish uchun uni sevish kerak.
 - Yaxshi qiz – yoqadagi qunduz.
- 19. Qaysi qatorda bir bosh bo'lakli gap qo'llangan?**
- Qo'rkoq hamma narsadan mahrum.
 - Oyni etak bilan yopib bo'lmas.
 - O'tgan narsa hamisha totli.
 - Yetmish go'zallikning biri – mehnat.
- 20. Qaysi javobda shaxsi umumlashgan gap berilgan?**
- Aruz vaznining ohangini yurak urishiga o'xshataman.
 - Zo'r quvonchga saqat katta mehnat bilan erishish mumkin.
 - Bahor. Atrof juda go'zal.
 - Olim bo'lsang olam seniki.
- 21. Atov gap qo'llangan qatorni toping.**
- Haqiqatni yashirib bo'lmaydi.
 - Ko'p yig'lasang, ko'zdan ajraysan.
 - May... Ajoyib so'lim bir bahor!
 - Ishing oldinga surilishini istasang, tabassumli bo'l.
- 22. So'z – gap qaysi qatorda berilgan?**
- Siz ham shunday o'ylaysizmi?
 - Aksincha.
 - Ertaga teatrga borasanmi?
 - Yo'q, borolmayman.
 - Avlod uchun otadan ham ulug'roq kishi bormi?
 - Bor.
- D. Hayot kitobiga hech qachon yakun yasab bo'lmaydi.**
- 23. Guman ma'nosini bildirgan kirish so'z qaysi qatorda qo'llangan?**
- Xullas, o'zbek paxtakori mo'l hosil yetishtirish uchun hamma kuch vositalariga ega bo'lishi kerak.
 - Darvoqe. bu gap agronomning uyida ham aytilgan edi.
 - Baxtimga, onajonim omon bo'lsin.
 - Chamamda, paxtakorlar agronoming sikriga qo'shilishmadi.
- 24. Qaysi qatorda ikki bosh bo'lakli gap berilgan?**
- Siz bilan bu haqda gaplashishga to'g'ri keladi.
 - Siz bilan biz ulug' ishga bel bog'ladik.
 - Kattaga hurmatda, kichikka izzatda bo'l.
 - Endi astoydil o'qishga to'g'ri keladi.

25. Ehtiyot bo'lib gaphirish kerak.
Qaysi javobda ushbu bir bosh bo'lakli gapning turi ko'rsatilgan?
A. Shaxsi noma'lum gap.
B. Shaxsi ma'lum gap.
C. Shaxsi umumlashgan gap.
D. Atov gap.

26. Qaysi qatorda bir bosh bo'lakli gap berilgan?
A. Bu yil olma bilan o'rik hosili mo'l bo'ldi.
B. Sochilgan urug' tez unib chiqdi.
C. Ishyoqmasga ish buyursang, senga aql o'rgatar.
D. Suvlar tiniq, yaproqlar oltin.

27. Kirish so'z ishtirop etgan gap qaysi qatorda berilgan?
A. Inson tez o'tuvchi orzu-havaslarga o'yinchoq bo'lmasligi kerak, To'g'onbek.
B. Kunduzi bo'lsa, o'zingdan o'tar gap yo'q. xunukroq ko'rindisi.
C. Zerikmaslik uchun, menimcha, biror ish bilan mashg'ul bo'lishing kerak.
D. Eshit, qizim Parizod, chiqaribsani yomon ot.

28. Gapning kesimiga asoslanib, egasini aniqlash mumkin bo'lgan bir bosh bo'lakli gapni toping.
A. Shaxsi ma'lum gap.
B. Shaxsi noma'lum gap.
C. Shaxsi umumlashgan gap.
D. Atov gap.

29. Dunyoda eng ulug' zot bo'lgan onani kim sevmaydi? Mazkur gap haqidagi qaysi hukm to'g'ri?

- A. Sof so'roq gap.
- B. Ritorik so'roq gap.
- C. His-hayajon gap.
- D. Buyruq gap.

30. Ey Navoiy, dema, qosh-u ko'zining vasfini ayt, Qoshi yosinmu deyin, ko'zi qarosinmu deyin.
Mazkur misralarda undalma kimga qaratilgan?
A. Tinglovchiga qaratilgan.
B. So'zlovchiga qaratilgan.
C. Uchinchi shaxsga qaratilgan.
D. Jonsiz narsalarga qaratilgan.

31. Sodda yig'iq gap qaysi javobda berilgan?
1. Havo salqin.
2. Mard odam boshqalarga qaragan-da himmatliroq bo'ladi.
3. Yashamoq – harakat qilmoq.
A. 1 va 2. B. 2va 3.
C. 1. D. 1 va 3.

32. Shaxssiz gapni aniqlang.
1. Hazilni ham tuzga o'xshab me'yorida ishlatalish kerak.
2. Asl donishmanddag'i eng zarur belgini uning sabr bardoshidan bilish mumkin.

3. Har holda atamalarni tartibga solishda mantiqli me'yorni unutmaslik kerak.
A. 1 va 2. B. 2 va 3.
C. 1 va 3. D. 1, 2, 3.

33. Tasdiqni ifodalovchi so'z – gap qaysi qatorda berilgan?
A. – Bu gap esingdan chiqmasin.
– Xo'p, taqsir.
B. – Mayli o'tgan ishga salovat.

C. – U ham boradimi?

– Yo'q.

D. – Rahmat, rahmat, – dedi uyalib Nafisa.

34. Aniqlovchi tushirilgan to'liqsiz gapni toping.

A. – Ukang ketdimi?

– Ketdi.

B. – Salimaning opasi keldimi?

– Opasi keldi.

C. – Akang qachon keladi?

– Ertaga.

D. – Kim vazifani bajarmadi?

– Hamma bajardi.

35. Holli yoyiq gap berilgan qatorni toping.

1. Sidiqjon ertasiga qushday bo'lib turdi.

2. Paxtalar qiyg'os ochildi.

3. Ko'zi yaxshi ko'radi.

A. 2 va 3. B. 1 va 3.

C. 1 va 2. D. 1, 2, 3.

36. Eganing asosiy grammatik shaklini belgilang.

1. Ot turkumiga xos bo'lishi.

2. Kesimdan oldin kelishi.

3. So'zning bosh kelishikda bo'lishi.

A. 1. B. 2.

C. 3. D. 1, 2, 3.

9- SINF. ONA TILI

I-VARIANT

1. Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni o'zaro biriktiruvchi vositalar qaysi qatorda to'liqroq aks etgan?

A. Bog'lovchilar.

B. Yuklamalar.

C. Bog'lovchilar, ayrim fe'l shakllari, yuklamalar, ohang.

D. Fe'lning shart mayli, ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi shakllari.

2. Shu payt to'satdan ko'cha eshigi sharaqlab ochildi-yu, Zunnunxo'ja xalloslagancha kirib keldi.

Ushbu misol bog'langan qo'shma gapning qaysi turiga mansub?

A. Biriktiruv munosabatlari bog'langan qo'shma gap.

B. Zidlov munosabatlari bog'langan qo'shma gap.

C. Ayiruv munosabatlari bog'langan qo'shma gap.

D. Inkor munosabatlari bog'langan qo'shma gap.

3. Biriktiruv munosabatlari bog'langan qo'shma gap qaysi qatorda berilgan?

A. Aziz Kamolov minbarga ko'tarildi hamda ta'sirli nutq so'zladi.

B. Suv keldi – nur keldi.

C. Bahaybat fil xartumini suvg'a solishi bilan suvdagi to'lin oy birdan qalqiy boshladi.

D. Men shunday sekin so'zlaymanki, hech kim eshitmaydi.

- 4. Berilgan gap qo'shma gapning qaysi turiga mansub?**
Ro'paradagi g'orming bag'ridan qora tutun ko'tarildi va yerdan yo'tal tovushi eshitildi.
- Biriktiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gap.
 - Zidlov bog'lovchili bog'langan qo'shma gap.
 - Ayiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gap.
 - Inkor bog'lovchili bog'langan qo'shma gap.
- 5. Zidlov munosabatli bog'langan qo'shma gapni toping.**
A. Ko'nglimni zavq asir etdi-yu, yosh boladay har yon yugurdim.
B. Agar bir kishi bir donadan ko'chat o'tqazsa, diyorimiz bog'-u bo'stonga aylanadi.
C. Dilimizda orzu balandroq edi, lekin ko'kram noqulay keldi.
D. Tong paytida esadi yellar va soylarda suvlar shovullar.
- 6. Berilgan qo'shma gap qanday bog'lovchi yordamida bog'langan?**
Dam kun birdan qizib ketadi, dam bulut kelib jala quyadi.
- Ayiruv bog'lovchisi.
 - Zidlov bog'lovchisi.
 - Biriktiruv bog'lovchisi.
 - Ergashtiruvchi bog'lovchi.
- 7. Ayiruv munosabatli bog'langan qo'shma gapni belgilang.**
A. Hamma narsaga qiziqishing yo'qolsa, xotirangdan ham ayrilasan.
B. Bema'ni fikrlar har kimda ham bo'ladi, faqat aqlli kishigina uni ishlatmaydi.
- C. Yo siz keling, yo men boray.**
D. Go'zallik kishi uchun katta baxt. ammo mehnatsevarlik bebahो ziynatdir.
- 8. Biriktiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gap ifodalangan qatorni aniqlang.**
- Lolalar uchun ostob yaxshidir.
 Bolalar uchun odob yaxshidir.
 - O'ziga berilgan aqlsiz tentak bo'lsa, o'zini bezagan xushro'y satangdir.
 - Qo'zg'olar, ko'pirar tomirlarda qon Va portlar hademay bu o'tli vulqon.
 - Haq yo'linda kim senga bir harf o'qitmis ranj ila, aylamak oson emas haqqin ado ming ganj ila.
- 9. Bu daraxtning bo'yи baland, lekin mevasi kam.** Berilgan gap qo'shma gapning qaysi turiga kiradi?
- Ayiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gap.
 - Inkor bog'lovchili bog'langan qo'shma gap.
 - Zidlov bog'lovchili bog'langan qo'shma gap.
 - Biriktiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gap.
- 10. Qo'shma gapning teng huquqli qismlarini bog'lashda ushbu bog'lovchilardan qaysi biri ishtirot etadi?**
- 1) va;
 - 2) hamda;
 - 3) ammo;
 - 4) lekin;
 - 5) chunki;
 - 6) shuning uchun.
- 1, 2, 5, 6.
 - 1, 3, 4, 5.
 - 2, 3, 5, 6.
 - 1, 2, 3, 4.
- 11. Oy tunda kerak, aql esa kunda kerak.** Berilgan gap qo'shma gapning qaysi turiga kiradi?

- A. Ergashgan qo'shma gap.
- B. Bog'lovchisiz qo'shma gap.
- C. Bog'langan qo'shma gap.
- D. Murakkab qo'shma gap.

12. Bog'langan qo'shma gapni aniqlang.

- A. Mashrab shuni yaxshi biladiki. o'rtog'i uni aldamaydi.
- B. Yo urug' aynigan. yo agrotexnika qoidalari buzilgan.
- C. Kim ichkilikdan madad istasa. o'sha go'r atrosida bo'ladi.
- D. Kun issiq edi. shuning uchun u cho'milgani ketdi.

13. Berilgan gap qo'shma gapning qaysi turiga kiradi? Yo zardo'zi to'ning to'zibmi qoldi. Yoki so'kildimi suvsar telpaging.

- A. Bog'lovchisiz qo'shma gap.
- B. Murakkab qo'shma gap.
- C. Ergashgan qo'shma gap.
- D. Bog'langan qo'shma gap.

14. Biriktiruv munosabatlari bog'langan qo'shma gap qatorini aniqlang.

- A. Mahkam salomlashib o'tib ketmoqchi bo'ldi. biroq Mirsaid to'xtatdi.
- B. Masofa yiroq – ko'ngil yaqin.
- C. Dunyoda biz bormiz – tinchlik buzilmas.
- D. Kuzning o'rtalarida havo bir-ikki daf'a aynidi hamda vodiyya qalın tuman tushdi.

15. Jahl – dushman, aql esa do'stdir. Berilgan gapning qismlari o'zaro qanday vosita yordamida bog'langan.

- A. Ohang yordamida bog'langan.
- B. Esa so'zi yordamida bog'langan.
- C. Zidlov bog'lovchisi yordamida bog'langan.
- D. Ayiruv bog'lovchisi yordamida bog'langan.

16. To'g'ri so'z har narsadan yaxshi, biroq yolg'onchi va chaqimchidan eshitilgan to'g'ri so'z ham yoqimsizdir. Ushbu gap haqidagi qaysi hukm to'g'ri?

- A. Biriktiruv munosabatlari bog'langan qo'shma gap.
- B. Zidlov munosabatlari bog'langan qo'shma gap.
- C. Ayiruv munosabatlari bog'langan qo'shma gap.
- D. Inkor munosabatlari bog'langan qo'shma gap.

17. Ayiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gap berilgan qatorni belgilang.

- A. Ko'z yoshi yo ko'ngildagi g'amg'ussaning damini kesish, yo berahmnning rahmini keltirish uchun to'kiladi.
- B. Uyatsizlik – hamma narsa uchun ziynatdir.
- C. Hozir uning ko'ksi goh og'rituvchi. goh yupantiruvchi kechinmalar bilan to'la edi.
- D. Dam kun qizib ketadi. dam jala quyadi.

18. Bog'langan qo'shma gapni aniqlang.

- A. Ongli kishi deyilsa, ongga ega, aql-idrokli odam tushuniladi.
- B. Shuni bilingki, vaqtning qadriga yetish lozim.

- C. Agar shu topshiriqni bajarmasa, obro'yi bir pul bo'ladi.
- D. Rostgo'ylik odamni kamolotga yetaklaydi, yolg'onchilik esa uni halokatga olib boradi.
- 19. Gulchehra «piq» etib kuldida, cho'zilib tugunni oldi.** Ushbu qo'shma gapning qismlari o'zaro qaysi vosita yordamida bog'langan?
- A. Faqat ohang yordamida.
- B. Yuklama yordamida.
- C. Zidlov bog'lovchisi yordamida.
- D. Ayiruv bog'lovchisi yordamida.
- 20. Zidlov bog'lovchili bog'langan qo'shma gapni aniqlang.**
- A. Har kimning zari bo'lmasa-da, hunari bo'lsin.
- B. Mashhur qora qashqa ayg'irining chilvirini xirmondag'i bolalarga tutqazdi-da, dabdurustdan chollar bilan gaplashib turgan Komilaga yuzlandi.
- C. To'satdan eshik sharaqlab ochildi-yu. Ostonada Eltoyev paydo bo'ldi.
- D. Inobat qizishib ketib, pisandaga o'tganini endi payqadi.
- 21. Odam umrining lazzati – farzand, lekin noqobil farzand ota-onaning umrimi qisqartiradi.** Berilgan gap qo'shma gapning qaysi turiga kiradi.
- A. Biriktiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gap.
- B. Zidlov bog'lovchili bog'langan qo'shma gap.
- C. Ayiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gap.
- D. Inkor bog'lovchili bog'langan qo'shma gap.
- 22. Qaysi qatorda zidlov bog'lovchisi yordamida bog'langan qo'shma gap berilmagan?**
- A. Qilgan xatolaringni o'lguningcha ko'z o'ngingda tut, ammo qilgan yaxshiliklarining unut.
- B. Xalqqa xayr-u ehson qilish naqadar ulug' fazilat, biroq bu xayr-u ehson beg'araz bo'lsa, yana ham yaxshi.
- C. Har bir narsa aqlga muhtoj, aql esa tajribaga muhtojdir.
- D. O'yalamoq yaxshi narsa, biroq ko'p o'ylab xayolparast bo'lish zararlidi.
- 23. Zidlov bog'lovchili bog'langan qo'shma gap berilgan qatorni belgilang.**
- A. Adabiyotga o'g'ri mushukka o'xshab tuynukdan oshib tushadi-ganlar ham bo'ladi.
- B. Taqdirimiz birdir, go'zalim. Gar o'rtada daryo bo'lsa ham.
- C. ...odam gapni qay tarzda gapirganligi emas, nima deganiga qaralsa, durust bo'lar.
- D. Mol-u puling ketsa ketsin, ammo vaqtingni zoye ketkizma.
- 24. Qaysi qatorda zidlov bog'lovchisi yordamida bog'langan qo'shma gap berilmagan?**
- A. Jondan ortiq narsa yo'q, lekin do'stlar uchun jonimiz fido.
- B. Oradagi masosa yiroq, ammo mehr bizni bog'lab turadi.
- C. Kishini tabiat vujudga keltiradi, ammo uni jamiyat kamol toptiradi.
- D. Shu onda chiroq o'chdi va birdaniga o'q uzildi.

- 25.** Zidlov munosabati ifodalangan bog'langan qo'shma gapni aniqfang.
 A. Na hamdard kishisi bor, na ovuntiradigan mashg'uloti.
 B. Kuz tushdi, tog' cho'qqilarini qor bosdi.
 C. Kechasi yana qor yoqqan, biroq havo unchalik sovuq emas edi.
 D. Iqror bo'lismim kerakki, dehqonchilik mening ishim emas ekan.
- 26.** Ta'lrim faqat so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi, tarbiya esa amalish ish, tajriba bilan amalg'a oshiriladi. Berilgan gap qo'shma gapning qaysi turiga mansub?
 A. Bog'lovchisiz qo'shma gap.
 B. Murakkab qo'shma gap.
 C. Ergashgan qo'shma gap.
 D. Bog'langan qo'shma gap.
- 27.** Botirlari kanal qazadi, Shoirlari g'azal yozadi. Ushbu gapning turini belgilang.
 A. Shart ergash gapli qo'shma gap.
 B. Yoyiq sodda gap.
 C. Uyushiq bo'lakli sodda gap.
 D. Bog'lovchisiz qo'shma gap.
- 28.** Bog'langan qo'shma gap qaysi qatorda berilgan?
 A. Shuni bilki, odamlar do'stlik tufayli baxtiyordir.
 B. Yaxshi fikr tiniq uslubni talab qiladi, uslub esa fikr libosidir.
 C. O'z tilingni hurmat qil, u senga keng imkoniyatlar ochib beradi.
 D. Dunyo ko'rgan odam bilan hamsuhbat bo'lsang, bahri diling ochiladi.
- 29.** Voqeа-hodisalarning o'zaro zidlanish mazmunini ifodalagan bog'langan qo'shma gapni toping.
 A. Bu odam to'nkarilib qolgan qo'ng'izga o'xshaydi, o'nglab qo'yadiganlarning qo'lini sasitadi.
 B. Do'st yomon kuningda asqtadi, biroq qo'rqaq do'st yaxshi kuningda ham dushmanidan xavfidir.
 C. Ba'zi so'zlarda sehr bo'ladi, ba'zi she'rlarda hikmat bo'ladi.
 D. Xitoya borib bo'lsa-da, ilm istangiz.
- 30.** Biriktiruv munosabatlari bog'langan qo'shma gap qaysi qatorda berilgan?
 A. Oy yoritadi, ammo isitmaydi.
 B. Dasturxon ustida dam o'zbek kuylari yangraydi, dam hind qo'shiqlari ijro qilinadi.
 C. Unda na hayo bor, na ibo.
 D. Sarkarda jangga sovut-dubulg'asiz, qalqonsiz kirar hamda bu jangda uning qo'shini hamisha g'alaba qilarkan.
- 31.** Inkor munosabati ifodalangan bog'langan qo'shma gapni belgilang.
 A. Afsuski, bu gapga qoyil qoladigan odam atrofda yo'q edi.
 B. Na kunduz oromim bor.
 Na uyquda halovat.
 C. Ikki tirsagim zarang yerga qattiq urildi, lekin og'riq sezmadim.
 D. Shaxmat o'ynar ekan. Azizning qo'li goh baland kelar, goh mag'lub bo'lardi.

32. Tovus o'zining chiroyli patini ehtiyyot qiladi, vijdonli odam esa o'zining sharaf-u shonini saqlaydi.
Berilgan gap qo'shma gapning qaysi turiga kiradi?

- A. Murakkab qo'shma gap.
- B. Bog'langan qo'shma gap.
- C. Ergashgan qo'shma gap.
- D. Bog'lovchisiz qo'shma gap.

33. Men kuyladim goh dilda qadar, Goh sevinib she'r to'qiyman men.
Berilgan gapning turini aniqlang.

- A. Bog'langan qo'shma gap.
- B. Bog'lovchisiz qo'shma gap.
- C. Payt ergash gapli qo'shma gap.
- D. Natija ergash gapli qo'shma gap.

34. Qaysi qatorda bog'langan qo'shma gap berilgan?

- A. Adab kichkinalar mehrini ulug'lar ko'ngliga soladi va u mehr kattalar ko'nglida abadiy qoladi.
- B. Haqiqiy olim o'zining ilmi bilan maqtanmaydi, chunki u o'zidan ham zo'r olim va fozil borligini biladi.
- C. Badanning quvvati – ovqat, aqlning kaliti – hikmat.
- D. Kimning qalbi pok bo'lsa, u to'g'ri va baxtli hayot kechirishga haqli.

35. Ayiruv munosabatni ifodalagan bog'langan qo'shma gapni toping.

- A. Aka va singil ko'chadagi harakatni goh eshikka chiqib. goh uy derazasidan kuzatishdi.
- B. Boyagi izg'irin pasaygan, lekin kun sovuq edi.
- C. Mahbuba shaharga kelib, unga telefon qilganini goh afsuslanib. goh kulib gapirib berdi.

D. Dam jahlim chiqadi, dam kulgim qistaydi.

36. Qaysi qatorda bog'langan qo'shma gap berilgan?

- A. Ilm – bir daraxt. odob esa uning mevasidir.
- B. Kitob insondan hech narsa tilamaydi, chunki u odob-axloqning koni, bilimning bulog'idir.
- C. Do'stlikdan o'tadigan hech narsa yo'q. shuning uchun do'st orttirish imkoniyatini sira qo'ldan boy berma.
- D. O'zingga do'st tanla, chunki bir o'zing baxtli bo'lomaysan.

2-VARIANT

1. Qanday gaplar tarkibida bosh gaplar mavjud bo'ladi?

- A. Bog'langan qoshma gaplarda.
- B. Ergashgan qoshma gaplarda.
- C. Bog'lovchisiz qoshma gaplarda.
- D. Qo'shma gaplarning barcha turlarida.

2. Ergash gapning qaysi turida bosh gapning kesimi ko'rsatish olmoshi bilan ifodalanadi?

- A. Ega ergash gaplarda.
- B. Kesim ergash gaplarda.
- C. To'ldiruvchi ergash gaplarda.
- D. Natija ergash gaplarda.

3. Har kimki o'ziga ehtiyyot bo'lsa, birovni o'g'ri tutmas.

- A. Natija ergash gapli qo'shma gap.
- B. Sabab ergash gapli qo'shma gap.
- C. Shart ergash gapli qo'shma gap.
- D. Ega ergash gapli qo'shma gap.

- 4. Quyidagi gap ergash gapning qaysi turiga mansub? Xatolari, nuqsonlari ko'p bo'lsa ham ishdan chetlatishmadni.**
- Ergash gapli qo'shma gap.
 - Natija ergash gapli qo'shma gap.
 - Sabab ergash gapli qo'shma gap.
 - To'siqsiz ergash gapli qo'shma gap.
- 5. Ergash gapli qo'shma gapni aniqlang.**
- Qayerda do'stlik bo'lmasa, shu yerda ishning rivoji ham bo'lmaydi.
 - Muhabbat eski narsa, ammo har bir yurak uni yangilaydi.
 - Orzular buyukdir, umrlar qisqa.
 - Yo'qolgan moddiy boylikning o'rnnini to'ldirish mumkin, ma'naviy boylikdan judo bo'lish -ulug' fojia.
- 6. Ega ergash gapli qo'shma gapni ko'rsating.**
- Daraxtni yer ko'kartiradi, odamni el ko'kartiradi.
 - Agar seni aldasa hayot.
Sen noumid bo'lma hech qachon.
 - Mirzakarimboy qishloqi jiyani bilan so'zlashishdan to'xtagan bo'lsa ham, fikri yigitni o'rganish bilan mashg'ul edi.
 - Kim mehnatni sevsasi, u qadrli bo'ladi.
- 7. To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gapni aniqlang.**
- U tarixchilar, shoirlar, adabiyotshunoslar, tabiblar, binokorlarni o'z atrofiga yig'di.
 - Yigitlar yuzlarini bekitsa ham, qumlar yuzlariga qadalardi.
 - Odatim shu: chala ishni yomon ko'raman.
- 8. Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gapni belgilang.**
- Sevgi shunday navbahorki, U tikandin gul qilur.
 - Biz istaymiz: barcha ellar bir-biriga yaqinroq bo'lsin.
 - Oq, pushti, sarg'ish, qip-qizil gullarga qara, dilimiz yayraydi.
 - Do'stlarning haq so'zi achchiq bo'lsa ham, aqli odam uni shirin so'zdan ustun qo'yadi.
- 9. To'siqsiz ergash gapli qo'shma gap qaysi qatorda berilgan?**
- Odamlarda insof, iymon, e'tiqod, mulkka egalik huquqi bo'lsa, jinoyatga o'rin qolmaydi.
 - Baytni oqib bergenimda, uni hech kim sharh qilolmadi.
 - Moi ketsa ketsinki, bosh ketmasin.
 - Hunar yoddan chiqmaydi, lekin nozik tomonlari unutiladi.
- 10. Payt ergash gapli qo'shma gapni aniqlang.**
- Saida bir lahma nafasi ichiga tushib, noqulay ahvolda qoldi.
 - Agar odamlar chekmay qo'ysalar rak kasali uch hissa, yurak kasali to'rt hissa kamaygan bo'lardi.
 - Inson o'zi haqida qanchalik kam o'ylasa, u shunchalik baxtliroqdir.
 - Bo'ron bo'lsa, zo'r dengizlar chayqalar.
- 11. Qaysi qatordagi biriktiruvchi vosita payt ergash gapli qo'shma gapga xos emas?**

- A. -gach, -guncha, -may, -(i)b qo'shimchalari, ravishdosh.
- B. -da kelishik qo'shimchasi bilan qo'llangan sifatdosh.
- C. -dan qo'shimchali sifatdoshdan keyin buyon, beri, so'ng, keyin kabi so'zlar.
- D. -gan qo'shimchali sifatdoshdan keyin, uchun, tufayli kabi ko'makchilar.
- 12. Javoblarning qaysi birida ravish ergash gapli qo'shma gap berilgan?**
- A. Ostob tegmay, olma pishmas.
- B. Vaqtlar o'tishi bilan ba'zi adabiy shakllar o'z umrini tugatadi.
- C. Yuragi hovliqib, ko'chaning u boshidan bu boshiga necha marta borib keldi.
- D. Er kishini qo'llasa el, iqbol quvar izidan.
- 13. O'xshatish ergash gapli qo'shma gapni toping.**
- A. Katta orzu amalga oshmagani uchun Navoiy qattiq qayg'urdi.
- B. Yigit kishining boshi egilguncha, ho'kizning shoxi sinsin.
- C. Boshda aql bo'lmasa, oyoqda tinim yo'q.
- D. Odam qancha ulg'aysa, tashvishlari ham shuncha ko'payadi.
- 14. Maqsad ergash gapli qo'shma gap berilgan qatorni toping.**
- A. Yo'ichining ko'ngli quvonch bilan to'la, chunki Gulnor yonida edi.
- B. Maqsad aniq bo'lmasa, hech bir ishni ko'ngildagidek bajarib bo'lmaydi.
- C. Adirlarga qip-qizil gilam yoyilgandek, lolalar chaman bo'lib ochilib yotibdi.
- D. Tol ekdim suv bo'yiga, Soya salqin bo'lsin deb.
- 15. Sabab ergash gapli qo'shma gapni toping.**
- A. Nonni e'zozlasang, el e'zozlaydi.
- B. Bola bir narsa chaqib oldimi, birdan g'ingshib qoldi.
- C. Kimning do'sti ko'p bo'lsa, uning nomi yoyiladi.
- D. Xullas, Yassaviyning xulosalari shuki, nafs – ichki, lekin juda katta dushman.
- 16. Shart ergash gapli qo'shma gapni aniqlang.**
- A. Biliming osmonga yetgan bo'lsa ham, Boshqalar ilmiga quloq sol har dam.
- B. Dutor chalib o'tirsam, tori uzilib ketdi.
- C. Qayerda ahillik bo'lsa, shu yerda baraka bor.
- D. Mehnat qilsang, baxting ochiladi.
- 17. Shart ergash gapli qo'shma gap bo'limgan qatorni toping.**
- A. Hamma bir-birining sikriga qo'shilaver verganda, hech qanday taraqqiyot bo'lmas edi.
- B. O'zgalar g'amini chekmasa odam, Unga noloyiqdir inson degan nom.
- C. Agar kasallik bo'limganda edi, kishi sog'lik qadrini bilmagan bo'lar edi.
- D. Ostob qanchalik bo'lsa ham ravshan. Bir parcha bulut ham bekitar ba'zan.
- 18. Natija ergash gapli qo'shma gapni toping.**

- A. Uning vujudini shunday xursand-chilik egallab ólgan ediki, u hatto azob-uqubatlarni ham yodidan chiqardi.
- B. Yerlar loy bo'ldi, chunki hozirgina do'l yog'ib o'tdi.
- C. Do'stlaring har qancha ko'p bo'lsa-da, dushman orttirma.
- D. Kimning ruhi tushsa, u albatta yengiladi.
- 19. Bosh gapda qo'llanmagan to'ldiruvchini izohlab kelgan to'ldiruvchi ergash gap qaysi qatorda berilgan?**
- A. Biz shuni yaxshi anglaymizki, o'z izzati va qadrini bilgan inson millat ajratmaydi.
- B. Bilib qo'yki, seni vatan kutadi.
- C. Chaqimchidan qo'rqqin, chunki uning bir soatda buzgan ishini bir yilda ham tuzatib bo'lmaydi.
- D. Sen tabiatga to'pponchadan o'q uzsang, tabiat senga to'pdan o'q uzadi.
- 20. Berilgan gap ergash gapning qaysi turiga mansub? U **menga shunday kuch bo'lib tuyuldiki, bu kuch oldida o'lim ham, dushman ham ojiz.****
- A. Ega ergash gapli qo'shma gap.
- B. Kesim ergash gapli qo'shma gap.
- C. Natija ergash gapli qo'shma gap.
- D. Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap.
- 21. Quyidagi gap ergash gapning qaysi turiga mansub?**
Ostob toblanib tursa-da, yomg'ir yog'moqda edi.
- A. Sabab ergash gapli qo'shma gap.
- B. Shart ergash gapli qo'shma gap.
- C. To'siqsiz ergash gapli qo'shma gap.
- D. Payt ergash gapli qo'shma gap.
- 22. Quyidagi gap ergash gapning qaysi turiga mansub?**
Bizning turmushimiz unga yoqmadi, shuning uchun men rozi bo'lmayman.
- A. Natija ergash gapli qo'shma gap.
- B. Maqsad ergash gapli qo'shma gap.
- C. Shart ergash gapli qo'shma gap.
- D. Sabab ergash gapli qo'shma gap.
- 23. Mening jismim tirik bo'lsa ham, qalbim o'lik edi. Ushbu gap ergash gapli qo'shma gapning qay biriga mansub?**
- A. Sabab ergash gapli qo'shma gap.
- B. Maqsad ergash gapli qo'shma gap.
- C. Shart ergash gapli qo'shma gap.
- D. To'siqsiz ergash gapli qo'shma gap.
- 24. Bosh gapda qo'llanmagan to'ldiruvchini izohlab kelgan to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gapni toping.**
- A. Shuni bilingki, moshkichirining yaxshisi, palovdan a'lo!
- B. Kun issiq edi, shuning uchun cho'milgani ketishdi.
- C. Ona biladiki, endi har nahor.
- Butun vatan bo'ylab to'lishar bahor.
- D. Yo'qlama tugasa ham, ro'yhatdan nomi chiqmadi.
- 25. Payt ergash gapli qo'shma gapni toping.**
- A. Esing borida, etagingni yop.
- B. Ming yil chaqmoq chaqsa ham, ulkan tog' gerdayib turaveradi.
- C. Qayerda g'o'zaga asalari ko'p yopishsa, o'sha yerda paxta hosili mo'l bo'ladi.

D. Quyoshning jamoli yer yuzini yoritganiday, ilm ham qalblarni yoritadi.

26. Ravish ergash gapli qo'shma gapni aniqlang.

A. Hayotda shunday shodliklar ham bo'ladiki, ketidan g'am, alam, qayg'u. kulfat keladi.

B. Sizdan iltimosim shuki, odamlar bilan juda ehtiyyot bo'lib muomala qiling.

C. Nafasi bo'g'ziga tiqilib, Dilshod yugurib keldi.

D. Adirlarga qip-qizil gilam yoyilgandek, lolalar chaman bo'lib ochilib yotibdi.

27. Shart maylidagi se'l bilan bosh gapga birikkan aniqlovchi ergash gap qaysi qatorda berilgan?

A. Shunga iqror bo'ldiki, kurashsiz taraqqiyot bo'lmaydi.

B. Shunday ayollar bo'ladi: ular ishqni e'tiqod kabi muqaddas tutadi.

C. Kim birovlarga yaxshilik qilsa, uning obro'yи baland bo'ladi

D. Qaldirg'och shu qadar mayin, shirali, ta'sirli o'qidiki, badanimda chumoli o'rmalaganday bo'ldi.

28. Qish kelib, o'riklar gulladi. Ushbu gap qaysi jihatdan bog'lanmagan?

A. Grammatik jihatdan.

B. Ohang jihatdan.

C. Mazmun jihatdan.

D. Barcha jihatdan bog'langan.

29. Bosh gap tarkibida shunday olmoshi, ergash gap tarkibida esa xuddi, go'yo yuklamasi ishlatilsa, bunday

qo'shma gap ergash gapli qo'shma gapning qaysi turiga mansub bo'ladi?

A. Ravish ergash gapli qo'shma gap.

B. Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap.

C. O'xshatish ergash gapli qo'shma gap.

D. Kesimi ergash gapli qo'shma gap.

30. Berilgan gap ergash gapning qaysi turiga mansub?

Kimki halol mehnat qilsa, vatanimiz tomonidan taqdirlanadi.

A. Shart ergash gapli qo'shma gap.

B. To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap.

C. Ega ergash gapli qo'shma gap.

D. Natija ergash gapli qo'shma gap.

31. Kun botar-botmas, biz yo'lga chiqdik. Ushbu gap ergash gapli qo'shma gapning qaysi turiga mansub?

A. Payt ergash gapli qo'shma gap

B. To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap

C. Ega ergash gapli qo'shma gap

D. Natija ergash gapli qo'shma gap

32. Biz shuni aniq bilamizki, o'qish – baxtning kaliti. Ushbu misolda ergash gap bosh gapdag'i qaysi gap bo'lagini izohlab kelgan?

A. Egani. B. Kesimni.

C. To'ldiruvchini. D. Aniqlovchini.

33. Ega ergash gapli qo'shma gapni aniqlang.

A. Kim mehnat qilsa, u rohat ko'radi.

B. Bu bo'stonda do'stilar bermasa ko'mak,

Nasib bo'lmas maqsad gulini termak.

3-VARIANT

- C. Tanlov katta bo'lsa ham, ular ishonch bilan kelishgan.
D. U gapirib, so'zamollik qilayotgani sababli, boshqa qizlar jim turishardi.

34. Qaysi qatorda kesim ergash gapli qo'shma gap berilgan?

- A. Yer o'rik emaski, o'zi gullab, o'zi pishsa.
B. El senga etsa nadomat, dunyoda turolmassan salomat.
C. Gulgun uyg'onmasin deb, Qorajon eshikni sekin ochdi.
D. Barglar shu qadar beg'ubor, tiniq ediki, go'yo hozirgina yomg'ir yuvib o'tganday.

35. Onaxon gap boshlaganda, shov-qin yana tindi. Ushbu misolda ergash gap bosh gapga qaysi vosita yordamida bog'langan?

- A. Ravishdosh.
B. Ergashtiruvchi bog'lovchi.
C. Shart maylidagi fe'l.
D. Kelishik qo'shimchasini olgan sisatdosh.

36. O'xshatish ergash gapli qo'shma gap qaysi qatorda berilgan?

- A. Eslamatanki, yo'lda nazoratchi bor.
B. Xonaga shunday sukunat cho'kdiki, o'zining yurak urishini o'zi aniq eshitita boshladи.
C. Qo'ydek bo'lib ming yil yashaguncha, sherdai bo'lib bir kun yashamoq yaxshi.
D. Shular ishini puxta qilsa, u yog'i ketaveradi.

1. Maqsad ergash gapli qo'shma gapni aniqlang.

- A. Onalarni qadrlang, chunki dunyoda ulardan mo'tabarroq zot yo'q.
B. Bu hayotni shunday o'tkazish kerakki, so'nggi pushaymon o'zingga dashman bo'lmasin.
C. Atrof xushmanzara bo'lsin deb, manzarali daraxtlar ekdiq.
D. Shunday yashash kerakki, seni qurshagan tevarak-atrofingda hamisha yaxshilik hukm sursin.

2. Ergashtiruvchi bog'lovchi yordami bilan bosh gapga birikkan sabab ergash gapli qo'shma gapni aniqlang.

- A. Daraxt yashnab turgani uchun, soyasidan odam arimaydi.
B. Shoshilish kerak emas, chunki bu yil toshqin xavfi yo'q.
C. Gul ochilmasa, bulbul sayramas.
D. Odamlar bilan shunday muomallada bo'lginki, ular sendan rozi bo'lishsin.

3. Fe'lning ravishdosh shakli bilan bosh gapga birikkan sabab ergash gap qatorini belgilang.

- A. Ma'nifat borki, odam yaxshilikka intilib yashaydi.
B. Yangi uylar qurilib, ko'p odam ko'chib keldi.
C. Madaniyat yuksak bo'lsa, mehnat ham yuksak qadrlanadi.
D. Salomatlikning bahosi hech qachon pasaymaydi, chunki salomatlik yo'q joyda na farog'at va na halovat bor.

- 4. Daryo toshganligi uchun ekinning yarmi nobud bo'ldi.** Ushbu misol ergash gapli qo'shma gapning qaysi turi?
- Maqsad ergash gapli qo'shma gap.
 - Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap.
 - Sabab ergash gapli qo'shma gap.
 - Payt ergash gapli qo'shma gap.
- 5. Shart ergash gapli qo'shma gap berilgan qatorni toping.**
- Daryo qirg'og'ida odam shunchalik ko'pki, oyoq bosishga yer topilmaydi.
 - U televizorni o'chirdi, shekilli, sukunat cho'kdi.
 - Ko'zim ilgari ochilgan bo'lsa edi, men o'z yuragimni bo'rilariga yedirar edimmi?
 - Yomg'ir yoqqanligi uchun, o'tlar yashnab ko'kara boshladi.
- 6. Qaysi qatordagi ergash gap kelishik qo'shimchasini olgan sisatdosh yordamida bosh gapga bog'langan?**
- Go'yo hamma uning siridan voqif bo'lganday, yigit qizarib ketdi.
 - Shaxsiy g'arazlar bo'lmasagina, adabiyot yuksaladi.
 - Laylo she'r o'qiganda, sinf suv quygandek jumjut bo'lib qoldi.
 - Hayot xotiralardan iborat bo'lgani kabi, adabiyot ham boshdan-oyoq xotiralar xazinasidir.
- 7. Natija ergash gapli qo'shma gapni aniqlang.**
- Barglar shu qadar tiniq ediki, go'yo hozirgina yomg'ir yog'ib o'tganday.
 - U qayerga borsa, xalq ham shu yerga boradi.
- C. Yomg'ir shunday quydiki, ekinlar suv tagida qolib ketdi.**
- D. Imtihonlar boshlanganda, Avaz ularnikiga boradigan bo'ldi.**
- 8. O'zi qari bo'lsa ham, qalbi yosh.** Ushbu gapning qanday ergash gapli qo'shma gap ekanligini aniqlang.
- Natija ergash gapli qo'shma gap.
 - Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap.
 - To'siqsiz ergash gapli qo'shma gap.
 - Kesim ergash gapli qo'shma gap.
- 9. Quyida keltirilgan gap ergash gapli qo'shma gapning qaysi turiga mansub?**
- Shunday qilish kerakki, u yerdan qutulib chiqa olmasin.**
- O'xhatish ergash gapli qo'shma gap.
 - Ega ergash gapli qo'shma gap.
 - Shart ergash gapli qo'shma gap.
 - Natija ergash gapli qo'shma gap.
- 10. Payt ergash gapli qo'shma gap berilgan qatorni aniqlang.**
- Konsert boshlanmasdan, yetib keling.
 - Begona yurtning podshosi bo'l-guncha, o'z yurtingning gadosi bo'l.
 - Tog'day og'ir bilak berdim, yovlarni mushtiasin deb.
 - Kuz keldi va dalalarda ishlar qizib ketdi.
- 11. U har ingraganida, Sotiboldi chakkasiga burov solingan kishiday talvasiga tushar edi.** Ushbu gap ergash gapli qo'shma gapning qaysi turiga mansub?

- A. Sodda yðyiq gap.
 B. Kesim ergash gapli qo'shma gap.
 C. To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap.
 D. Payt ergash gapli qo'shma gap.
- 12.** To'siqsiz ergash gapli qo'shma gap berilgan qatorni aniqlang.
 A. Xalq qancha harakat qilsa ham, suv chiqmagan.
 B. Kimki o'z kelajagini o'ylasa, yoshlik davrini behuda o'tkazmaydi.
 C. Boshqalarning baxt-saodatini ko'rolmagan hasadchi kishi doimo qayg'u-alam ostida bo'ladi.
 D. Odam bir yo'la muhabbatidan, ham do'stidan ayrilib qolsa, og'ir bo'larkan.
- 13.** To'siqsiz ergash gapli qo'shma gapni aniqlang.
 A. Bu ish yaxshi bo'ldi. Ikin imti-honga tayyorlanishdan ancha qolib ketdim.
 B. Ko'priordan o'tishi bilan ko'zi chiroli manzaraga tushdi.
 C. Havo bulut bo'lsa-da yomg'ir yog'madi.
 D. Sandiq shunday puxta bo'lsinki, ichiga suv o'tmasin.
- 14.** Ega ergash gapli qo'shma gapni toping.
 A. Kim ko'p o'qisa, u ko'p narsani biladi.
 B. Hayotdan asli nolimang, chunki uning o'zi turli-tuman qarshiliklardan iborat.
 C. Qissadan hissa shuki, aqli odam ehtiyotkorlikni qo'ldan bermaydi.
 D. Kimki a'lo o'qisa, uni yaxshi kelajak kutadi.
- 15.** Kimki rostgo'y, samimiy bo'lsa, u el o'rtasida qadr topadi. Berilgan gap ergash gapli qo'shma gapning qaysi turiga kiradi?
 A. Ega ergash gapli qo'shma gap.
 B. Kesim ergash gapli qo'shma gap.
 C. To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap.
 D. Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap.
- 16.** Ergashgan qo'shma gap berilmagan qatorni aniqlang.
 A. Hunar ado bo'lmas boylikdir, shu sababli yoshlik chog'ingdan boshlab biron-bir hunarni o'rganish payida bo'l.
 B. Chin do'st yurakdan so'zlar, chunki u sening yomon bo'lishingni aslo xohlamaydi.
 C. Bulbul gulzorni izlaydi, boyo'g'li esa doim xarobani ko'zlaydi.
 D. To'g'ri so'z qilichdan o'tkir, shuning uchun hamisha rost so'zlashga odatlan.
- 17.** Qaysi qatorda ergashgan qo'shma gap berilgan?
 A. Ahmoqning yuragi og'zida, aqllining tili esa yuragida bo'ladi.
 B. Oz yesang, ko'p yashaysan, shuning uchun hamisha qorningni ortiqcha to'yirma.
 C. Siz uni tartibga chaqirib qo'ying, bo'lmasa ustingizdan arz qilaman.
 D. Yomon ot o'z egasini chohga qulatadi, yaxshi ot o'z sohibini halokatdan qutqaradi.

- 18. Oqsoqol qayerda bo'lsa, o'sha joyda ish bir tartibda borardi.**
Berilgan gap ergash gapli qo'shma gapning qaysi turiga kiradi?
- Payt ergash gapli qo'shma gap.
 - O'r'in ergash gapli qo'shma gap.
 - Sabab ergash gapli qo'shma gap.
 - Maqsad ergash gapli qo'shma gap.
- 19. Qaysi ergashtiruvchi bog'lovchilar gap boshida keladi?**
- Chunki, negaki.
 - Go'yo, go'yoki.
 - Toki, xuddi.
 - Mabodo, basharti.
- 20. Qaysi qatordagi ergash gap ko'makchili qurilma yordamida bog'lanmagan?**
- Odobli odam tabibga o'xshaydi, chunki u bilan suhbatlashish ko'ngildagi g'amni quvadi.
 - Olim kishilar har yerda aziz va hurmatlidir, shuning uchun har vaqt ilm olish ilinjida bo'l.
 - Ilmsiz inson – mevasiz daraxt, shu sababli hamisha ilmlilar safida bo'l.
 - Ilm saodatga yo'llovchi mash'al, shu tusayli uning insonlar hayotidagi o'rni nihoyatda katta.
- 21. Donolarning o'giti shundayki, so'zning lazzati uni gapirishda emas, balki eshitishdadir.** Berilgan gap ergash gapli qo'shma gapning qaysi turiga kiradi?
- Kesim ergash gapli qo'shma gap.
 - To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap.
 - Ega ergash gapli qo'shma gap.
 - Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap.
- 22. Ergash gapning kesimi shart maylidagi fe'l bilan bog'langan qo'shma gapni aniqlang.**
- Ilm martabasi martabalarning zo'ridir, shu sababli yoshlikdan ilm olish payida bo'l.
 - U'kalarim bezovta bo'lmasin deb, To'ng'ich botir to'qayning chekkasiga qochdi.
 - Hamisha to'g'rilar yonida bo'linglar, chunki ular hech qachon sizni noto'g'ri yo'lga boshlamaydi.
 - Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi.
- 23. Nisbiy so'zli ergashgan qo'shma gapni aniqlang.**
- Kim harakat qilsa, u baraka topadi.
 - Shuni doimo yodda tutish kerakki, nodon odamning gapi ko'p bo'ladi.
 - Mehmon kelsa eshikdan, rizqi kelar teshikdan.
 - Odam borki, odamlarning naqshidir, odam borki, hayvon andin yaxshidir.
- 24. Kimki tinch yashashni istasa, past-kash odam bilan hech qachon do'stlashmaydi.** Berilgan gap ergash gapli qo'shma gapning qaysi turiga kiradi?
- Ega ergash gapli qo'shma gap.
 - To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap.
 - Kesim ergash gapli qo'shma gap.
 - Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap.
- 25. Qaysi qatorda ega ergash gapli qo'shma gap berilmagan?**
- Kimki ilm urug'ini sepsa, u ulug'lik mevasini teradi.

- B. Shu narsa aniqki, tarixini yaxshi bilmagan odam oxir-oqibatda qul sifatida kun kechiradi.
- C. Haqiqat shunday jonki, pardoz uning husnini buzadi.
- D. Kim izlansa, u albatta maqsadiga erishadi.

26. Ega ergash gapli qo'shma gap berilgan qatorni aniqlang.

- A. Yozuvchining mahorati shundaki, butun bahorni atigi chigitdek keladigan g'o'ra ichiga qamrab bera biladi.
- B. O'tgan ota-bobolarimizning xulosasi shuki, shirin so'z odamlar ning qalbini bog'lovchi zanjirdir.
- C. Qayerda ish to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lsa, o'sha yerda rivojlanish bo'ladi.
- D. Shu narsa qiziqki, uyquda ham miya o'z faoliyatini to'xtatmaydi.

27. Qaysi qatorda aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap berilmagan?

- A. Biz shunday kutubxona bino qilaylikki, butun el qoshida manzur va mo'tabar bo'lsin.
- B. Biz shunday zamondamizki, ilm-texnika yo'li hammaga ochiq.
- C. Lekin haqiqiy hayotda shunday voqealar bo'ladiki, bular dahshatli afsonadan ming hissa yomonroq bo'ladi.
- D. Shuni bilingki, vaqtning qadriga yetish lozim.

28. Kimki bo'lsa dilozor, undan el-u yurt bezor. Berilgan gap ergash gapli qo'shma gapning qaysi turiga kiradi?

- A. Ega ergash gapli qo'shma gap.
- B. Kesim ergash gapli qo'shma gap.
- C. To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap.

D. Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap.

29. Qaysi qatorda hol ergash gapli qo'shma gap berilgan?

- A. Dutor chalib o'tirsam, tori uzilib ketdi.
- B. Ko'ziga nima ko'rinsa, shu uni qiziqtira boshladи.
- C. Kimki taqdirga tan bersa, u hayot to'lqinida g'arq bo'lib ketadi.
- D. Vatanni sevishimning boisi shuki, u mening kindik qonim to'kilgan muqaddas zamindir.

30. Qaysi qatorda hol ergash gapli qo'shma gap berilmagan?

- A. Qayerda ahillik bo'lsa, o'sha yerda qut-baraka bo'ladi.
- B. Kim birov larga yaxshilik qilsa, uning obro'yi baland bo'ladi.
- C. O'simlikni qancha parvarish qilsang, shuncha mo'l hosil olasan.
- D. Soy qanchalik tez oqsa, u shunchalik sayoz bo'ladi.

31. Shunday odamlar borki, kelajakni oldindan bashorat qila oladilar.

Berilgan gap ergash gapli qo'shma gapning qaysi turiga kiradi?

- A. Maqsad ergash gapli qo'shma gap.
- B. Payt ergash gapli qo'shma gap.
- C. To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap.
- D. Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap.

32. To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap berilgan qatorni aniqlang.

- A. Sevgi shunday navbahorki, u tikandin gul qilur.

- B. Kimning quroli bilim bo'lsa, uning kelajagi porloq.
- C. Shuni hamisha yodingizda saqlangki, birovga yolg'on gapirish eng katta gunohdir.
- D. Kim yalqov bo'lsa, uning qo'lida obod yer ham xarob bo'ladi.
- 33.** Qaysi qatorda to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap berilmagan?
- A. Bilingki, jim turib salomat bo'lish, gapirib malomatga qolishdan afzal.
- B. Men senga shunday narsalar keltirayki, ularni tushingda ham ko'rma-gansan.
- C. Shuni anglamoq kerakki, ota-onu uchun farzanddan ko'ra yaqinroq kimsa yo'q.
- D. Shuni unutmangki, do'stlar bilan suhbat qurmoq gullar orasida sayr qilmoqdan xushdir.
- 34.** Shuni bilib qo'yginki, sen suyangan tog'ning tagi nurab qolgan. Berilgan gap ergash gapli qo'shma gapning qaysi turiga kiradi?
- A. Natija ergash gapli qo'shma gap.
- B. Miqdor-daraja ergash gapli qo'shma gap.
- C. To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap.
- D. Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap.
- 35.** Qaysi qatorda aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap berilgan?
- A. Shundan ehtiyoj bo'lingki, birovning ota-onasini haqorat qilgan odam o'zining ota-onasini ham haqoratlagan bo'ladi.
- B. Bu o'rinda shuni aytish kerakki, qalandarovlarni o'sha davr hayoti yarata boshlagan edi.
- C. Shuni bilib qo'yingki, bilim baxt keltiradi.
- D. Oramizda shunday kishilar borki, ular do'stlar orasidagi samimiyatni buzishni hunar qilib olganlar.
- 36.** Shunday yaxshi odatlarimiz borki, ularga hurmat bilan qarash lozim. Berilgan gap ergash gapli qo'shma gapning qaysi turiga kiradi?
- A. Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap.
- B. To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap.
- C. Hol ergash gapli qo'shma gap.
- D. Ega ergash gapli qo'shma gap.

4-VARIANT

- 1.** Murakkab qo'shma gaplarga xos xususiyatlarni aniqlang.
- A. Turli bog'lovchi vositalar yordami bilan o'zaro bog'langan uch va undan ortiq gaplar.
- B. Qismlari ergashtiruvchi bog'lovchilar yoki shunday bog'lovchi vazifasidagi so'zlar yordamida bog'langan uch va undan ortiq qo'shma gaplar.
- C. A va B javob to'g'ri.
- D. To'g'ri javob yo'q.
- 2.** Reja bajarilsa, dasturxon mo'l bo'lsa, yor-u do'st, birodarlar qalin bo'lsa, tantanalar qishgacha davom etaveradi. Ushbu gap murakkab qo'shma gapning qaysi turiga mansub?
- A. Bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gap.
- B. Bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gap.
- C. Aralash murakkab qo'shma gap.
- D. Qismlari uyushgan murakkab qo'shma gap.

- 3. Bir nechər bosh gapli murakkab qo'shma gapni toping.**
- A. Xalqimiz shuni istaydiki, yurtimiz tinch bo'lsin, turmushimiz farovon bo'lsin, mustaqilligimiz barqaror bo'lsin.
B. Kimning bilagida kuchi bo'lsa, kim ishning havosini olsa, kim qilayotgan ishidan bir nima chiqishiga ishonsa, o'sha zarbdor bo'ladi.
C. Tol ekdik suv bo'yiga, soya-salqin bo'lsin deb. G'ayrat qilgan botirlar yotib damin olsin deb.
D. Butun dunyoga ma'lumki, siz ham shuni unutmangki. Orolni saqlab qolish hammamizning burchimiz.
- 4. Quyidagi gap murakkab qo'shma gapning qaysi turiga mansub? Kimki tez-tez dalalarga chiqib tursa, bahri-dili ochiladi, tanasiga quvvat yuguradi.**
- A. Bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gap.
B. Bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gap.
C. Aralash murakkab qo'shma gap.
D. Qismlari uyushgan murakkab qo'shma gap.
- 5. Bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gapni aniqlang.**
- A. Chindan ham odam yurakdan yayrab kulta, sog'ligi yaxshilanadi, yengil tortadi, ruhi tetiklashadi, ishtahasi ochiladi, umri uzayadi.
B. Shu narsa ayonki, hamma shu narsani yaxshi biladiki. odobsiz kishilar hech qachon e'tibor qozonmaydi.
C. Boshimda tegirmon toshi yurgizsinlar, etimni nishtar bilan tilsinlar, men sizdan ajralmayman.
- D. Shirinsuxanlik shunday boylikki. u senga obro' keltiradi, u orqali bitmagan ishlarining bitadi, do'stlaring ko'payadi.**
- 6. Tarkibida ergashgan, bog'langan yoki bog'lovchisiz qo'shma gaplar mavjud bo'lgan gaplar...**
- A. Bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gap.
B. Bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gap.
C. Aralash murakkab qo'shma gap.
D. Qismlari uyushgan murakkab qo'shma gap.
- 7. Ko'lga yetib kelsak, birdaniga miltiq gumburladi va suv yuzida pitirlatyotgan ikki-uchta o'rdak ko'rindi.**
- A. Bog'langan qo'shma gap.
B. Ergashgan qo'shma gap.
C. Aralash murakkab qo'shma gap.
D. Qismlari uyushgan murakkab qo'shma gap.
- 8. Quyidagi she'r murakkab qo'shma gapning qaysi turiga kiradi?**
- O'zbekning kurashi hamisha halol,
Unda yo'qdir g'irrom, yo'qdir yomonlik.**
- Doimo do'stlarga tilaydi kamol,
Tilaydi barchaga do'stlik, omonlik.**
- A. Bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gap.
B. Bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gap.
C. Aralash murakkab qo'shma gap.
D. Qismlari uyushgan murakkab qo'shma gap.

9. Quyidagi ko'chirma gap qaysi javobdag'i ko'rinishga to'g'ri keladi?

«**Balli Ra'no**», – dedi Solib mahdum.

- A. «K, - m, - k». B. «K, - m, - k!»
C. «K», - m. D. «K», - M.

10. Aralash murakkab qo'shma gapni aniqlang.

A. Birov sening aybingni yuzingga aytsa, so'zini qaytarma, chunki u sening uchun ko'zgudir; ko'zgu xira bo'lib qolsa, boshqa aybingni ko'rsatadimi?

B. Umr o'tar, vaqt o'tar.

Xonlar o'tar, taxt o'tar.

Omad o'tar, baxt o'tar...

C. Shuni unutmangki, kelajagimiz va butun umidimiz sizlardan.

D. Kimki ota-onasini hurmat qilsa, u boshqalardan izzat topadi, el orasida yaxshi deb nom qozonadi.

11. Quyidagi she'rni sintaktik jihatdan turini aniqlang.

Mudom kurash azobini fidoyilar ko'rganlar,

Inqiloblar hosilini muttahamlar o'rganlar,

Siz ham bugun panadasiz,

Jangga bizni qayraysiz...

(Biz bu jangda shahid bo'lsak, avvalo siz yayraysiz).

(E. Vohidov)

A. Bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gap.

B. Bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gap.

C. Aralash murakkab qo'shma gap.

D. Qismlari uyushgan murakkab qo'shma gap.

12. O'zlashtirma gap qatnashgan qatorni aniqlang.

A. Zamira o'z sinfdoshlari haqida to'lib-toshib gapirdi.

B. Bolalar ko'cha qoidalariga rioya qiling.

C. Nasiba oyoqlarisov uqidan zirqirab og'riyotganini aytdi.

D. «Men to'g'on boshiga kelganimda, – dedi Sayramov, – u yerda ish qaynamoqda edi».

13. «Chumchuqdan qo'rqqan tariq ekmaydi», – dedi Halil ota odatdagicha kulimsirab. Ushbu misolda nega ko'chirma gapdan keyin vergul va tire qo'yilgan?

A. Ko'chirma gap darak gap bo'lgani uchun.

B. Ko'chirma gap so'roq gap bo'lgani uchun.

C. Ko'chirma gap his-hayajon gap bo'lgani uchun.

D. Ko'chirma gapdan keyin vergul va tire noto'g'ri qo'llangan.

14. Qaysi qatordagi ko'chirma va muallif gaplarida tinish belgilari noto'g'ri ishlatalig'an?

A. G'osir: «Jamila, tur o'rningdan». – dedi.

B. G'osir dedi: «Jamila, tur o'rningdan».

C. «Jamila, – dedi G'osir, tur o'rningdan».

D. A va B javoblarda.

15. Misollarning qaysi biri o'zlashtirma gap?

A. Tabassum yaxshilikning belgisidir.

B. Olam ahli. bilingiz: ish emas dushmanlig', yor o'lung bir -biringizgaki erur yorlig' ish.

- C. Sinf rabbarimiz maqtanchoq bo'imaslikni uqtirardi.
- D. «Kitob – aqlning kaliti», – dedi bobom.
- 16. Ko'chirma gap bilan muallif gapining o'rni qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?**
- A. Ko'chirma gap faqat muallif gapidan oldin keladi.
- B. Ko'chirma gap faqat muallif gapidan keyin keladi.
- C. Ko'chirma gap muallif gapidan oldin, keyin yoki uning ichida, muallif gapi esa ko'chirma gap orasida kelishi mumkin.
- D. Ko'chirma gap faqat muallif gapining ichida qo'llanadi.
- 17. Ko'chirma gap qaysi uslubda ko'proq qo'llanadi?**
- A. So'zlashuv uslubida.
- B. Rasmiy uslubda.
- C. Badiiy uslubda.
- D. A va C.
- 18. Quyidagi rang bildirgan so'zlaridan badiiy uslubga tegishlisini belgilang.**
- A. Ko'k. B. Zangor.
- C. Moviy. D. Havo rang.
- 19. Qaysi hukm noto'g'ri?**
- A. Barcha just so'zlar chiziqcha bilan yoziladi.
- B. Juft fe'llar chiziqcha bilan yoziladi.
- C. Barcha takroriy so'zlar chiziqcha bilan yoziladi.
- D. Barcha yuklamalar chiziqcha bilan yoziladi.
- 20. Gaplarning qay birida uslubiy xatoga yo'l qo'yilgan?**
- A. Tilingni asra, boshing ketmasin.
- B. Sening Toshkentda o'qishing kerak.
- C. Til – madaniyatimizning ko'zgusi.
- D. Odamning husni mehnatda.
- 21. Nutq madaniyatiga to'liq ta'rif berilgan qatorni aniqlang.**
- A. Lug'aviy me'yorlarga rioya qilish.
- B. To'g'ri yozish qoidalariiga rioya qilish.
- C. Yoqimli so'zlash.
- D. Mantiqiy izchillikka va adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda to'g'ri, aniq va yoqimli so'zlash.
- 22. Quyidagi so'zlarning qaysi biri faqat badiiy uslubga xos?**
- A. Kabi.
- B. Yanglig'.
- C. Misoli.
- D. Singari.
- 23. Quyidagi gaplardan ilmiy uslubga tegishlisini belgilang.**
- A. Qani endi, barchasi ham senga o'xshasa.
- B. Mayin shamol daraxt yaproqlarini asta tortqilaydi.
- C. Mushfiq onanining hasratlari bir dunyo edi.
- D. Yonishning tashqi belgisi issiqlik va yorug'lik chiqishidir.
- 24. Rasmiy uslubda ko'pincha qanday gaplardan foydalilanadi?**
- A. Faqat darak gaplardan.
- B. Asosan buyruq gaplardan.
- C. Asosan buyruq va his-hayajon gaplardan.

D. Asosan buyruq va darak gaplaridan.

25. Ilmiy uslubga xos belgilardan biri noto'g'ri bayon qilingan qatorni belgilang.

- A. Undalmali gaplar, his-hayajonli gaplar deyarli qo'llanmaydi.
- B. Tilning tasviriy-ta'siri vositalari ishlatilmaydi.
- C. Qo'shma gaplardan foydalanilmaydi.
- D. Matn monologik nutq tarzida bo'lib, dialoglar bo'lmaydi.

26. Qaysi qatorda yo'l so'zi uchun ko'makchisi ma'nosida qo'llangan?

- A. Yo'nga chiqsang, yo'ldoshing bo'lsin.
- B. Bir yo'li oq, bir yo'li qizil shoyi.
- C. Yusufjon qiziqning ijodiy yo'li juda murakkab, rang-barangdir.
- D. Vatan yo'lida jonni fido qilishga tayyormisiz?

27. Asosan badiiy uslubga xos bo'lgan izn (izn bermoq) so'zining sinonimini toping.

- A. Ixtiyor. B. Ijozat.
- C. Erk. D. Nishona.

28. Uslubiy bo'yoq, ta'sirchanlik mavjud bo'lgan so'zлarni aniqlang.

- A. Qizgina, onajon.
- B. O'quvchi, qushcha.
- C. Kitobcha, suv.
- D. To'g'ri javob berilmagan.

29. Fikr hissiy-ta'siri bo'yoq bilan ifodalangan qatorni aniqlang.

- A. Bu o'yldandan Sayyoraning boshi g'ovlab ketdi.

B. Ultar malik Asrorqul Haydar otaning qadrdon oshnasi bo'ladi.

C. Bolalar behad quvonishib, Yo'ichining bo'yniga osilishdi.

D. Men sizga aysam, odamning yomoni bo'lmaydi.

30. Faqat insonlarga nisbatan qo'llanadigan so'zlar qatorini belgilang.

- A. Dumaloq, urchimoq, g'ajimoq, chaqirmoq.
- B. Bekinmoq, tanovvul qilmoq, ivib ketmoq.
- C. Ag'anamoq, damlammoq, bag'ishlamoq, joylamoq.
- D. Balandlamoq, tashlamoq, pusmoq, sakillamoq.

31. Ko'plik qo'shimchasini olmaydigan so'zlar qatnashgan qatorni belgilang.

- A. Siz, kitob, qalam.
- B. Safar, oqshom, u, olim.
- C. Quvonch, men, sen.
- D. Kun, baliq, ishchi, kiyim.

32. Quyidagi matn qaysi uslubga xos?

Bo'yginangdan onang o'rgilsin!
Baxtingga tasadduq bo'lay,
qizginam! Aspiranturang bitti?

- A. Ommabop uslubga.
- B. So'zlashuv uslubiga.
- C. Ilmiy uslubga.
- D. Rasmiy uslubga.

33. Qaratqich o'rnila tushum kelishi-gi qo'shimchasi noto'g'ri qo'llangan gapni aniqlang.

- A. Paxtaning vil'tga chidamli xilla-rini yaratish ustida tajriba olib borayotgan olimlarni ko'rdik.

- B. Yaxshini maqtasang yarashur, yomonni maqtasang adashur.
 C. Ongni eskirgan, g'arazli maqsadlardan tozalash zarus.
 D. Ulug' saltanat bilan olamni titrattagan Amir Temur o'z ustozini oyoq tomoniga ko'milishini vasiyat qilgan edi.

34. «Obrazlar yoki obrazli tasvirlar bilan emas, aniq ma'lumotlarning xolis, umumlashgan xususiyatlarini ta'riflash, tushunchalarga mos keladi-gan atamalar bilan ish ko'radigan uslubdir». Ushbu ta'rif qaysi uslubga mos keladi?

- A. Badiiy uslubga.
 B. Ilmiy uslubga.
 C. Rasmiy- idoraviy uslubga.
 D. Publisistik uslubga.

35. Qaysi uslub turida tilning tasvirita'siriy vositalari yordami bilan obrazlar vositasida kishiga estetik ta'sir ko'rsatiladi?

- A. Publisistik uslubda.
 B. So'zlashuv uslubda.
 C. Ilmiy uslubda.
 D. Badiiy uslubda.

36. Badiiy uslubga xos bo'lgan gapni aniqlang.

- A. Stakanlarning ikkovida ham rangli eritma bor.
 B. Ma'lumotnomha tuman hokimiyati ga ko'rsatilsin.
 C. Butun osmonni bulutlarning og'ir, qalin, qoramtiq namati qoplagan.
 D. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» mustaqillik sharofatidir.

5-SINF. ADABIYOT

I-VARIANT

1. Adabiyot – qanday san'at?

- A. Musiqa san'ati.
 B. So'z san'ati.
 C. Haykaltaroshlik san'ati.
 D. Tasviriy san'at.

2. «Olam ahli bilingizkim. ish emas dashmanlig'.

Yor o'lung bir-biringizgaki, erur yorlig'ish», misralari kimning qalamiga mansub?

- A. A. Navoiy. B. Bobur.
 C. Muqimiy. D. Lutfiy.

3. Marosim qo'shiqlari va she'rlari xalq og'zaki ijodining qaysi turiga mansub?

- A. Epik tur. B. Lirik tur.
 C. Dramatik tur. D. Liro - epik tur.

4. Ertaklar, hikoya, ocherk so'z san'atining qanday turini tashkil etadi?

- A. She'riyat. B. Epik tur.
 C. Nasr. D. Liro-epik tur.

5. Fojia bilan tugaydigan asar...

- A. Drama. B. Komediya.
 C. Tragediya. D. Intermediya.

6. Tragediya so'z san'atining qaysi turiga mansub?

- A. Epik tur. B. Lirik tur.
 C. Dramatik tur. D. Maxsus tur.

7. Qaysi qatorda lirik turga mansub janrlar berilgan?

- A. Qit'a, fard, ruboiy.
 B. Hikoya, qissa, roman.

- C. Drama, tragediya, komediya.
D. Askiya, latifa, afsona.

8. Ota-bobolarimizning uzoq yillardan mobaynida ko'rgan-kechirganlari, tajribalari asosida kelgan xulosa so'zлari...

- A. Maqol. B. Topishmoq.
C. Afsona. D. Ertak.

9. Odamlarga xos xususiyatlarni hayvonlarga va narsa-buyumlargacha ko'chiruvchi asarlar...

- A. Maqol. B. Masal.
C. Afsona. D. Ertak.

10. «Oltovlon ola bo'lsa,
Og'zidagin oldirar.
To'rtovlon tugal bo'lsa,
Unmaganni undirar».
Yuqoridagi maqol nima haqida?
A. Ahillik haqida.
B. Sahiylik haqida.
C. Bilim haqida.
D. Vatanparvarlik haqida.

11. Nimaning mo'ylovi oyog'idan
uzun?

Topishmoqning javobini toping.
A. Echki. B. Chumoli.
C. Suvarak. D. Ninachi.

12. Mantiqiy fikrlashga, topqirlilikka
o'rgatadigan janr.

- A. Maqol. B. Topishmoq.
C. Hadis. D. Rivoyat.

13. Sen-u, men-u, u-yu, biz.
Nechta bo'ldik hammamiz?
Topishmoqda nechta olmosh bor?
A. Ikkita. B. Uchta.

- C. To'rtta. D. Oltita.

14. Odob-axloqqa o'rgatadigan
pand-nasihat ko'rinishidagi nasriy
janr...

- A. Maqol. B. Topishmoq.
C. Hadis. D. Rivoyat.

15. Payg'ambarimizning hikmatli
so'zлari...

- A. Maqol. B. Topishmoq.
C. Hadis. D. Rivoyat.

16. Ezop qachon va qayerda yashagan?

- A. Miloddan avvalgi V asrda Misrda
yashagan.
B. Miloddan avvalgi VI asrda Yunonistonda yashagan.
C. VI asrda Rimda yashagan.
D. To'g'ri javob yo'q.

17. Ezop ko'proq qaysi janrda ijod
qilgan?

- A. Masal. B. Drama.
C. Doston. D. Ertak.

18. Qaysi qatorda do'stga sodiq qolishni o'rgatuvchi masal berilgan?

- A. «Bo'ri bilan Laylak».
B. «Kiyik bilan tokzor».
C. «Yovvoyi echkilar bilan cho'pon».
D. «Eshak bilan baqalar».

19. Qaysi javobda sabr-toqat, shukronalik haqidagi masal berilgan?

- A. «Bo'ri bilan Laylak».
B. «Kiyik bilan tokzor».
C. «Yovvoyi echkilar bilan cho'pon».
D. «Eshak bilan baqalar».

- 20.** Vatanni himoya qilgan mard, jasur ajdodlarimiz haqidagi rivoyatlar...
 A. «Uch og'a-ni botirlar».
 B. «Mening o'g'rigina bolam».
 C. «Iskandar Zulqarnayn».
 D. «To'maris», «Shiroq».
- 21.** Hayotiy voqealarни hayotiy uydirmalar vositasida aks ettiruvchi og'zaki ijod turi...
 A. Doston. B. Ertak.
 C. Hadis. D. Rivoyat.
- 22.** Hayot haqiqati bilan bog'liq bo'lib, xayoliy va hayotiy uydirmalar asosida qurilgan, didaktik g'oya tashuvchi og'zaki hikoyalari...
 A. Doston. B. Ertak.
 C. Hadis. D. Rivoyat.
- 23.** «Uch og'a-ni botirlar» ertagida aka-ukalar nima uchun barcha xatarlardan omon chiqdilar?
 A. Podshohnning qizlarini yaxshi ko'rib qolganliklari uchun.
 B. Sherni o'ldirgani uchun.
 C. Otalarining o'gitlariga amal qilganliklari uchun.
 D. Bog'bon bilan cho'ponning to'g'riso'zligi uchun.
- 24.** «Susambil» ertagida jonivorlar nima sababdan bo'rilar galasi hujumidan omon qoldilar?
 A. O'zaro ahilliklari sababli.
 B. Sahiyliklari tufayli.
 C. Ho'kizning kuchliligi tufayli.
 D. Bo'rilarning qo'rkoqligi uchun.
- 25.** Qaysi qatorda «Muqanna» nomli tarixiy, «Jinoyat» deb nomlangan
- zamonaviy mavzudagi she'riy drama-larni yozgan ijodkor nomi ko'rsatilgan?
 A. H.Olimjon. B. M.Shayxzoda.
 C. Shukrullo. D. A.Qodiriy.
- 26.** «Oygul bilan Baxtiyor» ertak-dostonida qaysi qahramon o'z ozodligi, baxt-u saodati yo'lida ko'proq harakat qildi?
 A. Oygul. B. Baxtiyor.
 C. Darxon. D. Tarlon.
- 27.** Shukrullo 70-80-yillarda qaysi she'riy to'plamlarini yaratdi?
 A. «Zarralar», «Suyanchiq», «Yashagim keladi», «Sening baxting».
 B. «Birinchi dastar», «Qalb qo'shiqlari», «Chollar», «Hayot ilhomlari».
 C. «Umrim boricha», «Inson va yaxshilik», «Inson – inson uchun», «Ikki qoya».
 D. «Otash va gul», «26-tongotari», «O'g'ri ni qaroqchi urdi», «Janjal».
- 28.** «Oygul bilan Baxtiyor » ertak-dostonini kim yozgan?
 A. Hamid Olimjon.
 B. Maqsud Shayxzoda.
 C. Usmon Nosir.
 D. G'afur G'ulom.
- 29.** «O'n besh yilning daftari», «Ol-qishlarim», «Zamon torlari», «Shulla», «Chorak asr devoni» she'riy to'plamlarining muallifi qaysi qatorda berilgan?
 A. M.Shayxzoda. B. H.Olimjon.
 C. Shukrullo. D. G'.G'ulom.

- 30. Maqsud Shayxzoda «Mirzo Ulug'bek» tragediyasini qachon yaratgan?**
 A. 1960-yil. B. 1962-yil.
 C. 1963-yil. D. 1966-yil.
- 31. Maqsud Shayxzoda 1957-yilda qaysi asarini yaratdi?**
 A. «Kapitan Gastello». B. «Ko'ngil deydiki».
 C. «Toshkentnoma». D. «Kurash nechun».
- 32. Quyidagi ijodkorlardan qaysiları Iskandar Rumiy haqida asar yozishgan?**
 1) Alisher Navoiy; 2) Nizomiy Ganjaviy; 3) Mavlono Lutfiy; 4) Xisrav Dehlaviy; 5) Abdurahmon Jomiy; 6) Maqsud Shayxzoda.
 A. 1,2,3,5,6. B. 1,2,4,5,6.
 C. 1,2,3,4,6. D. 1,2,3,4,5.
- 33. Dunyoda hech bir yomonlik jazosiz qolmasligini, tuban ishlarni qanchalik yashirmang, u baribir bir kuni oshkor bo'lishini ta'kidlovchi asar qaysi qatorda ko'rsatilgan?**
 A. «Umr haqida ertak». B. «Bulbul».
 C. «Iskandar Zulqarnayn». D. «Susambil».
- 34. «Kasalini yashirsang, isitmasi oshkor qiladi» maqolidagi fikr qaysi asarda aks ettirilgan?**
 A. «Uch og'a-ini botirlar». B. «Mening o'g'rígina bolam».
 C. «Iskandar Zulqarnayn». D. «Bulbul».
- 35. Shukrulloning birinchi she'ri qanday nomlanadi?**
 A. «Baxt qonuni». B. «Chollar».
 C. «Ikki qoya». D. «Umrim boricha».
- 36. Shukrulloning qaysi she'riy kitoblari bolalar uchun yozilgan?**
 A. «Bahor sovg'asi», «Yulduzlar». B. «Umrim boricha», «Inson va yaxshilik».
 C. «Inson – inson uchun», «Ikki qoya». D. «Tabassum o'g'rilari», «Hayot ilhomlari».

2-VARIANT

- 1. Quyidagi asarlardan qaysilari sahna asarlari hisoblanmaydi?**
 A. «Xatarli yo'l», «To'ydan keyin tomosha». B. «Tabassum o'g'rilari», «O'g'rini qaroqli urdi».
 C. «Janjal», «Unsiz faryod». D. «Qalb qo'shiqlari», «Chollar».
- 2. Shukrullo qaysi asarida yer kurrasiga, butun insoniyatning taqdiriga xavf solayotgan urushni, atom, vodorod bombalari kabi qirg'in qurollarini yaratuvchi kishilarni qoralaydi. Buyuk ilmiy-texnik kashfiyotlar tinchlikka, buniyodkorlikka, hayotimizni farovon va obod etishga xizmat qilmog'i kerak degan fikr badiiy obrazlarda ifoda etiladi.**
 A. «Kafansiz ko'milganlar». B. «Tirik ruhlar».
 C. «Asr bahsi». D. «Javohirlar sandig'i».

- 3. Shukrullo qanday nasriy asarlar yaratdi?**
- A. «Javohirlar sandig'i», «Kafansiz ko'milganlar».
 - B. «Chollar», «Hayot ilhomlari».
 - C. «Inson – inson uchun», «Ikki qoya».
 - D. «Umrilm boricha», «Inson va yaxshilik».
- 4. Shukrulloning ustozlari va donishmandlar tilidan hikoya qiluvchi asari qanday nomlanadi?**
- A. «Javohirlar sandig'i».
 - B. «Kafansiz ko'milganlar».
 - C. «Asr bahsi».
 - D. «Unsiz faryod».
- 5. Shukrulloning Sibir lagerlarida o'zi ko'rgan dahshatli voqealarini qalamga olgan xotira-qissasi qaysi javobda berilgan?**
- A. «Unsiz faryod».
 - B. «Asr bahsi».
 - C. «Kafansiz ko'milganlar».
 - D. «Javohirlar sandig'i».
- 6. Birinchi o'zbek yuristi Ubaydulla Xo'jayevning hayoti va faoliyati haqidagi Shukrullo qanday asar yozgan?**
- A. «Inson – inson uchun».
 - B. «Unsiz faryod».
 - C. «Asr bahsi».
 - D. «Tirik ruhlar».
- 7. Andersennenning «Bulbul» ertagidagi haqiqiy bulbul hayotdagi qanday odamlarning ramziy timsoli?**
- A. Vafodor do'stlarning.
 - B. Imperator amaldorlarining.
 - C. Ikkiyuzlamachi do'stlarning.
 - D. Loqayd insonlarning.
- 8. Soxtalik, tilyog'lomalik, sun'iylikni qoralovchi asarni ko'rsating.**
- A. «Uch og'a-ini botirlar».
 - B. «Mening o'g'rígina bolam».
 - C. «Iskandar Zulqarnayn».
 - D. «Bulbul».
- 9. Qaysi javobda 1938-yil 4-oktabrda nohaq otib o'ldirilgan yozuvchi ko'rsatilgan?**
- A. Hamid Olimjon.
 - B. Abdulla Qodiriy.
 - C. Usmon Nosir.
 - D. G'afur G'ulom.
- 10. Quvonch bilan o'lim yonma-yon tasvirlangan asar...**
- A. «Mening o'g'rígina bolam».
 - B. «Iskandar Zulqarnayn».
 - C. «Uloqda».
 - D. «Fanorchi ota».
- 11. Shukrulloning qaysi asarida inson o'z umrini behuda, keraksiz narsalarga emas, aksincha, ezgu ishlarga, ulug' maqsadlarni amalga oshirishga sarflamog'i lozimligi ta'kidlangan?**
- A. «Umr haqida ertak».
 - B. «Umrilm boricha».
 - C. «Inson va yaxshilik».
 - D. «Inson – inson uchun».
- 12. Andersennenning ilk yirik asari qanday nomlanadi?**
- A. «Improvizator».
 - B. «Tarixlar».
 - C. «Suv parisii».
 - D. «Qor malikasi».

- 13.** Andersenning qaysi ertaklarida jonsiz ashylar harakatga kelib, odamlarday so'zlaydi?
- «Bronza to'ng'iz», «Kumush tangacha».
 - «Yangi ertaklar», «Bolalarga aytilgan ertaklar».
 - «Tarixlar», «Yangi ertaklar va tarixlar».
 - «Dyumchaxon», «Suv parisi».
- 14.** Qaysi yozuvchi nomida Eng yaxshi bolalar yozuvchisi uchun Xalqaro mukofot ta'sis etilgan?
- Andersen.
 - Sent-Ekzyuperi.
 - Janni Rodari.
 - A.C.Pushkin.
- 15.** Qaysi ertakda jodugar g'alati ko'zgu yasaydi?
- «Bulbul».
 - «Qor malikasi».
 - «Bronza to'ng'iz».
 - «Kumush tangacha».
- 16.** Andersenning «Bulbul» ertagidagi soxta bulbul asardagi qaysi obrazlarning ramziy timsoli?
- Imperator amaldorlarining.
 - Imperatorning.
 - Oshpaz qizning.
 - Sayyoohlarning.
- 17.** Yozuvchi tomonidan kuzatilgan, idrok etilgan ibratli voqeа va hodisalarni ixcham shaklda badiiy ifoda etuvchi nasriy asar...
- Hikoya. B. Rivoyat.
 - Doston. D. Masal.
- 18.** Qalbi mehr-shafqatga to'la, insoniy hislarga limmo-lim obrazni ko'rsating.
- Nodira.
 - Qosim cho'loq.
 - Fanorchi ota.
 - Esonboy.
- 19.** G'afur G'ułom qissa janrida qanday asarlar yaratdi?
- «Netay». «Yodgor», «Tirilgan murda».
 - «Sog'inish», «Onalar», «Sum bola».
 - «Kuzatish». «Sen yetim emassan», «Vaqt».
 - «Bilib qo'yki seni vatan kutadi», «Ko'kan», «Shum bola».
- 20.** G'afur G'ułom qachon Akademik unvoniga sazovor bo'lган?
- 1940-yilda.
 - 1941-yilda.
 - 1942-yilda.
 - 1943-yilda.
- 21.** «Hayot sharobidan bir qultum yutay,
- Damlar g'animatdir, umruzoq soqiy misralari qaysi she'ridan olin-gan?
- «Sen yetim emassan».
 - «Bilib qo'yki seni vatan kutadi».
 - «Vaqt».
 - «Kuzatish».
- 22.** «Shum bola», «Mening o'g'rigma bolam» asarlarini kim yozgan?
- Hamid Olimjon.
 - Abdulla Qodiriy.
 - Usmon Nosir.
 - G'afur G'ułom.

- 23.** «Mening o'g'rigina bolam» hikoyasidagi Karimqori boyning kasbi...
 A. Pudratchi. B. Chitsurush.
 C. Ko'nchi. D. Konchi.
- 24.** Usmon Nosirning «Esingdami, g'arib ona, u qishlarning zahri?» misralari qaysi she'ridan olingan?
 A. «Oq yuvib, oq tarab». B. «Bolaligimga».
 C. «Yurganmisiz birga oy bilan». D. «Yoshlik».
- 25.** «Bolaligimga» she'rida bolalik nimaga o'xshatiladi?
 A. Kapalakka. B. Asalariga.
 C. Gulga, barglari ko'm-ko'k palakk'a, malakka. D. Suvga.
- 26.** Quyidagi she'riy to'plamlardan qaysilari Usmon Nosir qalamiga mansub? 1) «Quyosh bilan suhbat» (1932); 2) «Safarbar satrlar» (1932); 3) «Yoshlik» (1933); 4) «Traktorobod» (1934); 5) «Yurak» (1935); 6) «Mehrim» (1936).
 A. 1, 2, 3, 5, 6. B. 1, 3, 4, 5, 6.
 C. 1, 2, 4, 5, 6. D. 1, 2, 3, 4, 6.
- 27.** «Bolaligimga» she'rida shoir o'zini nimaga o'xshatadi?
 A. Bulbulga. B. Chaqmoqqa.
 C. Asalariga. D. Kapalakka.
- 28.** «Eng dahshatlilik sukonat – shoir jim yursa!» degan fikrni kim aytgan?
 A. Xurshid Davron. B. Usmon Nosir.
 C. E. Vohidov. D. A. Oripov.
- 29.** Usmon Nosirning qaysi sheri bir xil misralar bilan boshlanib, bir xil misralar bilan yakunlandi?
 A. «Gulzor –chaman...». B. «Yurak».
 C. «Yur, tog'larga chiqaylik». D. «Bolaligimga».
- 30.** «Yur, tog'larga chiqaylik» she'rida yoshlik nimaga o'xshatiladi?
 A. Buloqqa. B. Suvga.
 C. Soyga. D. Sharsharaga.
- 31.** Usmon Nosirning «Tun qancha qora bo'lsa, oy shuncha yorug» misralari qaysi asaridan olingan?
 A. «Bolaligimga». B. «Yoshlik».
 C. «Yurganmisiz birga oy bilan». D. «Nil va Rim».
- 32.** Usmon Nosir necha yoshida qameqqa olingan?
 A. 24 yoshida. B. 30 yoshida.
 C. 32 yoshida. D. 35 yoshida.
- 33.** Pushkining «Boqchasarov fontani», Lermontovning «Iblis», Dobrolyubovning «Haqiqiy kun qachon keladi», Krilovning «Ulug' kun» asarlarini qaysi ijodkor o'zbek tiliga tarjima qilgan?
 A. Cho'lpon. B. Fitrat.
 C. Usmon Nosir. D. Abdulla Qodiriy.
- 34.** «Gulzor –chaman...» deb boshlanuvchi she'rida shoir kimga murojaat qilyapti?
 A. Yoriga. B. Vataniga.
 C. Onasiga. D. She'riga.

35. «Men mast bo'lib qoldim bir kecha.

Sil o'pkamni ancha yayratdim.
Uxlamasdan to tong otguncha,
Dilginamni rosa sayratdim».
Usmon Nosirning ushbu misralari
qaysi she'ridan olingen?
A. «Yurganmisiz birga oy bilan».
B. «Yur tog'larga chiqaylik».
C. «Yo'lchi».
D. «Yoshlik».

36. Ohang jihatidan ma'lum bir tartibga solingan, his-tuyg'u ifodasi
sifatida yaratilgan hissiy nutq...

A. She'r. B. Topishmoq.
C. Maqol. D. Rivoyat.

3-VARIANT

1. She'r uchun uch xususiyat – ezzulik, go'zallik, donolik shart bo'lishini kim ta'kidlagan?

A. N.A.Dobrolyubov.
B. A.P.Chexov.
C. A.S.Pushkin.
D. I.A.Krilov.

2. «Gamlet», «Otello», «Mirzo Ulug'bek» asarlari qaysi vaznda yozilgan?

A. Aruz vazni. B. Nasriy she'r.
C. Oq she'r. D. Sarbast she'r.

3. Ramziy tasvir uslubi ustun, fikriy umumlashma kuchli, his-hayajon baland, ritorik qaytariqlar ko'p, o'ziga xos ritmik tuzilishi va pauzalari ko'p. Yuqoridagi belgilari she'rning qaysi shakliga taalluqli?

A. Nasriy she'r.
B. Sarbast she'r.

C. Oq she'r.

D. Aruz vaznida yozilgan she'r.

4. Qanday shakldagi she'rlar mansuralar, sochmalar deb ataladi?

A. Barmoq vaznidagi she'rlar.
B. Aruz vaznidagi she'rlar.
C. Nasriy she'rlar.
D. Sarbast she'rlar.

5. Hijolarning sisati va miqdoriga asoslanuvchi, she'riy nutqni nasriy nutqdan farq ettiruvchi she'riyat asoslaridan bini...

A. Vazn. B. Misra.
C. Turoq. D. Radif.

6. Masnaviy, ruboiy, g'azal qaysi vaznda yoziladi?

A. Barmoq vazni. B. Aruz vazni.
C. Erkin vazni. D. Nasriy she'rda.

7. O'tkir Hoshimovning birinchi kitobi qanday nomlanadi?

A. «Cho'l havosi».
B. «Po'lat chavandoz».
C. «Dunyoning ishlari».
D. «Muhabbat».

8. Manas» qirg'iz xalq eposi, «Qirq qiz» qoraqalpoq xalq dostonlarini o'zbek tiliga kim tarjima qilgan?

A. O'.Hoshimov. B. Mirtemir.
C. G'.G'ulom. D. Oybek.

9. Mirtemirning birinchi she'ri qanday nomlanadi?

A. «Tanburim ovozi».
B. «Shu'lalar qo'yndida».
C. «Zafar».
D. «Qaynashlar».

- 10. O'tkir Hoshimovning dramatik asarlari qaysi qatorda berilgan?**
- «Ikki karra ikki besh», «Nur borki, soya bor».
 - «Dunyoning ishlari», «Tushda kechgan umrlar».
 - «Shamol esaveradi», «Odamlar nima derkin».
 - «Inson sadoqati», «To'ylar muborak».
- 11. O'tkir Hoshimovning ona haqidagi asari qaysi qatorda berilgan?**
- «Dunyoning ishlari».
 - «Nur borki, soya bor».
 - «Inson sadoqati».
 - «Odamlar nima derkin».
- 12. O'tkir Hoshimov asarlari qatorini aniqlang.**
- «Dunyoning ishlari», «Daftar hoshiyasidagi bitiklar».
 - «Mening o'g'rigina bolam», «Shum bola».
 - «O'g'ri», «Bemor».
 - «O'tmishdan ertaklar», «Yodgor».
- 13. Qaysi javobda «Dunyoning ishlari» asarining muallifi ko'rsatilgan?**
- G'afur G'ulom.
 - Q'ilmas Umarbekov.
 - O'tkir Hoshimov.
 - Maqsud Qoriyev.
- 14. O'tkir Hoshimovning «Cho'l havosi» qissasini o'qib, «sof, samimiyl, tabiiy, iliq, rohat qilib o'qiladi»gan asar deb ta'riflagan yozuvchi kim?**
- E.Vohidov.
 - A.Qahhor.
 - S.Ahmad.
 - G'.G'ulom.
- 15. O'zbekiston Qahramoni Said Ahmad aytganidek, «...dostondek o'qiladi»gan asar qaysi?**
- «Dunyoning ishlari».
 - «Muhabbat».
 - «Inson sadoqati».
 - «To'ylar muborak».
- 16. O'tkir Hoshimovning qaysi asarida alla haqida hikoya berilgan?**
- «Dunyoning ishlari».
 - «Ikki eshik orasi».
 - «Bahor qaytmaydi».
 - «Shamol esaveradi».
- 17. «Dunyoning ishlari» asaridagi qaysi hikoyada ona kamtargina nafaqasini qo'shnilarining xursandchiligi uchun sarflaydi?**
- «Iltijo».
 - «Qarz».
 - «Gilam paypoq».
 - «Haqqush».
- 18. Mirtemirning ilk she'riy to'plami qaysi qatorda berilgan?**
- «Shu'lalar qo'ynda».
 - «Tanburim ovozi».
 - «Tong».
 - «Bong».
- 19. Mirtemir umrining oxirida qanday she'riy to'plam tayyorladi?**
- «Poytaxi».
 - «O'ch».
 - «Surat».
 - «Yodgorlik».
- 20. Mirtemirning qaysi she'ri «Qishlog'im» she'rining mantiqiy davomi hisoblanadi?**
- «Bulut».
 - «Baliq ovi».
 - «Shudring».
 - «To'rg'ay».

- 21.** «Esimda go'daklik – unutilmas choq,
O'sha kunlarimdan qalbimda bor
xat...» misralari qaysi she'rdan
olingan?
- A. «Qishlog'im». B. «Baliq ovi».
C. «Bulut». D. «To'rg'ay».
- 22.** «Shudring» she'rida «Kechasi
onam tag'in yig'labdi-da, chamasi»
misralaridagi Ona so'zi orqali nima
nazarda tutilayotir?
- A. Shoirning onasi. B. Ona tabiat.
C. Ona yurt. D. Ona tili.
- 23.** Qaysi qatorda «Bulut», «To'r-g'ay», «Shudring» she'rlarining
muallifi ko'rsatilgan?
- A. Hamid Olimjon.
B. Mirtemir.
C. Usmon Nosir.
D. G'afur G'ulom.
- 24.** «Tojmahal», «Temur haqida
hikoyalar» asarlari muallifi qaysi
qatorda ko'rsatilgan?
- A. Mirtemir. B. O'tkir Hoshimov.
C. M.Qoriyev. D. A.Qahhor.
- 25.** Maqsud Qoriyev 20 yil davomida
respublikaning qaysi gazetasida ish-
ladi?
- A. «Qizil O'zbekiston».
B. «Mehrigiyo».
C. «Toshkent haqiqati».
D. «O'zbekiston adabiyoti va
san'ati».
- 26.** Sent-Ekzyuperining 1931-yilda
«Femina» mukofotiga sazovor
bo'lgan asari qaysi qatorda berilgan?
- A. «Chippolinoning sarguzashtlari».
B. «Jelsamino yolg'onchilar mamlakatida».
C. «Televizorga kirib qolgan Jip».
D. «Tungi parvoz».
- 27.** Qaysi qatorda Sent-Ekzyuperining
birinchi hikoyasi berilgan?
- A. «Uchuvchi».
B. «Harbiy uchuvchi».
C. «Kichkina shahzoda».
D. «Shahzoda Plombir».
- 28.** Sent-Ekzyuperining ilk yirik asari
qaysi qatorda berilgan?
- A. «Janub chopari».
B. «Tungi parvoz».
C. «Uchuvchi».
D. «Osmondag'i tort».
- 29.** «Kichkina shahzoda» asarida
Kichkina shahzoda qiyofasida qanday
kuch namoyon bo'ladi?
- A. Yovuzlik.
B. Shuhratparastlik.
C. Yolg'onchilik.
D. Ezgulik.
- 30.** «Kichkina shahzoda» asaridagi
yovuzlik timsoli nima?
- A. Boabab daraxti.
B. Firuza guli.
C. Kichkina shahzoda.
D. Uchuvchi.
- 31.** Sent-Ekzyuperi qaysi asari uchun
Fransiya Akademiyasi tomonidan eng
yaxshi roman uchun beriladigan Gran
Pri mukofotiga sazovor bo'lgan?
- A. «Kichkina shahzoda».
B. «Harbiy uchuvchi».

- C. «Erkaklar zamini».
D. «Tungi parvoz».

32. Fransianing Lion shahri markazida qaysi yozuvchiga haykal o'rnatilgan?

- A. Antuan De Sent-Ekzyuperiga.
B. Hans Kristian Andersenga.
C. Nodar Dumbadzega.
D. Ernest Seton Tompsonga.

33. Xamsa» yozgan ijodkorlar qaysi qatorda berilgan?

- A. Nizomiy Ganjaviy, Sa'diy Sheroyi, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy.
B. Nizomiy Ganjaviy, Xisrav Dehlaviy, Lutfiy, Alisher Navoiy.
C. Nizomiy Ganjaviy, Xisrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy.
D. Nizomiy Ganjaviy, Fuzuliy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy.

34. Qaysi qatordagi tarixiy romanlar Maqsud Qoriyev qalamiga mansub?

- A. «Ko'hna dunyo», «Ulug'bek xazinasi», «Navoiy».
B. «Zulmat ichra nur», «Singan sector», «O'tron».
C. «Ibn Sino», «G'aznaviylar», «Spitamen».
D. «To'maris», «Shiroq», «Temur Malik».

35. «Qaldirg'ochlar bahorda keladi» hikoyasida sadoqat va oqibat borasida kimdan o'rnak olish kerak?

- A. Nodiradan.
B. Nodiraning dadasidan.
C. Qaldirg'ochlardan.
D. To'g'ri javob yo'q.

36. «Tangri insonni sirlar xazinasi darajasiga ko'targan ekan, uni so'zlash qobiliyatiga ega bo'lgani uchun hayvonlardan ortiq qilib yaratdi». Ushbu nasriy bayon Alisher Navoiyning «Hayrat ul-abror» dostonining qaysi misralariga taalluqli?

- A. So'z guharig'a erur oncha sharaf – Kim bo'la olmas anga gavhar sadaf.
B. Tengriki, insonni qilib ganji roz.
So'z bila hayvondin anga imtiyoz.
C. Donai dur so'zini afsona bil,
So'zni jahon bahrida durdona bil.
D. To'rt sadaf gavarining durji ul.
Yetti falak axtarining burji ul.

4-VARIANT

1. A. Navoiyni qaysi hukmdorlar qo'llab-quvvatlagan?

- A. Abusaidmirzo, Husayn Boyqaro.
B. Abulqosim Boburmirzo, Husayn Boyqaro.
C. Amir Temur, Shohruhmirzo.
D. Boburmirzo, Ulug'bek.

2. A. Navoiy forscha she'rlariga qanday taxallus qo'yari edi?

- A. Navoiy. B. Foniy.
C. Binoiy. D. Forsiy.

3. «Hayrat ul-abror» dostonining 10-maqolati nima haqida?

- A. Rostgo'ylik va to'g'rilik.
B. Odob va kamtarlik.
C. Qanoat haqida.
D. Vafo haqida.

4. Alisher Navoiyning «Hayrat ul-abror» dostoni qachon yaratilgan?

- A. 1482-yil B. 1483-yil.
C. 1484-yil. D. 1485-yil.

- 5. «Sher bilan Durroj» masalida qanday illat qoralangan?**
- Dangasalik.
 - Manmanlik.
 - Yolg'onchilik.
 - Ziqnalik.
- 6. Alisher Navoiyning «Hayrat ul-abror» dostoni necha bob va necha maqolatdan iborat?**
- 63 bob 20 ta maqolatdan.
 - 60 bob 20 ta maqolatdan.
 - 75 bob 25 ta maqolatdan.
 - 68 bob 19 ta maqolatdan.
- 7. «Hayrat ul-abror» dostonining 10-maqolatida nay, nayza, sham, parvona timsollarida shoir qanday g'oyani yoritadi?**
- Ishyoqmaslik va dangasalik.
 - Ahillik va qo'shnichilik.
 - To'g'rilik va egrilik.
 - Sahiylik va baxillik.
- 8. Sen gulsen-u men haqir bulbul-durmen.**
Sen shu'lasen, ul shu'lag'a men kuldurmen.
Nisbat yo'qdur, deb ijtinob aylamakim,
Shahmen elga, vale senga quldurmen!
Bu o'tli misralar kimning qalamiga mansub?
- Alisher Navoiy.
 - Zahiriddin Muhammad Bobur.
 - Muqimiy.
 - Sa'diy Sheroyi.
- 9. «Har kimki, vafo qilsa, vafo topqusidir.**
Har kimki, jafo qilsa, jafo topqusidir.
- Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlik hargiz,**
Har kimki, yomon bo'lsa, jazo topqusidir».
- Ruboiydag'i radifni toping.**
- Har kimki.
 - Vafso, jafo, jazo.
 - Topqusidir.
 - Yomon bo'lsa.
- 10. Hind diyorida yashab, o'z vatanini qo'msb o'tgan shoir kim?**
- Alisher Navoiy.
 - Mirzo Bobur.
 - Muqimiy.
 - Usmon Nosir.
- 11. «Bobur» so'zi arab tilida qanday ma'noni anglatadi?**
- She'r.
 - Sher.
 - Yo'lbars.
 - Bulbul.
- 12. Mirzo Bobur Hindistonni qachon zabit etdi?**
- 1524-yil.
 - 1525-yil.
 - 1526-yil.
 - 1527-yil.
- 13. «Sayohatnama» asarida Muqimiy qaysi qishloqni «qaroqchizor ekan» deydi.**
- «O'Itarma».
 - «Do'rmancha».
 - «Zohidon».
 - «Roshidon».
- 14. «Sayohatnama» asarida Muqimiy qaysi qishloqning bog'larini jannat bog'iga qiyoslaydi?**
- «Roshidon».
 - «Vodil».
 - «Rafqon».
 - «Nursux».
- 15. Muqimiying bizgacha yetib kelgan ijodiy merosining umumiy hajmi necha misradan iborat?**
- 5000 misra.
 - 10 000 misra.
 - 15 000 misra.
 - 20 000 misra.

- 16.** «Anhor-u soy-u cho'llari,
Oynab kelödур suvlari.
Shirinki zardolulari.
Qand-u asal bekor ekan».
Qaysi javobda'ushbu misralar muallifi
ko'rsatilgan?
 A. Hamid Olimjon.
 B. Muqimiy.
 C. Usmon Nosir.
 D. G'afur G'ulom.
- 17.** «Guliston va Bo'ston» asarlari
kimning qalamiga mansub?
 A. Alisher Navoiy.
 B. Zahiriddin Muhammad Bobur.
 C. Muqimiy.
 D. Sa'diy Sheroziy.
- 18.** Qaysi ma'rifatparvar shoirni
toshbo'ron qilib o'ldirishgan?
 A. Maqsud Shayxzoda.
 B. Abdulla Qodiriy.
 C. Usmon Nosir.
 D. Hamza.
- 19.** Hamzaning qaysi asarlari roman
janrida yozilgan?
 A. «Yangi saodat», «Uch rashuv».
 B. «O'ch», «Ilm hidoyati».
 C. «Ishq qurbanlari», «Maysaraning
ishi».
 D. «Ochlik qurbanlari», «Farg'ona
sojiasi».
- 20.** Qaysi javobda milliy g'ururimizni
aks ettiruvchi she'rlar berilgan?
 A. «Shudring», «To'rg'ay».
 B. «Yurak», «Yoshlik».
 C. «O'zbegin», «O'zbekiston».
 D. «Qishlog'im», «Bulut».
- 21.** «Hiloliya» va «Tuhfatul aksor»
qasidalarining muallifi kim?
 A. Alisher Navoiy.
 B. Sa'diy Sheroziy.
 C. Bobur.
 D. Muqimiy.
- 22.** Quyidagi misra qaysi she'rdan
oltingan?
Tarixing bitmakka xalqim mingta
Firdavsiy kerak...
 A. «O'zbegin».
 B. «Ozbekiston».
 C. «Sayohatnoma».
 D. «Qishlog'im».
- 23.** «Men buyuk yurt o'g'lidurman,
men bashar farzandiman...» misralari
kimning qalamiga mansub?
 A. Abdulla Oripov.
 B. Erkin Vohidov.
 C. G'afur G'ulom.
 D. Oybek.
- 24.** Qaysi she'nda Xristofor Kolumb-
dan salkam 500 yil oldin Amerika
qit'asini bashorat qilgan olim haqida
fikr yuritilgan?
 A. «Hayrat ul-abror» dostoni».
 B. «Ozbekiston».
 C. «Jonlarning jononi vatan».
 D. «O'zbegin».
- 25.** «Bobolardan so'zladim, ammo
Bir zot borkim, baridan suyuk:
Buyuklarga baxsh etgan daho,
Ona xalqim, o'zingsan buyuk».
Yuqoridagi misralar kimning qala-
miga mansub?
 A. Abdulla Oripov. B. Erkin Vohidov.
 C. G'afur G'ulom. D. Oybek.

- 26.** «Qizimga maktublar» kimning asari?
A. Abdulla Oripov.
B. Erkin Vohidov.
C. G'afur G'ulom.
D. O'lmas Umarbekov.
- 27.** Yanguli. Jamol qaysi asar qahramonlari?
A. «Hellados» hikoyasi.
B. «Qizimga maktublar» asari.
C. «Qaldirg'ochlar bahorda keladi» hikoyasi.
D. To'g'ri javob yo'q.
- 28.** Payg'ambarimizni ko'rgan va u kishi bilan suhabatda bo'lganlar kimlar deyiladi?
A. Sahobalar. B. Tobeinlar.
C. Muhaddislar. D. Roviyalar.
- 29.** Forscha so'zdan olingen bo'lib, fantastika, sehr-jodu hamda hayotiy uydirmalarga asos bo'lgan nasriy hikoyalari qanday nomlanadi?
A. Afsona. B. Rivoyat.
C. Ertak. D. Masal.
- 30.** Inson o'z umrini behuda, keraksiz narsalarga emas, aksincha, ezgu ishlarga, bunyodkorlikka, ulug' maqsadlarni amalga oshirishga sarflamog'i lozimligi qaysi asarda ta'kidlanadi?
A. «Umr haqida ertak».
B. «Shiroq».
C. «Dunyoning ishlari».
D. «Qor malikasi».
- 31.** Qaysi ertakda bir jodugar g'alati ko'zgu yasaydi?
A. «Bulbul». B. «Qor malikasi».
- 32.** Birinchi bo'lib Mustaqillik orde-niga munosib ko'rilgan adib kim?
A. U.Nosir. B. Oybek.
C. A.Qodiriy. D. G'.G'ulom.
- 33.** Mirtemirning qaysi she'ri «Baliq ovi» she'rining mantiqiy davomi hisoblanadi?
A. «Bulut». B. «Shudring».
C. «Qishlog'im». D. «To'rg'ay».
- 34.** M.Qoriyevning 60-70-yillarda yozgan asarlarining asosiy mavzusi nima haqida?
A. Yoshlar haqida.
B. Tarixiy mavzuda.
C. Vatan haqida.
D. Urush va tinchlik haqida
- 35.** Tuz oh. Zahiriddin Muhammad Bobur.
Yuz oh. Zahiriddin Muhammad Bobur!
Sarrishtai ayshdin ko'ngulni zinhor
Uz. oh. Zahiriddin Muhammad Bobur!
Ushbu ruboiy qanday badiiy tasvir vositalaridan tashkil topgan?
A. Qosiya va takror.
B. Qosiya va radif.
C. Qosiya va tashbeh.
D. Tajnis va ishtiqoq.
- 36.** O'z hayoti uchun uyatli bo'lmaslikka, odamlar qalbida yaxshi iz qoldirishga da'vat etilgan asarni aniqlang.
A. «Qizimga maktublar».
B. «Uloqda».
C. «Sher bilan durroj».
D. «Bolalik».

6-SINF. ADABIYOT

I-VARIANT

1. Xudoyberdi To'xtaboyev ijodiga taalluqli asarlar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. «Besh bolali yigitcha». «Sariq devni munib».
- B. «Mening o'g'rigina bolam». «Shum bola».
- C. «O'g'ri», «Bemor».
- D. «O'tmishdan ertaklar». «Yodgor».

2. Xudoyberdi To'xtaboyev 12 yil davomida turli gazeta nashrlarida ishlaganda ko'proq qaysi janrda faoliyat ko'rsatadi?

- A. Felyeton.
- B. Maqola.
- C. Ocherk.
- D. Esse.

3. «...Bola va o'smir ruhidagi go'zalilikni himoyalashga e'tibor» berib kelayotgan yozuvchi kim?

- A. Xudoyberdi To'xtaboyev.
- B. O'tkir Hoshimov.
- C. Tahir Malik.
- D. Erkin Vohidov.

4. «Sariq devni minib» asari qachon yozilgan?

- A. 1974-yil.
- B. 1973-yil.
- C. 1968-yil.
- D. 1976-yil.

5. «Sariq devni minib» asaridagi sehrli qalpoqcha hayotda kimlarning yoki nimaning ramziy timsoli?

- A. Ota-onalarining.
- B. Tuganmas boylikning.
- C. Omadning.
- D. Sehrli qalpoqcha hech kimning va hech narsaning ramziy timsoli emas.

6. «Sariq devni minib» asarining qahramonlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Hoshimjon. Mirobiddinxo'ja. Qosimjon.
- B. Omon. Hoji bobo. Hoshimjon.
- C. Shoikrom. Hoshimjon. Xadicha.
- D. Sotiboldi. Oysha. Dono.

7. «Sariq devni minib» asaridagi Hoshimjon o'qiydigan maktab direktorining ism-familiyasi kim?

- A. Akbar Nosirov.
- B. Otajon Azizovich.
- C. Xursanali Sharafiddinovich.
- D. Hayitvoy Qosimov.

8. «Sariq devni minib» asarida Hoshimjonnini Mirzacho'ldagi 6-sovxoza kimning tavsiyasi bilan agronom qilib ishga olishadi?

- A. Sovxoza direktori Akbar Nosirovning tavsiyasi bilan.
- B. Suvchi Polvon tog'anining maslahati bilan.
- C. Bo'lim boshlig'i O'rmon akaning tavsiyasi bilan.
- D. Brigadir Murodxon akaning maslahati bilan.

9. Xudoyberdi To'xtaboyevning «Sariq devni minib» romani qahramoni – Hoshimjon Ro'ziyev ilmsizligi uchun agronom, injener, shoir bo'lolmaydi. Ammo u ilmlib bo'lib qaysi sohada shuhrat topadi.

- A. Sartaroshlikda.
- B. Shoirlikda.
- C. Militsionerlikda.
- D. Sportda.

- 10. «Sariq devni minib» asarida Hoshimjon Ro'ziyevga maslahatlar berган shoirning nomini ko'rsating.**
- Mamarasul Bolta.
 - Jo'ra Juman.
 - Erkin Hamid.
 - Toshqin Obid.
- 11. Qahramonlari hajv va humor bilan tasvirlangan roman qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?**
- «Uloqda».
 - «Fonarchi ota».
 - «Sariq devni minib».
 - «Mening o'g'rígina bolam».
- 12. Xudoyberdi To'xtaboyevning «Sariq devni minib» romani qahramoni – Hoshimjon Ro'ziyev «bir xatoga yo'l qo'yib, butun maktabga sharmdayi sharmisor» bo'ladi. Shu voqeя nima edi?**
- Maktab direktori nomiga ariza yozishi.
 - O'zi va do'sti Qosimjonga yettila fandan a'lo baho qo'yib, chorak bahosini chiqarishi.
 - Bir partada o'tiradigan do'sti Orif bilan janjal qilishi.
 - Kuchuk tufayli sinfdoshlari bilan janjallahшиб qolishi.
- 13. Xudoyberdi To'xtaboyevning «Sariq devni minib» romani nechta tilga tarjima qilingan?**
- 22 ta.
 - 23 ta.
 - 30 dan ortiq.
 - 24.
- 14. «Sariq devni minib» asariga qaysi mashhur yozuvchi yuksak baho bergen?**
- Janni Rodari.
 - Jonatan Swift.
 - Hans Kristian Andersen.
 - Antuan de Sent-Ekzyuperi.
- 15. G'afur G'ulomning quyida keltirilgan asarlaridan qaysi biri yorqin avtobiografik xarakterga ega?**
- «Tirilgan murda».
 - «Yodgor».
 - «Shum bola».
 - «Mening o'g'rígina bolam».
- 16. «Shum bola» qissasida «**char gapga bir maqol o'qiydigan, ezmaroq tabiatli, ammo ko'ngli ochiq, baxilligi yo'q, hisobga no'noqroq oltita narsani ketma-ket sanamoqchi bo'lsa, to'rtdan keyin yanglishib ketadigan**» kishi kim?**
- Sariboy.
 - Hoji bobo.
 - Omon.
 - Usta Salim.
- 17. G'afur G'ulom «Shum bola» asarini qachon yozishni boshlagan?**
- 1936-yilda.
 - 1940-yilda.
 - 1942-yilda.
 - 1945-yilda.
- 18. «**Hazrat bo'lsa, o'zini umr bo'yi o'likdan boshqa narsani yuvmagan kishiday qilib ko'rsatishga harakat qilar edi**». Keltirilgan parcha qaysi asardan olingan?**
- «Shum bola».
 - «Mening o'g'rígina bolam».
 - «Yodgor».
 - «Netay».
- 19. Aziz asrimizning aziz omlari Aziz odamlardan so'raydi qadrin. Fursat g'animatdir shoh satrlar-la**

Bezamoq chog'idir umr daftarin.

Yuqoridagi she'riy parcha G'afur G'ulomning qaysi she'ridan olingan?

- A. «Vaqt».
- B. «Sog'inish».
- C. «Kuzatish».
- D. «Onalar».

20. «Shum bola» qissasida Sariboy «innaykeyin» shum bolaning qaysi gapidan keyin hushidan ketadi?

- A. O'g'li Bo'riboyvachchaninin o'lganini eshitib.
- B. Qo'rg'onga o't ketganini eshitib.
- C. Ombor yonib, otlar ham o'lganini eshitib.
- D. Adol opaning chaqalog'i Badal aravakashga o'xshaganligini eshitib.

21. «Shum bola» qissasi ilk bor kitob holida chop etilganda, u qanday nomlangan edi?

- A. «Shum bolaninig sarguzashti».
- B. «Dovdirash».
- C. «Shumlik».
- D. «Shum bola».

22. Zamonaviy o'zbek qo'shiqchilik san'ati rivojiga salmoqli hissa qo'shgan ijodkorni ko'rsating.

- A. G'afur G'ulom.
- B. Abdulla Oripov.
- C. Turob To'la.
- D. Oybek.

23. Turob To'laning dastlabki she'riy to'plami qachon, qanday nom bilan chop etilgan?

- A. 1939-yilda «She'rlar».
- B. 1938-yilda «Shodligim».
- C. 1940-yil «Tabassum».
- D. 1948-yil «Baxt tongotari».

24. Quyidagi asarlardan qaysi birini Turob To'la o'zbek tiliga tarjima qilgan?

- A. «Faust».
- B. «Otello».
- C. «Qiyiq qizning quyilishi».
- D. «Yevgeniy Onegin».

25. Qaysi ertakda dunyodagi har bir mavjudot, avvalo, inson o'zini, o'zligini tanishi kerak degan g'oya bor?

- A. «Shahzoda Plombir».
- B. «Hurishni eplolmagan kuchukcha».
- C. «Qutbdagi gunafsha».
- D. «Hech qayoqqa olib bormaydigan yo'l».

26. «Sumbula», «Ko'chalar», «Do'ppi tikdim», «Sartarosh qo'shig'i», «Hayo bilan» qo'shiqlari muallifi kim?

- A. Turob To'la.
- B. Muhammad Yusuf.
- C. Bobur Bobomurod.
- D. Iqbol Mirzo.

27. "Yetti zog'ora qissasi"dan olingan "Donan" hikoyasida otga chuqur mehr qo'yan, uni sadoqatli do'sti sifatida ko'rgan qahramon kim?

- A. Fayzi dasturxonchi.
- B. Toshtemir.
- C. Baxshilla.
- D. Do'non.

28. "Yetti zog'ora qissasi" asaridagi "Do'non" hikoyasi so'ngida ozib ketgan, qovurg'alari sanalib qolgan bechora otning taqdiri nima kechadi?

- A. Bolani sog'inib halok bo'ladi.
- B. Yemish yemay ozib halok bo'ladi.

- C. Ot mehmonning uyidan qochib ketadi.
D. Mehmon otni olib kelib beradi.
29. «Chippolinoning sarguzashtlari». «Televizorga kirib qolgan Jip» asarlarining muallifi kim?
A. Andersen.
B. A.S.Pushkin.
C. Janni Rodari.
D. Sent-Ekzyuperi.
30. Janni Rodari qanday mukofotga sazovor bo'lgan?
A. Nobel mukofoti.
B. Hans Kristian Andersen mukofoti.
C. «Femina» mukofoti.
D. «Oltin Yulduz» ordeni.
31. Qaysi qatorda Janni Rodari ertaklari berilmagan?
A. «Telefonda aytilgan ertaklar», «Osmondag'i tort».
B. «Rim ertaklari», «Uchtadan oxiri bor ertaklar».
C. «Hurishni eplolmagan kuchukcha», «Shahzoda Plombir».
D. «Bulbul», «Qor malikasi».
32. Jahon ertakchiligidagi yangi bir usulni yaratgan, voqealar yechimi uch xil yakun topuvchi, har bir yakun o'zining boshqasidan tubdan farq qiladigan mazmun-mohiyatiga ega bo'lgan asarlar muallifi kim?
A. Aka - uka Grimlar.
B. Hans Kristian Andersen.
C. Janni Rodari.
D. Sharl Perro.
33. Muqimiyning ijodiy merosi qancha hajmnini tashkil etadi?
A. 8 000 misradan iborat.
B. 10 000 misradan iborat.
C. 15 000 misradan iborat.
D. 12 000 misradan iborat.
34. Muqimiyning ilk devoni qanday nomlanadi?
A. «Muqimiy bayozi».
B. «Devoni Muqimiy».
C. «Muqimiy maa hajviyot».
D. «Lirika i satira».
35. Quyidagi hajviy asarlardan qaysilari hikoya janrida yozilgan?
A. Hamzaning «Maysaraning ishi», «Tuhmatchilar jazosi» asarlari.
B. Chexovning «Yovuz niyatli kishi», «Qiyshiq oyna» asarlari.
C. Ilf va Petrovlarning «O'n ikki stul» va «Oltin buzoqcha» asarlari.
D. A.Qahhorning «Og'riq tishlar», Gogolning «Revizor» asarlari.
36. «Maskovchi boy ta'rifida», «Saylov», «Dodhohim» asarlari qaysi shoirning qalamiga mansub?
A. Furqat. B. A. O'tar.
C. Muqimi. D. A.Qahhor.

2-VARIANT

1. Abdulla Qahhorning bolaligi to'g'risida batatsil hikoya qilingan avtobiografik asar qaysi qatorda berilgan?
A. «O'tmishdan ertaklar».
B. «Bolalik».
C. «Shum bola».
D. «Sarob».

- 2. A.Qahhor dastlab qaysi qissasini yozgan?**
- «Sinchalak».
 - «Qishloq hukm ostida».
 - «O'tmishdan ertaklar».
 - «Muhabbat».
- 3. A.Qahhorning komediya janrida yozgan asarlari qaysi qatorda berilgan?**
- «Qo'shchinor chiroqlari».
 - «Sarob».
 - «Sinchalak», «Muhabbat».
 - «Shohi so'zana».
 - «Tobutdan tovush».
 - «Og'riq tishlar».
 - «O'tmishdan ertaklar».
 - «Ayajonlarim».
- 4. Abdulla Qahhorning «Bemor» hikoyasida qanday g'oya ifodalangan?**
- Mustamlakachilik zulmi qorallangan.
 - Qo'li kalta qashshoq kishining nochor holati ko'rsatilgan.
 - Mahalliy boylar tanqid qilingan.
 - Chor amaldorlari zulmi ko'rsa tilgan.
- 5. Qaysi hikoyada «uyquga to'yaman-gan ko'zları-yu, hali aniq shakl olma-gan jujuq tilida onaizoriga tuni bilan xudodan shifo tilab chiquvchi begu-noh go'dak» obrazi berilgan?**
- «Urushning so'nggi qurbanovi».
 - «Mening o'g'rigma bolam».
 - «Bemor».
 - «Dunyoning ishlari».
- 6. Sotiboldi Abdulla Qahhorning qaysi asari qahramoni?**
- «O'g'ri».
 - «Bemor».
 - «Anor».
 - «Dahshat».
- 7. Abdulla Qahhorning «Bemor» hikoyasi zamirida aslida kim bemor?**
- Sotiboldining xotini bemor.
 - Butun jamiyat bemor.
 - Abdug'aniboy bemor.
 - Sotiboldi bemor.
- 8. «Tanobchilar» satirasida qanday g'oya ifodalangan?**
- Amaldorlarni ulug'lash.
 - Dehqonlarga zulm o'tkazgan mahalliy amaldorlar kirdikorlarini fosh etish.
 - Boylarni tanqid qilish.
 - Dehqonlarni yer solig'idan ozod qilish.
- 9. E.Vohidov dramaturgiya sohasida qanday asarlar yaratdi?**
- «Oltin devor».
 - «Istanbul sojiasi».
 - «Quyosh maskani».
 - «Ruhlar isyonii».
 - «Umr daryosi».
 - «Orzu chashmasi».
 - «Ko'ngil nidosi».
- 10. Erkin Vohidovning xalqlar, mil-latlar, dinlar o'rta sidagi nizolar bashariyatga naqadar katta falokatlar olib kelishi teran tasvirlangan asari qaysi qatorda berilgan?**
- «Nido».
 - «Ruhlar isyonii».
 - «Quyosh maskani».
 - «Orzu chashmasi».
- 11. Janni Rodari qaysi ertagida reklamaning ajobtovur xususiyatini muammolar yechimiga asos qilib olgan?**
- «Shahzoda Plombir».

- B. «Qutbdagi gunafsha».
 C. «Hurishni eplolmagan kuchukcha».
 D. «Hech qayoqqa olib bormaydigan yo'l».
- 12. Janni Rodarining «Shahzoda Plombir» ertagidagi qahramon shahzoda Plombirga qaysi javobda to'g'ri ta'rif berilgan?**
- A. Oydan tushgan o'zga sayyora-liklarning ulkan shahzodasi.
 B. Rim imperiyasining qiroli.
 C. «Qo'shaloq qutb» firmasining boshlig'i.
 D. Samoviy kelgindilar – Marslik-larning kichik shahzodasi.
- 13. Odil Yoqubovning dastlabki yirik asari qaysi qatorda berilgan?**
- A. «Tengdoshlar» povesti (1951-y).
 B. «Diyonat» romani (1947-y).
 C. «Ulug'bek xazinasi» romani (1953-y).
 D. «Muqaddas» qissasi (1961-y).
- 14. Odil Yoqubov qaysi yillarda respublika Yozuvchilar uyushmasini boshqardi?**
- A. 1982-1987-yillarda.
 B. 1975-1982-yillarda.
 C. 1987-1991-yillarda.
 D. 1991-1996-yillarda.
- 15. Odil Yoqubov Abu Rayhon Beruniy haqida qanday asar yozgan?**
- A. «Ko'hna dunyo».
 B. «Adolat manzili».
 C. «Bir koshona sirlari».
 D. «Er boshiga ish tushsa...».
- 16. «Muzqaymoq» hikoyasida qanday g'oya ifodalangan?**
- A. Otasining o'g'liga muzqaymoq olib berishi haqida.
 B. Pionerlar hayoti tasvirlangan.
 C. Odil Yoqubov o'z otasi misolida qatog'on davri dahshatlarini aks ettirgan.
 D. Odil Yoqubovning qatog'on qilinishi haqida.
- 17. Quyidagi asarlardan qaysi birini Erkin Vohidov o'zbek tiliga tarjima qilgan?**
- A. «Faust».
 B. «Otello».
 C. «Qiyiq qizning quyilishi».
 D. «Yevgeniy Onegin».
- 18. Erkin Vohidov bir she'rida choynak va piyola harakatlari orqali qanday fazilatni ulug'lagan?**
- A. Kamtarlikni.
 B. Mehribonlikni.
 C. Sahiyilikni.
 D. Xushmuomalalikni
- 19. «Hayqiraman tog'lar bag'ridan. Gumburlagan sado keladi, Ona yerning otash qa'ridan «O'g'lim» degan nido keladi» misralari qaysi muallif qalamiga mansub.**
- A. U. Nosir. B. A. Oripov.
 C. M. Yusuf. D. E. Vohidov.
- 20. «Nido» dostonida qaysi urush tasvirlangan?**
- A. I jahon urushi.
 B. II jahon urushi.
 C. Dunyoda bo'lgan barcha urushlar.
 D. To'g'ri javob yo'q.

- 21.** «Nido» dostoni orqali shoir aytmoqchi bo'lgan eng asosiy muddao nima?
- Dushmandan qasos olish.
 - Bir-biri bilan urushayotgan qo'shni davlatlarga o'q-dori qurollaridan yordam berish.
 - Urushda otasi halok bo'lgan bolasning iztiroblarini aks ettirish.
 - Tinchlik uchun, insoniyatning baxtli kelajagi uchun kurashish.
- 22.** O'tkir Hoshimovning birinchi kitobi qanday nomlanadi?
- «Cho'l havosi».
 - «Po'lat chavandoz».
 - «Dunyoning ishlari».
 - «Muhabbat».
- 23.** O'tkir Hoshimovning dramatik asarlari qaysi qatorda berilgan?
- «Ikki karra ikki besh». «Nur borki. soya bor».
 - «Dunyoning ishlari». «Tushda kechgan umrlar».
 - «Shamol esaveradi», «Odamlar nima derkin».
 - «Inson sadoqati». «To'ylar muborak».
- 24.** O'tkir Hoshimovning ona haqidagi asari qaysi qatorda berilgan?
- «Dunyoning ishlari».
 - «Nur borki. soya bor».
 - «Inson sadoqati».
 - «Odamlar nima derkin».
- 25.** O'tkir Hoshimov asarlari qatorini aniqlang.
- «Dunyoning ishlari». «Daftар hoshiyasidagi bitiklar».
- B.** «Mening o'g'rigina bolam». «Shum bola».
- «O'g'ri», «Bemor».
 - «O'tmishdan ertaklar», «Yodgor».
- 26.** Rossiyaning Orenburg gubernasida tug'ilgan. II jahon urushida nemislar qo'liga asir tushib, fashistlar tomonidan qatl etilgan shoir kim?
- Musa Jalil.
 - A.S.Pushkin.
 - Lermontov.
 - A.P.Chexov.
- 27.** «Urushning so'nggi qurbanisi» asarida Umri xolaning qotili kim?
- Shoikrom.
 - Xadicha.
 - Shone'mat.
 - Urush.
- 28.** Qaysi ijodkorlar «O'zbekiston Qahramoni» unvoniga sazovor bo'lishgan?
- Abdulla Oripov; 2) Erkin Vohidov;
 - Said Ahmad;
 - Ozod Sharafiddinov;
 - Ibroyim Yusupov.
- 1, 2, 3, 4.
 - 1, 2, 4, 5.
 - 1, 2, 3, 5.
 - 1, 2, 3, 4, 5.
- 29.** Quyidagi ijodkorlardan qaysi biri «xalq dushmani» degan tuhmat bilan qamalgan?
- Abdulla Oripov.
 - Erkin Vohidov.
 - Said Ahmad.
 - Ibroyim Yusupov.
- 30.** Said Ahmadning ilk asari qanday nomlanadi?
- «Ishqiboz».
 - «Muhabbat».
 - «Er yurak».
 - «Hukm».

31. Qaysi qatorda Said Ahmadning dramatik asarlari berilgan?

- A. «Qadrdon dalalar», «Hukm».
- B. «Jimjitlik», «Ufq».
- C. «Kelinlar qo'zg'oloni», «Kuyov».
- D. «Tortiq», «Muhabbat».

32. Laganbardorlik, xushomadgo'ylik qoralangan asarni aniqlang.

- A. «Sobiq».
- B. «Qoplon».
- C. «Muzqaymoq».
- D. «Bemor».

33. Qaysi hikoyaning qahramoni eng ilg'or paxtakor bo'lib, asosiy ishini yig'ishtirib, turli kerak-nokerak majlis, kengash, yig'ilishlarga borishga majbur bo'lgan?

- A. «Sobiq».
- B. «Qoplon».
- C. «Muzqaymoq».
- D. «Bemor».

34. Badiiy asarda keng ma'noda kishillardagi yoki ma'lum bir jamiyatdagi nuqson va kamchiliklarni keskin tanqid qilish, massxaralab bartaraf etish maqsadida qo'llaniladigan asarlar...

- A. Satirik asarlar.
- B. Yumoristik asarlar.
- C. Ocherklar.
- D. Publisistik asarlar.

35. Musa Jalilning dastlabki to'plami qanday nomlanadi?

- A. «Biz boramiz».
- B. «O'rtoqqa».
- C. «Ordenli millionerlar».
- D. «Xat tashuvchi».

36. «Netay, axir do'st pistoletim So'nggi so'zdan to'sat bosh to'tdi.

Kishan soldi dushman qo'limga
Va erksizlik qa'riga otdi». Ushbu misralar qaysi she'rdan olingan?

- A. «Ishonma».
- B. «Kechir yurtim».
- C. «O'rtoqqa».
- D. «Biz boramiz».

3-VARIANT

1. Qaysi qatorda mehnat qo'shiqlari berilgan?

- A. «Yor-yor».
- B. «Kelin salom».
- C. «Maydagul».
- D. «Churey-churey».
- E. «Boychechak».
- F. «Chittigul».
- G. «Kuyovsalom».
- H. marsiyalar.

2. Savol-javob tarzidagi xalq qo'shig'i qaysi qatorda berilgan?

- A. «Boychechak».
- B. «Chittigul».
- C. «Maydagul».
- D. «Boshginam og'riydi».

3. «Boychechak» qo'shig'ida boychechak nimaning ramzi?

- A. Yoshlik, jo'shqinlik ramzi.
- B. Qut-baraka ramzi.
- C. Mehr-oqibat ramzi.
- D. Tinchlik, osoyishtalik ramzi.

4. «Xamsa» yozgan ijodkorlar qaysi qatorda berilgan?

- A. Nizomiy Ganjaviy, Sa'diy Sheraziy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy.
- B. Nizomiy Ganjaviy, Xisrav Dehlaviy, Lutifiy, Alisher Navoiy.
- C. Nizomiy Ganjaviy, Xisrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy.
- D. Nizomiy Ganjaviy, Fuzuliy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy.

5. Alisher Navoiyning «Xamsa» asariga kiruvchi dostonlarning to'g'ri tartibi qaysi qatorda berilgan?

- A. «Sab'ai sayyor», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Hayrat ul-abror», «Saddi Iskandariy».
- B. «Saddi Iskandariy», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Hayrat ul-abror», «Sab'ai sayyor».
- C. «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Hayrat ul-abror», «Sab'ai sayyor», «Saddi Iskandariy».
- D. «Hayrat ul-abror», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sab'ai sayyor», «Saddi Iskandariy».
6. «Shogird agar shayx ul-islom, agar qozidur,
Agar ustod andin rozidur – tengri
rozidur». Ushbu misralar Alisher
Navoiyning qaysi asaridan olingan?
- A. «Hayrat ul-abror».
B. «Mahbub ul-qulub».
C. «Majolis un-nafois».
D. «Lison ut-tayr».
7. Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asari qachon yozilgan?
A. 1500-yilda. B. 1488-yilda.
C. 1483-yilda. D. 1501-yilda.
8. «Senga mendan xabar bersalar,
«Shoir o'ldi endi» desalar,
Yo'q, ishonma, jonim!
Bu so'zni –
Do'stlar aytmas, meni sevsalar».
Ushbu o'tli misralar qaysi shoir qalamiga mansub?
A. Turob To'la. B. Musa Jalil.
C. G'afur G'ulom. D. E. Vohidov.
9. «Mahbub ul-qulub» asarining bosh
mavzusi qaysi qatorda berilgan?
A. Ikki tilning xususiyatlari.
- B. Pand-nasihat, axloqiy qarashlar.
C. Lug'atshunoslik haqida.
D. Shoirlar haqida ma'lumot berilgan.
10. «Tangri insonni sirlar xazinasi
darajasiga ko'targan ekan, uni so'z-
lash qobiliyatiga ega bo'lgani uchun
hayvonlardan ortiq qilib yaratdi». Ushbu nasriy bayon Alisher Navoiyning «Hayrat ul-abror» dostonining qaysi misralariga taalluqli?
- A. So'z guharig'a erur oncha sharaf –
Kim bo'la olmas anga gavhar sadaf.
B. Tengriki, insonni qilib ganji roz,
So'z bila hayvondin anga imtiyoz.
C. Donai dur so'zini afsona bil,
So'zni jahon bahrida durdona bil.
D. To'rt sadaf gavharining durji ul,
Yetti falak axtarining burji ul.
11. Arab tilida to'rtlik ma'nosini
anglatuvchi so'z bo'lib, mumtoz
she'riyatda falsafiy, axloqiy, diniy va
ishqiy mavzularda yoziladigan aruz
vaznidagi to'rt misradan iborat lirik
she'rni aniqlang.
- A. Fard. B. Tuyuq.
C. Qit'a. D. Ruboiy.
12. «Jonimdag'i «jim» ikki dolingg'a
fido,
Andin so'ng «alif» toza niholingga
fido» misralari kimning qalamiga
mansub va aruz vaznining qaysi
janriga taalluqli?
A. Alisher Navoiy, ruboiy.
B. Alisher Navoiy, qit'a.
C. Zahiriddin Muhammad Bobur,
ruboiy.
D. Muqimiyy, tuyuq.

**13. «Kamol et kasbkim olam uyidin
Senga farz o'lmag'ay g'amnok chiqmoq**

**Jahondin notamom o'tmak biaynih
Erur hammomdin nopol chiqmoq».**

Ushbu misralar aruz vaznining qaysi
janrida yozilgan?

- A. Ruboiy. B. Tuyuq.
C. Qit'a. D. Fard.

14. Alisher Navoiyning «Hayrat ul-abror» dostoni necha bobdan iborat?
A. 63. B. 64. C. 65. D. 66.

**15. 1942-yil iyun oylarida janglarda
yaralanib, fashistlar qo'lliga asir
tushib, Berlindagi Moabit turmasiga
olib ketilgan, keyinchalik vahshiy-
larcha o'ldirilgan vatanparvar,
iste'dodli shoir kim?**

- A. Usmon Nosir. B. Musa Jalil.
C. Oybek. D. Turob To'la.

**16. Alisher Navoiyning axloqiy-
falsafiy yo'sindagi uch qismga bo'lin-
gan pandnoma asarini belgilang.**

- A. «Muhokamat ul-lug'atayn».
B. «Hayrat ul-abror».
C. «Mahbub ul-qulub».
D. «Majolis un-nafois».

**17. Alisher Navoiy «Mahbub ul-qulub» asarida bitta kulchani o'zi
yemay muhtoj odamga berganni kim
deb atagan?**

- A. Himmelli. B. Saxovatli.
C. Saxyi. D. Axiy.

**18. Alisher Navoiy «Mahbub ul-qulub» asarida axloqli odamlarning
qimmatbaho libosi va u kiyim turla-**

rining eng chidamli matosi deb nimani
ko'rsatadi?

- A. Saxyilikni. B. Hilmi.
C. Ahillikni. D. Oddiy libosni.

**19. «Mahbub ul-qulub» asarida saxo-
vatsiz odamlar nimalarga o'xsha-
tiladi?**

- 1) insoniyat bog'ining hosildor
daraxti; 2) daraxtning foydali mevasi;
3) odamiylik mulkining dengizi;
4) yoqimsiz bahor buluti; 5) hidi yoq
mushk-anbar; 6) mevasiz daraxt;
7) Kalxat; 8) saxiy bulutlar; 9) baxil
chumolilar; 10) Lochin; 11) Shunqor;
12) nursiz sadaf.
- A. 4, 5, 6, 7, 9, 12.
B. 1, 2, 3, 8, 10, 11.
C. 4, 5, 6, 9, 12.
D. 4, 5, 6, 7, 9, 10, 11.

**20. Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asarida keltirilgan quyidagi
fikrning davomini aniqlang.**

«Yaxshiliq qila olmasang ... »

- A. «... yaxshilarg'a qo'shil».
B. «... yaxshilar tegrasida evril».
C. «... yomonliq ham bore qilma».
D. «... sabr qil, bir kun yaxshiliq
qilasen».

**21. Hikmatli so'zga berilgan ta'rifni
aniqlang.**

- 1) aforizm; 2) hikmatli so'z – maqol;
3) xalq maqollaridan farqlanadi; 4)
muallifi aniq bo'ladi; 5) qaysi
manbadan kelib chiqqani, kim
tomonidan aytilgani ma'lum emas; 6)
shakl jihatidan mukammal bo'ladi; 7)
ko'pchilik tomonidan qo'llana
boshtagach, maqolga aylanib ketadi.

- A. 1, 2, 3, 6 B. 1, 3, 6, 5
 C. 1, 2, 3, 5-6. D. 1, 3, 4, 6, 7.
- 22. «Hazratim, ochlikdan o'ldim, yegani non ber menga», deb boshlanuvchi g'azal muallifi kim?**
 A. Gulxaniy. B. Muqimiyy.
 C. Furqat. D. Zavqiy.
- 23. Bizning davrimizgacha Gulxaniyning nechta g'azali yetib kelgan?**
 A. 12 ta g'azali.
 B. 43 ta g'azali.
 C. 50 ta g'azali.
 D. 35 ta g'azali.
- 24. «Zarbulmasal» asariga nechta maqol, matai, naql kiritilgan?**
 A. 200 ga yaqin.
 B. 300 dan ortiq.
 C. 400 ga yaqin.
 D. 500 dan ortiq.
- 25. «Zarbulmasal» asari qahramoni Gunashbonuning otasi qaysi javobda ko'rsatilgan?**
 A. Boyo'g'li.
 B. Yapoloqqush.
 C. Kulonkirsulton.
 D. Malikshohin.
- 26. «G'ayri tilini sa'y qiling bilgali, yoshlari, Kim ilm-u hunarlar bilonki ondin ayondir» misralari orqali xorijiy tillarni bilish kishi va jamiyat hayotiga qanday ijobiy ta'sir ko'rsatishini bashorat qilgan shoir kim?**
 A. Mirtemir. B. Oybek.
 C. G'afur G'ulom. D. Avaz O'tar.
- 27. «Zarbulmasal» asarini kim yozgan?**
 A. Gulxaniy. B. Rabg'uziy.
 C. Muqimiyy. D. Furqat.
- 28. «Zarbulmasal» asarida qo'lidan kelmagan ishga uringan odam, albatta. sharmanda bo'ladi degan fikr ifodalangan masalni aniqlang.**
 A. «Toshbaqa va chayon».
 B. «Tuya bilan Bo'taloq».
 C. «Maymun va Najjor».
 D. «Kabutar bilan Zog'».
- 29. Do'st tanlashda adashmaslik haqidagi fikr «Zarbulmasal» asarining qaysi masalida ifodalangan?**
 A. «Toshbaqa va chayon».
 B. «Tuya bilan Bo'taloq».
 C. «Maymun va Najjor».
 D. «Kabutar bilan Zog'».
- 30. Erki o'zida bo'limgan kishining sojiasi «Zarbulmasal» asarining qaysi masalida ifodalangan?**
 A. «Toshbaqa va chayon».
 B. «Tuya bilan Bo'taloq».
 C. «Maymun va Najjor».
 D. «Kabutar bilan Zog'».
- 31. Sipohi pora istar.**
Mulla ijora istar.
Bechora chora istar.
Bir chora zamon bormu?
Ushbu misralar kimning qalamiga mansub?
 A. Gulxaniy. B. Muqimiyy.
 C. Avaz O'tar. D. Furqat.
- 32. Xonlar tomonidan 200 darralab savalanib. ma'naviy va jismoniy**

qiynoqlardan muttasil azob chekib. uzoq yashay olmay. 35 yoshida vasof etgan shoir kim?

- A. Avaz O'tar. B. Gulxaniy.
C. Muqimiy. D. A.Navoiy.

33. Avaz O'tarning «Maktab», «Til» she'rlari qaysi janrda yozilgan?

- A. G'azal. B. Qit'a.
C. Fard. D. Ruboiy.

34. Avaz O'tar «Til» she'rda qanday g'oyani ilgari surgan?

- A. Tilga e'tibor berish.
B. Ona tilini Davlat tili darajasiga ko'tarish.
C. Chet tillarni o'rganishga da'vat qilish.
D. O'z tilini chuqur o'rganish.

35. Xalq og'zaki ijodi namunasi bo'l-mish o'lanylarni yozma adabiyotga olib kirgan shoir kim?

- A. Abay. B. Maxtumquli.
C. Avaz O'tar. D. Muqimiy.

36. «Boy bolasi bilan kambag'al bolasisi». «Ilm o'rgan» she'rlari, «Naqliya so'zlar» asari muallifi kim?

- A. Gulxaniy. B. Muqimiy.
C. Avaz O'tar. D. Abay.

4-VARIANT

1. «Naqliya so'zlar» asari necha bo'limdan iborat?

- A. 40 bo'limdan.
B. 44 bo'limdan
C. 50 bo'limdan.
D. 55 bo'limdan.

2. Abayning «Naqliya so'zlar» asari o'zbek tilida qanday nom bilan mashhur?

- A. «Nasihatlar».
B. «Hikmatlar».
C. «Nasihat so'zlar».
D. «Hikmatli so'zlar».

3. Qozoq mumtoz adabiyotining asoschilaridan biri Abay asarlarini o'zbekchaga tarjima qilgan ijodkorlarni aniqlang.

- A. Mirtemir. Uyg'un. Nosir Fozilov.
B. E.Vohidov. A.Qahhor. Tog'ay Murod.
C. G'.G'ulom. T.To'la, S.Ahmad.
D. A.Oripov. O'.Hoshimov. P.Qodirov.

4. Abayning «Naqliya so'zlar» asarida G'ayrat. Aql va Yurak har qaysisi o'z hunarini maqtab, aytishib, tortishib qolishadi-yu, ilmnинг oldiga kelib, undan hakamlik qilishni so'rashadi.

Ilm shunday javob beradi:

— Bordi-yu uchovingiz ola bo'lsangiz, bir kelishimga kelisha olmasangiz – u holda men faqat ...ning tarafini yoqlayman, — deydi.

Nuqtalar o'rnida qaysi so'z tushirilgan.

- A. Aql. B. G'ayrat.
C. Yurak. D. Bilim.

5. Abay « Naqliya so'zlar» asarida «or-nomusning dushmani, aql bilan ilmga putur yetkazadigan omil» deb nimani ko'rsatgan?

- A. Beparvolik, beg'amlik.
B. Sergaplik, baxillik.

- C. Ochko'zlik, ilmsizlik.
D. Maqtanchoqlik, nodonlik.
- 6. Xalqaro «Nilusar», Javoharlal Neru nomidagi mukofotga kim sazovor bo'lgan?**
A. Pirimqul Qodirov.
B. Zulfiya.
C. Said Ahmad.
D. Erkin Vohidov.
- 7. Zulfiya 1953-yildan 1980-yilgacha qaysi jurnalning bosh muharriri bo'lgan?**
A. «Sharq yulduzi».
B. «Saodat».
C. «Fan va turmush».
D. «Jahon adabiyoti».
- 8. Shoira Zulfiyaning «Men o'tgan umrga» she'rida qanday g'oya yoritilgan?**
A. Turmush o'rtog'ining erta ko'z yumgani uchun hayotdan nolish.
B. She'rda lirik qahramonning o'tgan umriga achinish hissi yoritilgan.
C. Havas qilsa arzigulik hayot yo'li haqida.
D. Yaxshi va yomon kunlarini xotirlash orqali o'tgan umridan afsuslanish.
- 9. Zulfiyaning «Men o'tgan umrga» she'ridan qanday xulosa chiqadi?**
A. Lirik qahramon o'tgan umrga achinadi.
B. Kunlari ayriliqda o'tganidan afsuslanadi.
C. Farzandlari otasiz qolganidan kuyunadi.
D. Havas qilsa arzigulik hayot yo'li haqida.
- 10. Zulfiyaning birinchi she'riy to'plami qanday nomlanadi?**
A. «Hayot varaqqlari».
B. «She'rlar».
C. «Qizlar qo'shig'i».
D. «Kuyularim sizga».
- 11. O'zbekiston qizlariga fan, ta'lif, madaniyat, sport sohalaridagi yutuqlari uchun qaysi shoira nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti ta'sis etilgan?**
A. Saida Zunnunova.
B. Nodirabegim.
C. Zulfiyaxonim.
D. Uvaysiy.
- 12. «Bas, bas ezgu onalar qalbi, Yashay olsin bexavf, baxt bilan. Mehnatimiz, g'azab, sevgimiz Tinchlik deydi butun xalq bilan».**
Ushbu misralar Zulfiyaning qaysi she'ridan olingan?
A. «Tun».
B. «Bahor keldi seni so'roqlab».
C. «Ko'rganmiding ko'zlarimda yosh?»
D. «O'g'lim, sira bo'lmaydi urush».
- 13. Ernest – Seton Tompsonning «Yovvoyi yo'rg'a» asarini qaysi yozuvchi o'zbek tiliga tarjima qilgan?**
A. Tog'ay Murod.
B. Zohir A'lam.
C. Shukur Xolmirzayev.
D. Odil Yoqubov.
- 14. Abay «Nasihatlar» asarida inson bolasini zamona parvarish qilishini aytadi. Kimda-kim yomon bo'lsa, ayb kimda deydi?**

- A. Ota-onasida.
B. Zamondoshlarida.
C. Ustozlarda.
D. Do'stlarda.
15. «Qora ko'zlar», «Olmos kamar» asarlari muallifi kim?
A. Tog'ay Murod.
B. Pirimqul Qodirov.
C. Odil Yoqubov.
D. O'tkir Hoshimov.
16. Bir xil janrga mansub asarlar qaysi qatorda berilgan?
A. «Yulduzli tunlar», «Uch ildiz».
B. «Avlodlar dovonisi», «Meros».
C. «Erk», «Olmos kamar».
D. «Qadrim», «Qora ko'zlar».
17. Pirimqul Qodirov qaysi asarida nest konlarini izlovlchilar haqida yozgan?
A. «Najot». B. «Studentlar».
C. «Qadrim». D. «Meros».
18. Pirimqul Qodirov qaysi yozuvchi ijodi yuzasidan ilmiy ishlar olib bordi?
A. A.Navoiy. B. Furqat.
C. Muqimiy. D. A.Qahhor.
19. Pirimqul Qodirovning dastlabki kitobi qaysi qatorda ko'rsatilgan?
A. «Yayra institutga kirmoqchi».
B. «Studentlar».
C. «Najot».
D. «Meros».
20. Qaysi yozuvchilar o'z asarlariда tarixni yorqin gavdalantirishgan?
A. P.Qodirov. M.Osim. M.Qoriyev.
B. G.G'ulom. X.To'xtaboyev. A.Qahhor.
- C. O'.Hoshimov. S.Ahmad. T.Murod.
D. O'.Umarbekov. T. To'la. S.Ahmad.
21. «Avlodlar dovoni» asarida boburiyliar Sherxondan yengilish arafasida Nizom Humoyunga qanday karomat ko'rsatdi?
1) Humoyunda qasdi borligi uchun ko'nglini bir zum shaytoniy hislar egalladi; 2) otasini zindonband qildirgani uchun Humoyunning suvgaga cho'kishini kuzatib turdi; 3) Humoyun sevgilisi Hamidabonuga uylanmoqchi bo'lganligi uchun. Nizom vaziyatdan foydalanib, shohning suvgaga cho'kishini kuzatib turdi;
4) Humoyunni mesh ustiga yotqizib, daryordan olib o'tdi.
A. 1, 2, 3. B. 1, 3. C. 1, 2. D. 1, 4.
22. Inson hayotini jamiyat bilan bog'lab, keng ko'lamda tasvirlovchi yirik epik janr...
A. Hikoya. B. Qissa.
C. Roman. D. Ertak.
23. 1974 – 1975-yillarda Jek Londonning «Boyning qizi» dramasini va ko'plab hikoyalarini, shuningdek. 1989-yilda Ernest – Seton Tompsonning «Yovvoyi yo'rg'a» kitobini mahorat bilan o'zbek tiliga tarjima qilgan ijodkor kim?
A. Jumaniyoz Jabborov.
B. Turob To'la.
C. Tog'ay Murod.
D. Said Ahmad.
24. Tog'ay Murodni iste'dodli yozuvchi sifatida ko'rsatgan dastlabki yirik asari qaysi?

- A. «Yulduzlar mangu yonadi».
 B. «Momo yer qo'shig'i».
 C. «Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi».
 D. «Ot kishnagan oqshom».
- 25.** «Men o'zbek xalqiga haykal qo'yaman!» degan yozuvchi kim?
 A. Pirimqul Qodirov.
 B. Tog'ay Murod.
 C. Said Ahmad.
 D. Azim Suyun.
- 26.** Qoplonbek va Oymomo qaysi asar qahramonlari?
 A. «Otamdan qolgan dalalar».
 B. «Ot kishnagan oqshom».
 C. «Yulduzlar mangu yonadi».
 D. «Oydinda yurgan odamlar».
- 27.** Jumaniyoz Jabborov qalamiga mansub pyesalar qaysi qatorda berilgan?
 A. «Maysaraning ishi», «Boy ila xizmatchi».
 B. «Tobuidan tovush», «Ayajonlarim».
 C. «To'ylar muborak», «Inson sadoqati».
 D. «Neksiya», «Otabek va Kumushbibi».
- 28.** Quyidagi misralar Ibroyim Yusupovning qaysi she'ridan olingan?
 – Ota, narvon bo'pti anov qo'sh terak!
 – Bolam, terak emas bu umr-ku, bu!
 A. «Mening yigit vaqtim».
 B. «Qadrdon so'qmoqlar».
 C. «Qora tol».
 D. «Turnalar».
- 29.** Berdaq nomidagi Qoraqalpog'iston Davlat mukofoti sohibi, «O'zbekiston Qahramoni» unvonini olgan. 30 dan ortiq she'riy va nasriy kitoblar muallifini aniqlang.
 A. Ibroyim Yusupov.
 B. Muxtumquli.
 C. Abay.
 D. Musa Jalil.
- 30.** Sharqda al-Farg'oniy, G'arbda esa Alfraganus nomi bilan mashhur bo'lgan, IX asrda tabiiy fanlar yo'nali shida jahon ilm – fani ravnaqida buyuk kashfiyotlari bilan dunyo tarixiga kirgan, jumladan, astronomiya fanida yaratgan osmon jismlari jadvali va Misrda Nil daryosi suv sathini o'lchash uchun qurgan inshooti hozirga qadar dunyo olimlarini hayratga solib kelgan alloma haqida she'riy drama yozgan shoirni aniqlang.
 A. Tog'ay Murod.
 B. Musa Jalil.
 C. Turob To'la.
 D. Jumaniyoz Jabborov.
- 31.** J.Jabborovning qaysi she'rida Sharq-u G'arb adabiyoti namoyondalarini yonma-yon tasavvur etish, dunyo yagonaligi, adabiyot, badiiy so'z, chegara bilmaydigan umumin soniy hodisa degan g'oya ifodalangan?
 A. «Siznik».
 B. «Kitob javonim».
 C. «Vatanimni kuylayman».
 D. «Ilhom daqiqalari».
- 32.** Jumaniyoz Jabborovning ilk she'riy to'plami qanday nomlanadi?
 A. «Vatanimni kuylayman».

- B. «Bahor nafasi».
- C. «Maqsad yo'lida».
- D. «Tog'lar sadosi».

33. Odamni o'zi singari odam zulmidan himoya qilish uchun odam topilmaydi, najot faqat hayvonda qoladi!.. Ushbu fikrlar Tog'ay Murodning qaysi asarida berilgan?

- A. «Ot kishnagan oqshom».
- B. «Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi».
- C. «Momo yer qo'shig'i».
- D. «Yulduzlar mangu yonadi».

34. Tog'ay Murod asarlari qatorini belgilang.

- A. «Yulduzli tunlar», «Avlodlar dovonii», «Qora ko'zlar».
- B. «Ikki karra ikki besh», «Ikki eshik orasi», «Dunyoning ishlari».
- C. «Otamdan qolgan dalalar», «Ot kishnagan oqshom», «Oydinda yurgan odamlar».
- D. «Ulug'bek xazinasi», «Diyonat», «Ko'hna dunyo».

35. O'zbeklarning qon-qoniga singib ketgan, ming yillar mobaynida unutilmay, elda ardoqlanib kelayotgan tarixiy qadriyat – halol kurash va kurashchi polvonlar, ziddiyatli hayotiy muammolar aks ettirilgan asarni belgilang.

- A. «Oydinda yurgan odamlar».
- B. «Yulduzlar mangu yonadi».
- C. «Otamdan qolgan dalalar».
- D. «Ot kishnagan oqshom».

36. Ibroyim Yusupovning dramatik asarlari qaysi qatorda berilgan?

- A. «Qirq qiz», «Aktrisaning iqboli», «Umirbek laqqi».

- B. «Qora tol», «Turnalar», «Mening yigit vaqtim...»
- C. «Dala armonlari», «Oltin qirg'ooq», «Cho'l to'rg'ayi».
- D. «Mangu buloq», «Buloqlar qaynaydi», «Gilamchi xotin haqida».

7- SINF. ADABIYOT

1-VARIANT

1. Badiiy asarlarning ta'sirchanligi sababi to'g'ri izohlangan javobni belgilang.

- A. Badiiy asarlarda hayot ilmiy jihatdan to'g'ri yoritiladi.
- B. Badiiy asar hayot hodisalari natijasida yuzaga kelgan kechinma, hissiyot va munosabatlar mahsuli.
- C. Ularda ijodkorning shaxsiy mulohazalari aks etadi.
- D. Badiiy adabiyotda qiziqarli voqealar tasvirlanadi.

2. Badiiy adabiyotning asosiy quroli nima?

- | | |
|-----------|-----------|
| A. Kitob. | B. So'z. |
| C. Ohang. | D. Ma'no. |

3. San'atning asosiy turlari ko'rsa tilgan qatorni belgilang.

- A. Musiqa, tasviriy san'at, kino, badiiy adabiyot, teatr.
- B. Haykaltaroshlik, ilm-san, kino, musiqa, satira.
- C. Musiqa, lof, kino, raqs, qo'shiq-chilik, askiya.
- D. Teatr, fofja, askiya, kino, tasviriy san'at.

4. Badiiy adabiyot ifoda xususiyatiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?

- A. Lirik, epik, dramatik, maxsus tur.
 B. O'g'zaki va yozma adabiyot.
 C. Liro-epik, maxsus tur.
 D. Lirik, epik, dramatik tur.
- 5. «Tushuntirish» va «tasvirlash» so'zlariga berilgan to'g'ri izohni belgilang.**
- A. Tushuntirish fanga ham, adabiyotga ham xos.
 B. Tasvirlash fanga ham, adabiyotga ham xos.
 C. Fan tasvirlaydi, adabiyot tushuntiradi.
 D. Fan «nima bo'lganini» tushuntiradi, adabiyot «qanday bo'lganini» tasvirlaydi.
- 6. Ijodkorning fikr, tuyg'u, hissiyot va kechinmalari singdirilgan manzara tasviri qanday nomlanadi?**
- A. Badiiy obraz. B. Mubolag'a.
 C. Ilmiy axborot. D. Peyzaj.
- 7. «Adabiyot – hayotning in'ikosi». Ushbu fikri mantiqan to'g'ri davom ettirgan jumlani belgilang.**
- A. Shuning uchun ham unda hamma narsa boricha aks etadi.
 B. Unda hayotdagi voqealar aynan ko'rsatib beriladi.
 C. Ammo uning suratga tushirilgan ayni nusxasi emas.
 D. Faqat unda hayotdagi ijobiy hodisalar tasvirlanadi.
- 8. Qay tarzda yaratilganligi va kishilik xotirasida qaysi shaklda saqlanib qolganligiga ko'ra badiiy adabiyot qanday turlarga ajratiladi?**
- A. O'g'zaki va yozma adabiyot.
- B. Lirik, epik, dramatik tur.
 C. Badiiy adabiyot, ilmiy adabiyot.
 D. Mumtoz adabiyot, zamonaviy adabiyot.
- 9. 1913-yilda birinchi o'zbek teatr truppassi – «Turon» to'garagini tashkil etган, o'z atrofiga Nizomiddin Xo'jayev, birinchi o'zbek rejissori Mannon Uyg'ur, Mirshohid va Mirahmad Miroqilov singari yoshlarni yig'ib, o'zbek milliy teatriga asos solgan. Behbudiy, Hamza, Qodiriy, ozarbayjon dramaturglarining hamda o'zingning pyesalarini shu san'at fidoyilar bilan sahnaga olib chiqqan dramaturg kim?**
- A. A.Avloniy. B. Shuhrat.
 C. Ch.Aytmatov. C. M.Osim.
- 10. Qaysi qatorda Abdulla Avloniying maktablar uchun yaratgan darslik va qo'llanmalari berilgan?**
- A. «Birinchi muallimim», «Ikkinchi muallimim», «Turkiy Guliston yoxud axloq», «Adabiyot yoxud milliy she'r-lar».
 B. «Yengil adabiyot», «O'qish kitobi».
 C. «Qiroat kitobi», «Ustodi avval».
 D. «Adibi avval», «Adibi soniy».
- 11. Abdulla Avloniy dramaturgiya sohasida qanday asarlar yaratdi?**
- A. «O'ch», «Zaharli hayot yoxud ishq qurbanlari».
 B. «Ilm hidoyati», «Mulla Normhammad domlaning kufr xatosi», «Ochlik qurbanlari».
 C. «Muxtoriyat avtonomiyası», «Kim to'g'ri», «Tuhmatchilar jazosi».

- «Loshmon fojiasi», «Farg'ona fojiasi».
- D. «Advokatlik osonmi?», «Pinak», «Biz va Siz», «Ikki muhabbat», «Portugaliya inqilobi».
- 12. Abdulla Avloniy qaysi asarida quyidagi fikrlarni bayon qilgan? «Alhosil tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidur».**
- A. «Adabiyot yoxud milliy she'rlar». B. «Ustodi avval». C. «O'qish kitobi». D. «Turkiy Guliston yoxud axloq»
- 13. Ta'lim sohasiga qator yangiliklар kiritgan, mavjud maorif tizimini takomillashtirgan. Turkistonda birinchilardan bo'lib, mакtabga geografiya, kimyo, handasa, fizika fanlari kiritilishiga ta'sir ko'rsatgan, maktablar uchun yozilgan ilk darslik va qo'llanmalar muallifi qaysi javobda ko'rsatilgan?**
- A. Hamza. B. A.Qodiriy. C. A.Avloniy. D. Cho'lpon.
- 14. A.Avloniyning quyidagi misralari kimga qaratilgan?**
Onamizsan Bizning mushfiq onamizsan...
Seni sotmoq mumkinmidir, o'zing o'yla...
A. Sevimli yorga. B. Onaga.
C. Ona tiliga. D. Vatanga.
- 15. «Uch qiz afsonasi», «Guldursun», «Qora va oq aravacha haqida ertak» balladalari qaysi adib qalamiga mansub?**
- A. A. Avloniy. B.Shuhrat. C. M.Osim. D. A.Muxtor.
- 16. Qaysi asarda Vyetnamda borayotgan urushga qarshi turgan fransuz qizi jasorati madh etiladi?**
- A. «Raymonda». B. «Mardlik afsonasi». C. «Jamila». D. «Guldursun».
- 17. 30-yillarda Shuhrat qaysi asarlari yaratgan?**
- A."Orzu va qasos" dostoni, "Mehrol" ertak-dostoni.
B. «Farzand», «So'limas chechaklar» dostonlari
C. «Raymonda», «Jamila». D. «Ona va farzand», «Mashrab».
- 18. Shuhratning qaysi asarida Sho'ro tuzumining eng adolatsiz, eng chirkin bosqichi bo'lmish qatog'on davri mahorat bilan aks ettirilgan?**
- A. Mashrab. B. Oltin zanglamas.
C. Farzand. D. Orzu va qasos.
- 19. Qaysi qatordagi asarlar Shuhrat qalamiga mansub?**
- A. «Navoiy», «Quyosh qoraymas», «Singan umid». B. «Shinelli yillar», «Oltin zanglamas», «Jannat qidirganlar». C. «Tushda kechgan umrlar», «Shamol esaveradi». «Odamlar nima derkin». D. «Bahor qaytmaydi», «Qatog'on», «Inson sadoqati».
- 20. Shuhratning «Mardlik afsonasi» balladasi qaysi mard qahramonning shijoati haqida?**

- A. To'maris.
 B. Shiroq.
 C. Spitamen.
 D. Jaloliddin Manguberdi.
- 21.** O'zbek ădabiyotida birinchi bo'lib, chet eldag'i o'zbeklar hayoti aks ettirilgan asar qaysi javobda berilgan?
 A. «Jannat qidirganlar».
 B. «Mashrab».
 C. «Oltin zanglamas».
 D. «Guldursun».
- 22.** Arab qizining fransuz bosqinchilariiga qarshi kurashi qaysi asarda aks ettirilgan?
 A. «Jamila».
 B. «Ona va farzand».
 C. «Raymonda».
 D. «Uch qiz afgonasi».
- 23.** She'riyatning o'ziga xos janri, fransuzcha so'zdan olingan bo'lib, "raqs qo'shig'i" ma'nosini anglatadi. Hajman u qadar katta bo'limgan bu xil asarlarda shoir o'z his-tuyg'ularidan tashqari ana shu tuyg'ularga sabab bo'lgan voqealarni ham tasvirlaydi. Ushbu ta'rif adabiy turning qaysi janriga berilgan.
 A. Doston. B. Masal.
 C. Afsona. D. Ballada.
- 24.** «Hech kim o'z-o'zidan yozuvchi bo'lib qolmaydi: yillar sabog'i, qilingan mehnat, badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqish va e'tiqod orqali bunga erishish mumkin». Ushbu fikrlar qaysi ijodkorga taalluqli?
- A. Shuhrat. B. M.Osim.
 C. Ch.Aytmatov. D. A.Avloniy.
- 25.** «1937 - yil mening otam – partiya xodimi. Moskvadagi qizil professura institutining tinglovchisi – qatog'on qilindi». Bu faktlar qaysi mashhur yozuvchining o'zi haqidagi tarjimayı holdan olingan?
 A. Shuhrat. B. A.Avloniy.
 C. Ch.Aytmatov. D. M.Osim.
- 26.** "Oq kema" asaridagi kamdan-kam uchraydigan baxtli odam kim?
 A. Mo'min chol. B. O'rozqul.
 C. Bekey. D. Seydahmad.
- 27.** 1930-yilda Moskva davlat pedagogika institutining tarix-iqtisod fakultetini tugallab, tarix fanidan qo'llanma, tavsiya, darsliklar yaratgan yozuvchi qaysi qatorda berilgan?
 A. Ch. Aytmatov. B. Shuhrat.
 C. M.Osim. D. A.Muxtor.
- 28.** Qaysi javobda Stalin qatog'onining begunoh ma'naviy qurbanlari berilgan?
 A. Shuhrat. M.Osim. Oybek. S.Ahmad.
 B. Zulfiya, Hamid Olimjon.
 C. G'afur G'ulom. Jumaniyoz Jabborov.
 D. Sharof Rashidov, Abdulla Qahhor.
- 29.** Qaysi yozuvchi quyidagi fikrlarni aytgan?
 «Ona tili! U haqda nihoyatda ko'p gapirilgan. Lekin uning sirli mo'jizasini tasvirlab bo'lmaydi».
 A. M.Osim. B. A.Avloniy.
 C. Ch.Aytmatov. D. Shuhrat.

- 30.** Qaysi javobdag'i badiiy tasvir vositasi quyidagicha ta'riflanadi?
- Badiiy adabiyotda keng foydalani-ladigan tasvir usullaridan biri bo'lib, aniq tasavvur etish qiyin bo'lgan hodisa yoki tushunchalarni odamning ko'z oldiga yaqqol keltiradigan narsalar orqali ifodalashni bildiradi.**
- A. Portret. B. Peyzaj.
 C. Ramz. D. Istiora.
- 31.** Quyidagi obrazlar qanday ramziy ma'nolarda ifodalanadi?
- 1) tulki; 2) bo'ri; 3) chumoli; 4) kabutar; 5) sariq gul; 6) tun; 7) burgut; 8) gul; 9) may.
- a) mehnatsevarlik ramzi; b) ochko'zlik ramzi; d) tinchlik ramzi; e) hasrat ramzi; f) ayrılıq ramzi; g) ayyorlik ramzi; h) hayot ramzi; i) ma'shuqa ramzi; j) mag'rurlik ramzi.
- A. 1-b, 2-a, 3-g, 4-e, 5-d, 6-f, 7-h, 8-j, 9-i.
 B. 1-a, 2-b, 3-f, 4-d, 5-e, 6-g, 7-i, 8-h, 9-j.
 C. 1-g, 2-b, 3-a, 4-d, 5-f, 6-e, 7-j, 8-i, 9-h.
 D. 1-f, 2-e, 3-d, 4-a, 5-g, 6-b, 7-i, 8-h, 9-j.
- 32.** Qaysi asarda dunyodan faqat ezgulik qidirgan va yaxshilikka intilgan, ammo hayotning shafqatsizligi tufayli erta halok bo'lgan norasida bolaning taqdiri ifoda etilgan?
- A. Asrga tatigulik kun.
 B. Qiyomat.
 C. Dunyoning ishlari.
 D. Oq kema.
- 33.** «Oq kema» asarida bola uchun quyidagi obrazlar qanday ramziy ma'noga ega?
1. Shoxdor ona bug'u. 2. Oq kema.
 3. Baliq.
- a) to'kislik, mehr-u oqibat, diyordramzi:
 b) ezgulik, yaxshilik, oljanoblik, mehr-oqibat timsoli:
 c) erk va qudrat ramzi:
 A. 1-a, 2-b, 3-c. B. 1-b, 2-a, 3-c.
 C. 1-c, 2-b, 3-a. D. 1-c, 2-a, 3-b.
- 34.** Qaysi javobda Mirkarim Osimning O'rta asrlar tarixidan hikoya qiluvchi asarlari berilgan?
- A. «Zulmat ichra nur», «Temur Malik», «O'tror».
 B. «To'maris», «Elchilar».
 C. «Shiroq», «Ibn Sino qissasi».
 D. «Jayhun ustida bulutlar», «Aljabrning tug'ilishi».
- 35.** Qaysi qatorda Mirkarim Osimning tarjimayi hol tarixiy asarlari berilgan?
- A. «Zulmat ichra nur», «Ibn Sino», «Singan setor».
 B. «O'tror», «Temur Malik», «Aleksandr va Spitamen».
 C. «Mohlaroyim va Xonposhsha», «Karvon qo'ng'irog'i», «Elchilar».
 D. «Astrobod», «Badarg'a», «To'maris».
- 36.** Qaysi qatorda Mirkarim Osimning qahramonlik mavzusidagi asarlari berilgan?
- A. «Mohlaroyim va Xonposhsha», «Karvon qo'ng'irog'i», «Elchilar».
 B. «Jayhun ustida bulutlar», «Ibn Sino qissasi», «Aljabrning tug'ilishi».
 C. «Astrobod», «Alisher Navoiy», «Singan setor».
 D. «O'tror», «Temur Malik», «Aleksandr va Spitamen».

2-VARIANT

1. «Zulmat ichra nur» asarining «Yoshlik ayyomining ilk bahori», «Yazd cho'li», «Qushlar tili» hikoyalari orqali yosh Alisherning qobiliyatda va shaxs sifatida o'ziga xos xislatlarini aniqlang.

1) 4 yoshligida Qosim Anvor g'azallarini tushunib yod olar edi;
2) qilichbozlikka qiziqar edi;

3) mashhur tarixchi olim Sharafiddin Ali Yazdiy savollariga burro-burro javob berdi;

4) davlatni boshqarishga qiziqdidi;

5) Farididdin Attorning «Mantiq ut-tayr» asari yosh Alisherni o'ziga maftun qildi;

6) Alisher maktabda saqat domlasi bergen topshi-riqlarni a'lo darajada bajarar edi;

7) Kimsasiz cho'lda otasidan Hiroting kun chiqish. Iroqning kun botish tomonda ekanligini eshitgan Alisher kun chiqish tomonga yura boshladi.

- A. 1, 2, 3, 7. B. 1, 3, 5, 7.
C. 1, 4, 5, 7. D. 1, 2, 5, 6.

2. Qaysi qatorda Mirkarim Osimning Alisher Navoiy haqidagi asarları berilgan?

- A. «Astrobod», «Badarg'a».
B. «Astrobod», «O'tror».
C. «Ulug'bek va Navoiy», «Singan setor».
D. «A. Navoiy va Darvishali», «Karvon qo'ng'irog'i».

3. «Sharq yulduzi», «Guliston» jurnallarida bosh muharrir bo'lib ishlagan, O'zbekistonda birinchi

haftalik gazeta – «O'zbekiston adabiyoti va san'ati»ga asos solgan ijodkor kim?

- A. M.Osim. B. Shuhrat.
C. A.Muxtor. D. A.Avloniy.

4. Qaysi qatorda Asqad Muxtor asarları berilgan?

- A. «Jamila», «Asrga tatigulik kun», «Qiyomat».
B. «Chinor», «Opa-singillar», «Buxoroning jin ko'chalari».
C. «Oq otli», «To'lqinlar», «Qush tili».
D. «Cho'loq turna», «Tuproq ko'chalari», «Bulut to'sgan oy».

5. «Yo'l» she'rida shoir (Asqad Muxtor) uchun yo'l qanday mazmun kashf etgan?

- A. Ayriliq.
B. Ijod.
C. Turmushdagi muammolar.
D. Uzoq safarga sayohat.

6. Asqad Muxtoring «O'zimniki emas bu umr» she'ridagi «Yengil-yelpi o'tsa umrdan bir dam, Rozi-rizo bo'imas egasi», misralarida gap kim haqida boryapti?

- A. Shoiring o'zi haqida.
B. O'z vatandoshlari uchun jon fido qilgan insonlar haqida.
C. Shoiring ota-onasi haqida.
D. Yurt uchun xizmat qilayotgan fidoyi insonlar haqida.

7. Shukur Xolmirzayevning «O'zbeklar» hikoyasida Ergashning hali tanimagan cho'pon xonadoniga bordan ko'ngli iliganligi sababi nimada edi?

- A. Ergashning bolalikdan chorvadorlik muhitida yashaganligi.
B. Shamollab qolganida dorilikka ituzum bergenliklari.
C. Uni o'rtoqlari bilan mehmonga chaqirishgani.
D. Surxondaryoda qolgan ota-onasiga o'xshaganliklari.

8. Qaysi qatorda A.Muxtorning hozirgi hayot, ma'naviyat, madaniyat va badiiy ijod borasidagi mulohazalarini aks ettiruvchi eng so'nggi kitobi berilgan?

- A. «Uyqu qochganda».
B. «Amu».
C. «Kumush tola».
D. «Tug'ilish».

9. Qaysi qatorda Asqad Muxtor romanlari berilgan?

- A. «Tug'ilish», «Chinor».
B. «Davr mening taqdirimda», «Kumush tola».
C. «Amu», «Quyosh belanchagi».
D. «Opa-singillar», «Karvon qo'n-g'irog'i».

10. Sofoklning «Shoh Edip» asarini o'zbek tiliga o'girgan adib kim?

- A. Asqad Muxtor.
B. Shukur Xolmirzayev.
C. M.Osim.
D. Ch.Aytmatov.

11. O'zbek she'riyatiga arab va fors she'riyatidan kirib kelgan misralardagi hijolarning qat'iy miqdori, qat'iy guruhlanishidan tashqari qat'iy sisati, ya'ni qisqa, cho'ziq va o'ta cho'ziqligi ham muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridaq ta'rif qaysi she'riy vaznga berilgan?

- A. Aruz vazni. B. Barmoq vazni.
C. Erkin vazn. D. Oq she'r.

12. Qaysi qatorda "she'r"ga ta'rif berilgan?

- A. Ohangdosh so'zlar.
B. Misralarning oxirida takrorlanuvchi bir xil so'zlar.
C. Shoирning ichki kechinmalari ifodasi bo'lib, ma'lum bir qolipa solingan ritmik nutq.
D. His-tuyg'ularga sabab bo'lgan voqealar tasviri.

13. Barmoq vaznining qanday turlari bor?

- A. Sodda vazn. qo'shma vazn.
B. Just vazn. takroriy vazn.
C. Aruz vazni. erkin vazn.
D. Oq she'r, mansur she'r.

14. Qaysi qatorda sodda barmoq vaznining xususiyatlari berilgan?

- A. Misralardagi hijolarning qat'iy miqdori, qat'iy guruhlanishidan tashqari, qisqa, cho'ziq va o'ta cho'ziq holda qo'llanadi.
B. Vazndan vaznga ko'chishga asoslangan she'riy tizim.
C. Qosiyasiz she'rlar.
D. She'rning boshidan oxirigacha misralardagi bo'g'inlar miqdori bir xil bo'ladi.

15. Qaysi javobda turoqqa ta'rif berilgan?

- A. She'rning har bir satr yo'li.
B. Ohangdosh so'zlar.
C. Misralarning oxirida takrorlanuvchi bir xil so'zlar.

- D. Misralardagi bo'g'inlarning muayyan guruhlarga bo'linishi.
- 16. Bog'laringni sayr etganimda**
Sen bor eding qalbda, Vatanim,
Bog' husniga she'r bitganimda
Uni dastlab senga atadim.
 Ushbu she'rdagi turoqlar va bo'g'inlar miqdorini aniqlang.
 A. $5+4=9$. B. $2+2+5=9$.
 C. $4+5=9$. D. $3+3+3=9$
- 17. Bir xil janrga mansub asarlar qaysi qatorda berilgan?**
 A. "Yovvoyi gul", "Yashil niva", "Xumor".
 B. «Bahor o'tdi», «Olabo'ji», «Ustoz».
 C. «O'zbeklar», «So'nggi bekat», «Ozodlik».
 D. «Bitktosh», «Dinozavr», «Ko'k dengiz».
- 18. Shukur Xolmirzayevning «O'zbeklar» hikoyasida Ergashning: «Lekin buni tan olmas edik. Qanday ablak ekanmiz!» tarzidagi iqroriga sabab nima?**
 A. Botir cho'ponning qo'zisini o'g'irlaganlari.
 B. Odamlarning faqirona hayotini ko'rib, ko'rмагanga olganlari.
 C. Shundoq ham kambag'al oilanling nasibasiga sherik bo'lganlari.
 D. Cho'ponga bor haqiqatni aytmaganalri.
- 19. Shukur Xolmirzayevning «O'zbeklar» hikoyasida hali bola Abduqodirning: «Yo'q, Eshimboyning ordeni bor. Lekin qo'yil kam...»**
- so'zlarida uning qanday tuyg'ulari ifodalangan?
- A. Hamqishlog'i Eshimboyni yomon ko'rishi.
 B. Bolaning Eshimboydan faxrlanishi.
 C. Shunday odamlarning qishloqda borligidan quvonishi.
 D. Jamiyatdag'i adolatsizlikdan noroziligi.
- 20. Shukur Xolmirzayevning «O'zbeklar» hikoyasida paxtadan qaytagotgan Ergash avtobusda nima uchun yig'ladi?**
- A. Mehmondo'st oilaga xiyonat qilganlariga.
 B. Mashaqqatli og'ir kunlar ortda qolganiga.
 C. Qadrdon bo'lib qolgan qishloqdan ketgisi kelmayotganiga.
 D. Xalq orasida shunday bag'ri keng, olijanob insonlar borligidan quvonib.
- 21. Shukur Xolmirzayevning «O'zbeklar» hikoyasida Ergash nima uchun Botir cho'ponning uyida hech narsa yemadi?**
- A. Ishtahasi yo'q edi.
 B. Uy egalari kambag'alligini ko'rib, ularni teng ko'rmadi.
 C. Ularni mensimadi.
 D. Ovqatlar sisatsiz edi.
- 22. Qaysi javobda Shukur Xolmirzayev qalamiga mansub romanlar berilgan?**
- A. «Kumush tola», «Tug'ilish», «Amu».
 B. «Qoraqalpoq qissasi», «Jar yoqasidagi chaqmoq», «Davr mening taqdirimda».

C. «So'nggi bekat». «Qil ko'prik». «Olabo'ji».

D. «O'zbeklar». «Yashil niva». «Yovvoyi gul».

23. Qaysi ijodkor xotiralaridan birida:

“Kurashsiz, mehnatsiz shodlik, kulguni

O'g'irlik mol deyman, qilaman hazar.

Qalbimning parchasi singmasa agar. Rozimasman, birov hadya etsa zar” misralarini keltirib, «Bu satrlar Saidaxonning she'rda chizilgan suratiga o'xshaydi». – degan edi.

A. Said Ahmad.

B. Shukur Xolmirzayev.

C. Rasul Hamzatov.

D. Asqad Muxtor.

24. «Yo'qlatmagan har kuning yilcha bo'kurmni hay - hay» deb boshlanuvchi, sevimli qo'shiq bo'lib kuylanayotgan ushbu misralar qaysi shoiraning qalamiga mansub?

A. Zulfiya.

B. S.Zunnunova.

C. Nodirabegim.

D. Uvaysiy.

25. Xalq dostonlarida qahramonning harakati tezlashgan holatlar necha bo'g'inli barmoq vaznida kuylanadi?

A. On bir hijoli vaznda.

B. To'qqiz bo'g'inli vaznda.

C. Sakkiz bo'g'inli vaznda.

D. Yetti hijoli vaznda.

26. Saida Zunnunovaning «Yer uzra qo'ndi oqshom» she'ridagi

«Dudog'ing guldan xushbo'y, Yuzlaring undan xushro'y» tasviri kimga qaratilgan?

A. O'quvchiga.

B. Qiziga.

C. Sevgilisiga.

D. Hamma javob to'g'ri.

27. Saida Zunnunovaning «Buvilar duoga qo'llarin ohib» she'rida «Boshi toshdan bo'lsin jigarlariningzning, Ammo tosh bo'lmasin ko'ksida yurak» satrlaridan kelib chiqadigan ma'noni aytинг.

A. Boshi toshday qattiq bo'lsin-u, ammo yuragi toshday bo'lmasin, odamlarni tushunadigan, ularni ayaydigan bo'lsin.

B. Boshi toshdan bo'lgan odam gapga tushunmaydi.

C. Yurakdag'i tosh kasallik keltiradi.

D. Bunday odamga gap ta'sir qilmaydi.

28. “She'riyat, mazlumga homiylik qilding.

Qaroli bo'lmaiding zo'ravonlarning.

Olding panohingga notavonlarni.

Zolimlarni esa dushman deb biling”.

Ushbu misralar qaysi ijodkor qalamiga mansub?

A. Said Ahmad.

B. Saida Zunnunova.

C. Asqad Muxtor.

D. Rasul Hamzatov.

29. «Go'ro'g'li» turk umidagi dostonlarning soni qancha?

A. 100 dan ortiq. B. 150 ta.

C. 40 ta.

D. 90 ta.

- 30.** Sharq bozorining o'ta tabiiy, jozibador tasviri qaysi dostonda berilgan va u necha misradan iborat?
- «Ravshan» dostoni, 150 misradan iborat.
 - «Ravshan» dostoni, 145 misradan iborat.
 - «Kuntug'mish» dostoni, 90 misradan iborat.
 - «Kuntug'mish» dostoni, 95 misradan iborat.
- 31.** «Ravshan» dostonining nasriy qismida ko'proq qaysi she'riy san'atdan soydalaniqgan?
- Saj.
 - Mubolag'a.
 - Ko'chim.
 - Tashbeh.
- 32.** Qaysi javobda Rasul Hamzatov she'riyatining yetakchi mavzusini berilgan?
- Milliy g'urur.
 - Muhabbat.
 - Urush va tinchlik.
 - O'z millatini boshqalardan afzalligini tasdiqlash.
- 33.** Rasul Hamzatov «Ona tilim» she'rida «**Ko'ksimda qo'rg'oshin quyosh tig'ida, Tog'lar orasida yotibman bejon**» misralaridagi «tog'lar» so'zi qaysi tushunchaga ishora qilmogda?
- Mavhum bir makon.
 - Shoirning vatani Dog'istonda.
 - Qabr.
 - Yer sayyorasi.
- 34.** Rasul Hamzatovning «Ona tilim» she'ri qaysi o'zbek shoirining shu mavzudagi she'riga mazmunan va ruhan yaqin?
- Rauf Parfi.
 - Cho'lpon.
 - Sh.Rahmon.
 - Muhammad Ali.
- 35.** Xorazmda doston aytuvchilar kim deyiladi?
- Xalfa.
 - Baxshi.
 - Shoir.
 - Oqin.
- 36.** Qaysi javobda «Ravshan» dostonidagi aka-uka kallarning alohida qobiliyatları to'g'ri ko'rsatilgan?
- Aynoq kal; 2) Jaynoq kal.
 - Ersak kal; 4) Tersak kal.
 - mergan; b) masxaraboz; c) polvon;
 - sinchi.
 - I-a, 2-c, 3-d, 4-b.
 - I-b, 2-d, 3-c, 4-a.
 - I-c, 2-b, 3-a, 4-d.
 - I-d, 2-a, 3-b, 4-c.

3-VARIANT

- 1.** «Ravshan» dostonida nima uchun Avazxon qizini Ravshanga berishni istamadi?
- Manmanligi sababli Avazxon o'zini Hasanxonдан ortiq hisoblardi.
 - Gulanor boshqa yigitni sevardi.
 - Avazxon bilan Hasanxon o'rtasida adovat bor edi.
 - Ravshanning Zulkumorni sevishini bilardi.
- 2.** «Ravshan» dostonida uzukni ko'rgan Zulkumor nima uchun Ravshanni qabul qildi?
- Uzukning qimmatbaho ekanligini sezdi.
 - Uzukning sehrlilagini ko'rgach, qo'rqdi.
 - Uzukdagisi yozuvda o'z qismatini ko'rди.

- | | |
|--|--|
| <p>D. Ravshanni tushida ko'rib. sevib qolgandi.</p> <p>3. «Ravshan» dostonida aka-uka kallarga xos bo'lgan xarakter belgilari ko'rsating.</p> <p>A. Vatanparvarlik. o'z shohiga sadoqat.</p> <p>B. Manfaatparastlik. amal-mansabni suyish.</p> <p>C. Sevgiga sadoqat, vasodorlik.</p> <p>D. Mardlik, haqiqatgo'ylik, o'z ishiga mohirlilik.</p> | <p>A. Litota. B. Tafrit.</p> <p>C. G'ulu. D. Ig'roq.</p> <p>8. Navoiyning adabiyotshunoslikka oid asarlarini ko'rsating.</p> <p>A. «Muhokamat ul-lug'atayn». «Sab'atu abhur».</p> <p>B. «Xazoyin ul-maoniy», «Xamsat ul-mutahayyirin».</p> <p>C. «Tarixi muluki ajam», «Xamsat ul-mutahayyirin».</p> <p>D. «Majolis un-nafois», «Mezon ul-avzon».</p> |
| <p>4. Obraz tushunchasi qanday ma'nolarda ishlataladi?</p> <p>A. Uch ma'noda: keng, tor, ko'chma.</p> <p>B. Ikki ma'noda: ijobiya va salbiy.</p> <p>C. Ikki ma'noda: yaxshi va yomon.</p> <p>D. Ikki ma'noda: keng va tor.</p> | <p>9. Navoiy shoh G'oziy orqali kimning timsolini yaratgan?</p> <p>A. Temuriy hukmdorlar.</p> <p>B. Orzusidagi hukmdor.</p> <p>C. Husayn Boyqaro.</p> <p>D. Afsonaviy pahlavon Rustam.</p> |
| <p>5. Badiiy obraz qanday xususiyatlarga ega bo'lishi kerak?</p> <p>A. Namuna bo'ladigan, ishonarli.</p> <p>B. Ijodkor his-tuyg'usini ifodalashi, hayotni aks ettirishi, ta'sir ko'rsatishi, umumlashma xususiyati bor shaxsni ifodalashi.</p> <p>C. Ishonarli, ijobiya.</p> <p>D. Esda qoladigan, qiziqarli.</p> | <p>10. Navoiyning «Shoh G'oziy» hikoyatida kampir nima uchun o'z da'vosidan kechib, uzr so'radi?</p> <p>A. Katta boylik olgani uchun.</p> <p>B. Shoh adolatiga iqror bo'lib.</p> <p>C. Yanglishganini bilib.</p> <p>D. Shohni jazolash mumkin emasligini tushungach.</p> |
| <p>6. Mubolag'a nimaga xizmat qiladi?</p> <p>A. Obrazga xos belgilarni bo'rttirib, kuchaytirib ko'rsatishga.</p> <p>B. Tasvirning qiziqarli bo'lishiga.</p> <p>C. Boshqa timsollarni qo'rqtishga.</p> <p>D. O'quvchini chalg'itishga.</p> | <p>11. Navoiyning «Shoh G'oziy» hikoyatida qozining talabiga ko'ra kampir keltirgan ikki guvoh ko'rsatilgan javobni belgilang.</p> <p>A. Ikki qo'shnisi.</p> <p>B. Shoh navkarlari.</p> <p>C. Shohning qahri va mehri.</p> <p>D. Shohningadolati va insofi.</p> |
| <p>7. Mumtoz adabiyotda aqlga sig'maydigan darajadagi mubolag'a qanday ataladi?</p> | <p>12. «Mehr va Suhayl» hikoyasida Jobir dengizda kemalar ko'ringanidan qanday xabar topadi?</p> |

- A. Diyabonlar orqali.
 B. O'zi kuzatib yotardi.
 C. O'rnatilgan qushlar xabar berardi.
 D. Kemadagi josuslar orqali.
- 13. «Mehr va Suhayl» hikoyasida «Mehr» so'zi qizning ismini bildirish bilan birga yana qanday ma'noni anglatardi?**
- A. Yulduz. B. Oy.
 C. Quyosh. D. Shafqat.
- 14. «Mehr va Suhayl» hikoyasida «Maylni qo'yki, volayi zor ul, Jon berib vasliga xaridor ul» misralarida kim haqida so'z ketyapti?**
- A. Jobir. B. Mehr.
 C. Suhayl. D. Navdar.
- 15. «Mehr va Suhayl» hikoyasida «Taxtani uyla kov-kov etti Ki, suv yo'llini nechukki nov etti» satrlarida gap nima haqida ketyapti?**
- A. Suhaylning Jobir bilan urushi.
 B. Mehrning iztiroblari.
 C. Jobirning hiylesi.
 D. Diyaboning hiylesi.
- 16. «Mehr va Suhayl» hikoyasida mas'uliyatli damda shaxsiy ishtiyoqi tufayli asirga tushgan obrazni ko'rsating.**
- A. Navdar. B. No'mon.
 C. Mehr. D. Suhayl.
- 17. «Mehr va Suhayl» hikoyasida qahramonlar ruhiy holati va tashqi tasvirini berishda, asosan, qaysi rangdan foydalanilgan?**
- A. Oq rang. B. Qora rang.
 C. Sariq rang. D. Moviy rang.
- 18. «Sen agar zohir etting itlikni. Men senga ko'rguzay yigitlikni». Ushbu misralar qaysi qahramonning nutqidan olingan?**
- A. Mehr. B. Jobir.
 C. Suhayl. D. Navdar.
- 19. «Shohni derlar sipoh birlan shoh. Shoh emasdur yo'q ersa anda sipoh» misralari kimga nisbatan aytilgan?**
- A. Navdar. B. No'mon.
 C. Suhayl. D. Jobir.
- 20. *Har kishikim birovga qozg'ay choh,*
*Tushgay ul choh aro o'zi nogoh.***
- Ushbu misralarda qanday she'riy san'at qo'llangan?
- A. Tashbeh. B. Irsoli masal.
 C. Tanosub. D. Mubolag'a.
- 21. O'xshamish, o'xshatilmish, asos, vosita kabi unsurlar qaysi she'riy san'atning yuzaga kelishida ishtirok etadi?**
- A. Tashbih. B. Tanosub.
 C. Irsoli masal. D. Tazod.
- 22. Lutfiy qalamiga mansub quyidagi misralarda qanday she'riy san'atdan foydalanilgan?**
- Sen husn ila boysan, senga chun farz durur haj
 Qil Tengri uchun Ka'bai ko'nglumni ziyorat.
- A. Tanosub. B. Tazod.
 C. Irsoli masal. D. Tashbih.
- 23. Turdi Farog'iyning qancha she'ri yetib kelgan?**
- A. 18 ta. B. 16 ta. C. 20 ta. D. 19 ta.

- 24. «Tor ko'ngullik beklar» g'azalida qaysi fikr ilgari suriladi?**
- Beklarni o'zaro ahillikka undash.
 - Milliy birlik, o'zaro totuvlik.
 - Qo'shni davlatlar bilan tinchlikda yashash.
 - Mardlar bilan maydonda birga bo'lish.
- 25. Uvaysiy g'azalidagi «Vujudum dardga to'ldi, emdi darmonimni sog'indim» misrasidan anglashiladigan ma'noni belgilang.**
- Dard – kasallik, darmon – dori.
 - Dard – musofirlik, darmon – vatanga qaytish.
 - Dard – zulm, darmon – qasos.
 - Dard – sog'inch, darmon – diydot.
- 26. Shoiraning kecha-yu kunduz o'g'lining nomini takrorlab, uni o'ylab yurishi qaysi ifodada aks etgan?**
- Uyimning ziynati, ko'zimning ravshani...
 - Tilimning zikri-yu ko'nglimning fikri...
 - Qorong'u bo'ldi olam ko'zima...
 - Vujudim dardga to'ldi...
- 27. Uvaysiy g'azallaridan tashqari yana qaysi she'riy janrda shuhrat qozongan?**
- Ruboiy.
 - Muxammas.
 - Tuyuq.
 - Chiston.
- 28. Qaysi misrada «tashxis» she'riy san'ati qo'llangan?**
- Sindirib gumbazni qizlar holdin olsam xabar.
 - Yuzlarida parda tortig'liq turarlar bag'ri qon.
 - Ul na gumbazdur eshigi, tuynugidin yo'q nishon.
 - Ikkisining o'rtafiga, do'stlar, qil sig'magan.
- 29. Quyidagi she'r misralaridagi qosiya qaysi qatorda ko'rsatilgan?**
- Sahni ajoyib xushhavo,**
Ham ruhparvar jonsizo.
- Ajoyib, ruhparvar.
 - Xushhavo, jonsizo.
 - Sahni, ham.
 - Ajoyib, xushhavo.
- 30. Raviy bilan tugallangan qosiya qanday nomlanadi?**
- Muqayyad qosiya.
 - Mutlaq qosiya.
 - Murdaf qosiya.
 - Mumtoz qosiya.
- 31. Qaysi qatorda ohangdoshlikni hosil qiluvchi unli yoki undosh bo'lgan tirkak tovushning nomlanishi ko'rsatilgan?**
- Raviy. B. Radif.
 - Qosiya. D. Refren.
- 32. Tuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur,**
Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur!
- Sarrishtai ayshdin ko'ngulni zinhor**
Uz, oh, Zahiriddin Muhammad Bobur!
- Qaysi qatorda yuqoridaq ruboiyning radifi berilgan?
- Bobur.
 - Zahiriddin Muhammad Bobur.

- C. Tuz, yuz, uz.
D. Oh, Zahiriddin Muhammad Bobur.
33. «Shohimardon xotirasi» she'rida bayon qilinishicha.
Zavqiyning Shohimardonda ko'p turmasligi sababi nimada?
A. Tabiat yoqmadi.
B. «Badjahl, badxo', badnamo» odamlar ko'pligi uchun.
C. Ko'proq turishiga o'rtoqlari qo'yishmadi.
D. Shohimardonda chiroyli, sayroqi qushlar yo'qligi uchuin.
34. Zavqiyning «Shohimardon xotirasi» she'ri bilan qaysi shoirning she'ri o'tasida o'zaro mushtaraklik mavjud?
A. Asqad Muxtoring «Yo'b» she'ri.
B. Boburning «Boburnoma» asari.
C. Xorazmiyning «Muhabbatnoma» asari.
D. Muqimiyning «Sayohatnoma» asari.
35. Ba'zi she'rlariga Firog'iy taxallusini qo'llagan shoir nomi qaysi qatorda ko'rsatilgan?
A. Zavqiy. B. Muxtumquli.
C. T. Farog'iy. D. A. O'tar.
36. «Adolat yaxshi» she'rida beklar, shohlar qanday xislatlarga ega bo'lishi, odam o'zidan ojizlarga qanday himmat ko'rsatishi, shuningdek, dushmanlar bilan munosabatda qay holatda yo'l tutish kerakligini Muxtumquli qanday izohlaydi?
1. Qullarga. 2. Shohga. 3. Dushmaningga. 4. Omonlik deganga. 5. Bekka.
a) siyosat; b) adolat; c) diyonat; d) saxo; e) himoyat.
A. 1-e, 2-d, 3-b, 4-a, 5-c.
B. 1-d, 2-b, 3-e, 4-c, 5-a.
C. 1-b, 2-c, 3-a, 4-d, 5-e.
D. 1-e, 2-b, 3-a, 4-c, 5-d.

4-VARIANT

1. Maxtumqulining «Namasan» she'ri kim haqida?
A. Sevgan yori haqida.
B. Olloh haqida.
C. Vatan haqida.
D. Go'zal qizlar haqida.
2. Abdulla Qodiriy «Mehrobdan chayon» romanida «mehrobdagi chayonlar» deb kimiarni nazarda tutgan?
A. Xudoyorxon, Solih maxdum, Qobilboy.
B. Muhammad Rajabbek, Abdurahmon, Xudoyorxon.
C. Xudoyorxon, Abdurahmon, Kalonshoh mirzo, Shahodat musti.
D. Sultonali, Kalonshoh mirzo, Nasim.
3. «Mehrobdan chayon» romanida Anvarning ismini kim qo'ygan edi?
A. Otasi. B. Onasi.
C. Opasi Nodira. D. Imom.
4. Anvarning: «...zero, zulmi naqadar kuchaysa, uning umri shuncha qisqa bo'lishi tajribalar bilan sobitdir», – so'zlarini kimga nima maqsadda aytildi?

- A. Ra'noga sabr qilish zarurligini tushuntirish uchun.
 B. Abdurahmon domlaga tanbeh berish maqsadida.
 C. Sultonaliga qochish to'g'risida maslahat so'rab.
 D. Qobilboyga o'ziga yordam berishlarini uyuştirish ilinjida.
- 5. «Mehrobdan chayon» romanida Anvarning jonajon do'sti kim edi?**
 A. Nasim. B. Nozim.
 C. Abdulla. D. Azizbek.
- 6. Anvarni o'z ixtiyori bilan xon huzuriga borishdan qaytarolmagan Qobilboy nima uchun ukasining xayrlashuviga javob bermay chiqib ketadi?**
 A. Gapiga kirmagan Anvardan xasa bo'ladi.
 B. Nima qilishini bilmay gangib qolgan edi.
 C. Do'stlari bilan ahslashganday ukasini qutqarish haqida o'ylagandi.
 D. Maslahatlashmoq uchun do'stalarining oldiga ketgandi.
- 7. Xon tomonidan Anvar o'limga buyurilgan lavhada kimning xattiharakatini jasorat sifatida baholash mumkin?**
 A. Muhammad Niyoz.
 B. Sultonali.
 C. Jallod.
 D. Xudaychi.
- 8. Cho'lpionning «Go'zal» she'rida lirik qahramon nima uchun o'zini «yo'qsil» deb ataydi?**
 A. Kambag'alligi uchun.
- B. Yorining visoliga yetolmaganidan.
 C. Go'zalning husni va fazilatlari oldida o'zini qusurli bilganidan.
 D. U istagan go'zalning bu dunyoda yo'qligini bilganidan so'ng.
- 9. Cho'lpion qanday yurtni "buzilgan o'lka" deb ataydi?**
 A. Amaldorlari mansaftparast bo'lgan mamlakatni.
 B. Fuqarosi halol va haromni ajratmaydigan jamiyatni.
 C. Mustamlaka asoratiga tushib qolgan va shunga ko'nikkан o'lkani.
 D. Yoshlari boshqa mamlakatga ketishga majbur bo'lgan davlatni.
- 10. «Buzilgan o'lkaga» she'rida «Nega sening qalin tovushing "ket" demaydi ularga» satridagi «qalin» so'zi qaysi ma'noni bildiradi?**
 A. Qat'iyatli, isyonkor.
 B. Hayiqsan, qo'rquvli.
 C. Ehtiyyotkor.
 D. Baland, yo'g'on.
- 11. «Binafsha» she'rida qanday ruhiy holat ifodasi bo'rtib turadi?**
 A. Tanbeh berish.
 B. Nafrat.
 C. Isyon.
 D. Dardkashlik.
- 12. Qaysi qatorda Abdulla Qahhorning komediyalari berilgan?**
 A. «Sarob», «Qo'shchinor chiroqlari».
 B. «Muhabbat», «O'tmishtdan ertaklar», «Sinchalak».
 C. «O'g'ri», «Bemor», «Dahshat».
 D. «Shohi so'zana», «Tobutdan tovush», «Ayajonlarim».

- 13. Abdulla Qahhorning «O'g'ri» hikoyasidagi "o'g'rilar" kimlar?**
 1) ellikboshi; 2) Qobil bobo; 3) amin;
 4) pristav.
 A. 1, 2, 4. B. 1, 3, 4.
 C. 1, 2, 3. D. 2, 3, 4
- 14. «Og'ri» hikoyasida amin Qobil boboga «Yo'qolmasdan ilgari bormidi?». «Qanaqa ho'kiz edi?». «Yaxshi ho'kiz birov yetaklasa keta beradimi?» kabi savollarni nima uchun beradi?**
 A. Qobil boboning rost gapirayotganini aniqlash uchun.
 B. Ellikboshi bergen ma'lumotlarni tekshirish maqsadida.
 C. Qobil boboning ustidan kulish uchun.
 D. Pristavga xabar yetkazish maqsadida.
- 15. Abdulla Qahhor asarlari to'g'ri sanalgan javobni toping.**
 A. «O'g'ri». «Bemor», «Shum bola», «Anor».
 B. «O'tmishdan ertaklar», «Tirilgan murda», «Anor», «Bemor».
 C. «Anor», «O'tmishdan ertaklar», «O'g'ri», «Bemor».
 D. «Bemor», «O'g'ri», «Sehrli qalpoqcha», «Anor».
- 16. «Mehrobdan chayon» romanida Qobilboy va uning ikki do'sti qanday qilib Anvarni qutqarishga muvaffaq bo'lishdi?**
 A. Jazo maydonida yasovullar oz edi.
 B. Yasovullar ham Anvarning qatlini xohlashmas edi.
 C. Tahorat olish bahonasida Anvar ular bilan qochishga muvaffaq bo'ldi.
 D. Xalq ularga yordam berdi.
- 17. Inson qadri, shaxs erkinligi barcha narsadan ustun ekanligi «Dahshat» hikoyasidagi qaysi jumlada aks etgan?**
 A. Hozir kim go'ristoniga borib, Asqarponsotning qabriga pichoq sanchib keladi?
 B. Biitta qo'yni nazarları ilmaydi.
 C. O'lsin nokas odam ekan, biitta qo'yni deb... Koshki arziyidigan narsa bo'lsa!
 D. Mayli, mayli! Lekin laszingizdan qaytmaysiz...
- 18. «Dahshat» hikoyasida qanday fikr ilgari surilgan?**
 A. Erning o'z xotiniga zulm qilishi dahshatli illat ekanligi.
 B. Ayolning eriga isyon qilishi fojiaga olib kelishi.
 C. Inson erki, shaxs hurligini ulug'lash.
 D. Insonning o'zi qodir bo'limgan ishga qo'l urmasligi.
- 19. «Dahshat» hikoyasida «...tiriklar go'riston» deb ta'riflangan joy qayer?**
 A. Qabriston.
 B. Olimbek dodxonning uyi.
 C. Asqar ponsotning uyi.
 D. Masjid yaqinidagi uy.
- 20. Mirtemirning «Bu – men tug'ilgan tuproq» she'rida uchramaydigan tasvirni ko'rsating.**
 A. Vatan o'tmishi.
 B. Yurt go'zalligi.
 C. Do'stlar bilan sayohat.
 D. Dushmanlarga nafrat.
- 21. Mirtemirning «Onaginam» she'rida qaysi tuyg'u izhori berilgan?**

- A. Ona oldidagi burchini ado etolmagan farzand armoni.
 B. Onasini ko'rgani borolmayotgan o'g'il sog'inchi.
 C. El xizmatida bo'lib, onadan xabar ololmayotgan o'g'il o'tinchi.
 D. Onasini vaqtida rozi qilolmayan o'g'ilning qalb qyinoqlari.
- 22.** Mirtemirning «Onaginam» she'ridagi lirik qahramon onasiga qilolmayan xizmatni elga qay yo'l bilan baxshida etmoqchi bo'ladi?
- A. Boyligi.
 B. Ijodi.
 C. Tinimsiz mehnati.
 D. Muhabbatli.
- 23.** Mirtemirning «Toshbu» she'ridagi «Burmalik ko'ylik ham nimchay g'ijim. Sirg'alar sandiqqa tushdi. Bardosh bu...» satrlari orqali anglatilgan ma'noni toping.
- A. Toshbuning ayol sisatidagi achchiq iztiroblari.
 B. Urush sharoitida bezak, kiyimlar ko'ziga yomon ko'ringanligi.
 C. Toshbuning mayjud sharoitdan noroziligi.
 D. Qiyinchilik yillari ularni sotib yubormoqchi bo'lganligi.
- 24.** Mirtemirning «Shudring» she'rida «Kechasi onam tag'in Yig'labdi-da, chamasi» misralaridagi Ona so'zi orqali kim ko'zda tutila-yotir?
- A. Shoiring onasi.
 B. Ona tabiat.
 C. Ona yurt.
 D. Ona tili.
- 25.** «Bir qo'shiq bo'laman daryoday yurakning eng chuqr yerida», – deya orzu qilgan shoir kim?
- A. Shavkat Rahmon.
 B. Mirtemir.
 C. Cho'lpon.
 D. R. Hamzatov.
- 26.** Qaysi qatorda Lorkaning «Eng qayg'uli shodlik» she'riy to'plamini bevosita ispan tilidan o'zbek tiliga o'girgan shoir nomi berilgan?
- A. Mirtemir. B. Sh.Rahmon.
 C. A.Muxtor. D. M.Osim.
- 27.** Shavkar Rahmonning «Tungi manzara» she'rida «...qora zindon naqadar chuqr» ifodasidagi «qora zindon» nimani anglatadi?
- A. Lirik qahramon tashlangan choh.
 B. Asir askar qamalgan joy.
 C. Lirik qahramonning tushkun, g'amgin holati.
 D. Tunda adashgan yo'lovchi iztiroblari.
- 28.** Shavkat Rahmonning «Tong ochar ko'zlarim...» she'rida qaysi obrazga salbiy munosabat kuzatiladi?
- A. O'rgimchak. B. Xonqizi.
 C. Qurbaqa. D. Chigirtka.
- 29.** Ernest Seton – Tompsonning «Yovvoyi yo'rg'a» hikoyasida mujassamlashgan g'oya qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
- A. Yangilikka intilish.
 B. Fermerlarni ulug'lash.
 C. Erkinlik, ozodlik.
 D. Johillik.

- 30. Ernest Seton – Tompsonning «Yovvoyi yo'rg'a» kitobini o'zbek tiliga qaysi yozuvchi tarjima qilgan?**
- A. Tog'ay Murod.
 - B. Shukur Xojmirzayev.
 - C. Nazar Eshonqul.
 - D. Odil Yoqubov.
- 31. Ernest Seton – Tompsonning «Yovvoyi yo'rg'a» hikoyasida Yovvoyi yo'rg'ani kim qo'lga tushirdi?**
- A. Jo. B. Qari chol Tom.
 - C. Charli. D. Foster.
- 32. Hikoya so'ngida qora yo'rg'anining taqdiri qanday yakun topdi?**
- A. Umrbod qari chol Tomning shaxsiy mulkiga aylandi.
 - B. Jo otni sotib, katta boylikka erishdi.
 - C. Qora ayg'irni hech kim tutolmadi.
 - D. Yovvoyi yo'rg'a o'zini halok qildi, ozod bo'ldi.
- 33. Qaysi javobda Ernest Seton – Tompson asarlarining yetakchi mavzusi berilgan?**
- A. Milliy g'urur
 - B. Tabiat.
 - C. Muhabbat.
 - D. Urush va tinchlik.
- 34. Ernest Seton – Tompson qaysi asari uchun Amerikada eng yaxshi ilmiy ishlar uchun beriladigan «Elliot» oliv darajali oltin medaliga sazovor bo'ldi.**
- A. «Mitti yovvoyilar».
 - B. «Quvg'indilar taqdiri» asari.
 - C. «Yovvoyi hayvonlar» kitobi.
 - D. «Jonivorlar haqida hikoyalar» kitobi.
- 35. Tabiat... uch olam (rassomlik, badiiy adabiyot va ilm) nuqtayi nazaridan kelib chiqib aks ettiriladi. Ernest Seton – Tompson tabiatni qaysi soha vakili bo'lib tasvirlaydi?**
- 1) rassom; 2) yozuvchi; 3) olim.
 - A. 1. B. 2.
 - C. 3. D. 1, 2, 3.
- 36. «Og'ri» hikoyasida ellikboshining og'ilga kirib qilgan harakatlaridan maqsad nima edi?**
- A. Tasallি berish.
 - B. Yordam ko'rsatish.
 - C. O'g'rini aniqlash.
 - D. Ta'magirlik.

8- SINF. ADABIYOT

1-VARIANT

1. O'zbek adabiyotida qaysi asrlardan boshlab yirik dostonchilik maktabları paydo bo'lgan?

- A. XV – XVI asrlarda.
- B. XIX – XX asrlarda.
- C. XI – XIII asrlarda.
- D. XIV – XV asrlarda.

2. Dostonchilik taraqqiyotida eng rivojlangan davr qaysi javobda berilgan?

- A. XIX – XX asrlar.
- B. XIV – XV asrlar.
- C. XV – XVI asrlar.
- D. XI – XIII asrlar.

3. «Algomish» dostonining 1000 yilligi jahon miqyosida qachon nishonlandi?

- A. 1997-yilda. B. 1999-yilda.
- C. 2000-yilda. D. 1996-yilda.

4. 8-sinf darsligida «Kuntug'mish» dostonining qaysi baxshidan yozib olingan nusxasi keltirilgan?

- A. Bekmurod Jo'raboy o'g'lidan.
- B. Nurmon Abduvoy o'g'lidan.
- C. Egamberdi Ollamurod o'g'lidan.
- D. Ergash Jumanbulbul o'g'lidan.

5. «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq baxshisi» unvoni qachon ta'sis etilgan?

- A. 1998-yil 12-martda.
- B. 2001-yil 15-martda.
- C. 1999-yil 13-martda.
- D. 2000-yil 14-martda.

6. Xolbeka sovchilarga qanday shart qo'yadi?

- A. Nard o'yini.
- B. Shaxmat o'yini.
- C. Kamonbozlik.
- D. Kurash tushish.

7. «Kuntug'mish» dostonida xiyonatkor obraz kim?

- A. Buvraxon. B. Azbarxo'ja.
- C. Qoraxon. D. Xolmo'min.

8. Azbarxo'ja Xolbekani Buvraxonga olib kelganda, podshoh Xolbekaga nisbatan qanday hukm chiqardi?

- A. Otning dumiga bog'lab sudrattirdi.
- B. Xolbekani Xolmo'minga topshirdi.
- C. Badarg'a qildi.
- D. Zindonga tashladi.

9. «Kuntug'mish» dostonida «Gurkiboyning zotin aysam sizlarga. Gurki desam mening ko'nglim buzilar», deb kim aytgan?

- A. Kuntug'mish. B. Cho'pon.
- C. Xolbeka. D. Xolmo'min.

10. Hijriy 462-yil, ya'ni milodiy 1069–1070-yili Koshg'arda yozib tugallangan, hajmi 6 ming 409 baytdan iborat asar qaysi javobda ko'rsatilgan?

- A. «Qutadg'u bilig».
- B. «Devonu lug'otit turk».
- C. «Hibatul haqoyiq».
- D. «Devoni hikmat».

11. Abdurauf Fitrat «Qutadg'u bilig» asari nomini qanday o'girgan?

- A. «Baxtlikianish bilimi».
- B. «Saodatga yo'llovchi bilim».

- C. «Baxtga eltuvchi bilim». D. «Shohlar haqidagi asar».
- 12.** «Kuntug'mish» dostonidagi quyidagi misralar kimga tegishli? «Analhaq deb Mansur senga osildi. Assalomu alaykum, dorning og'ochi...»
 A. Mohiboy. B. Gurkiboy.
 C. Xolmo'min. D. Xolbeko.
- 13.** Yusuf Xos Hojib «Qutadg'u bilig» dostonini tugallagach uni kimga taqdim etadi?
 A. Eltarish xoqonga.
 B. Nosiriddin To'qbo'g'axonga.
 C. Tavg'ach Ulug' Bug'ra Qoraxonga
 D. Bo'g'u Tarxonga.
- 14.** «Qutadg'u bilig» asari haqidagi bir-biriga mos javoblarni belgilang.
 1) Vena nusxasi; 2) Qohira nusxasi;
 3) Namangan nusxasi.
 a) sharqshunos Valizoda hisobotida Muhammad hoji Eshon Lolaresh degan kishining qo'lida asarning bir nusxasi borligi haqida ma'lumot beradi. Abdurauf Fitrat 1924-yili qo'lyozmani fanga taqdim etadi.
 b) U milodiy 1439-yili Hirotda uyg'ur yozuvi bilan ko'chirilgan. Kitob Turkiyaning Tugot shahriga. 1474-yili esa Istanbulga keltiriladi. 1823-yili fransuz sharqshunosi Jaubert Amedee uni ilm ahliga tanishtiradi.
 c) 1896-yili asar arab yozuvi asosida Turkiy alisboda ko'chirilgan.
 A. 1-a. 2-b. 3-c.
 B. 1-c. 2-a. 3-b.
 C. 1-b. 2-c. 3-a.
 D. 1-c. 2-b. 3-a.
- 15.** «Qutadg'u bilig» asari qaysi vaznda yozilgan?
 A. Ramali musammani maqsur.
 B. Hazaji musammani mahzuf.
 C. Rajazi musammani solim.
 D. Mutaqoribi musammani mahzuf.
- 16.** A. Navoiy «Majolis un-nafois» tazkirasida qaysi ijodkorni «...o'z zamonasining malik ul-kalomi erdi...» deb ta'riflaydi.
 A. Yusuf Xos Hojibni. B. Lutsiyni.
 C. Xorazmiyni. D. Atoiyni.
- 17.** Turli xalqlar «Qutadg'u bilig» asarini qanday nomlashgan? Bir-biriga mos javoblarni belgilang.
 1) chinliklar; 2) mochinliklar; 3) eronliklar; 4) turonliklar; 5) Sharq elining ulug'lari;
 a) «Shohnomayi turkiy»; b) «Amin ul-mamlakat»; c) «Adab ul-muluk»; d) «Ziynat ul-umaro»; e) «Qutadg'u bilig».
 A. 1-c. 2-b. 3-a, 4-e. 5-d.
 B. 1-a. 2-b. 3-d. 4-c. 5-e.
 C. 1-d. 2-c. 3-e. 4-a. 5-b.
 D. 1-b. 2-e. 3-c. 4-a. 5-d.
- 18.** «Bu yerga yetti so'z oxir bo'ldi. Burun o'n dedim, u o'n bir bo'ldi» misralari qaysi asardan olingan?
 A. «Qutadg'u bilig».
 B. «Muhabbatnoma».
 C. «Hibatul haqoyiq».
 D. «Devoni hikmat».
- 19.** Qaysi shoir o'z g'azallaridan birida yuzi azbaroyi hijron azobini chekaverganidan sarg'ayib ketib, oltinni yashiradigan darajaga yetga-

ni. buning oldida tilloning sariqligi hech narsa bo'lmay qolganini aytadi?
A. Lutfiy. B. Navoiy.
C. Xorazmiy. D. Nodira.

20. «Qutadg'u bilig» asaridagi qahramonlar qanday ramziy ma'noga ega? Bir-biriga mos javoblarni belgilang.
1) Kuntug'di; 2) Oyto'ldi; 3) O'gdulmish; 4) O'zg'urmish.
a) qanoat, ofiyat, ya'ni sog'lomlik ramzi; b) aql va zakovat ramzi; c) adolat ramzi; d) baxt va davlat ramzi.
A. 1-c. 2-d. 3-b. 4-a.
B. 1-c. 2-a. 3-d. 4-b.
C. 1-a. 2-d. 3-c. 4-b.
D. 1-b. 2-c. 3-b. 4-d.

21. Xorazmiyning «Muhabbatnoma» asari qaysi hukmdorga bag'ishlangan?
A. Muhammad Xojabekka.
B. Nosiriddin To'qbo'g'axonga.
C. Tavg'ach Ulug' Bug'ra Qoraxonga
D. Bo'g'u Tarxonga.

22. 1) milodiy 1432-yili Yazd shahrida Mir Jaloliddin degan kishi taklifi bilan Boqi Mansur degan xattot tomonidan uyg'ur yozuvida ko'chirilgan;
2) milodiy 1508–1509-yillarda arab yozuvi asosidagi turkiy alisboda ko'chirilgan nusxa. Bu nisbatan to'laroq – jami 473 baytdan iborat;
3) 1896-yili asar arab yozuvi asosida Turkiy alisboda ko'chirilgan.
Yuqorida ma'lumotlardan qaysi biri «Muhabbatnoma» haqidagi?
A. 1,3. B. 2,1.
C. 2. D. 1, 2.

23. «Muhabbatnoma» asarida nomadan tashqari yana qanday janrlar bor?
1) g'azal; 2) tuyuq; 3) soqiylnoma; 4) ruboiy; 5) masnaviy; 6) qit'a; 7) fard.
A. 1, 2, 4, 5, 7. B. 2, 4, 5, 6, 7.
C. 1, 3, 5, 6, 7. D. 1, 2, 3, 4, 5.

24. XIX asrning birinchi yarmida Nodira Lutfiyning qaysi g'azaliga o'xshatma yozgan?
A. «Xoh inon, xoh inonma». B. «Ayoqingga tushar har lahma gisu». C. «Bu ko'nguldur, bu ko'ngul». D. «Haq ul kunkim jamoling bor etibduri».

25. Lutfiy «Mem shaydo qiladurg'on» deb boshlanuvchi g'azalida ishq bobida barcha «ayb»ni kimga yoki nimaga qo'yadi?
A. Ma'shuqaga. B. Ko'ngilga.
C. Ko'zga. D. Oshiqqa.

26. Mumtoz she'riyatimizda asosiy tasvir manbai nima?
A. Jon. B. Bag'ir.
C. Ko'z. D. Ko'ngil.

27. Lutfiyning «Xoh inon, xoh inonma» g'azali ta'sirida qaysi shoir bir g'azal yaratgan.
A. Nodira. B. Mashrab.
C. Furqat. D. Ogahiy.

28. Lutfiy qaysi g'ozalida pari, falakning qamari, tog' kakligi, Misr navvot-u shakari, Xitoy go'zallari timsollarini keltiradi?
A. «Ne bo'lursan». B. «Haq ul kunkim jamoling bor etibduri».

C. «Ayoqingga tushar har lahza gisu».
D. «Xoh inon, xoh inonma».

29. Qaysi qatorda faqat turkiy she'riyatgagina xos bo'lgan janr berilgan?

- A. G'ozal. B. Tuyuq.
C. Qit'a. D. Fard.

30. «Muhabbatnoma» asarida «olam podshohi», «gulchehralar molik riqobi», «shohi qaboyil», «ohu nazarlar shahriyori» deb ta'riflangan qahramon kim?

- A. Nosiriddin To'qbo'g'axon.
B. Tavg'ach Ulug' Bug'ra Qoraxon.
C. Muhammad Xojabek.
D. Bo'g'u Tarxon.

31. Navoiyning «Muhokamat ul-lug'atayn» risolasidagi quyidagi misralar kimning asaridan olingan?

Aningkim, ol enginda meng yaratti,
Bo'yи birla sochini teng yaratti.

- A. Navoiyning.
B. Lutsiyning.
C. Xorazmiyning.
D. Atoiyning.

32. Bir-biriga mos javoblarni belgilang.

- 1) Xo'jandiy; 2) Yusuf Amiri; 3) Said Ahmad; 4) Sayyid Qosimi.
a) «Haqiqatnoma»; b) «Latofatnoma»; c) «Sadoqatnoma»; d) «Dahnomma»; e) «Taashshuqnama».

- A. 1-b, 2-d, 3-c, 4-a, 4-e.
B. 1-a, 2-c, 3-b, 4-d, 4-e.
C. 1-b, 2-d, 3-e, 4-a, 4-c.
D. 1-c, 2-e, 3-d, 4-a, 4-b.

33. Qaysi qatorda hazaji musaddasi mahzuf vaznida yozilgan, boshidan oxirigacha har bir baytida irsolli masal san'ati qo'llangan g'azal berilgan?

- A. «Ne bo'lursan».
B. «Xoh inon, xoh inonma».
C. «Haq ul kunkim jamoling bor etibdур».
D. «Ayoqingga tushar har lahza gisu».

34. Qaysi javobda tuyuq janrining asosiy qoidasiga aylangan adabiy-badiiy talablar berilgan?

- 1) tuyuq albatta to'rt misradan iborat bo'lishi kerak; 2) tuyuq misralari xuddi ruboiy kabi, a-a-a-a yoki a-a-b-a tarzida qosiyalanishi zarur; 3) tuyuq qat'iy ramali musaddasi mahzuf (yoki maqsur) vaznida bo'lishi shart; 4) tuyuqda qosiyaga olingen so'zlar tajnisli bo'lishi darkor.

- A. 1, 2, 3, 4. B. 1, 3, 4.
C. 1, 2, 4. D. 1, 2, 3.

35. A. Navoiy «Nasoyim ul-muhabbat...» asarida Lutsiy haqida shunday yozadi: «...yoshida olamdan o'tdi, qabri ... o'z maskani erdi».

Qaysi qatorda nuqtalar o'rnidagi tushirilgan so'z berilgan?

- A. Oltmis uch, Hirotdadur.
B. Bir yuz uch, Samarqanddadur.
C. To'qson to'qqiz, Dehikanordadur.
D. Oltmis yetti, Xurosondadur.

36. «Ne bo'lursan» g'ozalida qanday she'riy san'at qo'llangan?

- A. Irsoli masal, tafrit.
B. Kitobot, tajnis.
C. Talmih, tanosub.
D. Tazod, ishtiqoq.

2-VARIANT

1. A.Navoiyning «Kelmadi» radifli g'azalida, asosan, qanday she'riy shan'atdan foydalaniilgan?

- A. Tazod. B. Talmih.
C. Irsoli masal. D. Ishtiqqoq.

2. Qaysi qatorda Navoiyning zamondoshlariga yo'llagan xatlari yig'ilgan to'plam nomi qayd etilgan?

- A. «Mufradot».
B. «Munshaot».
C. «Vaqsiya».
D. «Xamsat ul-mutahayyirin».

3. A.Navoiyning bir g'azalida «deyin» so'zi necha marta takrorlanadi?

- A. 25 B. 10 C. 15 D. 20

4. Navoiy qaysi g'azalida radd ultmatla san'atidan foydalangan?

- A. «Kelmadi».
B. «Bo'l dum sanga».
C. «Deyin».
D. «Qilg'il».

5. «Jonga chun derman ...» deb boshlanadigan g'azalda lirik qahramon bilan munosabatda bo'lgan tan a'zolari qaysi qatorda to'g'ri tartib bilan berilgan?

- A. Jon, jism, ko'z, bag'ir, ko'ngil.
B. Jon, jism, bag'ir, ko'ngil, ko'z.
C. Ko'z, ko'ngil, bag'ir, jism, jon.
D. Ko'ngil, jism, bag'ir, ko'z, jon.

6. Alisher Navoiy «Bolalik lirikasi» to'plamini qanday nomlagan?

- A. «Navodir ush-shabob».
B. «Favoyid ul-kibar».

C. «G'aroyib us-sig'ar».

D. «Badoye ul-vasat».

7. «Jonga chun derman ...» g'azalidagi oshiq halokatining bosh sababchisi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Yurakning o'rtaqida yonishi oqibatida jismga o't tushishi.
B. Ishq deb atalgan ilohiy bir chaqmoq chaqilishi oqibatida ko'ngilga ishq ofati tushishi.

C. Haqiqiy gunohkor bir sho'x mahvashdir, agar u o'z yuzini ko'rsatmaga, ko'z uni ko'rmagan bo'lardi.

D. Aslida aybdor ko'z, agar u ma'shuqani ko'rmagan bo'lardi. ko'ngilga o't tushmas edi.

8. «Xazon sipohiga, ey bog'bon, emas mon'e.

Bu bog' tomida gar ignadin tikan qilg'il».

Alisher Navoiyning ushbu baytida qanday timsollar berilgan?

A. Bog'bon - yaratuvchi, bog' - mavjud borliq, xazon sipohi - o'lim lashkari.

B. Bog'bon - bog'ni parvarish qiluvchi, bog' - mavjud borliq, xazon sipohi - ma'shuqanining oshiqqa bergen azoblari.

C. Bog'bon - oshiq, xazon sipohi - ma'shuqanining oshiqqa bergen azoblari.

D. Bog'bon - ma'shuqa, bog' - uning visoli.

9. «Firoq tog'ida topilsa tufrog'im, ey, charx,

Xamir etib yana ul tog'da ko'hkan qilg'il».

Alisher Navoiyning ushbu baytidagi "ko'hkan" nimaning badiiy timsoli?

- A. Ayriqliq va visolning.
- B. Dard, g'am – alamning.
- C. Firoq; ranj, hajr va dardning.
- D. Hijron va azoblarning.

10. «Yuzung guliga ko'ngil ravzasin yasa gulshan, Qading niholig'a jon gulshanin chaman qilg'il».

Alisher Navoiyning ushbu baytidagi «yuzung gul» iborasi qanday ma'noni anglatadi?

- A. Haq (Olloh) jamoli.
- B. Go'zal chehra.
- C. Gul.
- D. Yuz.

11. «Yuzung guliga ko'ngil ravzasin yasa gulshan, Qading niholig'a jon gulshanin chaman qilg'il».

Alisher Navoiyning ushbu baytidagi «jon gulshani» iborasini qanday tushunmoq kerak?

- 1) yor visoli:
 - 2) oshiq vujudi, bag'ri;
 - 3) «Alif» harfining maskani bo'l mish «jon» so'zi ma'shuqa javlongohi.
- A. 1. B. 1 va 2.
 - C. 1 va 3. D. 2 va 3.

12. «Takovaringg'a bag'ir qonidin xino bog'la,

Itingg'a g'amzada jon rishtasin rasan qilg'il». Ushbu baytida Alisher Navoiy nima demoqchi?

- 1. Otingning tuyog'iga bag'rim qonidin xino bog'lagin, toki u qoshimdan shitob bilan o'tib ketmasin.
- 2. Itingga hijron g'amidan zada bo'lgan jonim iplarini arqon qilib

bog'lagin, toki bizning diydor-lashuvimizga xalaqt bermasini.

3. Oyoqlaringga bag'rim qonidin xino bog'lagin, itingga esa jonim iplarini arqon qilib bog'la.

- A. 1. B. 2 va 3.
- C. 1 va 3. D. 1 va 2.

13. «Qaro ko'zum, kelu mardumlig' emdi fan qilg'il,

Ko'zum qarosida mardum kibi vatan qilg'il».

Alisher Navoiyning ushbu baytidan qanday ma'no anglashiladi?

- 1. Ma'shuq sevinchi, muhabbat.
 - 2. Jamol orzusi, Ollohnning lutfu tajallisidan umidvorlik.
 - 3. Ma'shuqaga iltijo, visol ilinji.
- A. 1. B. 1 va 2.
 - C. 1 va 3. D. 2 va 3.

14. «Xazon sipohiga, ey bog'bon, emas mon'e.

Bu bog' tomida gar ignadin tikan qilg'il».

Ushbu baytida Alisher Navoiy qanday sikr-g'oyani ifodalagan?

- A. Bog'bon qanchalik urinmasin, kuzning tajovuziga mone'lik (to'sqinlik) qilolmaydi.
- B. Xazon fasli (qarilik) yetgach, o'limga qarshi hech qudrat, chora-tadbirlar to'sqinlik qilolmaydi.
- C. Xazon fasli yetsa ham, yor vasliga yetishishga hech narsa to'sqinlik qilolmaydi.
- D. Xazon fasliga hech qanday tikanlar to'sqinlik qilolmaydi.

15. Alisher Navoiy o'z ijodida Sharq she'riyatidagi necha xil janrdan foydalangan?

- A. 10 xil janrdan.
- B. 12 xil janrdan.
- C. 16 xil janrdan.
- D. 21 xil janrdan.

16. Mumtoz adabiyotda har bir bandi sakkiz misradan tashkil topgan she'riy janr

- A. Muxammas.
- B. Musaddas.
- C. Musabba'.
- D. Musamman.

17. Alisher Navoiyning, matla'si bir lirik asar mazmuniga teng keluvchi, deb ta'riflangan mashhur g'azali ...
A. "Ko'ksumni tig'i mehnat ila yora aylangiz ..."

- B. "Orazin yopqoch ko'zumdin sochilur har lahza yosh".
- C. "Ko'nguljon bila ketdi hamrahing".
- D. "Kecha kelgumdir debon ul sarvi gulro' kelmadi."

18. «O'git» she'ri zamirida qanday ma'nolar bor?

- A. Chaqiruv, da'vat, uyg'otish.
- B. Pand, nasihat, maslahat.
- C. Ishq, muhabbat, sadoqat.
- D. Hijron, dard, ayriliq.

19. Nodiraning turkiy devonida nechta g'azal mavjud?

- A. 189 ta.
- B. 169 ta.
- C. 150 ta.
- D. 192 ta.

20. «Yuzida terni ko'rub o'lsmam, ey rafiq, meni

Gulob ila yuvu gul bargidin kafan qilg'il».

Alisher Navoiyning ushbu baytidagi «gulob» va «gul bargi» nimalarning ramzi?

- A. Gulob – ma'shuqa yuzidagi ter, gul bargi – yuzning ramzi.
- B. Gul –sharbat, gul bargi ham o'z ma'nosida qo'llangan.
- C. Gulob – ma'shuqa chchrasi, gul bargi – visol.
- D. Gulob – ayrliliq sharobi, gul bargi – visol.

21. «Yuzida terni ko'rub o'lsmam, ey rafiq, meni

Gulob ila yuvu gul bargidin kafan qilg'il».

Alisher Navoiyning ushbu baytidan kelib chiqadigan xulosa..

- 1. Oshiq jasadi ma'shuqa terlari bilan yuvilsa, ma'shuqa yuziga burkalsa, demak, u uning diydoriga yetishgan bo'ladi.
- 2. Oshiq jasadi gulob bilan yuvilib, gul bargidan qilingan kafanga o'ralgani yaxshi.
- 3. Oshiqning maqsadi Olloh diydoriga erishishdir.

- A. 1. B. 2 va 3.
- C. 1 va 3. D. 1 va 2.

22. Nodira «Eshit» radilli g'azalida kimga murojaat qiladi?

- 1. Ollohga.
- 2. Amir Umarxoniga.
- 3. O'g'liga.

- A. 1. B. 1 va 2. C. 1 va 3. D. 2 va 3.

23. Nodiraning «Firoqnama» asari qanday she'riy shaklda bitilgan?

- A. Musamman.
- B. Muxammas.
- C. Muashshar.
- D. Musallas.

24. Nodiraning «Firoqnama» asarida radif qay tarzda qo'llangan?

- A. Barcha bandlarida radif bor.

- B. Ayrim bandlarida radif bor. ayrim bandlarida yo'q.
 C. Asarda radif qo'llanmagan.
 D. Radif omonim tarzida qo'llangan.
- 25.** Nodir'aning «Firoqnama» asari bilan qaysi shoirning she'ri o'rtaida bog'liqlik bor?
 A. Abdulla Oripovning «Ayol» she'ri.
 B. A.Oripovning «Onajon» she'ri.
 C. M.Yusufning «O'zbekning ayol-lari» she'ri.
 D. M.Yusufning «Turkistonning onalari» she'ri.
- 26.** Qaysi qatorda Fitratning dastlabki yirik asari berilgan?
 A. «Oila». B. «Begijon».
 C. «Munozara». D. «O'qu».
- 27.** Fitrat "Chig'atoy gurungi" deb nomlangan tashkilotni qachon tashkil etdi?
 A. 1920-yilda. B. 1919-yilda.
 C. 1918-yilda. D. 1917-yilda.
- 28.** Qaysi qatorda Fitrat asarlari berilgan?
 A. «Mirrix yulduziga», «Xalq».
 B. «O'git», «Go'zal».
 C. «Sayha», «Sarf», «Nahv».
 D. «Go'zalim, bevafo gulistonim», «Kishan».
- 29.** Qaysi javobda Fitratning dramalari berilgan?
 1) «Yorqinoy»; 2) «Mushtumzo'r»;
 3) «Hujum»; 4) «O'rtoq Qarshiboyev»; 5) «Chin sevish»;
 6) «Abulfayzxon»; 7) «O'g'uzxon»;
 8) «Shaytonning tangriga isyonii»;
- 9) «Arslon».
 A. 2. 3. 4. 5. 6. B. 1. 2. 3. 4. 5.
 C. 5. 6. 7. 8. 9. D. 1. 3. 5. 7. 9.
- 30.** Fitrat quyidagi misralarida kimga murojaat qilyapti?
 «Bormi senda qorin-qursoq yo'lida Elin, yurtin, borin-yo'g'in sotqonlar?»
 A. Turkiyadagi vatandoshlariga.
 B. Oyga .
 C. Yulduzga.
 D. Quyoshga.
- 31.** O'zbek milliy she'riyati, prozasi, maorifi, tilshunosligi, adabiyot-shunosligi, jamiyatshunosligi singari o'nlab sohalar rivojlanishiga hissa qo'shgan ijodkor nomi qaysi qatorda ko'rsatilgan?
 A. Cho'lpion. B. A.Qodiriy.
 C. Behbudiy. D. Abdurauf Fitrat.
- 32.** Faqat turkiy adabiyotga xos bo'lgan janrni belgilang.
 A. Tuyuq. B. Qit'a.
 C. Fard. D. Ruboiy.
- 33.** Musammatlar qaysi xususiyatlari ko'ra mustaqil va tazmin musammatlarga bo'linadi?
 A. Yaratilish xususiyatiga ko'ra.
 B. Bandlardagi misralarning soniga ko'ra.
 C. Musammatlarning qosiya tizimiga ko'ra.
 D. Musammatlardagi oxirgi ikki misra barcha bandlarda aynan takrorlanishiga ko'ra. .
- 34.** Arabcha «ipga terilgan marvarid» degan lug'aviy ma'noni anglatuvchi

she'riy shakl qaysi qatorda berilgan?
A. Masnaviy. B. Musammat.
C. Musallas. D. Muxammas.

35. «Bo'lak, parcha, qism» ma'nosini anglatuvchi she'riy shakl qaysi qatorda berilgan?
A. Fard. B. Qit'a.
C. Tuyuq. D. Ruboiy.

36. Musammatlarning uchlikdan o'nlikkacha bo'lgan turlari tartib bilan to'g'ri ko'rsatilgan qatorni aniqlang.
1) muxammas; 2) murabba;
3) mustasnc; 4) musallas;
5) musamman; 6) muashshar;
7) musabba; 8) musaddas.
A. 4. 2. 1. 8. 6. 7. 3. 5.
B. 2. 4. 6. 8. 1. 3. 5. 7.
C. 8. 7. 6. 1. 2. 3. 4. 5.
D. 4. 2. 1. 8. 7. 5. 3. 6.

3-VARIANT

1. H. Hakimzoda dramalari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
A. «Zaharli hayot yohud ishq qurbonlari». «Burungi qozilar yoki Maysaraning ishi», «Yangi saodat». B. «Paranji sirlaridan bir lavha yoki yallachilar ishi», «Maysaraning ishi». «Qizil gul». C. «Boy ila xizmatchi», «Tuhmatchilar jazosi», «Chin sevish». D. «Tuhmatchilar jazosi», «Jahon sarmoyasining eng oxirgi kunlari», «Boy ila xizmatchi».

2. «Zaharli hayot yohud ishq qurbonlari» asarining qahramonlari qaysi javobda to'g'ri qayd etilgan?
A. Mirzahamdamboy. Abdurahmonboy. Olimjon. Maryamxonim.
B. Maryamxonim. Mirzahamdamboy. Abduqodirboy. Mahmudxon.
C. Mahmudxon. Abduqahhorboy. Xolisxon. Maryamxonim.
D. Abduqodirboy. Ahinadjon. Kadicha. Olimxon.

3. «Zaharli hayot»da Hamza Hakimzoda kimlarni «ishq qurbonlari» sifatida tasvirlaydi?
A. Mahmudxon va Maryamxonimni.
B. Olimjon va Maryamxonimni.
C. Rustambek va Xolisxonimni.
D. Olimjon va Nazokatxonimni.

4. «Zaharli hayot yohud ishq qurbonlari» dramasidagi eng faol obraz qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
A. Abduqodirboy.
B. Mirza Hamdamboy.
C. Zaynab.
D. Maryamxon.

5. Hamzaning «Zaharli hayot yohud ishq qurbonlari» dramasining so'nggi to'rinchchi sahnasi qanday tugaydi?
A. Maryamxonning zahar ichib o'lishi bilan.
B. Maryamxonning onasi -- Soraning oh-u nolalari bilan.
C. Yozuvchi izohi bilan.
D. Mahmudxonning Maryamxon qabri oldida o'zini o'ldirishi bilan.

6. G'afur G'uulomning qaysi she'rida shuhrat qozonmoq uchun Gerostaidek ibodatxonaga o't qo'yish shart emasligi bayon qilingan?
A. «Sog'inish». B. «Vaqt».

- C. «Sen yetim emassan».
D. «Kuzatish».
7. «Yetimlik nimadir, bizlardan so'ra,
O'ninchi yillarning sargardonligi,
Isitma aralash qo'rqinch tush kabi
Xayol ko'zgusidan o'chmaydi sira...»
satrlarining muallifi kim?
A. G'. G'ulom. B. Cho'lpon.
C. H. Olimjon. D. U. Nosir.
8. G'afur G'ulomning qaysi she'rida
«o'zbek otasi»ning bo'rta, umumiyl
hamma uchun tanish siymosi yaratilgan?
A. «Kuzatish».
B. «Sog'inish».
C. «Sen yetim emassan».
D. «Vaqt».
9. «Mirzo Ulug'bek» fojiasida
Ulug'bekning o'ldirilishi qayerda ro'y
beradi?
A. Ko'ksaroyda.
B. Kohak tog'ida.
C. Oqsaroyda.
D. Ota Murodning hovlisida.
10. G'afur G'ulomning bolalar uchun
yaratgan asarlari qaysi javobda
to'g'ri ko'rsatilgan?
A. «Shum bola», «Bolalik», «Norto-
jining kurak tishi».
B. «Bilib qo'yki seni Vatan kutadi».
«Bari seniki», «Shum bola».
C. «Shum bola», «Bari seniki», «O't-
mishdan ertaklar».
D. «Tirilgan murda», «Sehrli qalpoq-
cha», «Shum bola».
11. G'afur G'ulomning «Sog'inish»
she'rida qanday g'oya ifodalangan?
- A. Bahorni sog'ingan ko'ngil holati.
B. Musofirlikda yurib, yurtini
sog'ingan odamning kayfiyati.
C. Insonning insonga mehri,
yashashga chanqoqlik mehri.
D. Yorini sog'ingan oshiq intiqligi.
12. Qaysi adib Alisher Navoiy haqida
jiddiy ilmiy tadqiqotlar yaratgan?
A. G'. G'ulom.
B. H. H. Niyoziy.
C. M. Shayxzoda.
D. E.Vohidov.
13. Maqsud Shayxzodaning «Mirzo
Ulug'bek» asarida ifodalangan
tarixiy shaxslar obrazni qaysi javobda
to'g'ri ko'rsatilgan?
A. Mirzo Ulig'bek. Sakkokiy, Abdu-
razzoq Samarqandiy, Otamurod.
B. Feruza, Abdulatif, Ali Qushchi,
Mirzo Ulug'bek. Xo'ja Ahror.
C. Shayxulislom Burhoniddin, Mirzo
Ulug'bek. Abbas, Sakkokiy.
D. Xo'ja Ahror, Ali Qushchi,
Abdulatif, Piri Zindoniy.
14. Maqsud Shayxzodaning asarlari
to'g'ri sanalgan javobni toping.
A. «Toshkentnoma», «Muhammad
to'pchi», «Jontemir».
B. «Kapitan Gastello», «Toshkent-
noma», «Yo'q men o'lgan
emasman», «On birlar», «Kurash
nechun».
C. «Yo'q men o'lgan emasman»,
«Bilib qo'yki seni Vatan kutadi»,
«Toshkentnoma».
D. «Kurash nechun», «Nil va Rim»,
«Kapitan Gastello», «Muhammad
to'pchi».

15. «Bu kurash hayotning qonuni uchun,

Bu chorak asrning yakuni uchun ...

Bu elning go'dagi, choli, go'zali,

Navoiy misrasi. Bobur g'azali,

Dutorning bema'lol unlari uchun ...»

parchasi qaysi mashhur she'r dan olingen?

A. «Bilib qo'yki seni Vatan kutadi».

B. «Yo'q men o'lgan emasman».

C. «Kurash nechun».

D. «Kapitan Gastello».

16. Usmon Nosirning qaysi she'reni ikki og'iz so'z bilan «Erk haqida madhiya» deb atash mumkin?

A. «Monolog». B. «Nil va Rim».

C. «Yurak». D. «Mehrim».

17. Usmon Nosirning "Nil va Rim" she'ri mazmunini. g'oyasini aks ettirmaydigan xulosani toping.

A. Erk madhiyasi.

B. Tarixga nazar.

C. Tarixni ulug'lash.

D. Qullar qismatiga achinish.

18. «Tilak», «Tong edi», «Totli damlar» singari she'riy asarlar muallifi kim?

A. Asqad Muxtor.

B. Shuhrat.

C. Shukrullo.

D. M.Shayxzoda.

19. «Mirzo Ulug'bek» fojiasida Ulug'bekni Abbas va Abdulatif sipohlaridan himoya qilgan navkar yigitlarning ismlari qaysi javobda to'g'ri qayd etilgan?

A. Yigitali. Berdiyor.

B. Ota Murod. Abdurazzoq.

C. Ali Qushchi. iroqlik talaba.

D. Piri Zindoniy. Berdiyor.

20. Maqsud Shayxzodaning. «Mirzo Ulug'bek» fojiasida ozodlik uchun boshini dorga qo'ygan – sarbadorlar farzandi bo'l mush adolatsevar obraz qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A. Piri Zindoniy. B. Ali Qushchi.

C. Ota Murod. D. Berdiyor.

21. «Mirzo Ulug'bek» fojiasida bir donishmandning 90 olim va talaba huzurida nutq so'zlab. ilmini namoyon qilgani aytildi. U mashhur alloma kim edi?

A. Beruniy. B. Forobiy.

C. Xorazmiy. D. Zamaxshariy.

22. «Samarqandda bir yo'talsam buning zarbidan

Yorilardi xalifayi Bog'dodning o'ti.
Bir na'ramdan kular edi shohlarning toji,

Poytaxtimga oqar edi dunyoning boji...» (M. Shayxzoda)

Mazkur misralarda kim ta'riflangan?

A. Bobur.

B. Ulug'bek Mirzo.

C. Shayboniyxon.

D. Amir Temur.

23. «Eshitganman, o'taketgan fozil ekansiz,

Ammo asli shoh o'g'lisiz, shu uchun bar dam,

Ko'zingizni qamashtirar toj yaltirog'i... (M. Shayxzoda)

Ulug'bek Mirzo bilan jiddiy munozara qilgan bu personaj nomi

- qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
A. Berdiyor. B. Ali Qushchi.
C. Hasan Ohangar. D. Abdulatif.

24. «Istasangiz, tiz cho'kayin oyog'ingizga.
Sizga buyuk qalbli inson, ulug' munajjim.
Ammo Sultan Ulug'bekka, sohibi tojga.
Bosh egmayman, egolmayman, yo'q ega olmayman». (M. Shayxzoda)
Piri Zindoniying yuqoridagi so'zidan Mirzo Ulug'bekka bo'lgan qanday munosabatni angladningiz?
A. Piri Zindoni shoh Ulug'bekni emas, olim Ulug'bekni qadrlaydi.
B. Bobosi Temur tusayli Ulug'bekni ham yomon ko'radi.
C. Ulug'bekka bosh egishni istamaydi.
D. Ulug'bekni shoh sisatida qadrlaydi.

25. Usmon Nosirning she'ridan keltirilgan quyidagi misralar kimga yoki nimaga aytildi?
«Sen orada ko'priq bo'lding – da.
Geyne bilan o'rtoq tutindim.
Lermontovdan ko'mak o'tindim,
Butun umrim sening bo'yningda,
Saharda qon tupursam, mayli...»
A. Do'stiga. B. Sevgilisiga.
C. She'riyatga. D. Davrga.

26. «Usq» romanini qahramonlari qaysi javobda to'g'ri qayd etilgan?
A. Tursunboy. Azizxon, Nizomjon, Zebixon.
B. Ikromjon. Sodiq. Nizomjon. Nurxon.

- C. Nizomjon. Mirsalim. Jannat xola Azizzon.
D. Jannat xola Ikromjon. Boltaqul. Sodiq.

27. «Usq» romanida Ikromjon va Jannat xolaga farzandlik qilgan. Zebixonning sevgisiga sazovor bo'lgan yigit kim?
A. Tursunboy. B. Azizzon.
C. Sodiq. D. Nizomjon.

28. Said Ahmadning «Usq» romani necha kitobdan iborat va bunday roman qanday nomlanadi?
A. Ikki kitobdan – dialogiya.
B. Uch kitobdan – trilogiya.
C. To'rt kitobdan – tetralogiya.
D. Besh kitobdan – pentalogiya.

29. «Usq» romanida Tursunboy sevgan qizning ismini ko'rsating.
A. Shoira. B. Manzura.
C. Shohida. D. Zebi.

30. "Rim yalang'och izlaydi", "Shoh Yuliy Sczar tilla qadahda qon ichadi", "Nil – qullar to'kkkan ko'z yosh" kabi tashbehlar qo'llagan va o'zini "isyoning so'lmas avlodii" deb yozgan ijodkor nomi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
A. Usmon Nosir. B. Cho'lpon.
C. Fitrat. D. Abdulla Qodiriy.

31. Usmon Nosirning "Nil va Rim" she'ridagi bosh g'oyani toping.
A. Sof sevgi va sadoqat uchun qurbon bo'lish.
B. Chet el bosqinchiliqiga qarshi kurash.

C. Mamlakat obodonchiligi uchun qayg'urish.
D. Erk, ozodlik uchun kurash.

32. «**Odam deb o'lgan odam – doim tirik**». «**O'zini deb yashagan – o'lik**». Mazkur gaplar qaysi badiiy asardan olingen va qaysi badiiy obrazlar tilidan aytilgan?

- A. S. Ahmad. «*Usq*» – Tursunboy. Ikromjon.
B. A.Muxtor. «*Chinor*» - Bektemir. Azimjon.
C. N. Dumbadze. «*Hellados*» – Xrista Aleksandrid. Yanguli.
D. A. Muxtor. «*Chinor*» – Ochil buva. Akbarali.

33. Said Ahmadning «*Usq*» roman – trilogiyasi qaysi asarlardan tarkib topgan?

- A. «*Usq*», «*Qirq besh kun*». «*Hijron kunlarida*».
B. «*Qirq besh kun*». «*Hijron kunlarida*». «*Ota*».
C. «*Hijron kunlarida*». «*Qochoq*». «*Qirq besh kun*».
D. «*Qirq besh kun*». «*Hijron kunlarida*». «*Ufq bo'sag'asida*».

34. «*Usq*» romanida urushdan qochgan yigit kim?

- A. Ikromjon. B. Nizomjon.
C. Tursunboy. D. Azizzon.

35. Said Ahmadning «*Qoplon*» hikoyasida qanday g'oya ifoda qilingan?
A. Zotdor itning egasiga sadoqati ifoda qilingan.

- B. Mansaatparast, xushomadgo'y kimsalarning har xil qiyosaga kirishi ko'rsatilgan.

C. Itga mehr qo'ygan kishi holatlari ko'rsatilgan.
D. Egasidan ranjigan itning holatlari ifoda qilingan.

36. Said Ahmadning «*Usq*» romaniga oid xulosalarni belgilang.

1. Ota askarlikdan qochgan o'g'lini otadi va: «Xayriyat, o'q tegmadi». – deydi.
2. Odamlar qo'lidagi bir burda nonning yumshoq joyini jangchilarga ilinadi.
3. Urush kasofati onaning o'limiga sabab bo'ladi.
4. Jannat xola qochoq o'g'lidan voz kechadi.
5. Nayman cho'llarida dushmanga qarshi yana bir mehnat fronti ochiladi.
A. 1, 2, 3.
B. 1, 2, 4, 5.
C. Hamma javoblar to'g'ri.
D. 1, 2, 3, 5.

4-VARIANT

1. Qaysi qatorda «*O'zbekiston Qahramoni*» unvoni sohiblari berilgan?

- A. O.Sharafiddinov. S.Ahmad. I.Yusupov.
B. A.Muxtor, M.Yusuf, M.Shayxzoda.
C. G.G'ulom, U.Nosir, A.Fitrat.
D. Sh.Xolmirzayev, R.Parfi, O.Matjon.

2. O.Sharafiddinovning tarjima asarlarini belgilang.

- A. P.Koelonning «*Alkimiyogar*». A.Savelaneng «*To'xtating samolyotni tushib qolaman*» asarlari.

- B. E.Seton-Tompsonning «Yovvoyi yo'rg'a» asari.
- C. Pushkining «Yevgeniy Onegin», «Kapitan qizi» asarlari.
- D. Shekspirning «Otello», «Qirol Lin» asarlari.
- 3. Lev Tolstoyning «Iqrornoma» asarini o'zbek tiliga kim tarjima qilgan?**
- A. O.Sharafiddinov.
 B. I.G'osurov.
 C. N.Komilov.
 D. A.Qahhor.
- 4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan yurtimiz tarixida birinchi marta «Jahon adabiyoti» jurnali tashkil etган adabiyotshunos olim kim?**
- A. U.Normatov.
 B. N.Xudoyberganov.
 C. B.Qosimov.
 D. O.Sharafiddinov.
- 5. «... Vatan muhabbati ... shunday pokiza, oliyanob, beminnat bo'lmo-g'i, har qanday maqtanchoqlikdan, sun'iylikdan, pisandan xoli bo'lmo-g'i kerak...» degan vatanparvar inson kim?**
- A. E.Vohidov. B. S.Ahmad.
 C. O.Sharafuddinov. D. M.Yusuf.
- 6. To'ra Sulaymonning «Iltijo» she'ridagi bahor nimaning ramziy timsoli bo'lib gavdalanadi?**
- A. Vatan, barcha tiriklikka jon ato etguvchi muqaddas yurt timsoli.
 B. Yasharish va yangilanish timsoli.
 C. Sadoqatsiz do'st va bevafo yor timsoli.
- D. Barcha go'zalliklarning umum-lashma timsoli.
- 7. Qaysi shoir ko'nglida yotgan armonni cho'kib qolgan nortuyaga, quyosh tushmaydigan yerdagi erimay qolgan qorga qiyoslab ta'rillagan?**
- A. Shavkat Rahmon.
 B. To'ra Sulaymon.
 C. Mirtemir.
 D. Abay.
- 8. To'ra Sulaymonning qaysi she'rida har bir fasl nomi ramziy ma'noni ifodalab kelgan?**
- A. «Iltijo».
 B. «Tavallo».
 C. «Armon».
 D. «Gul bir yon, chaman bir yon».
- 9. Muhammad Yusufning qaysi she'ridagi lirik qahramon «Uyg'on-sam – ko'rparm kul, Yig'lar sevgilim ... Ayiq bosgan gulday Ezildi ko'nglim», deya yozg'iradi?**
- A. «Surat».
 B. «Yig'lar yuragini».
 C. «Ko'nglimda bir yor».
 D. «Mehr qolur».
- 10. To'ra Sulaymonning birinchi she'riy to'plamini aniqlang.**
- A. «Istar ko'ngil».
 B. «Alhazar».
 C. «To'yboshi».
 D. «Gulshan».
- 11. Qaysi qatorda Muhammad Yusuf she'riy to'plamlari ko'rsatilmagan?**
- A. «O'zbegim». "Birinchi muhabbatim"

- B. «Iltijo», «Uyqudag'i qiz».
C. «Ishq kemasi», «Erka kiyik».
D. «Yolg'onchi yor», «Bevafo ko'p ekan».

12. To'ra Sulaymonning qaysi she'rida farzandi uchun chin dildan iztirob chekuvchi faqat ona ekanligi tasvirlanadi?

- A. «Armon».
B. «Iltijo».
C. «Tavallo».
D. «Gulshan».

13. To'ra Sulaymonning «Iltijo» she'ridagi ramziy timsollarning to'g'ri talqin qilingan qatorini aniqlang.

1) sahro; 2) tog'-u tosh; 3) Bahor; 4) shudring.

- a) bahor fasli; b) ezgulik ramzi; d) vatan; e) qilmishi qing'ir zotlar; f) vatangado kimsalar; g) ko'z yoshlar.
A. 1-f, 1-a, 2-e, 3-d, 4-g, 4-b.
B. 1-g, 2-d, 3-a, 4-e, 4-f, 4-b.
C. 1-b, 1-d, 1-g, 2-f, 3-a, 4-e.
D. 1-f, 2-e, 3-a, 3-b, 3-d, 4-g.

14. To'ra Sulaymonning quyidagi misralari qaysi she'ridan olingan?

«Bir mard bijan noplarning taqdirin tutash ko'rsam...»

Bir betayin kimsaning oyog'ida bosh ko'rsam...»

- A. «Armon». B. «Iltijo».
C. «Tavallo».
D. «Gulshan».

15. «Qurboning bo'layin, ey onajonim,

Sening faryodlaring – mening fig'onim...» misralari kimning qalamiga mansub?

- A. To'ra Sulaymon.
B. Muhammad Yusuf.
C. Usmon Nosir.
D. G'afur G'ulom.

16. Qaysi shoirning ijodi o'zbek qo'shiqchiligi rivojida muhim o'rinni tutadi?

- A. T. Sulaymon.
B. M. Yusuf.
C. I. Mirzo.
D. A. Oripov.

17. M. Yusufning birinchi she'riy to'plami qachon nashr qilingan?

- A. 1985-yil.
B. 1974-yil.
C. 1979-yil.
D. 1980-yil.

18. M. Yusuf dostonlari berilgan qatorni aniqlang.

- A. «Osmonning oxiri». «Qora quyosh».
B. «Erka kiyik», «Yolg'onchi yor».
C. «Uyqudag'i qiz», «Ishq kemasi».
D. «Iltijo», «Mehr qolur».

19. «O'g'lim desang osmonlarga G'irot bo'lib uchgayman.

Chambil yurtda Alpomishga Navkar bo'lib tushgayman» misralari M. Yusufning qaysi she'ridan olingan?

- A. «Dunyo».
B. «O'zbekmomo».
C. Vatanim.
D. «Xalq bo'l elim».

20. M. Yusuf «Qorachug'da porlagan o'sha, Iqboliga chorlagan o'sha...» misralari orqali nimani nazarda tutadi?

- A. Oshiq sevgisini.
 B. Visolni.
 C. Ma'shuqa muhabbatini.
 D. Mehrni.
- 21.** M.Yusufning quyidagi misralariga o'xhash satrlar yana qaysi shoir ijodida uchraydi?
 O'zing ayt senday qiz yana qayda bor Kipriklari uzun kokillaridan?..
 A. Cho'lpon. B. U.Nosir.
 C. Fitrat. D. U.Azim.
- 22.** «Yonib ketsin chirsillab qalbim,
 Scvish kerak ... yashash shart emas!»
 misralari kimning qalamiga mansub?
 A. Rauf Parsi. B. E.Vohidov.
 C. M.Yusuf. D. A.Oripov.
- 23.** «Eron bilan Turon bir edi doim,
 Nizo bilmay yashar erdi ko'p qoyim.
 ...Faridundek oqil bo'lsak, bo'lmاسمی،
 Jahonni beurush bo'lsak, bo'lmاسمی؟!
 Avf etib yuz bursak ezbilik tomon,
 Urush unutilsa, yo'qolsa yomon».
 Ushbu misralar qaysi asardan olingan?
 A. «Shohnoma». B. «Zarbulmasal».
 C. «Yusuf va Zulayho». D. «Ming bir kecha».
- 24.** «Shohnoma»ning 1000 baytini kim yozgan?
 A. Daqiqiy. B. Ahmad Balxiy.
 C. Gadoiy. D. Ma'sud Marvaziy.
- 25.** «Shohnoma» necha ming baytni o'z ichiga oladi?
 A. 50 000 bayt.
- B. 60 000 bayt.
 C. 45000 bayt.
 D. 30 000 bayt.
- 26.** «Shohnoma»da Eronda hukm surgan nechta sulola va qancha hukmdor haqida ma'lumot berilgan?
 A. 2 ta sulola 60 ta hukmdor.
 B. 6 ta sulola, 45 ta hukmdor.
 C. 4 ta sulola, 50 ta hukmdor.
 D. 3 ta sulola, 40 ta hukmdor.
- 27.** «Eshikka ko'p qarayberma san,
 Gulbog'ingga, baribir, yo'l bor...
 Oqshom menga niqob ostidan
 Ohu ko'zin suzdi gulruxson» misralari kimning qalamiga mansub?
 A. Pushkin. B. S.Yesenin.
 C. M.Yusuf. D. E.Vohidov.
- 28.** Firdavsiyning «Shohnoma» dostonida pahlavon Rustam kimning makr-hiylasidan o'ldi?
 A. Kova. B. Rudoba.
 C. Shog'od D. Zahhok.
- 29.** Firdavsiy «Shohnoma» dostonini necha yilda yaratadi?
 A. 30 yil mobaynida.
 B. 28 yil mobayhida.
 C. 25 yilda.
 D. 35 yilda.
- 30.** «Gitanjali» she'rlar to'plami uchun Nobel mukofoti berilgan, qo'shig'i respublika madhiyasi bo'lgan. «mamlakat vijdoni» deb atalgan ulug' adibining nomi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
 A. Yesenin. B. Ch.Aytmatov.
 C. A.Nesin. D. R.Thokur.

31. Rabindranat Thokurning «Nur va soyalar» hikoyasi qahramoni – Shoshibushonning dushmani kim edi?

- A. Giribala.
- B. Hukmron jamiyat.
- C. Xorkumar.
- D. Sohib.

32. Rabindranat Thokurning «Nur va soyalar» hikoyasidagi haqiqatparast, isyonkor yigit obrazini ko'rsating.

- A. Xorkumar. B. Kumar.
- C. Najib. D. Shoshibushon.

33. Sharqni eslatib turuvchi «choy-xona», «choy», «shohi ro'mol», «ohu ko'z», «lolagun» kabi so'zlar S. Yesenining qaysi she'rida uchraydi?

- A. «Dog'lar ketmish majruh ko'n-gildan».
- B. «Xurosonda bir darboza bor».
- C. «Bu dunyoda men bir yo'lovchi...».
- D. «Ona ibodati».

34. S. Yesenining «Bu dunyoda men bir yo'lovchi» she'rini kimga atalgan?

- A. Onasiga. B. Otasiga.
- C. Opasiga. D. Singlisiga.

35. Sergey Yesenin she'rularini va Gyotening «Faust» asarini o'zbekchaga kim o'girgan?

- A. Cho'lpon. B. U.Nosir.
- C. G.G'ulom. D. E.Vohidov.

36. S. Yesenin «Ona ibodati» she'rida ona va o'g'il timsoli orqali qanday mavzuni yoritgan?

- A. Iltijo. B. Hijron.
- C. Oila. D. Vatan.

9- SINF. ADABIYOT

I-VARIANT

1. «Alpomish» dostonida Hakimbek mehmonning izzat-hurmatini joyiga qo'yish, marhumlar haqqiga duo qilish va zakot berish saxiylik ekanligini kimga aytadi?

- A. Boybo'ribiyya. B. Boysaribiyya.
- C. Barchinga. D. Qorajonga.

2. «Alpomish» dostonida Boysaribiyning Boysun-qo'ng'irot elida qancha yilqisi bor edi.

- A. 90 to'qay. B. 100 to'qay.
- C. 10 000 ta. D. 50 000 ta.

3. «Alpomish» dostonida Boysaribiy 10 ming uqli Boysun-Qo'ng'irot eli bilan ko'chayotganda Barchin nechta tuyaga sepini ortdi?

- A. 40 ta. B. 50 ta.
- C. 60 ta. D. 70 ta.

4. «Alpomish» dostonidagi Surxayl kampir o'g'illarining ismini belgilang.

- 1) Ko'kaldosh; 2) Ko'kaman;
- 3) Ko'kqashqa; 4) Boyqashqa;
- 5) Jonqashqa; 6) Toyqashqa;
- 7) Qo'shquloq; 8) Qorajon.
- A. 1, 2, 3, 4, 5, 6, 8.
- B. 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7.
- C. 1, 2, 3, 4, 6, 7, 8.
- D. 1, 2, 4, 5, 6, 7, 8.

5. «Ko'kaldosh alp (ukalariga) turib aytdi: O'rtada javlik xotinli bo'lib qolaylik». «Alpomish» dostonidan olingan yuqoridagi parchada berilgan «javlik» so'zining ma'nosini qaysi qatorda ko'rsatilgan?

- A. Alohida. B. Tezda.
C. Shoshilinch. D. Yoppasiga.

6. «Alpomish» dostonida qalmoqlar Barchinga sõvchi bo'lib kelishganida Yortiboy oqsoqol Boysaribiya qanday maslahat berdi?
- A. Barchinni qalmoqlarga berishni.
B. Sovchilarga shart qo'yishni.
C. Barchinni saqat Alpomishga berishni.
D. Qalmoqlarga Barchinni bermaslikni.

7. Payg'ambarlar hayotidan hikoya qiluvchi Nosiriddin To'qbug'anining iltimosiga ko'ra hijriy 709-(milodiy 1309–1310) yilda yozilgan asarni belgilang.

- A. «Al jome as-sahih».
B. «Qissasi Rabg'uziy».
C. «Nasoyim ul-muhabbat».
D. «Arbain».

8. «Qissasi Rabg'uziy» asarida Iblis nima uchun Ollohga osiy bo'lib, uning huzuridan ja'natlanib quvildi?

- A. Kibrga berilgani uchun.
B. Hasadgo'yligi uchun.
C. Yolg'onchiligi uchun.
D. Ayyorligi uchun.

9. «Qissasi Rabg'uziy» asarining muallifi ta'rif va tavsif o'rinxarida qanday she'riy san'atdan soydalanadi?

- A. Mubolag'a. B. Tashbeh.
C. Talmeh. D. Saj.

10. «Matla' ul-anvor», «Shirin va Xusrav», «Majnun va Layli», «Hasht

- behisht», «Oyinayi Iskandariy» dostonlarini yaratgan ijodkor kim?
A. Nizomiy. B. Jomiy.
C. Xusrav Dehlaviy. D. Navoiy.

11. «Qissasi Rabg'uziy» asarida quyidagi so'zlarni kim aytgan? «Ey Azroil, bu kundin qiyomatga tegi maning ummatlarimga jon bermak qattiqligi bor ersa ul qattiqliklarni manga yuklagil. Ul qattiqliklar manga bo'lsin. ummatlarimga bo'lmasun».

- A. Ibrohim alayhissalom.
B. Muhammad alayhissalom.
C. Iso payg'ambar.
D. Nuh payg'ambar.

12. Kun hamalg'a kirdi ersa, keldi olam navro'zi,
Kechdi bahman zamharir qish,
qolmadи qori, buzi misralari bilan
bosHLanuvchi g'azal kimning qalamiga mansub?

- A. Rabg'uziy. B. Navoiy.
C. Ogahiy. D. Furqat.

13. Asli shahrisabzlik turkiy urug'lardan bo'lgan Xusrav Dehlaviy Nizomiydan keyin necha yildan so'ng «Xamsa» asarini yaratdi?

- A. 100 yildan so'ng.
B. 150 yildan so'ng.
C. 200 yildan so'ng.
D. 250 yildan so'ng.

14. A. Navoiyning «Xamsa» asaridagi dostonlarning ketma-ketligini to'g'ri belgilang.

- 1) «Farhod va Shirin»; 2) «Layli va Majnun»; 3) «Sab'ai sayyor»;

- 4) «Hayrat ul-abror»; 5) «Saddi Iskandariy».
 A. 1, 2, 3, 4, 5. B. 4, 1, 2, 3, 5.
 C. 4, 5, 1, 2, 3. D. 3, 1, 2, 4, 5.
15. Olamdagi barcha narsa «Yaral!» so'zidan paydo bo'lgandir degan tushuncha «Xamsa»ning qaysi dostonida berilgan?
 A. «Hayrat ul-abror».
 B. «Farhod va Shirin».
 C. «Layli va Majnun».
 D. «Sab'ai sayyor».
16. «Hayrat ul-abror» dostonining 10-maqolotida qaysi mavzu haqida sifr yuritilgan?
 A. Iymon haqida.
 B. Rostgo'ylik va to'g'rilik haqida.
 C. Qanoat haqida.
 D. Xayr-u ehson haqida.
17. «Farhod va Shirin» dostoni qahramonlari haqidagi bir-biriga mos javoblarni belgilang
 1) Moniy; 2) Boniy; 3) Quran.
 a) me'mor; b) naqqosh; c) tosh yo'nuvchi.
 A. 1-b, 2-a, 3-c. B. 1-a, 2-b, 3-c.
 C. 1-c, 2-b, 3-a. D. 1-c, 2-a, 3-b.
18. «Farhod va Shirin» dostonida Xusrav Farhoddan: «Qachondan boshlab bu ishqqa mubtalo bo'lding?». - deb so'raganida Farhod qanday javob beradi?
 A. Tug'ilmasimdan oldin bu ishqqa mubtalo bo'ldim.
 B. Esinmi taniganimdan boshlab muhabbatga mubtalo bo'ldim.
 C. Oynada Shirinni ko'rganimdan so'ng bu ishqqa girifstор bo'ldim.
- D. 14 yoshimdan boshlab ishqqa asir bo'ldim.
19. «Farhod va Shirin» dostonida Yunonistondan qaytgan Farhod sandiqdagi oynaga qaragach, unda qanday tasvirlarni ko'rdi?
 1) qandaydir bir yurtni; 2) tog' kesish bilan mashg'ul odamlarni; 3) Farhod o'zining ariq qaziyotganini; 4) Shirinni ko'radi.
 A. 1, 2, 3, 4. B. 1, 2.
 C. 1, 2, 4. D. 2, 4.
20. «Farhod va Shirin» dostonida Farhod tilidan aytilgan:
 Hunarni asrabon netgumdir oxir Olib tufroqqamu ketgumdir oxir misralari orqali qaysi hunar haqida gap bormoqda?
 A. Me'morlik.
 B. Naqqoshlik.
 C. Tosh yo'nuvchilik.
 D. Qilichbozlik.
21. «Farhod va Shirin» dostonidagi quyidagi misralar qaysi qahramonga taalluqli?
 Menga ne yor-u ne oshiq havasdir.
 Agar men odam o'ssam, ushbu basdir
 A. Farhod. B. Shirin.
 C. Mulkoro. D. Mehinbonu.
22. Tasavvuf adabiyotida Nafshi yengish quroli nima?
 A. Ishq. B. Iroda.
 C. Sabr-toqat. D. Iymon.
23. «Farhod va Shirin» dostonidagi ajdarho. Axraman dev, temir odam qanday timsollar hisoblanadi?

- A. Xayoliy timsollar.
 B. Afsnaviy timsollar.
 C. Ramziy timsollar.
 D. Realistik timsollar.
- 24.** «Xamsa» dostonlaridan qaysi birida Navoiy ruhiyat tasviriga alohida e'tibor qaratadi?
- A. «Farhod va Shirin».
 B. «Layli va Majnun».
 C. «Sab'ai sayyor».
 D. «Saddi Iskandariy».
- 25.** «Boqay desa, dog'i quvvati yo'q, Boqmay desa, dog'i toqati yo'q, - misralari qaysi asardan olingan?
- A. «Hayrat ul-abror».
 B. «Farhod va Shirin».
 C. «Layli va Majnun».
 D. «Sab'ai sayyor».
- 26.** Qaysi qahramon o'z muhabbat uchun kanizlari oldida yer o'padi?
- A. Shirin.
 B. Layli.
 C. Dilorom.
 D. Mehr.
- 27.** As'hobg'a mayli lolav-u bog'. Ul ikki ichinda loladek dog' misralaridagi «Ul ikki» deganda kimlar nazarda tutilgan?
- A. Farhod va Shirin.
 B. Bahrom va Dilorom.
 C. Layli va Majnun.
 D. Mehr va Suhayl.
- 28.** «Layli va Majnun» dostonida Laylining otasi nima uchun qizini Qaysga bermaydi?
- A. Qays bilan Layli nasl-nasabda teng emas edi.
- B. Yigit malomatga qolgani uchun.
 C. Qays kambag'al edi.
 D. Layli Ibn Salomga nazr qilingan edi.
- 29.** Qays bilan Layli bir-birlariga qanday rishta orqali bog'langanlar?
- A. Sof sevgi rishtalari orqali.
 B. Majoziy ishq orqali.
 C. Dunyoviy ishq orqali.
 D. Ilohiy ishq orqali.
- 30.** «Sab'ai sayyor» asari qanday doston?
- A. Axloqiy-falsafiy doston.
 B. Ishqiy-sarguzasht doston.
 C. Romantik doston.
 D. Jangnomha doston.
- 31.** Oshiqlik va shohlik bir tanga sig'masligini Navoiy qaysi qahramon orqali ko'rsatgan?
- A. Farhod. B. Xusrav.
 C. Bahrom. D. Iskandar.
- 32.** "Sab'ai sayyor" dostonida Bahromning taqdiri qanday yakunlanadi?
- A. Dilorom bilan baxtli hayot kechiradi.
 B. Bahrom va Dilorom o'z jonlariga qasd qilishadi.
 C. Bahrom va Dilorom qayta topisha olmay ayriliqda hayot kechirishadi.
 D. Qurigan botqoqning ko'zi qayta ochilib. Bahrom va saroy ahlini yer yutadi.
- 33.** «Sab'ai sayyor» asaridagi moviy qasrsa aytilgan beshinchi qissa qahramonlari qaysi javobda berilgan?

- A. Shoh Jo'na va saxiy Mas'ud haqida.
 B. Farrux va saxiy Axiy haqida.
 C. Mehr va Suhayl haqida.
 D. Sa'd jasorati haqida.
- 34.** A. Navoiyning «Xamsa» asarida-
 gi hajm jihatdan eng katta doston
 qaysi?
 A. «Farhod va Shirin».
 B. «Layli va Majnun».
 C. «Sab'ai sayyor».
 D. «Saddi Iskandariy».
- 35.** «Saddi Iskandariy» dostonida
 Iskandar devori ramziy ma'noda
 nimani anglatadi?
 A. Dushmanlarga qo'yilgan to'siq.
 B. Mamlakatni chegaralovchi devor.
 C. Vatanni tashqi dushmanlardan
 himoyalovchi vosita.
 D. Ezgulik va yovuzlik o'rtaсидаги
 devor.
- 36.** «Saddi Iskandariy» dostonida
 Iskandar qanday inson sifatida
 tasvirlanadi?
 1) oqil siyosatchi; 2) odil shoh;
 3) tanti inson; 4) johil hukmdor;
 5) zolim podshoh.
 A. 1, 2, 3. B. 4, 5.
 C. 1, 5. D. 2, 3.
- 2-VARIANT**
- 1.** Yangi yozuv kashf etgan, musiqa
 bilan shug'ullanib. «Chorgoh»
 maqomiga «savt»lar bitgan ijodkor
 kim?
 A. Navoiy. B. Bobur.
 C. Ogahiy. D. Mashrab.
- 2.** Insoniyat tarixidagi ikki buyuk
 sulola tutashgan nuqtada dunyoga
 kelgan jahonning eng mashhur
 shaxslaridan biri qaysi javobda
 berilgan?
 A. Alisher Navoiy.
 B. Amir Temur.
 C. Iskandar Zulqarnayn.
 D. Bobur.
- 3.** Zahiriddin Muhammad Bobur
 qaysi yillari Samarqand shahrini
 egallaydi?
 A. 1494, 1497, 1498-yillar.
 B. 1495, 1498, 1499-yillar.
 C. 1496, 1499, 1500-yillar.
 D. 1497, 1500, 1501-yillar.
- 4.** Zahiriddin Muhammad Bobur
 qachon Hindistonni zabit etadi?
 A. 1507-yili. B. 1526-yili.
 C. 1503-yili. D. 1501-yili.
- 5.** Zahiriddin Muhammad Bobur
 qalamiga mansub asarlarni belgilang.
 1) «Mubayyin al-zakot»; 2) «Mux-
 tasar»; 3) «Mubayyin»; 4) «Harb
 ishi»; 5) «Musiqा ilmi».
 A. 1, 2, 3, 4, 5. B. 1, 2, 4, 5.
 C. 2, 3, 4, 5. D. 1, 2, 3, 4.
- 6.** Zahiriddin Muhammad Bobur
 she'rlarining soni qaysi qatorda
 ko'rsatilgan?
 A. 200 dan ortiq.
 B. 300 dan ortiq.
 C. 400 dan ortiq.
 D. 500 dan ortiq.
- 7.** Zahiriddin Muhammad Bobur
 qancha g'azal, nechta ruboiy yozgan?

- A. 119 ta g'azal, 231 ta ruboiy.
B. 120 ta g'azal, 230 ta ruboiy.
C. 115 ta g'azal, 235 ta ruboiy.
D. 118 ta g'azal, 200 ta ruboiy.

8. Bobur devonidan o'rın olgan janrlarni belgilang.

- 1) g'azal; 2) tuyuq; 3) fard;
4) masnaviy; 5) qit'a; 6) muammo;
7) tarje'band; 8) tarkibband.
A. 1, 2, 3, 4, 5, 7, 8.
B. 1, 3, 4, 5, 7, 8.
C. 1, 2, 3, 4, 5, 6.
D. 1, 2, 4, 5, 6, 7.

9. Zahiriddin Muhammad Bobur g'azallarining aksari qanday xususiyatiga ega?

- A. Vatan haqida.
B. Muhabbat haqida.
C. Hasbi hol xususiyatiga ega.
D. Yo'l xotiralari haqida.

10. «Agarchi sensizin sabr aylamak ey yor mushkuldur.

Sening birla chiqishmoqlik dag'i bis-yor mushkuldur» misralari kimning qalamiga mansub?

- A. Nizomiy. B. Jomiy.
C. Bobur. D. Navoiy.

11. «Sendek menga bir yori jafokor topilmas.

Mendek senga bir zori vasodor topilmas».

Zahiriddin Muhammad Boburning ushbu misralarida qanday she'riy san'at qo'llangan?

- A. Tarse. B. Tashxis.
C. Talmeh. D. Tadrij.

12. Zahiriddin Muhammad Bobur «Raftori-yu qaddig'a ravanim sadqa» deb boshlanuvchi ruboysida oshiq va yor go'zalligining qaysi jihatlariga o'zidagi nimalarni sadqa-yu sarf qilmoqchi bo'ladi? Bir-biriga mos javoblarni belgilang.

- 1) yurishiga, qaddi-qomatiga;
2) bir boqishiga; 3) og'ziga, beliga;
4) ko'ziga, labiga.
a) jism-u joni sadqa; b) bor-u yo'g'i sadqa; c) ikki jahoni sadqa; d) ravoni (tirikligi) sadqa.
A. 1-a, 2-b, 3-c, 4-d.
B. 1-c, 2-a, 3-d, 4-b.
C. 1-b, 2-d, 3-a, 4-c.
D. 1-d, 2-c, 3-b, 4-a.

13. «Boburnoma»dagi qaysi shaharda to'qqiz ariqning suvi kirishi va birortasining ham chiqib ketmasligi haqidagi tasvir bor?

- A. Samarqand. B. Andijon.
C. Hirot. D. Kobul.

14. «Qovun mahalida poliz boshida qovun sotmoq rasm emas». «Boburnoma»dagi qaysi viloyatda shunday odat bor?

- A. Koshg'ar. B. Xo'jand.
C. Kesh. D. Andijon.

15. Zahiriddin Muhammad Bobur «Boburnoma»dagi qaysi shaharning tabiatini va xalqini tasvirlaganda quyidagi sikrlarni aytgan?

«Ov qushi dog'i ko'p bo'lur, qirg'ovuli behad semiz bo'lur, bir qirg'ovulning uskunasini to'rt kishi yeb tugata olmaydur... Elining lafzi qalam bila rosttur».

- | | | |
|-------------|------------|-----------------|
| A. Andijon. | B. Termiz. | A. Voqeiy asar. |
| C. Balx. | D. Buxoro. | B. Memuar asar. |
- 16. «Boburnomada»da tasvirlangan, Iskandar bino qildirgan, mo'g'ul va turk ulusi Semizkand deb atagan shahar nomi qaysi qatorda berilgan?**
- A. Xuroson. B. Hindiston.
 C. Samarqand. D. Badaxshon.
- 17. «Boburnoma» asarida Samarqand shahrining qaysi mevalari mashhurligi aytilgan?**
- A. Anor va anjir.
 B. Olma va uzum.
 C. O'rik va shastoli.
 D. Olcha va gilos.
- 18. «...qal'asining ichida yana bir qadimiy imorattur, masjidi Laqlaqa derlar. Ul gunbazning o'rtaсиda yerga tepsalar, tamom gunbazdin laq-laq un kelur.... hech kim muning sirini bilmas». «Boburnoma»da keltirilgan yuqoridaи parchada nuqtalar o'rniga qaysi shahar nomi qo'yilishi kerak?**
- A. Samarqand. B. Andijon.
 C. Buxoro. D. Xorazm.
- 19. «Boburnoma»dagi «Olamda yaxshi qog'oz chiqadigan, tartibli bozorlari bilan mashhur», deb ta'riflangan shahar qaysi?**
- A. Kesh. B. Buxoro.
 C. Samarqand. D. Xorazm.
- 20. Fransuzcha «esdalik» ma'nosini anglatuvchi muallifning o'zi qatnashgan yoki ko'zi bilan ko'rgan real voqealar haqida hikoya qilingan asar qanday nomlanadi?**
- A. Voqeiy asar.
- B. Memuar asar.
- C. Realistik asar.
- D. Tarixiy asar.
- 21. Mulla Bozor Oxund, Osoq Xo'ja kabi ustozlardan ilm o'rgangan. Ollohga oshiq bo'lgan shoir nomini belgilang.**
- A. Bobur. B. Mashrab.
 C. Navoiy. D. Ogahiy.
- 22. 1990-yilda «Mehribonim qaydasan» nomi bilan nashr etilgan to'plam muallifi qaysi qatorda berilgan?**
- A. Ogahiy. B. Bobur.
 C. Navoiy. D. Mashrab.
- 23. «Mabdai nur», «Kimyo» asarlarining muallifi kim?**
- A. Mashrab. B. Furqat.
 C. Rabg'uziy. D. Bobur.
- 24. Ollohga muhabbatini ochiq izhor etadigan shoir nomi qaysi qatorda berilgan?**
- A. Ahmad Yassaviy. B. Bobur.
 C. Boborahim Mashrab. D. Navoiy.
- 25. Boborahim Mashrabning «Muhabbat jomidin may tuttilar, ichmasdan choram yo'q» misrasidagi muhabbat jomiga quyilgan may nima-ning ramzi?**
- A. Ishq. B. Ma'shuqa.
 C. Dunyo. D. Ko'ngil.
- 26. «Qissasi Mashrab» asarida Osoq Xo'ja Boborahim Mashrab bilan ilk bor uchrashganda kimning g'azalidan aytib berishni so'ragan?**

- A. So'fi Olloyor.
B. Navoiy.
C. Hofsiz Sheroziy.
D. Ahmad Yassaviy.

27. Boborahimga Mashrab ismini kim qo'ygan?
A. Otasi.
B. Onasi.
C. Ofoq Xo'ja.
D. Mulla Bozor Oxund.

28. Furqat qalamiga mansub quydagi misralarda qanday she'riy san'at qo'llangan?

Ul parivash ishqidin goh telbadurman, goh sog'.
Chunki bordur oramizda gohi sulh-u gohi jang.
A. Husni ta'lil. B. Talmeh.
C. Intoq. D. Ruju.

29. Tasavvuf adabiyotida yorning kalomi qanday ramziy timsol orqali ifodulanadi?

A. Lab. B. Bo'sa.
C. May. D. Jom.

30. «O'tkan kunlar» romanida nikoh kechasi Kumushbibi turmushga chiqishga qanday sababga ko'ra darhol rozilik bermadi?

A. Manmanligi sababli.
B. Uyatchanligi bois.
C. Nikohga norozi edi.
D. Taomilga ko'ra.

31. Tasavvuf adabiyotida so'fiylar nazdida nafsoniy xuruj, shaytoniy istaklar jamlangan voqelik qanday ataladi?

- A. Dunyo. B. Mayxona.
C. Ko'ngil. D. Butxona.

32. Tarjimon, tarixnavis, davlat va jamoat arbobi, Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog'ida Erniyozbek mirob oilasida tavallud topgan shoir ismi qaysi javobda berilgan?

A. Furqat. B. Mashrab.
C. Bobur. D. Ogahiy.

33. Qaysi qatorda Ogahiyning tarixiy asarlari berilgan?

- 1) «Riyoz ud-davla»; 2) «Zubdat ul-tavorix»; 3) «Jome ul-voqeoti sultoniy»; 4) «Jome ut-tavorix»;
5) «Tarixi jahongashta»; 6) «Gulshani davlat»; 7) «Shohidi iqbol».
A. 1, 2, 3, 4, 5, 6. B. 3, 4, 5, 6.
C. 1, 2, 4, 7. D. 1, 2, 3, 6, 7.

34. Qaysi qatorda Ogahiy devoni ko'rsatilgan?

- A. «Hafti paykar». B. «Firdavs ul-iqbol».
C. «Taviz ul-oshiqin». D. «Qasidai nasihat».

35. Ogahiyining qaysi g'azalida musoviyattarasayn san'ati uchraydi?

- A. «Illoho har kuning navro'z bo'lsun».
B. «Baland aylab quyoshga poya navro'z».
C. «Mushkin qoshining hay'ati ul chashmi jallod ustina».
D. «Ul sho'xki ochildi xat-u ruxsori».

36. Furqatning «Surmadin ko'zlar qaro, qo'llar xinodin lolrang. G'ozadin yuzlarda tob-u, o'smadin

qoshlar tarang» misralarida qanday she'riy san'at qo'llangan?

- A. Tazmin. B. Kinoya.
C. Tazod. D. Irsoli masal.

3-VARIANT

1. «O'tkan kunlar» yaxlit asar sifatida qachon bosilib chiqdi?

- A. 1926-yilda. B. 1922-yilda.
C. 1925-yilda. D. 1919-yilda.

2. A.Qodiriy birinchi bor qachon qaysi maqolasi uchun qamoqqa olindi?

- A. 1927-yilda «Ravot qashqirlari».
B. 1924-yilda «Toshpo'lat tajang nima deydi?»
C. 1926-yilda «Yig'indi gaplar».
D. 1924-yilda «Kalvak Mahzumdan».

3. «O'tkan kunlar» romanı «Kutilmagan baxt» qismidagi «Kutilmagan baxt» so'zleri kimning tilidan aytilgan?

- A. Otabek. B. Kumush.
C. Hasanali. D. Ostoboyim.

4. «O'tkan kunlar» romanı qahramoni Yusufbek hojining o'ziga xos fe'lì bor edi. Suhbatdoshining gapi juda ham noma'qul bo'lsa, Yusufbek hoji qanday javob qaytarardi?

- A. «Yo'q».
B. «Xo'sh».
C. «Durust emas».
D. Bir iljayib qo'yish bilan kisoyalanadi.

5. «O'tkan kunlar» romanida Otabek ikkinchi marta nima sababdan uylandi?

- A. Ona orzusiga haq berish uchun.
B. O'z xohshiga ko'ra.
C. Kumushning oilasi bilan aloqasi buzilgani uchun.
D. Ota-onasi majburlagani uchun.

6. «O'tkan kunlar» romanida Homidning soxta taloqnomasidan keyin Otabek Kumush bilan necha yil ko'rishmay ketdi?

- A. Bir yil. B. Ikki yil.
C. Uch yil. D. Olti oy.

7. Kumushni o'g'irlamoqchi bo'lib, uning xonasi ostidan lahm kavlagan salbiy qahramonlar qaysi javobda ko'rsatilgan?

- A. Sobir. Sodiq. Nodir.
B. Sodiq. Ahmad. Homid.
C. Homid, Ne'mat. Sodiq.
D. Homid. Sodiq. Mutal.

8. O'z yozmalarini turli nashrlarda «Qalandar», «Mirzaqalandar», «Q» taxalluslari bilan chop ettirgan ijodkor kim?

- A. A.Qodiriy. B. Cho'lpon.
C. Mashrab. D. A.Qahhor.

9. «Adabiyot yashasa, millat yashar», degan fikrlarni qaysi ijodkor aytgan?

- A. Fitrat. B. A.Qodiriy.
C. Cho'lpon. D. U.Nosir.

10. Bir xil janrga mansub asarlar qatorini aniqlang.

- A. «Yorqinoy», «Hujum».
B. «Go'zal yozg'ichlar», «Halil farang».
C. «Buloqlar», «Cho'rining isyonii».
D. «Tong sirlari», «O'rtoq Qarshi-boyev».

- 11.** Quyidagi asarlardan qaysi birini Cho'pon o'zbek tiliga o'girgan?
 1) Gogolning «Tergovchisi»;
 2) I.Frankoning «Feruza»;
 3) Andreevning «Osilgan yetti kishining hikoyasi»;
 4) Shekspirning «Hamlet» asari;
 5) Pushkinning «Boris Godunov», «Dubrovskiy» asarlari;
 6) Gorkiyning «Ona» asari.
 A. 1, 3, 5, 6. B. 1, 2, 3, 4, 5, 6.
 C. 2, 4, 6. D. 1, 2, 3, 5, 6.
- 12.** Akbarali mingboshining hayotiga zomin bo'lgan xotinning ismi qaysi javobda ko'rsatilgan?
 A. Sultonxon. B. Poshshaxon.
 C. Zebinisa. D. Qurvonbibi.
- 13.** «Bu xunuk gapni haligi ikki boy bilan Abdisamat kaptarlarning qano-tiga ilib, shamolning qo'lltig'iga qistirib, yomg'irning tomchisiga joylab, bulutning qo'yniga solib uchiradi, har bir uchgan qarg'a shuni aytib qag'illaydi, shu bilan ikki kun ichida u shumli xabar yer yuzini aylanib Makkatillogacha yetib boradi». «Kecha va kunduz» asaridan olingan yuqoridagi parcha qaysi xabar haqidagi?
 A. Akbaralining o'limi haqidagi xabar.
 B. Zebining qamalishi haqidagi xabar.
 C. Akbarali mingboshining amalidan tushishi haqidagi xabar.
 D. Razzoq so'sining eshonning o'ldirishi haqidagi xabar.
- 14.** «Kecha va kunduz» romanidagi aybsiz aybdor kim?
 A. Zebi. B. Razzoq so'si.
 C. Akbarali. D. Qurvonbibi.
- 15.** Bir turga mansub bo'lmagan asarlar qatorini belgilang.
 A. «Dilbar davr qizi», «O'ch».
 B. «Quyosh qoraymas», «Ulug' yo'l».
 C. «Oltin vodiyidan shabadalar», «Navoiy».
 D. «Na'matak», «Mahmud Torobiyya».
- 16.** «Qutlug' qon» romanida Mirzakarimboy Yo'Ichining kimi bo'ladidi?
 A. Tog'asi. B. Amakisi.
 C. Yo'Ichiga begona. D. Akasi.
- 17.** «Qutlug' qon» romani qahramoni Yo'Ichining nohaq qamalishiga kim sababchi bo'ldi?
 A. Hakimboyvachcha.
 B. Salimboyvachcha.
 C. Tantiboyvachcha.
 D. Mirzakarimboy.
- 18.** «Qutlug' qon» romanida Tosh-kentda bo'lib o'tgan qaysi qo'zg'olon tasvirlanadi?
 A. 1905-yilgi qo'zg'olon.
 B. 1916-yilgi xalq qo'zg'oloni.
 C. 1917-yilgi qo'zg'olon.
 D. 1941-yilgi urush.
- 19.** Personajlarning boshqalarga o'xshamaydigan, o'ziga xos jihatlarini biror voqeа-hodisa asosida ko'rsatib beradigan katta hajmli asar deb qanday janrga aytildi?
 A. Qissa. B. Roman.
 C. Hikoya. D. Drama.
- 20.** Ilk romanlar qachondan boshlab yozilgan?

- A. 500 yil oldin.
- B. 1500 yil oldin.
- C. 2000 yil avval.
- D. 2500 yil oldin.

21. Adabiyotshunoslik ilmida romanlar mavzu yo'nalishiga qarab qanday turlarga ajratiladi?

- 1) tarixiy; 2) falsafiy; 3) realistik; 4) siyosiy; 5) romantik; 6) maishiy;
- 7) biografik; 8) fantastik; 9) detektiv:
- A. 1. 2. 3. 6. 7. 8. 9.
- B. 1. 2. 4. 5. 6. 8. 9.
- C. 1. 2. 4. 6. 7. 8. 9.
- D. 1. 2. 3. 4. 5. 6. 7.

22. Besh kitobdan iborat roman qanday nomlanadi?

- A. Dialogiya. B. Trilogiya.
- C. Pentalogiya. D. Tetralogiya.

23. Bir turga mansub bo'limgan asarlar qatorini belgilang.

- A. «Ulug'bek xazinasi». «Yurak yonmog'i kerak».
- B. «Diyonat», «Ko'hna dunyo».
- C. «Er boshiga ish tushsa», «Adolat manzili».
- D. «Muqaddas», «Izlayman».

24. «Ulug'bek xazinasi» romanidagi ijobjiy obrazlar qatorini belgilang.

- A. Mirzo Ulug'bek. Bobo Husayn. Qalandar Qarnoqiy.
- B. Mirzo Ulug'bek. Sayid Abbas. Ali Qushchi.
- C. Abdullatif. Abdul'aziz. Amir Jondor.
- D. Mirzo Ulug'bek. Ali Qushchi. Amir Jondor.

25. «Lekin xutbada ... degan bir kimsa xonga yukunib. a'lohzaratlaridan xun

dovlagan. Zero. Ulug'bek hazratlari uning padari buzrukvorini begunoh qatl qildirgan emish». «Ulug'bek xazinasi» romanidan olingan yuqoridagi parchada xun so'ragan kim?

- A. Ali Qushchi. B. Amir Jondor.
- C. Sayid Abbas. D. Bobo Husayn.

26. Mirzo Ulug'bek va uning padarkush o'g'li Abdullatif haqida asar yozgan ijodkorlar nomini belgilang.

- 1) G'afur G'ulom; 2) Odil Yoqubov;
- 3) Abdulla Qahhor; 4) Muhammad Yusuf; 5) Hamid Olimjon; 6) Maqsud Shayxzoda.

- A. 1. 3. 5. B. 2. 5. 6.
- C. 1. 3. 6. D. 2. 4. 6.

27. Dantening «Ilohiy komediya» asarini o'zbek tiliga tarjima qilgan ijodkor kim?

- A. O.Yoqubov. B. A.Qodiriy.
- C. A.Oripov. D. Oybek.

28. A. Oripovning birinchi she'rlar to'plami qaysi javobda berilgan?

- A. «Ruhim». B. «Onajon».
- C. «Qushcha». D. «Mitti yulduz».

29. Abdulla Oripovning qaysi she'rida dunyo bo'ronlariga duch kelgan tajribasiz, ko'ngli toza yigit tuyg'ulari ifoda etilgan?

- A. «Bahor». B. «Sarob».
- C. «Kuz manzaralari».
- D. «Genetika».

30. «Faqat o'tmish bilan yashamas inson.

Garchand bo'lolmaydi undan hech ozod» misralari A.Oripovning qaysi she'ridan olingan?

- A. «Kuz manzaralari».
 B. «Sarob».
 C. «Genetika».
 D. «Bahoſ».
- 31.** Abdulla Oripovning «Genetika»she'rida «Labda tabassum-u ko'zda yosh bilan Senga talpinaman...» deb kimga murojaat qilyapti? Nuqtalar o'rniغا tushirilgan so'zni belgilang.
 A. Buyuk nabiram.
 B. Aziz sevgilim.
 C. Jonim onajon.
 D. Ulug' vatandosh.
- 32.** Abdulla Oripovning Amir Temur haqidagi asarini belgilang.
 A. «Temur tuzuklari».
 B. «Sohibqiron».
 C. «Temurnoma».
 D. «Jannatga yo'l».
- 33.** A.Oripovning «Sohibqiron» dramasida Amir Temurning xusyasi Buqalamunning asli ismi nima?
 A. Itolmas.
 B. Sulton Shablii.
 C. Aloviddin.
 D. Muhammad Sulton.
- 34.** «Sohibqiron» dramasida olamni kuch bilan olgandan odamlar dilini haq so'z bilan zabit etish to'g'riroqligi haqidagi fikrni Amir Temurga kim aytgan?
 A. Bibixonim.
 B. Hoziz Sheroyi.
 C. Ahmad Yassaviy.
 D. Shayxulislom.
- 35.** «Sohibqiron» dramasida yaxshi xabar keltirgan sarboz Qosimbekni Amir Temur qanday taqdirlaydi?
 A. Bir xum oltin beradi.
 B. Lavozimini ko'taradi.
 C. Nabirasini nikohiga berishini aytadi.
 D. Oltindan yasalgan qilich taqdim etadi.
- 36.** «Tilla baliqcha» nomli falsafiy she'r qaysi shoirning qalamiga mansub?
 A. A. Oripov. B. E. Vohidov.
 C. H. Olimjon. D. M. Shayxzoda.

4-VARIANT

- 1.** Vilyam Shekspirning quyidagi asarlari qachon yozilgan? Bir-biriga mos javoblarni belgilang.
 1) «Qirol Lir»; 2) «Romeo va Juletta»; 3) «Hamlet»; 4) «Otello».
 a) 1594–1595; b) 1601; c) 1604; d) 1606.
 A. 1-a, 2-a, 3-b, 4-b.
 B. 1-s, 2-d, 3-a, 4-b.
 C. 1-b, 2-a, 3-d, 4-s.
 D. 1-d, 2-s, 3-b, 4-a.
- 2.** Qaysi qatorda bir janrga mansub bo'lmagan asarlar berilgan?
 A. «Qirol Lir», «Romeo va Juletta».
 B. «Hamlet», «Otello».
 C. «Makbet», «Yoz kechasidagi tush».
 D. «Venetsiya savdogari», «O'n ikkinchi kecha».
- 3.** «Otello» asari qatnashuvchilari haqidagi bir-biriga mos javoblarni belgilang.
 1) Brabansio; 2) Gratsiano; 3) Lodoviko; 4) Otello; 5) Kassio; 6) Yago; 7) Rodrigo; 8) Montano;

- 9) Dezdemona; 10) Emiliya.**
- a) Qibrisning oldingi hokimi;
 - b) venetsiyalik boy yigit;
 - d) Otelloning mulozimi;
 - e) Otelloning leytenant;
 - f) Brabansioning qarindoshi;
 - g) Brabansioning ukasi;
 - h) senator;
 - i) aslzoda arab. Venetsiya davlatining amaldori;
 - j) Brabansioning qizi, Otelloning xotini;
 - k) Yagoning xotini.
- A. 1-a, 2-b, 3-d, 4-i, 5-e, 6-f, 7-g, 8-h, 9-j, 10-k.
 B. 1-b, 2-a, 3-e, 4-i, 5-d, 6-g, 7-f, 8-h, 9-j, 10-k.
 C. 1-d, 2-b, 3-a, 4-i, 5-g, 6-d, 7-h, 8-e, 9-j, 10-k.
 D. 1-h, 2-g, 3-f, 4-i, 5-e, 6-d, 7-b, 8-a, 9-j, 10-k.
- 4. «Otello» asarini o'zbek tiliga kim tarjima qilgan?**
- A. G'afur G'ulom.
 B. Oybek.
 C. Odil Yoqubov.
 D. Cho'lpon.
- 5. «Otello» asaridagi salbiy qahramonlar qatorini belgilang.**
- A. Brabansio. Emiliya.
 B. Yago, Kassio.
 C. Rodrigo, Yago.
 D. Montano, Lodoviko.
- 6. «Otello» tragediyasi yakunida qaysi qahramonlar halok bo'ladi?**
- A. Dezdemona. Gratsiano. Kassio. Yago.
 B. Lodoviko. Otello. Dezdemona. Montano.
- C. Brabansio. Dezdemona. Emiliya. Rodrigo.
 D. Otello. Dezdemona. Yago. Emiliya.
- 7. «Otello» fojasida Emiliyani kim o'ldiradi?**
- A. Otello. B. Dezdemona.
 C. Rodrigo. D. Yago.
- 8. «La'natlar bu yurtga, yolg'on vatanga. Unda baxt ko'radi tubanlik, xo'rlik». She'rda achchiq hayotiy haqiqat butun shafqatsizligi bilan aks ettirilgan. Vatanda turib vatansiz yurgan odamlar haqidagi yuqoridagi misralar qaysi she'ridan olingan?**
- A. «Sileziya to'quvchiları».
 B. «Germaniya».
 C. «Qish ertagi».
 D. «Atta Troll».
- 9. «Cho'qqida qolgan ovchining ohu zori» kimning asari?**
- A. M.Shoxonov.
 B. Ch.Aytmatov.
 C. O.Yoqubov.
 D. M.Shoxonov, Ch.Aytmatov.
- 10. Umrining yarmidan ko'pini o'z vatanida emas, Fransiyada o'tkazgan. «Germaniya, to'qiymiz biz kafanningni» kabi misralar yozgan ijodkor kim?**
- A. H.Heyne. B. A.S.Pushkin.
 C. V.Shekspir. D. R.Hamzatov.
- 11. «Boshimni tutaman doimo mag'rur**
Hech qachon yengilmas o'jar idrokim. Qirolning qoshida turib hattokim. Ko'zimni men yerga olmayman bir qur».

Qironga ham bo'ysunmaydigan
H.Heyne she'r davomida kimga bosh
egishini aytadi?

- A. Otasiga. B. Onasiga.
C. Yoriga. D. Vataniga.

12. Qaysi shoir ijodida ko'proq
arvoh, ro'yo, murda, kafan, tobut,
go'r obrazlari uchraydi.

- A. H.Heyne. B. Vilyam Shekspir.
C. A.S.Pushkin. D. R.Hamzatov.

13. «Darhol dedi: «Tayyor turgil sen,
Kafanigni chaymoqdaman men»,
Darhol dedi: «Vaqt ziq, bilgin sen,
Tobutingni yasayapman men»...

Darhol dedi: «Sekinroq gapir.
Qaziyapman sen uchun qabr»...
Keting bundan, qora demonlar,
Istamayman, keting shu zahot.
Menga suyuk – yashil o'rmonlar,
Menga suyuk – nurafshon hayot».
Ushu misralar kimning qalamiga
mansub?

- A. Haynrix Heyne.
B. Aleksandr Pushkin.
C. Sergey Yesenin.
D. Gyote.

14. Rus adabiyotida birinchi she'riy
roman yozgan shoir kim?

- A. Haynrix Heyne.
B. Aleksandr Pushkin.
C. Sergey Yesenin.
D. Gyote.

15. A. S. Pushkinning «Yevgeniy
Onegin» asari qaysi she'riy roman
ta'sirida yaratilgan?

- A. «Don Juan».
B. «Romeo va Juletta».
C. «Romansero».
D. «Yoz kechalaridagi tush».

16. Umuman, qizlarga, ayniqsa, ular
ning sevgisiga ishonmaydigan, qiz
larni aldashdan zavqlanadigan Yev
geniy Tat'yananing muhabbatiga
qanday javob qaytaradi?

- A. Chin dildan Tat'yananing sevgisini
qabul qiladi.
B. Soxta muhabbat bilan qizning
ko'nglini oladi.
C. Yevgeniy Tat'yanaga uylanishni
taklif qiladi.
D. Tat'yanani aldashni istamaydi.

17. O'zbek adabiyotidagi birinchi
she'riy romanni kim yozgan? U
qanday nomlanadi?

- A. Mirmuhsin. «Ziyod va Adiba».
B. Muhammad Ali. «Boqiy dunyo».
C. H.Sharipov. «Bir savol».
D. To'g'ri javob yo'q.

18. «Asrga tatigulik kun» roman
qaframalari to'g'ri qayd etilgan
javobni toping.

- A. Qozongap. Edigey. Jamila. Jo'lomon.
Mo'min.
B. Edigey. Bo'ron. Nayman ona.
Jo'lomon. leytenant Pushkarev.
C. leytenant Tansiqboyev. Edigey.
Jonkeldin. Edilboy Daroz. Qalibek.
D. Nayman ona. Jo'lomon. Do'naboy.
O'razqul. Bekey.

19. «Asrga tatigulik kun» romanida
marhum Kazangapni Ona Bayit
qabristoniga ko'mishga kimlar olib
boradi?

- A. Edigey Bo'ron, Qalibek, O'razqul.
Jo'lomon.
B. O'g'li Sobitjon, kuyovi traktorchi
Qalibek bilan Jumagali, Edigey.
Edilboy.

- C. O'g'li Sobitjon, kuyovi, Jo'lomon, akasi Edilboy, akasi Edigey.
 D. Akasi Edilboy Daroz, qudasi Edigey Bo'ron. O'g'li Sobitjon, kuyovi Qalibek.
- 20. «Asrga tatigulik kun» romanida marhum Kazangapni Ona Bayit qabristoniga dasn qilishga harbiy qism qorovuli boshlig'i ruxsat bermagach, marhumni qayerga dasn qiladilar?**
- A. Ona Bayit qabristonining tashqarisiga.
 B. Uyga qaytarib olib ketadilar.
 C. Nayman yaylovgina.
 D. Malaqum dichop jarligi tepasiga.
- 21. Chingiz Aytmatovning «Asrga tatigulik kun» romanidagi manqurt o'g'ilning asl ismini ko'rsating.**
- A. Do'naboy. B. G'unanboy.
 C. Jo'lomon. D. Edigey.
- 22. Chingiz Aytmatovning «Asrga tatigulik kun» romanida stalincha qatog'on qurbanini bo'lgan obrazlar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?**
- A. Edigey. Dovul.
 B. Jo'lomon, Do'naboy.
 C. Abutolib, Zarifa.
 D. Abilov, Ermak.
- 23. Chingiz Aytmatovning «Asrga tatigulik kun» romanida xalq baxshisi – Raymali og'a nima tufayli qurban bo'ldi?**
- A. Stalincha qatog'on tufayli.
 B. Og'ir xastalikdan.
 C. Mahalla – urug' kishilarining jaholati tufayli.
 D. Sario'zak vohasi zaharlangani tufayli.
- 24. Chingiz Aytmatovning «Asrga tatigulik kun» romanida manqurtlik deganda nima nazarda tutilgan?**
- A. Jo'lomonning o'z onasini o'ldirib qo'ygani.
 B. Urushlarning insoniyatga fojialar keltirishi.
 C. O'tmishini unutgan: buguniga be-farq, ertasini o'ylamaydigan, yeyish-ichishdan bo'lak g'ami bo'limgan, boshliqlarga qul kishilar keltiradigan sojia.
 D. Sotqin kishilar zarari.
- 25. O'zbek kitobxonlari qaysi davr adabiyotida «Qur'oni karim»ni o'zbek tilida o'qish baxtiga tuyassar bo'lishdi?**
- A. Uyg'onish davri o'zbek adabiyotida.
 B. Xonliklar davri o'zbek adabiyotida.
 C. Sho'ro davri o'zbek adabiyotida.
 D. Mustaqillik davri o'zbek adabiyotida.
- 26. «Yerga botgan osmonlarni kuzatdim. Chopilgan oyog'im bilan chopdim men. Kesilgan qo'limni sizga uzatdim. Bu dunyo gullarga to'ldi. Qotdim men», misralari muallifi kim?**
- A. Rauf Parfi.
 B. Ulug'bek Hamdam.
 C. Aziz Said.
 D. Usmon Azim.
- 27. «Adashgan ruh», «Qora devor», «Munojot», «Sensiz» she'riy asarlari muallifi kim?**

- A. Rauf Parfi.
 B. Azim Suyun.
 C. Shavkat Rahmon.
 D. Usmon Azim.
- 28.** «Turkiylar», Iqror she'rlarining muallifi kim?
 A. Shavkat Rahmon.
 B. Faxriyor.
 C. A.Oripov.
 D. Iqbol Mirzo.
- 29.** Faxriyor qalamiga mansub she'riy asarni ko'rsating.
 A. «Tush». B. «Ayolg'u».
 C. «Yo'b». D. «Sensiz».
- 30.** Qaysi qatorda bir turga mansub asarlar berilgan?
 A. Salomat Vafo «Tilsim sultanati». Rauf Parfi «Adashgan ruh».
 B. Omon Muxtor «Ming bir qiyosa». Abduvali Qutbiddin «Izohsiz lug'at».
 C. Nazar Eshonqul «Tobut shahar». Faxriyor «Ayolg'u».
 D. Luqmon Bo'rixon «Jaziramadagi odamlar». Ulug'bek Abdulvahobov «Yolg'izlik».
- 31.** Ikki so'zdan iborat: oy bolta she'rini kim yozgan.
 A. Farida Afro'z.
 B. Faxriyor.
 C. Rauf Subhon.
 D. Tursun Ali.
- 32.** Bir turga mansub bo'lмаган асарлар қаторини аниqlang.
 A. «Olabo'ji», «Sho'rodan qolgan odamlar».
 B. «Otamdan qolgan dalalar», «Dinazavr».
- C. «Bulut to'sgan oy», «Ozodlik».
 D. «Turkiylar», «Yolg'izlik».
- 33.** Quyidagi misralar muallifi qaysi qatorda berilgan?
 ko'zdan ichkarida yo'l yo'q
 so'zdan ichkarida yo'l yo'q
 ammo xo'roz qichqirig'i ortiga
 shafaqrang qishlog'im bekinib olgan.
 A. Xosiyat Rustamova.
 B. Abduvali Qutbiddin.
 C. Bahrom Ro'zimuhammad.
 D. Ikrom Otamurod.
- 34.** Hissiyot jilvalari aks etgan she'riyat qanday nomlanadi?
 A. Romantik nazm.
 B. Meditativ nazm.
 C. Realistik nazm.
 D. Yumoristik nazm.
- 35.** Bir turga mansub bo'lмаган асарлар қаторини аниqlang.
 A. Usmon Azim «Bir qadam yo'b», Ilhom Hasan «Bir kam dunyo».
 B. Erkin Samandar «Arabmuhammad Bahodirxon», Odil Yoqubov «Bir koshona sirlari».
 C. Abdulla A'zam «Dugohi Husayniy», Rauf Parfi «Adashgan ruh».
 D. Omon Muxtor «Maydon». Tog'ay Murod «Otamdan qolgan dalalar».
- 36.** «Shamolni tutib bo'lmaydi» hikoyasining muallifi kim?
 A. Nazar Eshonqul.
 B. Tog'ay Murod.
 C. Shoyim Bo'tayev.
 D. Omon Muxtor.

МУНДАРИЖА

SO'ZBOSHI	ONA TILI
5- SINF.....	
6- SINF.....	
7- SINF.....	
8- SINF.....	
9- SINF.....	
	ADABIYOT
5-SINF.....	
6- SINF.....	
7- SINF.....	
8- SINF.....	
9- SINF.....	

Ilmiy-ushubiy nashr
NILUFAR RASULOVA
ONA TILI VA ADABIYOT FANIDAN TESTLAR

Muharrir Gavhar MIRZAYEVA
Tex. muharrir Vera DEMCHENKO
Badiiy muharrir Uyg'un SOLIHOV
Musahhih Navro'z BEKMURODOV
Kompyuterda sahifalovchi Feruza BOTIROVA

Bosishga 4.02.2011 y.da ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1\16.
Bosma tobog'i 9,75. Shartli bosma tobog'i 9,07.
Garnitura «LexTimes Cyr+Uzb». Ofset qog'oz.
Adadi 2000 nusxa. Buyurtma № 38
Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» NMMda tayyorlandi.
«Yoshlar matbuoti» bosmaxonasida bosildi.
100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

Murojaat uchun telefonlar:
Nashr bo'limi – 278-36-89; Marketing bo'limi – 128-78-43; faks —
web-сайтимиз: www.ibook.uz
e-mail: yangiasr@ibook.uz; yangiasravlodi@mail.ru
Hamkorimiz: kitobxon.uz



ОНА ТИЛИ ВА
АДАБИЁТ ФАНИДАН

ТЕСТЛАР

«ALIMAX TA'LIM MARKAZI»

Nodavlat ta'lim muassasasi

- Ijtimoiy-gumanitar yo'nalish: tarix, ona tili va adabiyot, ingliz tili
- Aniq fanlar yo'nalishi: matematika, ona tili va adabiyot, ingliz tili
- Texnika yo'nalishi: fizika, matematika, ona tili va adabiyot
- Tibbiyat yo'nalishi: kimyo, biologiya, ona tili va adabiyot
- Chet tillarini o'rGANISH: rus tili, ingliz tili

«ALIMAX TA'LIM MARKAZI»

Nodavlat ta'lim muassasasi manzifat:

Toshkent shahar, Chilonzor 26-ning 1-uy.

Mo'ljal: Shirin chorrahasi, I-turli kollej yaqinida.

Tel: (+99871) 271-37-11 Mob: (+99897) 704-14-49

(+99897) 704-47-60

E-mail: alimaxtm@mail.ru

ОНА ТИЛИ ВА

ISBN 978-9943-08-699-9

9 7 8 9 9 4 3 0 8 6 9 9 9